

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

A.Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
IQTISODIYOT FAKULTETI
“Boshqaruv hisobi va moliya” kafedrası

ass. O. E. Ernazarovning

Oliy ta'limning iqtisodiy sohasi

5340100 “Iqtisodiyot” va 5340200 “Menejment” ixtisosliklari uchun

“Investision loyihalarni moliyalashtirish” fanidan

Ma'ruzalar matni

SAMARQAND – 2010 YIL

“MA’QULLANGAN”
Iqtisodiyot fakulteti
Dekani dots. S.A.Aliqulov

“ _____ ” _____ **2010 yil**

“TAVSIYA ETILADI”

Fakultet o’quv-uslubiy kengash raisi:

dots. X. Q. Qosimov

**“Boshqaruv hisobi va moliya”
kafedrasi mudiri:**

dots. R. X. Qushatov

Mundarija

1. **1-Mavzu. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish fanining predmeti, ob'ekti va vazifalari.....4**
2. **2-Mavzu. Investitsiyalar, uni tashkil etish va moliyalashtirishning iqtisodiy ahamiyati.....**
3. **3-Mavzu. Investitsiya faoliyati ob'ektlari, sub'ektlari va investitsiya faoliyatining yo'nalishlari.....**
4. **4-Mavzu. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish va davlat tomonidan tartibga solish.....**
5. **5-Mavzu. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirishda investitsiya institutlarining roli.....**
6. **6-Mavzu. Investitsiya muhiti.....**
7. **7-Mavzu. Xorijiy investitsiyalarni jal etish va moliyalashtirish...**
8. **8-Mavzu. Iqtisodiy tizimda kapital qo'yilmalarning mohiyati va moliyaviy manbalari.....**
9. **9-Mavzu. Kapital qo'yilmalarni uzoq muddatga kreditlash.....**
10. **10-Mavzu. Iqtisodiyotda lizing kreditlaridan foydalanish.....**
11. **11-Mavzu. Investitsiya loyihasini ishlab chiqish asoslari.....**
12. **12-Mavzu. Investitsiya loyihalarida xarajatlar tahlili.....**
13. **13-Mavzu. Moliyaviy tahlilning asosiy jihatlari va investitsion qarorlar qabul qilish mezonlari.....**
14. **14-Mavzu. Biznes loyiha, biznes reja prezentatsiyasi.....**

1-Mavzu. “Investitsion loyihalarni moliyalashtirish” fanining predmeti, ob’ekti va vazifalari.

Reja

1.1 Zamonaviy bosqichda tahlil, bashorat va rejalashni muhim roli.

1.2 Fanni predmeti, asosiy vazifalari va ob’ektini tasvirlash.

1.3 Fanni maqsadi va turkumi xarakteristikasi.

1.4 Fanni o’rganayotgan talabalarga qo’yiladigan talablar va takliflar.

1.1 Zamonaviy bosqichda tahlil, bashorat va rejalashni muhim roli.

Bozor iqtisodieti sharoitida biznesni rejalash va tahlil etish, investitsiya loyihalariga katta e’tibor berilishi ,umuman bu faoliyatlarni korxona uchun nixoyatda zarurligi jaxon tajribasida alakachon ifodlangan. SHu bois bozor munosibatlari sharoitlarida xar bir firma, kompaniya va korxona biznesni loyihalash va rejalashdan manfaaddordir va uz imkoniyatlari darajasida undan u eki bu darajada foydalanadi.

Mustakilligimiz tufayli bugungi kunda Uzbekistonda ijtimoiy yunaltilgan barqaror bozor munosibatlari, bozor iqtisodieti barpo etilmoqda. Ushbu maqsadga erishishda mamlakatimizda ishlab chiqarish va xizmat soxalarini rivojlantirish, tula qonli iste’mol bozorini shakllantirish,raqobat muxitini barpo etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek: “Uzbekiston suveren davlat sifatida ochik iqtisodietni vujudga keltirish soxasida faol ish olib bormokda. Mamlakatning jaxon xujalik alokalarida,xalkaro mexnat taksimotida keng mikesda ishtirok etishimiz,ichki xujalik soxalarni rivojlantirishimiz-ochik turdagi iqtisodietni barpo etishning asosidir. Biz iqtisodiiy islohatlarni chukurlashtirish,ijtimoiy yunaltilgan bozor iqtisodietni shakllantirish tadbirlarini izchillik bilan amalga oshirmokdamiz.Bunda bozor iqtisodiyoti –erkin iqtisodiyot ekanligi , u ochik tusda bo’lib yakkalanishi va bikiklik unga yod ekanligidan iborat xakikatga asoslanib ish tutmokdamiz. SHu bois iqtisodiyotimizni kelajagi, uning jaxon xujaligiga kushilishiga bog’likdir”.

Yuqorida ko’rsatilib utilgan vazifalarni ijobiy xal etishda –Uzbekistonda biznes, investitsion loyihalarni va biznes-rejalarni tuzish asoslarini urganish, uslubiy jixatdan yul yuriklar ishlab chikish va biznesni rejalash faoliyatini korxona amalietida tadbik etish va amalga oshirish bugungi kunning uta dolzarb yunalishlaridan biridir.

Ushbu ma’ruza matnda **“Investitsion loyihalarni moliyalashtirish”**fanini urganuvchilarga asosiy yul yuriklar ishlab chikilgan va muxtasar shaklida ,aniql va ixcham tarzda berilgan,ukuvchining u eki bu urganaetgan masalasini uslubiy jixatdan ta’minlashga xarakat qilingan.

Xorijiy mamlakatlarni firmalarida shunday shior kullnilgan: “Daromad keltirmagan mutaxasisni firma uzok vaktgacha ushlab turormaydi”.Daromad.foyda keltirish uchun –bozor kon’yunkturasini urganish,rakobatchilar xarakatlarini oldindan paykash,uz bozoringizda mavkeingizni aniql baholash,faqat xozirgi kundagi foydani emas,balki kelajakdagilarni ham bashorat qilishni bilish kerak. Bu masalalarni echish

negizida –prognozlash, oxirgi etapda esa –rejalash faoliyatlarini egallash va tadbik etish muhim.

Umuman, rejalash deganda –maqsadlarni shakllantirish, ustunlik masalalarini aniqlash, ularni amalga oshirishida kerakli vositalar va uslublardan foydalanish tushuniladi. Faqat rejalash va tahlillar, .prognozlar – kancha ishlab chiqarish,kim uchun,nima ishlab chiqarish? degan savollarga javob beradi. SHuning uchun rejalashdan., shu jumladan biznes rejalar tuzishdan –korxonani barpo etish, faoliyatini izchilik bilan olib borish –amalga oshiriladi.

1.2 Fanni predmeti, asosiy vazifalari va ob’ektini tasvirlash.

“Investitsion loyihalarni moliyalashtirishbiznesni rejalash” fannini asosiy predmeti deb-korxona, xujalik sub’ektlari, xususiy tadbirkorni biznes faoliyati, unda sodir bulyaptgan turli xildagi vaziyatlar va muammolar, faoliyat yuzasidan shakllanadgan muommilalar,tamoyillar va kulaniladigan uslublarni majmuini tasvirlash va urganishni hisoblash mumkin. Undan kelib chikan xolda vazifalar quyidagilardan ifodalanishi mumkin:

A) Investitsion loyiha va biznes-rejalar tuzish xakida barcha nazariy va amaliy ma’lumotlarni tasvirlash;

B) Xorijiy va milliy tajribalarni keng eritish;

V) Yuqorida ko’rsatilgan xujjatlar va ularni ishlab chikish buyicha zamonoviy talablar bilan tanishtirish;

G) Oddiy xujalik faoliyati uchun tuziladigan korxona biznes rejasi ustida amaliy ish olib borish uchun tegishli andozalar bilan tanishtirish va ma’lumotlar bilan ta’minlash ;

Fanimizni asosiy ob’ekti deb –korxona, firma, xususiy tadbirkorlar shugullanaetgan biznes faoliyati, xujalikni yuritish, mahsulotni uzlashtirish va ishlab chiqarish,sotish va taksimlash masalalarini –ko’rsatishimiz mumkin.

1.3 Fanni maqsadi va turkumi xarakteristikasi

“Investitsion loyihalarni moliyalashtirishbiznesni rejalash” fannini asosiy maqsadi - yuqorida belgilangan uning predmeti, vazifalari va ob’ektlaridan kelib chikan xolda-barcha xujalik faoliyati yurituvchi sub’ektlarga–investitsion loyihalar, biznes-rejalarni ustida ishlashlarini hamda biznes jaraenlarini va tadbirlarini utkazishda, strategiyalarini aniqlashda-ular nixoyatda zarurligini oniga etkazish-deb hisoblaymiz.

“Investitsion loyihalarni moliyalashtirishbiznesni rejalash” fannini asosiy turkumi ikki bulimdan iborat bo’lib, birinchi bulimida –asosan investitsiya tushunchalari xakida,investitsion loyihalar va faoliyatlarga oid masalalar eritilgan.

Ikkinchi bulim esa–korxona xujalik faoliyatidagi tuziladigan va ishlab chikiladigan biznes-rejalar, ularni ichki tuzilishi, bulimlari xarakteristikasidan iborat, shu jumladan korxonani mahsuloti.bozorini tasvirlash, ishlab chiqarish,marketing hamda moliyaviy rejalar kabi bulimlarni tulik tasviri ifodalangan.

Natijada, xar bir bakalavr-talaba fanni uzlashtirib, uz biznes-rejasini ishlab ,prezentatsiyasini utkazishi nazarda tutiladi.

1.4 Fanni o'rganaetgan talabalarga kuyiladigan talablar va takliflar.

a) bilishi kerak:

- korxona (firma) ichki xujalik faoliyatidagi tizimini, rejalash tamoyillari va uslublarini;
- biznes va investitsion loyihalarini tushunchasi, ularni maqsad, ichki tuzilishi va klassifikatsiyalarini;
- korxona biznes-rejasini vazifalari, ichki va tashki biznes-rejalarni xususiyatlarini;
- biznes-loyiha va biznes – rejalar tipologiyasini, shu jumladan, menejment komponentlari asosida shakllanadiganlarni ham;
- korxona (firma) moliyaviy – xujalik faoliyati tahlillarini tamoyillari va uslublarini hamda investitsion loyiha tahlillari metodikasini;
- uzi tuzgan biznes-rejani prezentatsiyasini utkazish;

v) tasavvurga ega bulmog'i lozim:

- mamlakatimizni milliy iqtisodiyoti sektorlari hamda ularni statistik, iqtisodiy va marketing uslublari asosida tahlil etish;
 - bozor muammolari va bozor sharoitida xujalik faoliyati va tadbirkorlikni yurituvchi sub'ektlar xakida;
 - korxona investitsion loyihasi va biznes-rejalari ishlab chikish va amalga oshirish jarayonlarida monitoringlar utkazish;
- Natijada talabalar quyidagilarni uzlashtirishi kerak:
- biznes-reja tipologiyasiga asoslangan xolda korxona masshtabiga muvofiq keluvchi eng optimal biznes-reja tanlash;
 - korxona biznes-rejasi va investitsion loyihalarni ayrim bulimlarini tahlil qilishni va hisoblashni;
 - nazariy bilimlarini tadbik etib, mukammal biznes-reja tuzishni;
 - biznes-reja va investitsion loyihadan moliyalashtirish uchun asos bulgan ko'rsatkichlar majmuasi sifatida foydalanish;

XULOSALAR

“Investitsion loyihalarni moliyalashtirishbiznesni rejalash”- mustakil,iqtisodiy,kuprok amaliet bilan boglik fanlar qatoriga kiradi.

Fanni predmeti,asosiy vazifalari,maqsad va masalalarini kurib chikishdan oldin ma'ruza matnda –zamonaviy boskichda rejalash va prognozlash ,faoliyat tahlili zarurligi,-korxona uchun muhim rol uynashi tasdiklangan.

Bakalavr va fanni urganuvchilarga ,kolaversa tadbirkorlarga uslubiy erdam ko'rsatish maqsadida fanning moxiyati va roli beqies.Unda investitsiya tushunchasini nazariy asoslari,biznes-loyiha va biznes-reja buyicha vazifalarini amalga oshirish,ularni tuzish texnologiyasi va tegishli bulimlarini ishlab chikishning uziga xos tomonlarini eritish kabi masalalari kuyilgan va echilgan.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish biznesni rejalash fanimizda – amaliyda qoʻllaniladigan biznes, investitsion loyiha, rejalarni namunaviy shakllari, ularni tashkilotdagi tartibi va ifodasini topgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent "O'zbekiston" 2003 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida Mulkchilik to'g'risida"gi qonuni. 1995 yil 31/x/ Toshkent "O'zbekiston" 1996 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida Korxonalar to'g'risida"gi qonuni. 1995 yil 11 Toshkent "O'zbekiston" 1996 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qonuni. 2005 yil 14 iyun, pf-3618-son.
5. "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qonun. 2005 yil. 14 iyun P-F- 3619-son.
6. Anshin V. M. "Investitsionniy analiz"-M., 2004.-478 s.
7. Bocharova V.V. Investitsionniy menejment. SPb.: Piter, 2000 – 169 s.
8. Gozibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: - "Moliya" – 2003 y. -329 b.
9. Rashidov O.Yu, Karlibayeva R.X. "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent 2005 y.
10. Bocharova V.V. Leontiev V.E. Korporativnie finansie: bazoviy kontseptsii. Upravlenie kapitalom. Investitsii. –SPb.: Piter, 2002 – 544 s.
11. Kovalev V. V. "Metodey investitsionnix proektov".-M.,2003.-623 s.
12. Vilenskiy P. L., Livshits V. N., Smolyak S. A. "Otsenka effektivnosti investitsionnix proektov: Teoriya i praktika". 2004. – 462 s.
13. Kreylov E. I., Vlasova V. M., Jurakova I. V. Analiz effektivnosti i innovatsionnoy investitsionnoy deyatelnosti predpriyatiya. – M., 2004. – 378 s.
14. Tsarev V. V. Otsenka ekonomicheskoy effektivnosti investitsiy. – M., 2004. – 306 s.

Qo'shimcha adabiyotlar

15. Mualliflar guruhi. O'zbekistonda biznes keyslar: O'zbekiston Respublikasida biznes ta'limotida "Keys-stadi" uslubining qo'llanilishi. O'quv qo'llanma. –T.: Akademiya, 2006, - 645 b.
16. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida 1,2,3,4,5 –qismlar akad. S. S. G'ulomov tahriri ostida. TDIU, 2006 y. – 300b.
17. Bank V. R., Bank S. V., Taraskina A. V. Finansoveyy analiz. –M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2006. –344 s.
18. Ishmuxammedov A. E., Xaydarov M. T., Muxammedjanova G. Ya. Loyiha boshqaruvi. O'quv qo'llanma, -T.: TDIU, 2006._317 b.
19. Volkov A. S., Marchenko A. A. Otsenka effektivnosti investitsionneyx proektov: Uchebnoy posobie. M.: Izdatelstvo RIOR, 2006. –111 s.
20. Ishmuxammedov A. E., Qosimov M. S., Jumayev Z. A., Jumayev Q. X. "Loyiha tahlili". O'quv qo'llanma. –T.:O'YoUAJ, 2004. –207 b.
21. Volkov I. M., Gracheva M. V. Proektneyy analiz: Prodvintueyy kurs: Uchebnoe posobie. – M.:INFRA – M, 2004. –495 s.
22. Djumayev Z. A., Qosimov M. S. Loyiha tahlili. Ma'ruzalar matni. –T.: TDIU, 2003. –302 b.
23. Jurayev A. S., Xo'jaqulov D. Yu., Mamatov B. S. Investitsiya loyihalari tahlili. –T.: Sharq, 2003. –319b.
24. Jukov E.F. Investitsionnie institutie. –M.: 1998 g.

25. Biznes-plan investitsionnogo proekta: Otechestvenniy I zarubejniy opiet. Sovremennaya praktika i dokumentatsiya: Ucheb. Pos./Pod red. V.M.Popova. – M.: Finansie i statistika. 1997 g.
26. Finansoviy analiz: Upravlenie kapitalom. Viebor investitsiy. Analiz otchyotnosti. – M.:Finansie i statistika. 1996 g.
27. Internet saytlari:
www.minfin.ru
www.mf.uz
www.budget.ru
www.df.ru
www.iet.ru
www.gov.uz

2-Mavzu. Investitsiyalar, uni tashkil etish va moliyalashtirishning iqtisodiy ahamiyati.

Reja

1. **Investitsiyaning tushunchasi.**
2. **Investitsiyalarni iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.**
3. **Investitsiyalarni tasniflanishi.**
4. **Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchilar.**
5. **Investitsiyalarni tijorat banklari kreditidan farqi va xususiyatlari.**

1. Investitsiyaning tushunchasi.

Investitsiyalar deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiyalar quyidagicha tasniflanishi:

- Birlamchi avaylangan kapitalni ko'paytirish maqsadida kapitalni tadbirkorlik ob'ektlariga joylashtirish;
- Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlari.
- Investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida ham amalga oshiriladi, hamda o'zidagi yangi qurilishlariga, kengaytirishga, rekonstruktsiyaga va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlashga, uskunalar, inventarlar, loyihaviy mahsulotlar sotib olishga sarf-xarajatlarni mujassamlashtiradi. Iqtisodiy fanlar va amaliyot "investitsiya" va "kapital qo'yilma" terminlarini bir xil tushuncha emasligini, ya'ni sinonim so'zlar emasligini ta'kidlaydi. Investitsiyalar kapital qo'yilmaga nisbatan keng mazmunli, qamrovli tushunchadir. /arb adabiyotlarida investitsiyalar borasida so'z yuritilganda asosiy e'tibor fond bozoriga qaratiladi, chunki rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar asosan qimmatli qog'ozlar yordamida amalga oshiriladi.

U. SHarp investitsiyalarga quyidagicha ta'rif beradi: "Real investitsiyalar asosan moddiy aktivlarga (er, uskunalar, zavodlar) qilingan investitsiyalardir. Moliyaviy investitsiyalar bu qog'ozda bitilgan shartnomalardir. Bularga oddiy aktsiyalar va obligatsiyalar kiradi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotda investitsiyalarning asosiy qismi real investitsiyalarga tegishlidir. Rivojlangan iqtisodiyotda esa investitsiyalarning asosiy qismi moliyaviy investitsiyalash institutlarining keng miqyosida rivojlanishi real investitsiyalarning o'sishiga sababchi bo'ladi. Investitsiyalarning bu ikki shakli bir-biri bilan raqobatlashuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchidir".¹

Investitsiya tushunchasi yagona va to'liq tushuncha berishlik uchun anchagina keng bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy fanning turli qismlarida va amaliy faoliyatning turli sohalarida investitsiya mazmuni o'zining xususiyatlariga ega.

Makroiqtisodiyotda investitsiyalar ishlab chiqarishda yangi vositalarga, turar-joylarga investitsiyalar va moddiy zaxiralarining o'sishiga qilinadigan xarajatlardan tashkil topadigan yalpi xarajatlarning bir qismi hisoblanadi. Investitsiyalar – bu joriy davrda iste'mol qilinmagan va iqtisodiyotda kapital o'sishini ta'minlovchi YAIM ning bir qismidir.

Oxirgi yillar davomida bozor islohotlarining zafarli yurishi natijasida "investitsiyalar" atamasi keng qo'llaniladigan tushunchalardan biri bo'lib qoldi.

Har taraflama asoslangan, puxta o'ylangan investitsiya qarorlarini investitsiyalarini moliyalashtirishning ishonchli manbalari bilan chambarchas bog'liqlikda qabul qilish zarurligini va chet el kapitalini jalb qilishning kengayib borayotganligini hisobga oladigan bo'lsak, hozirgi zamon moliya nazariyasi nuqtai nazaridan investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyatini ochib berish, ularning eng muhim sifat tafsiflarini aniqlash g'oyat dolzarb masala hisoblanadi.

Investitsiyalarga aniq va ravshan ta'rif berish hamda ularning mulkiy shakllari, kapital qo'yilmalar, kapital, kredit tushunchalarining farqlarini ochib berish zaruriyati paydo bo'ldi. Zamonaviy moliya nazariyasi masalalari J. Fon. Neyman, O. Morgenshtern, G. Markovits, J. Tobin, V. SHarp, F. Modilyani, M. Miller va boshqalarning asarlarida rivojlantirilgan. Moliya bozorlarining faoliyati qonuniyatlari va qimmatli qog'ozlarni baholash to'g'risidagi fan sifatida shakllangan bu nazariya sof keltirilgan qiymatning fundamental kontseptsiyalari, o'zoq muddatli aktivlarni baholash modellari, kapitallarning samarali bozorlari, boyliklarning jamlanib borishi va qiymatning saqlanish qonuni, opsiyonlar nazariyasi va mohiyatini aniq ochib berish uchun pul oqimlarining zamonaviy va bo'lajak qiymatlaridan kelib chiqqan holda tahlil olib borish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davrda "investitsiyalar" tushunchasi aksariyat hollarda keng ma'noda ishlatilmoqda. Iqtisod fanlarining turli tarmoqlarida, amaliy faoliyatning turli yo'nalishlarida investitsiyalashning maqsadlari, harakatlar yo'nalishi, sohalar xususiyatlari, safarbar etilish ob'ektlari, harakat yo'nalishlaridan kelib chiqib va ahamiyatiga qarab "investitsiyalar" tushunchasi o'ziga xos ma'noda ishlatiladi. Moliya nuqtai nazaridan ularning mazmun va mohiyatini aniq belgilash muhim vazifa hisoblanadi. Faqat kapitalni yo'qotish riski mavjud bo'lgan pul shaklidagi

¹ SHarp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s angl.- M.: INFRA- M, 1997. – 1 bet

investitsiyalar yangi aktivlarni vujudga keltiradi. Investitsiyalarning mulkiy shaklidagi moddiy va nomoddiy ne'matlar va ularga bo'lgan huquqlarni iqtisodiy va boshqa faoliyatlarga jalb etish esa, bizning fikrimizcha, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida, investitsiyalar evaziga barpo etilgan aktivlarni ishlatishdan dalolat beradi. Moliya nazariyasiga ko'ra, investitsiyalar bo'lajak natijalarni qo'lga kiritish maqsadida, mohiyatan hozirgi xarajatlarni bildiradi. Bizningcha, investitsiyalar noaniqlik ehtimoli bo'lgan va kelgusida kutilayotgan qiymatga kapitalning aniq bugungi qiymatini almashtirishdan iboratdir.² Buning dalili sifatida investitsiyalarning safarbar etilishida ularning ongli ravishda aniq va noaniq bo'lgan risklar bilan bog'lanishini keltirish mumkin.

"Investitsiyalar" atamasi lotin tilidagi "invest" so'zidan kelib chiqqan bo'lib "qo'yish", "mablag'ni safarbar etish" ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiyalar ko'paytirib qaytarib olish maqsadlarida kapitalni bog'lashni bildiradi. Ko'pgina hollarda "investitsiyalar" tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. "CHet el investitsiyalari" tushunchasiga ta'rif berishda ham xuddi shu ma'no nazarda tutiladi, lekin bu o'rinda ularning qonuniy huquqliligi va maqsadiga ko'proq urg'u beriladi.

O'zbekiston Respublikasining "CHet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunida O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investorlar tomonidan qonun hujjatlariga zid bo'lmagan tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari ob'ektlariga aksariyat foyda (daromad) olish maqsadlarida kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlarning jami turlari, shu jumladan, intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olinadigan har qanday daromad chet el investitsiyalari hisoblanadi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, investitsiyalarning harakatidan kelib chiqib zamon va makonning almashtirilishi va o'zga iqtisodiyotga kirib borishi namoyon bo'ladi. Investitsiyalarning turli shakllarda o'zga iqtisodiyotlarga kirib borishi yangidan investitsiya faoliyatini yo'lga qo'yishda, ularning turi va shakllaridan qat'i nazar, yangitdan safarbar etilishini va bog'lanishini bildiradi. Milliy iqtisodiyot chetdan qo'yilma sifatida chet el kapitalini uning turli shakllarida (pul, tovar, mulkiy huquq, intellektual mulk va boshqalar)qabul qilishi mumkin.

2. Investitsiyalarni iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.

Ishlab chiqarish nazariyasi va umuman makroiqtisodiyotda investitsiyalar yangi kapitalni (ishlab chiqarish vositalarini hamda inson kapitalini qo'shib hisoblanganda) yaratish jarayonidir.

Moliya nazariyasida esa investitsiya deganda real yoki moliyaviy aktivlarni olishni tushuniladi, ya'ni bugungi sarflarni maqsadi kelajakda daromad olish bo'lib hisoblanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, investitsiyalar – muayyan qiymatni, bo'lishi noaniqroq bo'lgan kelajak qiymatga almashishdir.

² D. /. /ozibekov Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Moliya 2003 y.

Lorens Dj. Gitman va Maykl D. Djonkning “Investitsiyalash asoslari” (M. “Delo” nashriyoti-1997) kitobida investitsiyalarga quyidagicha ta’rif beriladi: Investitsiya moliyaviy natijalar olishni ko’zlab aktsiya va obligatsiyalarni sotib olishni anglatadi: bular real aktivlarni belgilaydi, masalan, u yoki bu tovarni ishlab chiqarish va sotish uchun mashinalarni olishni nazarda tutadi. Umuman keng ma’noda investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini o’stirish va rivojlantirishni moliyalashtirish uchun zarur bo’ladigan mexanizmlarni ta’minlaydi.

Ma’lumki, “Investitsiyalar” tushunchasi iqtisodiyot uchun yangi emas. Bugungi kunda “Investitsiyalar” tushunchasining ma’nosini anglash, uning mohiyatini to’g’ri tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Sobiq iqtisodiy tuzum davrlarida investitsiyalar tushunchasi ko’prok kapital qo’yilmalar bilan bog’lanib, kapital qurilishlar, kapital ta’mirlashlar va ilmiy-texnika taraqqiyoti uchun sarflanadigan kapital qo’yilmalarini anglatar edi va bu qo’yilmalar asosan markazlashgan fondlar va davlat byudjetidan yuqori davlat idoralari tasdiqlagan rejalar asosida ajratilar edi.

Ko’pgina adabiyotlarda “investitsiya” terminida noaniqliklar uchraydi.

Birinchidan, “investitsiyalar”ga fuqarolarning “iste’molchilik investitsiyalari” (maishiy texnika, avtomobil, ko’chmas mulk va boshq.) qo’shib yuboriladi. Bunday investitsiyalar esa kapitalni o’sishini va foyda olinishini ta’minlamaydi.

Ikkinchidan, “investitsiyalar” va “kapital qo’yilmalar” terminlarini tenglashtirishadi. Kapital qo’yilmalar - korxonaning moliyaviy mablag’larini asosiy kapitalga bunaklashtirish bilan bog’liq investitsiya faoliyatining shaklidir. Investitsiyalar esa nomoddiy va moliyaviy aktivlarga qo’yilishi ham mumkin.

Uchinchidan, ko’pgina manbalarda investitsiyalarni pul mablag’larini qo’yish deb ta’riflanadi. Amaliyotda esa, barcha hollarda bunday bo’lmaydi. Investitsiyalashni boshqa shakllarda ham amalga oshirish mumkin. Masalan, korxonaning ustav kapitaliga badal ko’rinishida ko’chib yuruvchi va ko’chmas mulk, qimmatli qog’ozlar, nomoddiy aktivlar va boshqalar.

To’rtinchidan, ko’pgina ta’riflarda investitsiyalarni mablag’larning o’zoq muddatli qo’yilmalar ko’rinishida bo’lishini ta’kidlashadi. To’g’ri, kapital qo’yilmalar o’zoq muddatga investitsiyalanadi. Lekin qisqa muddatli investitsiyalar ham bo’ladi (masalan, montaj qilishga zarurat bo’lmagan va qurilish smetasiga kirmagan mashina va uskunalarni sotib olish).

Investitsiyalarning o’sish sur’atlari ko’p omillarga bog’liq. Avvalambor investitsiyalar hajmi olingan daromadni iste’mol va jamg’armaga taqsimlanishiga bog’liq. Aholini o’rtacha daromadi past bo’lgan holda ularning asosiy qismi (70-80%) iste’molga sarflanadi. Aholi daromadlarini o’sib borishi jamg’arishga yuboriladigan qismni ortib borishiga sabab bo’ladi. Umumiy daromadda jamg’arish ulushining ortib borishi investitsiyalar hajmini o’sishiga olib keladi, va aksincha. Ammo bu shart aholini davlatga ishonchi yuqori bo’lganda, davlat fuqarolarning investitsion faolligini ta’minlaganda va kafolatlaganda bajariladi. Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan daromad normasi ham ta’sir ko’rsatadi, chunki ko’rilayotgan foyda investitsiyalashga undaydi. Kutilayotgan foyda normasi

qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalash hajmi shunchalik yuqori bo'ladi, va aksincha.

Investitsiyalar hajmiga ssuda foizi stavkasi katta ta'sir ko'rsatadi, chunki investitsiyalash jarayonida qarzga olingan mablag'laridan ham foydalaniladi. Agar kutilayotgan sof foyda normasi o'rtacha ssuda foizi stavkasidan yuqori bo'lsa bu qo'yilmalar investor uchun daromadlidir. SHuning uchun o'rtacha foiz stavkasini o'sishi investitsiyalash jarayonini susayishga olib keladi.

Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan inflyatsiya sur'atlari ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa investorning kelajakdagi foydasi shunchalik qadrsizlanadi va investitsiyalarni rag'batlantiruvchi omillar qisqarib boradi.

3. Investitsiyalarni tasniflashi.

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi.

Birinchidan, qo'yilish ob'ektiga qarab investitsiyalar real va moliyaviy shakllarga ajratiladi.

Real investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) – pul mablag'larini korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat.

Moddiy investitsiyalar asosiy kapitalning elementlarini sotib olish bilan bog'liq bo'lib, ko'pchilik hollarda investitsion loyihalar doirasida amalga oshiriladi. SHuning uchun shaxsiy mablag'lar bilan birga qarzga olingan mablag'lar ham foydalanilishi mumkin. qarzga mablag' olingan holda investor rolini aniq loyihalarga kredit mablag'lari ajratayotgan bank bajaradi. Nomoddiy investitsiyalar nomoddiy boyliklar yaratilayotganda amalga oshirilib, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish, yangi mahsulotlarning namunalarini yaratishga sarflarni mujassamlashtiradi.

Fan-texnika taraqqiyotini tezlashuvi bilan intellektual salohiyat ishlab chiqarishni eng kuchli omiliga aylandi, uning jiddiy unsuri bo'lib qoldi. XX asr boshlarida fan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish uchun sarflanadigan qo'yilmalar oshib boradi. SHuning uchun ham jahonda real investitsiyalar tarkibida ilmiy izlanishlar, fan, ta'lim, kadrlar tayyorlash uchun sarflanadigan xarajatlar o'sib bormoqda. Masalan, AQSH, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda fan va ilmiy izlanishga sarflanadigan qo'yilmalar o'sish sur'atlari asosiy fondlarga sarflanadigan investitsiyalardan ustundir. Jahon bozoriga kirib borish, keng ko'lamda marketingni rivojlantirish, batafsil axborotga ega bo'lish, yuqori darajadagi kompyuter tizimlarini tashkil etishni, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va mazko'r sohada dunyodagi rivojlangan davlatlar darajasiga erishishni talab etadi. SHuning uchun ham jadal sur'atlar bilan rivojlanish real investitsiyalar tarkibida fan, texnika, ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash uchun sarflanadigan real investitsiyalar asosiy o'rinlardan birini egallashi zarur.

Asosiy fondlarga sarflangan real investitsiyalar maqsadi sarflanish yo'nalishlari va boshqa ko'rsatkichlarga ko'ra hududlararo, tarmoqlararo, texnologik, qayta ishlab chiqarish tarkiblariga ega. Asosiy fondlarga sarflangan investitsiyalarni, ularning aktiv (mashinalar, asbob-uskunalar) va passiv (bino, inshootlar) qismlarini tashkil etish uchun sarflangan umumiy harakat yig'indisidagi ulushi investitsiyalarning texnologik tarkibini tashkil etadi.

qayta ishlab chiqarish tarkibi investitsiyalarning qanday maqsadlarga yo'naltirilganligi; yangi qurilishga, ishlab turgan korxonalarni kengaytirishga, rekonstruksiya va yangi texnika bilan qayta qurollantirishga jalb qilingan xarajatlarni umumiy xarajatlardagi har birining nisbiy jihatdan ulushini ko'rsatadi. Investitsiyalarning hududlararo va tarmoqlararo tarkibi esa ularning nisbiy jihatdan hududlar va tarmoqlar bo'yicha taqsimotini bildiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda real investitsiyalarning asosiy qismini shaxsiy investitsiyalar tashkil etadi. Davlat sektorida real investitsiyalar sarfi muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy muvofiqlashtirish siyosati asosida kreditlar, subsidiyalar ajratiladi, davlat kapital qo'yilmalari muvozanatlashtiriladi va real investitsiyalar o'zlashtiriladi.

Davlat tomonidan o'zlashtiriladigan investitsiyalar. Dastlabki bozor infratarkibini va u bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga sarflanadi. Investitsiyalarni samaradorligini oshirish asosiy kapitalni aktiv elementlarini vujudga keltirish va o'stirish hisobiga amalga oshiriladi.

Real investitsiyalarni tavsifnomalash ularni hajmi va daromad me'yorlari asosida olib boriladi. Investitsiyalar hajmi o'zlashtiriladigan qo'yilmalar qiymatini ifodalaydi, investitsiyalar miqdori esa ularning hajmini YAMMga yoki YAIMga bo'lgan nisbatini ifodalaydi. Inflyatsiya yuqori va chuqurlashgan davrda esa aytilgan ko'rsatkichlarga uning ta'siri to'g'ridan-to'g'ri bo'ladi. Investitsiya me'yori ishlab chiqarilgan YAIM yoki YAMM qanchalik kapital sig'imkorligini, ya'ni qay darajada kapital xarajatlarini talab qilinishini bildiradi. Jamg'arish samarasi kapital sig'imkorligini o'sishi koeffitsientlari asosida aniqlanadi.

Moliyaviy investitsiyalar kapitalni, to'lov va moliyaviy majburiyatlarning barcha turlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, moliyaviy aktivlarga joylashtirilishini anglatadi. Ushbu moliyaviy vositalarning eng muhimlari qimmatli qog'ozlardir: ulushli (aktsiyalar) va qarz (obligatsiyalar). Real investitsiyalardan farqli o'laroq moliyaviy investitsiyalarni ko'proq portfel investitsiyalar deb atashadi, chunki bu holda investorning asosiy maqsadi bo'lib moliyaviy aktivlarning mukammal yig'masini (investitsiyalar portfelini) shakllantirish va qimmatbaho qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan turli operatsiyalarni boshqarish hisoblanadi.

Moliyaviy investitsiyalar shaxsiy kompaniyalar va davlat idoralari tomonidan muomalaga chiqarilgan aktsiyalarga, obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga va bank depozitlariga, uzoq muddatga jalb qilinadigan qo'yilmalardir. Moliyaviy investitsiyalarning asosiy qismi, kapitalni noishlab chiqarish sohasiga sarflanishini bildiradi. Moliyaviy investitsiyalar aksariyat holatlarda real investitsiyalarning manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Moliyaviy investitsiyalar erkin bozor infratarkibi rivojlangan mamlakatlarda, qimmatli qog'ozlar bozori orqali kapitalni sohalar bo'yicha taqsimlanishida muhim ahamiyatga bo'lgan davlatlarda ko'proq tarqalgan. Rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy investitsiyalarining tarkibida asosiy o'rinni shaxsiy investitsiyalar tashkil qiladi.

Birinchidan shaxsiy investitsiyalar, tadbirkorlar, xususiy firmalar, kontsernlar va aktsioner tashkilotlar tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlarga sarflanadigan mulkdorlik va intellektual boyliklarni anglatadi. Etuk qimmatli qog'ozlar bozori mavjud bo'lgan mamlakatlarda shaxsiy investitsiyalarni ko'pgina qismi maxsus investitsiya fondlari tomonidan sarflanadi. Xorijiy investitsiyalarning moliyaviy shakli (portfel investitsiyalar) milliy iqtisodiyotda istiqbolli korxonalarni aniqlash va keng miqyosda investitsiyalashni amalga oshirishga asos bo'la oladi.

Ikkinchidan, investitsiyada qatnashish xarakteriga ko'ra bevosita va portfel investitsiyalar farqlanadi. Bevosita investitsiyalar investorni o'z moliyaviy mablag''larni joylashtirish ob'ektini tiklash imkoniyatini beradi. Portfel investitsiyalar tijorat banklari, investitsion kompaniyalar va fondlar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Moliyaviy vositachilar to'plangan mablag''larni samarali, daromad keltiradigan qilib joylashtiradilar. Portfel investitsiyalar boshqa emitentlarning anderratting yordamida qimmatli qog'ozlarga joylashtirish shaklida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, investitsiyalash davriga qarab investitsiyalar qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan muddatga beriladi) va uzoq muddatli (bir yilddan oshiq muddatga beriladi) bo'ladi. Masalan, oddiy aktsiyalar umuman biror – bir muddat bilan cheklanmaydi. Masalan, depozit sertifikatini olti oy muddatga beriladi – bu qisqa muddatli qo'yilmalar vositasidir, obligatsiyalar 20 yilda qaytarish muddati bilan uzoq muddatli qo'yilmalar vositasidir.

Lekin, uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni sotib olish va qisqa muddatdan, masalan olti oy o'tgandan so'ng, investor uzoq muddatli qurolni qisqa muddatli maqsadlar uchun foydalanish mumkin. Ko'pincha investorlar ana shunday qurollarni tanlaydilar va o'z pullarini qisqa muddatlarga qo'yishni hohlaydilar. Masalan, yaqin olti oy mobaynida investorga kerak bo'lmaydigan summaga, u olti oylik muddatga ega bo'lgan depozit sertifikatini sotib olishi mumkin: qirq yoshga to'lgan investor pensiyaga chiqquncha pul yig'ish uchun biron-bir kompaniyani obligatsiyasini 20 yilga sotib olish mumkin. Odatda uzoq muddatli investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, mulk shakllaridan kelib chiqib investitsiyalar xususiy, davlat, qo'shma va xorijiy shakllarga ajratiladi. Xususiy investitsiyalar nodavlat yuridik shaxslarining va fuqarolarning mablag''larini tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga qo'yilishini anglatadi. Davlat investitsiyalari davlat byudjeti va davlat korxonalarining mablag''larini joylashtirish orqali namoyon bo'ladi.

Beshinchidan, hududiy joylashtirilish bo'yicha investitsiyalar ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi.

Oltinchidan, investitsiyalar tavakkallik darajasi bo'yicha yuqori tavakkalli va past tavakkalli investitsiyalarga ajratiladi. Moliya sohasida tavakkallik deganda investitsiyalarga mutloq yoxud nisbiy miqdordagi foyda kutilganidan ancha kam

bo'ladi, boshqacha aytganda "tavakkallik" atamasi kutilmagan natija olish imkoniyatini anglatadi. qo'yilma mablag'lariga foydani mutlaq yohud nisbiy miqdorlarini yoyilishi qanchalik keng bo'lsa tavakkallik shunchalik katta bo'ladi va aksincha. YAKka investor eng kam tavakkallchilikka ega bo'lgan davlat qimmatli qog'ozlardan tortib eng yuqori tavakkalli tovarlargacha bo'lgan qurollarni keng tanlash imkoniyatiga ega. Kapitalni joylashtirishni har bir tipi tavakalni ta'rifidir, ammo har bir muayyan holatda tavakkallik o'sha vositaning aniq xususiyatlari bilan belgilanadi.

Masalan, obligatsiyalarga qaraganda aktsiyalarga qo'yilmalar yuqori tavakkalik bilan bog'liq ekanligi ma'lum, shu bilan birga yirik kompaniyalar aktsiyalariga qo'yilmalar kiritilishiga qaraganda yuqori tavakkallik obligatsiyalarni topish ham qiyin emas. Albatta, tavakkallik ko'p hollarda emitentning, vositachining yoki muayyan moliyaviy vositalarni sotuvchisini sofdilligiga bog'liq. Past tavakkallik investitsiyalar muayyan daromad olishni xavfsiz vositasi hisoblanadi. Aksincha, yuqori tavakkalli investitsiyalar chayqovchilik hisoblanadi.

Investitsiyalash va chayqovchilik atamaları investitsiyalashga ikki turlicha yondashuvni anglatadi. Aytib o'tilgandek, investitsiyalash deganda qiymati barqaror turadigan va nafaqat daromadni ijobiy miqdorini olish, balki oldindan daromadni aytish mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlarni sotib olish jarayoni tushiniladi. CHayqovchilik shunday aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishdan iborat bo'lib, faqat ularni bo'lajak qiymati va kutilayotgan daromad darajasi ishonchli bo'lmagan holatdir. Albatta, tavakkalchilikni yuqori darajasida chayqovchilikdan yuqori daromad olish mumkin.

4. Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchilar.

Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish yo'lida mamlakatimizda Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchilar uchun olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar yildan yilga takomillashib bormoqda. Mustaqillikni dastlabki yillaridan boshlab hukumatimiz tomonidan bir qancha qaror va Farmonlar chiqib kelmoqda. SHu o'rinda joriy yilning o'zida qo'yidagi qaror va farmonlar qabul qilinganini aytishimiz mumkin.

2005 yil 15 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

2005 yil 20 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikrofimalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qushimcha-chora tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

2005 yil 24 iyundagi "Tadbirkorlik sub'ektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonini keltirishimiz mumkin.

Buning natijasida iqtisodiyotimizdagi rivojlanish va taraqqiy topib borishni kuzatish mumkin. Hech bir mamlakat iqtisodiy islohotlarsiz yoki uni

to'xtatib qo'yishlik bilan rivojlanmagan. Iqtisodiy islohotlar bosqichma - bosqich olib borilaveradi. Bunning natijasi o'laroq iqtisodiyotda to'xtab qolmaslik, aksincha siljish bo'ladi.

2005 yilning birinchi choragida 2005-2006 yillarda davlat mulkini xususiyashtirish bo'yicha yangi dastur tasdiqlandi va amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturga muvofiq xorijiy va mahalliy sarmoyadorlarga 2246 davlat ob'ekti va aksiyalar paketi, jumladan, 1385 ob'ekt va davlatning joylashtirilmagan aktivlari butunlay xususiy mulk sifatida sotish taklif etildi.

Hisobot davrida 249 davlat korxonasi, ob'ekti va aksiyalar paketi(ulushi) sotildi.

Boshlang'ich narxni bosqichma-bosqich kamaytirish mexanizmi qo'llanishi bilan 29 aksionerlik jamiyatining umumiy qiymati 1,4 milliard so'mlik aksiyalar paketi, qiymati 0,3 milliard so'm va 87,5 ming AqSH dollariga teng 56 ta ob'ekt sotildi.

Xorijiy investorlarga 9,2 million AqSH dollari va 67,2 so'm investitsiya kiritish majburiyati bilan sotilgan davlat ob'ektlari va aksiyalar qiymati 6,4 million dollarni tashkil etdi Samarqand choy qadoqlash fabrikasi, "Uychi ip-yigiruv" aksionerlik jamiyati aksiyalarining 73,1, "Karbonat" aksionerlik jamiyati aksiyalarining 25, "Toj metall" aksionerlik jamiyati aksiyalarining 25 foizi xorijiy investorlarga sotildi.

Hisobot davrida xorijiy sheriklar tomonidan qiymati 6,3 mln. AqSH dollariga teng investitsiya majburiyatlari bajarildi.

Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5 maydagi 209-qaroriga muvofiq o'tkazilayotgan tanlovlarni uchinchi bosqichida hududiy tanlov komissiyalari qarorlariga ko'ra, 3,7 mlrd. so'mlik investitsiya kiritish sharti bilan 43 davlat ob'ektidan 33 tasi nolga teng qiymati bo'yicha sotildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 martdagi Pq-29-qaroriga binoan 115 ob'ektni sotish bo'yicha tanlov o'tkazish ishlari boshlandi.

Bundan tashqari 2005 yilning birinchi choragida fond bozorining aylanmasi 29,2 mlrd so'mni, jumladan, ikkilamchi bozor aylanmasi 15,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 marta ko'pdir. Ikkilamchi bozorda aksiyalar va obligatsiyalarni sotish hajmining ortishi birja bozorining jadal o'sish sur'ati bilan bog'liqdir. Birja bozorining o'sish sur'ati 2004 yilning birinchi choragi ko'rsatkichlariga qaraganda 58,8 foiz oshdi. Birjadan tashqari ikkilamchi bozorning o'sish sur'ati esa 39,5 foizni tashkil etdi.

2005 yilning birinchi choragida Respublika tovar-xomashyo birjasida 130 mlrd. so'mlik yuqori likvidli mahsulot sotildi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 marta ko'pdir.

Mahsulot sotishning bozor-birja mexanizmining afzalligi sababli neftni qayta ishlash, yonilg'i sanoati, qora va rangli metallurgiya, paxta tozalash, yog'moy, un sanoati kabi turli tarmoqlarning ko'plab korxonalari tomonidan birja savdosiga qiziqish ortib bormoqda.

Hisobot davrida kimoshdi va birja savdolarida 41,1 ming tonna avtomobil benzini, 101,6 ming tonna dizel yonilg'isi, 15,2 ming tonna mazut, 11,4 ming tonna

qora metall prokati, 28,9 ming tonna paxta tolasi, 142,9 ming tonna un 13,5 ming tonna mineral o'g'it, 123,9 ming tonna tsement, 5,2 ming tonna ko'mir sotilgan.

SHunday qilib, 2005 yil birinchi choragida iqtisodiyotning rivojlanish tendentsiyalari tahlili ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda qo'yidagi natijalarga erishilganidan dalolat beradi:

birinchidan, barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi;

ikkinchidan, qat'iy pul-kredit siyosatining yuritilishi tufayli inflyatsiya prognoz parametrlari darajasida saqlanmoqda;

uchinchidan, davlat mulkini sotishning yangi, o'zgaruvchan mexanizmining tatbiq etilishi, xorijiy investorlar bilan ishlashni faollashtirish, yirik ob'ektlarni xususiylashtirish siyosatiga o'tish iqtisodiyotda xususiylashtirish tarmoqning rolini kengaytirish imkonini berdi;

to'rtinchidan, qishloq xo'jaligida fermerlar rolining ortishi yilni qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni yuqori sur'atlar bilan boshlash, dala ishlarini sifatli o'tkazish va ekish kompaniyasiga faol kirishish imkonini berdi;

beshinchidan, mahsulotlar va xizmatlar eksporti jadal sur'atda ortmoqda, bu tashqi savdo siyosati va eksportni rag'batlantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar samaradorligidan dalolatdir;

oltinchidan, mamlakat iqtisodiyotining real tarmog'ida investitsiyalar miqdori oshmoqda, iqtisodiyotni tayyor mahsulotni ko'paytirish va mahalliyashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarini tashkil etish yo'nalishidagi tarkibiy o'zgarishlar davom etmoqda.

2005 yilning birinchi choragida qo'lga kiritilgan ijobiy natijalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yuritalayotgan, makroiqtisodiy barqarorlikni hamda barqaror iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlashga xizmat qiladigan iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va tarkibiy islohatlarni jadallashtirish siyosatining to'g'riligi hamda samaradorligini tasdiqlaydi.

YUqorida aytib o'tganimizdek hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlarni barchasi o'zini dolzarbligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Ayniqsa, 2005 yil 15 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori o'zini juda dolzarbligi bilan muhim hisoblanadi. Chunki iqtisodiyotning umumiy kontseptsiyasida bank sohasi rivojlanishining strategiyasi etakchi o'rinni egallab, pul tizimi barqarorligini belgilab beradi. Bank sektorining yuqori darajada tashkillashtirilganligi va barqarorligi milliy iqtisodiyot rivojlanishining ustivor ko'rsatkichlaridan biridir.

Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchilar quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi.

1. joriy faoliyatning yo'nalishlari bo'yicha institutsional va individual investorlar. Institutsional investorlar rovida sanoat, savdo, transport, aloqa va boshqa sohalaridagi aksioner jamiyatlar namoyon bo'lsalar, individual investorlar rovida fuqarolar namoyon bo'ladi.
2. investitsiyalash maqsadlari bo'yicha strategik va bevosita investorlar o'z oldiga

kompaniyalarni boshqarish huquqini olishni maqsad qilib qo'yadilar. Buni ular boshqa kompaniyalar aktsiyalarining kontrol paketini sotib olish yoki ularning ustav kapitalining katta qismini egallash orqali amalga oshiradilar. Ular yana kompaniyalarning qo'shilib va bankrot bo'lib ketishlarini amalga oshiradilar. Portfel investorlar dividend va foiz shaklida daromad olish maqsadida o'z kapitalini turli moliyaviy vositalarga joylashtiradilar.

3. rezidentlikka tegishliligi bo'yicha milliy va xorijiy investorlar ajratiladi.

5. Investitsiyalarni tijorat banklari kreditidan farqi va xususiyatlari.

Rivojlangan iqtisodiyotda tijorat banklari o'z faoliyatini doimiy ravishda o'sib boruvchi raqobat sharoitida amalga oshiradilar. Ular o'zaro va boshqa kredit-moliya muassasalari bilan, shu jumladan, oxirgi vaqtda taklif etilayotgan har xil yangi xizmat turlarini amalga oshiruvchi xorijiy banklar bilan raqobatlashadilar.

qattiqqo'l raqobat sharoitida tijorat banklari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri investitsion faoliyat hisoblanadi. Investitsiya- bu xususiy, davlat korxonalari va tashkilotlari qimmatli qog'ozlariga o'zoq muddatga qo'yilgan mablag'lardir. Tijorat banklari krediti investitsiyasidan qo'yidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, bank kredit berganda, bank mablag'larini nisbatan qisqa vaqt ichida foydalanishga beradi va kredit summasi hamda u bo'yicha foiz stavkasini o'z vaqtida qaytarishni talab qiladi. Investitsiyada esa qo'yilgan mablag'lar (qo'yilmalar) hali o'z egasiga qaytib kelishidan oldin o'zoq davr mobaynida bankka daromad olib kelishini bildiradi.

Ikkinchidan, bank kreditida kredit munosabatlarini yuzaga keltirish bo'yicha tashabbus qarz oluvchi tomonidan o'rta tashlanadigan bo'lsa, investitsiyada esa qimmatli qog'ozlar bozorida aktivlarni sotib olishga intiluvchi tijorat banki tashabbus ko'rsatadi.

Uchinchidan, bankning kredit shartnomasida bank kam miqdordagi kreditorlar orasida asosiydir. Investitsion shartnomalarda esa tijorat banki ko'plab kreditorlardan biridir.

To'rtinchidan, bank kreditida bank va qarz oluvchi bevosita kredit shartnoma orqali bog'langan bo'lib, ularning faoliyatiga hech kim aralashmaydi. Investitsiyada esa turli xil qimmatli qog'ozlar orqali korxona, tashkilotlarning faoliyati bilan bankning faoliyati bog'lanib ketadi.

Tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyat olib borishdan asosiy maqsad ularning daromadliligi va likvidliligini (bankning faoliyati bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olish qobiliyati) ta'minlashdan iborat. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tijorat banklarining investitsiya siyosati bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va banklarning likvidliligini ta'minlaydi. Banklarning investitsion faoliyati turli xil qimmatbaho

qog'ozlar:oddiy va imtiyozli aktsiyalar,davlat qarzдорlik majburiyatlari, depozit sertifikatlari, veksel va boshqalarga mablag''larini qo'yish orqali amalga oshiriladi.

Alohida olingan davlatlarda banklar tizimining rivojlanishi va banklar o'tkazadigan operatsiyalarning turlari va ko'lamiga qarab ularning investitsion faoliyati turli yo'nalishlarga qaratilgan bo'lishi va shu operatsiyalar turlari bo'yicha olinadigan daromad salmog'i ham turli xil bo'lishi mumkin.

Masalan Amerika baanklari amaliyotida davlatning qisqa muddatli qarz majburiyatlarini ifodalovchi qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish odatda kam daromad keltiradi,ammo ular yuqori likvidlilikka ega va ular bo'yicha to'lanmaslik riski nulg teng bo'lib,bozor stavkasining o'zgarish riski ham kichik bo'lgan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

O'zoq muddatli qimmatli qog'ozlar yuqori daromad keltiradi,shuning uchun banklar ularni muddati tugaguncha saqlashadi.Banklar o'z mablag''larini munitsipalitetlarning qimmatbaaho qog'ozlariga ham qo'yishadi,chunki ular bo'yicha to'lanadigan foiz soliqqa tortilmaydi.

O'z likvidliliğini ta'minlash maqsadida banklar uncha katta bo'lmagan so'mmani boshqa qimmatli qog'ozlar:bank aktseptlari,qimmatli qog'ozlar bozoridagi tijorat qog'ozlari,brokerlik ssudalar va tovar-kredit korparatsiyalari sertifikatlariga qo'yishadi.

Daromadlilikni ta'minlash maqsadida,lekin likvidliliğini havf ostiga qo'ygan holda banklar o'z mablag''larini ba'zi bir hukumat muassasalari obligatsiyalari va korparatsiyalarning birinchi darajali obligatsiyalariga investitsiya qiladilar.

Rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining investitsion faoliyati daromad keltirishi no'qtai nazaridan bank daromadi tarkibida kredit foizidan keyingi ikkinchi manba hisoblanadi.

Tijorat banklari investitsion faoliyatining daromadlilik darajasiga bir qator iqtisodiy va tashkiliy omillar ta'sir ko'rsatadi.Bu omillar orasida asosiylari sifatida qo'yidagilarni keltirish mumkin.

Bular:

- davlatning barqaror rivojlanuvchi iqtisodiyoti;
- tovar ishlab chiqarish va xizmat sohasidagi turli mulkchilik shakllarinig mavjudligi,shu jumladan bank faoliyatida xususiy va aksioner mulk shakllarining ustivorligi;
- kredit-moliya tizimining bir me'yorda va aniq faoliyat yurituvchi strukturasining mavjudligi;
- qimmatli qog'ozlar bozorining zamonaviy va rivojlangan muassasalarining mavjudligi;
- qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilari faoliyatini nazorat qiluvchi qonuniy aktlar va tartiblarining mavjudligi;
- tijorat banklarining xalqaro investitsion faoliyatini yuritish amaliyotida bo'lgan yuqori sifatli qimmatli qog'ozlar muomalasining amal qilishi;

-investitsion faoliyat sohasi va qimmatli qog'ozlar bozori uchun mo'ljallangan yuqori malakali mutaxassislar va tadbirkorlarning mavjudligi, ularni tayyorlash va boshqalar.

Tayanch iboralar.

Investitsiya, Investitsiyalash, Moliyaviy investitsiyalar, Real investitsiyalar, Investitsiyalarni klassifikatsiyalash, bevosita investitsiyalar, Portfel investitsiyalar, Investitsiyani iqtisodiy mohiyati, Investitsiya loyihalari, Investitsiya faoliyati.

Nazorat savollari.

1. Investitsiyani mohiyati va mazmuni nimalardan iborat?
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarga bo'lgan ob'ektiv zarurat nimalar bilan belgilanadi?
3. Investitsiyalar kapital qo'yilmalardan qanday farqlanadi?
4. Investitsiyalarni klassifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz?
5. Investitsiya jarayoni tushunchasi?
6. O'zbekistonda investitsiya siyosatini maqsadini tushuntiring?
7. Investitsiya faoliyatining mazmunini tushuntiring?
8. Investitsiyalarni turlarga ajrating?
9. Investitsiyalarni tijorat banklari kreditidan farqi nimada?
10. Investitsiyalarni tijorat banklari kreditidan farqli xususiyatlari nimada?.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Vlinskiy P.L., Levshets V.N., Smolyak S.A. Otsenka effektivnosti investitsionno'x proektov: Teoriya i praktika: Ucheb. Posob.-3-e izd. Ispr. i dop. - M.: Delo 2004 g.
2. Evsanko O.S. hpargalka po investitsii. Ucheb. Posobie. -M.: TK. Velbi, 2004 g.
3. Kotayubov V.YU. Investitsionno'y potentsial xozyaystvennoy deyatelnosti: Makro ekonomicheskoy i finansovo-kreditno'y aspekto'. Ucheb pos. -M.: MGIMO-Universitet. 2004 g.
4. TSarev V.V. otsenka ekanomecheskoy effektivnosti investitsiy.- SPb.: petr, 2004 g.
5. Siddiqov A. Sanoat ishlab chiqarishiga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari samaradorligi. "Bozor, pul va kredit" jurnali, 2004 №7-8 sonlar.
6. Lizing munosobatlari nazariyasi va amaliyoti. I.f.d., professor D./ozibekov umumiy tahriri ostida.-T.: Fan va texnologiya, 2004 y.
7. Titov V.I. Analiz i deagnostika finansovo- xozyaystvennoy dyatelnost predpriyatiya: uchebnik. M.: Dashkov i K, 2005 g.
8. Kojuxar V.M. Praktikum otsenka investitsiy: Ucheb posobie. -M.: Izd. Torgovaya koorparatsiya. Dashka. 2005 g.
9. [Areferat.ru :: Investitsiya - \(lektsii\) http://areferat.ru/go/ref.php?id](http://areferat.ru/go/ref.php?id)
10. [Investitsiya. Pr. pos. I.Tokarev. 2003. 504 http://www.bizbook.ru/detail.html?book_id](http://www.bizbook.ru/detail.html?book_id)
11. <http://books.iznutri.ru/books/m.php/74231.html>
12. www.uz – pervo'y sayt Uzbekistana - resurso' Uzbekistana

13. www.gov.uz – ofitsialno'y pravitelstvenno'y sayt Respubliki Uzbekistan
14. www.stat.uz/index.htm – sayt Gosudarstvennogo komiteta RU po statistike
15. www.mf.uz sayt Ministerstvo finansov Respubliki Uzbekistan

3-Mavzu. Investitsiya faoliyati ob'ektlari, sub'ektlari va investitsiya faoliyatini yo'nalishlari.

- 1. Investitsiya faoliyati ob'ektlari va sub'ektlari.**
- 2. Investitsiya faoliyati yo'nalishlari va shakllari.**
- 3. Investitsiya jarayoni.**
- 4. Investorlar tipi.**

1. Investitsiya faoliyati ob'ektlari va sub'ektlari.

Investitsiya faoliyatini tashkil etishda uning ob'ekt va sub'ektlari ishtirok etadi.

Investitsiya sub'ektlari–investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatdir.

Investitsiya sub'ektlari orasidagi munosabatlar ishlab chiqarish xususiyatiga egadir.

Kapital qo'yilmalar shaklida investitsiya faoliyatini amalga oshirish sub'ektlari quyidagilardir; investorlar, buyurtmachilar, pudratchilar, kapital qo'yilma ob'ektlaridan foydalanuvchilar va boshqalar.

Investorlar o'z mablag'i yoki jalb qilingan mablag' yordamida kapital qo'yilmalarni amalga oshiradi. Yuridik va jismoniy shaxslar, yoki ularning birlashmasi, davlat organlari va chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar investor bo'lishlari mumkin.

Investorlar quyidagilarni amalga oshirishda teng huquqqa ega;
kapital qo'yilmalar shaklida investitsiya faoliyatini amalga oshirishda;
kapital qo'yilmalar hajmi va yo'nalishlarini mustaqil belgilash, hamda investitsiya faoliyatining boshqa su'ektlari bilan shartnomalar tuzishda:

kapital qo'yilmalar hisobiga yaratilgan, sotib olingan ob'ektlarga egalik qilish, foydalanish va tassaruf etish:

shartnoma yoki davlat shartnomasi orqali kapital qo'yilmalarni amalga oshirish va uning natijalariga bo'lgan huquqni yuridik va jismoniy shaxslarga, davlat va mahalliy hokimiyatga o'tkazish:

imzolangan shartnomalar asosida birgalikda kapital qo'yilmalarni amalga oshirish uchun o'zining va jalb qilingan mablag'larni boshqa investorlarning mablag'lari bilan birlashtirish;

kapital qo'yilmalarga yo'naltirilgan mablag'larni maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish.

Buyurtmachilar - investorlar tomonidan investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun vakil etilgan yuridik va jismoniy shaxslar. SHu bilan birga, ular investitsiya faoliyati sub'ektlarining tadbirkorlik faoliyatiga aralashmaydilar.

Buyurtmachilar rovida investorlarning o'zlari ham namoyon bo'lishlari mumkin. Investorlar bo'lmagan buyurtmachilar esa shartnomada belgilangan tartibda va davrda kapital qo'yimalarga egalik qilish, foydalanish va tassaruf etish huquqiga ega bo'ladilar.

Pudratchilar -yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, ular buyurtmachilar tuzgan shartnomalar asosida ishlarni bajaradilar. Pudratchilar qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish uchun ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo'lishlari kerak. qurilish faoliyatini litsenziyalash qurilish mahsulotlari iste'molchilarini huquqlarini himoyalash maqsadida amalga oshiriladi.

Kapital qo'yilma ob'ektlaridan foydalanuvchilar - bular yuridik va jismoniy shaxslar, hamda davlat organlari, mahalliy hokimiyat, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar bo'lib, ushbu ob'ektlar ular uchun yaratiladi.

Investorlar kapital qo'yilma ob'ektlaridan foydalanuvchilar rovida namoyon bo'lishi mumkin. Investitsiya faoliyati sub'ekti uning ikki va undan ortiq funktsiyalarini qo'shib olib borish imkoniyatini beradi. Investitsiya faoliyati sub'ektlari davlat organlari tomonidan qo'yilgan talablarni bajarishi, hamda maqsadli ravishda kapital qo'yimalardan foydalanishi zarur.

Investitsiya faoliyati investor tomonidan tanlangan sohalar, hamda investitsiyalar sarflanishi lozim bo'lgan maqsadlar bilan, ya'ni investitsiya ob'ektlari bilan bog'liqdir.

Investitsiyalarni yo'naltirish sohaları, ishlab chiqarishda ishtiroki va sarflanish ishlariga binoan investitsiya faoliyatining quyidagi ob'ektlarini farqlash mumkin:

- xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi yangidan yaratilgan va modernizatsiyalashtirilgan (yangilangan) asosiy fondlar va aylanma mablag'lari;
- fan-texnika mahsulotlari, izlanishlar, ta'limot, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;
- intellektual g'oyaviy boyliklar, mualliflik, ixtiro, kashfiyot huquqlari, tajriba;
- qimmat baholi qog'ozlar, maqsadli pul jamg'armalari;
- boshqa mulkchilik ob'ektlari;
- mulkiy huquqlar.

qonun va qonuniyatlarda ta'qiqlangan ekologik va boshqa me'yorlarga, sanitariya-gigiena talablariga javob bermaydigan, yaratilishi va ishlatilishi mumkin bo'lmagan vositalar uchun investitsiyalarni yo'naltirish man etiladi va bu ishlar investitsiyalarni sarflash ob'ekti bo'la olmaydi. Fuqarolar, huquqiy shaxslar va davlatni qonuniy manfaatlariga putur etkazadigan ishlar uchun ham investitsiyalar sarflash man etiladi.

Investitsiyalarni jalb etish va sarflash sohalariga asoslanib investitsiya faoliyati ob'ektlarini turkumini tuzish mumkin. Investitsiya faoliyati ob'ektlari turkumi investitsiyalarni sarflanish sohalariga binoan quyidagi 1-chi chizmada ko'rsatilgan.

1-chizma

Investitsiya faoliyati ob'ektlarini turkumlash³	
<i>Moliyaviy investitsiyalar ob'ektlari</i>	Real investitsiyalar ob'ektlari
Davlat va boshqa mulk egalari tomonidan chiqariladigan aktsiyalar, obligatsiyalar va qimmat baho qog'ozlar	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yangidan yaratiladigan va modernizatsiyalashtiriladigan asosiy fondlar va aylanma vositalari
Davlat va boshqa aktsioner-banklariga qo'yiladigan maqsadli jamg'armalar	Fan-texnika mahsulotlari, kashfiyot, ixtirolar, izlanishlar, ta'minot, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash
Bank depozitlari, tezavratsiyalashtirish ob'ektlari va boshqa mulkchilik ob'ektlari	/oyalar, intellektual boyliklar, kashfiyot, ixtiro, mualiflik huquqlari (nou-xau), tajriba o'rganish va almashish
Turli shakldagi mulkchilikka ega bo'lish huquqlari	Er, tabiiy resurslar va boshqa mulkchilik ob'ektlariga ega bo'lish va foydalanish huquqlari

1. qarang³ Vlinskiy P.L., Levshets V.N., Smolyak S.A. Otsenka effektivnosti investitsionno'x proektov: Teoriya i praktika: Ucheb. Posob.-3-e izd. Ispr. i dop. -M.: Delo 2004 g.

Investitsiya faoliyatida sohalardan birini yoki bir nechtasini tanlab olish huquqiga investorlarning o'zlari ega bo'ladilar. Ularni hech kim soha yoki investitsiya ob'ektlarni tanlashga majbur eta olmaydi. U yoki bu sohani tanlashda va investitsiyalarni ma'lum bir sohaga sarflashdagi qarorlarni investorlarning o'zlari qabul qiladilar. Investitsiya faoliyati sub'ektlari bo'lib bir investor, bir nechta tadbirkorlik va boshqa faoliyat bilan shug'ullanuvchi ishtirokchi investorlar bo'lishi mumkin. Investitsiya faoliyatidagi sub'ektlar investorlar bo'lib, mahalliy va chet ellik fuqarolar, huquqiy shaxslar yoki davlat hisoblanadi. Investitsiyalarni amalga oshirishni esa, qabul qilingan buyurtmalarni bajaruvchisi sifatida, investorni topshirig'i asosida investitsiya faoliyatini ishtirokchilari ta'minlaydilar.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun ular fuqarolarni va huquqiy shaxslarni o'z xohishlari bilan shartnomalar asosida jalb qiladilar.

qonunlarga tayangan holda shartnomalar asosida investitsiyalarga ega bo'lish, ulardan foydalanish va ushbu faoliyat natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilishni investorlar, boshqa fuqaro va huquqiy shaxslar zimmasiga topshirish to'g'risida qarorlar qabul qilishlari ham mumkin. Bunday hollarda majburiyat garovi sifatida (investorni majburiyatini ta'minlash) investorni mulki qabul qilinadi. Garovga faqat qarzga oluvchining shaxsiy mulki yoki to'la xo'jalik olib borish huquqiga ega bo'lgan mulk qo'yiladi.

Investorlar investitsiya natijalariga, investitsiya ob'ektlariga ega bo'lish, foydalanish, farmoyish chiqarish va reinvestorlash huquqlariga egadir.

Investitsiya faoliyatidagi jarayonda sub'ektlar o'rtasida bo'ladigan munosabatlar shartnomalar asosida muvofiqlashtiriladi. SHartnomalar tuzish, sheriklarni tanlash, majburiyatlarni aniqlash va boshqa xo'jalik munosabatlarini o'rganish, ular qabul qilingan qonunlarga zid bo'lmasa, faqat investitsiya faoliyati sub'ektlari zimmasida bo'ladi. Har ikki tomonning kelishuviga binoan, shartnomalar investitsiya faoliyatining umumiy muddatiga tuziladi.

qabul qilingan qonunlarda investorning qator majburiyatlari bor. Bu majburiyatlar davlat idora va muassasalari oldida bajarilishi lozim bo'lib, quyidagilardan iboratdir:

- investorlar investitsiyalar hajmi va ularning manbalari to'g'risida moliya organlariga deklaratsiya topshirishlari lozim.
- kapital qo'yilishni amalga oshirish uchun, tegishli rahbar va maxsus xizmat organlari tomonidan ruxsat olinishi kerak;
- investitsiya loyihasining sanitariya-gigiena va ekologik talablarga javob berishi to'g'risida ekspertiza xulosasiga ega bo'lishi shart.

YUqorida qayd qilinganlardan tashqari, investitsiya sub'ektlarining majburiyatlariga quyidagilar ham kiradi:

- vijdonan raqobat qilish va yakka hokimlikka qarshi muvofiqlashtirish talablarini bajarish;
- davlat, rahbar xodim va organlar tomonidan yuklatilgan talablarni baholash va ularga bo'ysunish;

- belgilangan tartibda buxgalterlik va statistik ma'lumotlar, hamda hisobotlarni tegishli idoralarga o'z vaqtida etkazib berish.

Bulardan tashqari investitsiya faoliyatini har bir ishtirokchisi maxsus ishlarni bajarish uchun litsenziyaga ega bo'lishi lozim. Litsenziya olish uchun bajarish lozim bo'lgan ishlarni ro'yxati va ularni amalga oshirish tartibi mumkin qadar qonunchilikda belgilanadi.

Investitsiyalashning asosiy bosqichlari quyidagilardir;

1. resurslarni kapital xarajatlariga aylantirish, ya'ni investitsiyalarni aniq investitsiya faoliyati ob'ektlariga investitsiyalash;
2. qo'yilgan mablag'larni kapital qiymatining o'sishiga aylantirish, bu investitsiyalarni pirovard iste'moli va yangi iste'mol qiymatini olish bilan harakatlanadi;
3. kapital qiymatini foyda ko'rinishida o'sishi, ya'ni investitsiyalashning yakuniy maqsadi amalga oshiriladi.

SHunday qilib, boshlang'ich va yakuniy bo'g'inlari birlashib, yangi o'zaro bog'liqlikni yaratadi; daromad-resurs-yakuniy natija (samara), ya'ni jamg'arish jarayoni qayta takrorlanadi.

Kapitalni o'sish manbasi va investitsiyalashni maqsadida amalga oshirilayotgan loyihalardan olinadigan daromaddir.

Amaliyotda investitsiyalarning samaradorligini (IS) aniqlash uchun foyda massasining (F) investitsiya xarajatlariga (IX) bo'lgan nisbati foiz ko'rinishida olinadi;

Investitsiya xarajatlarini foyda bilan solishtirish jarayoni doimiy ravishda investitsiyalash amalga oshguncha qadar (investitsion loyihaning biznes-rejasi ishlab chiqarish davrida), investitsiyalash davrida (ob'ektni qurilishi davrida) va investitsiyalashdan so'ng (yangi ob'ektdan foydalanish davrida) davom etadi.

2. Investitsiya faoliyati yo'nalishlari va shakllari.

Investitsiya faoliyatini tashkil etishda har bir mulk egasi ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni mohiyatini chuqur anglagan holda ish yuritishi lozim. Investitsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi mulk egasi tez o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti va uning ko'pqirrali munosabatlarini har tomonlama anglay bilishi lozim. Investitsiya faoliyatini yuritishda iqtisodiy axborotga tanlangan soha bir butun iqtisodiyot va mamlakat miqyosida marketing bililariga ega bo'lishi alohida ahamiyatga ega. CHunki barqarorlashmagan iqtisodiyotda investor pul muomalasi, moliya kredit va banklar, soliq siyosati mohiyatini chuqur bilmay turib, investitsiya faoliyatini tashkil etish tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lib, qisqa davr ichidagi inqirozga uchrashi mumkin. Bozor munosabatlari rivojlangan etuk jamiyatda investitsiya faoliyati quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- fuqarolar, davlatga qarashli bo'lmagan korxonalar, xo'jalik assotsiatsiyalari, jamoa va o'rtoqlik xo'jaliklari hamda jamoa mulkchiligi asosida tashkil etilgan diniy tashkilotlar, nodavlat korxonalari va muassasalari tomonidan;

- davlatni ma'muriy va boshqaruv bo'linmalari, tashkilotlari hamda davlat korxonalari va muassasalari tomonidan;
- chet el fuqarolari, xususiy firmalar, assotsiatsiyalar, kompaniyalar va huquqiy shaxslari hamda boshqa davlatlar tomonidan;
- qo'shma korxona ko'rinishida mahalliy va chet el fuqarolari, huquqiy shaxslar va davlatlar bilan hamkorlikda.

Mulkchilikni turli shakllarini rivojlanishi, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni yo'lga qo'yilishi, jahon iqtisodiy aloqalarini taraqqiy etishi, qo'shma korxonalarini iqtisodiyotni barqarorlashtirishda rolini o'rnatishi investitsiya faoliyatini to'la tashkil etish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni yaratadi.

Mulkchilikning turli shakllarini vujudga kelishi, o'z navbatida tadbirkorlikning rivojlanishi, chet el kapitalining kirib kelishi investitsiya faoliyatini tashkil etish yo'nalishlarini ham aniqlab beradi.

Investitsiya faoliyati to'rt asosiy yo'nalishlarda bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda, turli xil mulkdorlar tomonidan olib boriladi. Investitsiya faoliyatini tashkil etishning bu yo'nalishlari o'z navbatida bir necha tip va shakllarda amaliyotga tatbiq etiladi.

Samara yoki daromad keltiradigan mulkiy va intellektual boyliklar, ya'ni investitsiyalar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin,

- pul mablag'lari, banklardagi maqsadli jamg'armalar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar;
- harakatdagi va harakatda bo'lmagan mulklar (binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, hamda boshqa moddiy boyliklar);
- mualliflik huquqi, nou-xaulardan tashkil topgan mulkdorlik huquqlari va boshqa intellektual boyliklar;
- er va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari hamda mulkchilik huquqlari;
- boshqa boyliklar.

Investitsiyalarning qayd etilgan turlari va shakllari asosida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa davlat tomonidan ta'qiqlanmagan faoliyatlarni barcha investorlar tomonidan amaliy ravishda yo'lga qo'yish, mablag'lar sarflash va ularni amaliyotga tatbiq etish chora tadbirlarining yig'indisi investitsiya faoliyatini anglatadi.

Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini fuqarolar, huquqiy shaxslar (korxonalar, firmalar, aksioner jamiyatlari va boshqa tipdagi mulk egalari) va davlat yuritadi. Investitsiya faoliyatini yo'lga qo'yishda har bir mulk egasi, birinchi navbatda o'z manfaatini ko'zlab yagona maqsadga, ya'ni foyda olish va samaraga erishishni rejalashtiradi.

Bozor sharoitida investitsiya faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish jismoniy, huquqiy shaxslarni va davlatni, foyda olish maqsadida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa faoliyatlarini qaytadan tiklashga qaratilgan. Bu boradagi asosiy maqsad investitsiya faoliyatini tashkil etib iqtisodiyotni inqirozdan olib chiqish, uni barqarorlashtirish, dunyo bozoriga kirib borish, jahon xo'jalik aloqalarini mustahkamlash va aholi turmush darajasini yaxshilashdir.

Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish yo'li bilan kreditlar evaziga, muomalaga, qonunchilikda belgilangan holda, qimmatli qog'ozlar va zayomlar chiqarish hisobiga olib boriladi. Davlat mulkini xususiylashtirish tufayli mamlakat miqyosidagi manbalarni tarkibida mablag''larni kamayib borishi kuzatilmoqda. Aksincha turli mulk egalarining mablag''lari, yangidan tashkil etilayotgan fondlarni ulushi, chet el investitsiyalarining miqdori ortib boradi. Albatta, bu borada har bir mamlakatning investitsiya siyosati hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Investitsiya manbalarini tashkil etishda mamlakat iqtisodiyotini barqarorligi, milliy valyuta birligini konvertrlanishi, tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, aholi ehtiyojini ishlab chiqarish hisobiga qondirilishi va boshqalar muhim rol o'ynaydi.

Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishning muhim yo'nalishida qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Avvalambor, ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish, yangilik va ixtirolarni tadbiq etish asosida ijtimoiy talablarni qondirishga qaratilgan. Bu borada muvofiqlashtirishni tashkil etish investitsiya faoliyatini sharoitlarini aniqlash yo'li bilan hamda davlat investitsiyalarini boshqarish bilan birga olib boriladi. Davlat tomonidan investitsiya faoliyati sharoitlarini muvofiqlashtirish bir qator tadbir va choralarni qo'llash va hayotga tadbiq etish negizida amalga oshirilishi ko'zda tutiladi.

Hujjatda ko'rsatilgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

1. Soliqlar tizimini qulaylashtirish. Soliq sub'ektlari, ob'ektlarini hamda uning miqdorlarini tabaqalash va engilliklar berish;
2. Amortizatsiya siyosatini tubdan o'zgartirish, shu jumladan asosiy fondlarni amortizatsiyasini tezlashtirish (iqtisodiyotni sohalari, ba'zi tarmoqlari, asosiy fondlarni qismlari, asbob-uskunalarini turlari bo'yicha tabaqalashgan holda amortizatsiya yangiliklari o'rnatiladi);
3. Ayrim mintaqalarni, tarmoqlarni, ishlab chiqarishlarni rivojlantirish uchun dotatsiyalar, subsidiyalar, subventsiyalar, byudjet ssudalari orqali moliyaviy yordam ko'rsatish;
4. Kredit siyosatini, davlat me'yori va andozalarini, yakka hokimlikka qarshi tadbirlarini amalga oshirish. Davlat mulkini, shu jumladan tugatilmagan qurilishlarni xususiylashtirish (davlat tasarrufidan chiqarish) hamda baholarni tashkil etish siyosati;
5. Er hamda boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish shart-sharoitlarini aniqlash;
6. Investitsiya loyihalarini tekshiruvdan o'tkazish.

Bugungi kunda yuqorida qayd etilgan tadbir va choralarni hayotga tadbiq etish maqsadida respublikada bu borada bir necha qonunlar qabul qilindi. Afsuski, investitsiya faoliyatini to'la-to'kis ravishda muvofiqlashtirishni ma'lum ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra joriy etilishi qiyin bo'lmoqda. Ayniqsa, inflyatsiya kuchaygan davrda, hamda yangi banklar tizimi vujudga kelayotgan jarayonda kredit siyosatini bozor munosabatlariga moslashishi og'ir bo'lmoqda. Mustaqil mamlakatimizni o'z kredit siyosatini yuritish bo'yicha tajribasizligi, hamda uni amalga oshirish, iqtisodiyotni zaiflashgan bir davrga to'g'ri kelishi munosabati bilan deyarli ta'sir ko'rsatganicha yo'q. Moliya siyosatini yurgizishda shu

jumladan soliqlar tizimini takomillashtirishda ham anchagina ishlar qilinishi lozim. Bozor munosabatlari rivojlanayotgan davrda, investitsiya loyihalarini ekspertizalash sohasida ham tajriba yo'qligi tufayli, ko'zlangan samaraga erishish to'la-to'kis ta'minlanganicha yo'q. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarishda ham anchagina muommolar echilishi lozim. Respublikamizda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda davlatni e'tibori birinchi navbatda qayd qilingan muammolarni bartaraf etishga qaratilishi zarur.

Investitsiyalarni yo'nalishlarini aniqlashda mavjud bo'lgan vaziyatni hisobga olish, O'zbekiston iqtisodiyotini qayta qurish, chet mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlanishi, jahon bozoriga o'z mahsuloti bilan chiqishni asosiy masala qilib olish lozimdir. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish masalasi investitsiya faoliyatini tashkil qilishni mavjud moddiy va moliyaviy resurslar bilan bog'langan holda olib borishni talab qiladi va ishlab chiqarish investitsiyalarini eng zarur bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilishini taqozo etadi. Bu borada ayniqsa paxtachilik bilan bog'liq bo'lgan va tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarni rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish zarurdir. O'zbekiston sharoitida investitsiyalar yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga, hamda namunaviy mashina, asbob-uskunalarni kirib kelishiga qaratilishi juda ham samaralidir.

Iqtisodiyotni inqirozdan chiqarishda, uni barqarorlashtirishda, hamda yuksak darajada rivojlantirish hayotiy masala investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda quyidagi savollarga javob berishdir: kapital qo'yilmalar siyosati qanday olib borilishi lozim; davlat korxonalari va tashkilotlari tomonidan investitsiyalar qanday hajm va nisbatlarda o'zlashtirilishi kerak; boshqa mulkchilik shakllaridagi korxonalar investitsiyalarini nimalarga qaratishi kerak; chet el investitsiyalari birinchi navbatda qaysi tarmoqlarga qanday kirib kelishi zarur va boshqalar.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirishni muhim shartlaridan biri muomalada bo'lgan pul birligini qadrsizlanishini oldini olishdir. Investitsiya faoliyatidan olinadigan samarani ko'paytirish maqsadida investitsiyalar hajmini, yo'nalishlarini va manbalarini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. SHu bilan birgalikda yangi moliyalashtirish, kredit bilan ta'minlash, bahoni tahlil qilish, soliqqa tortish tizimlarini takomillashtirishdir. Tarkibiy o'zgarishlarni o'tkazish maqsadida chet el investorlari uchun siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni yaratish, ularni qo'yilmalarini davlat tomonidan sug'urtalash, turli imtiyozlar berish muhim hisoblanadi.

Bozor infratarkibini rivojlanishi investitsiyalar bozorini tashkil etilishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida davlatning markazlashgan kapital qo'yilmalar siyosatiga o'zgarishlar kiritadi. Turli mulkchilikni shakllanish munosabati bilan davlat investitsiyalarining ulushi, ularning hajmida anchagina pasayadi. Boshqa mulk turlari bo'yicha investitsiyalarning hajmi esa keskin o'sadi.

3. Investitsiya jarayoni.


Investitsiya jarayoni – pul taklif qiluvchilar (vaqtincha bo'sh mablag'larga ega bo'lganlar) ni pul talab qilayotganlar (ularga ehtiyoj sezayotganlar) bilan

uchrashtirish mexanizmidir. Ikkala tomon odatda moliyaviy institutlarda yoki moliyaviy bozorda uchrashadilar. Ayrim vaqtda, xususan mulkiy qiymatlar (masalan, ko'chmas mulk) bilan bitim imzolanganda sotuvchi va xaridorlar bevosita muomalaga kirishadilar. Moliyaviy institutlar – masalan, banklar va ssuda omonat assotsiatsiyalari – odatda omonatlarni qabul qiladilar va keyin pulni kreditga beradilar yoki boshqa pul bilan mablag'larini investitsiyalaydilar. Moliyaviy bozorlar – moliyaviy resurslarni taklif qiluvchilarni va ularga ehtiyoj sezayotganlar odatda fond birjalariga o'xshash vositachilar yordamida bitim tuzish uchun birlashtirish mexanizmidir. Aktsiyalar bozori, obligatsiyalar bozori, auksionlar bozori kabi moliyaviy bozorlarning qator turlari bor. Ularni umumiy xususiyati moliyaviy vositani bahosi turli holatlarda talab va taklifni muvozanat nuqtasini topishlikdadir. Daromadlilik, tavakkalchilik, inflyatsiyalar, dunyodagi turli vaziyatlar haqida yangi axborotlarni e'lon qilinishi tufayli talab va taklif nisbatining o'zgarishi yangi muvozanatni yoki yangi bozor bahosini o'rnatilishiga olib keladi.

3 chizmada investitsiya jarayonini aks ettiruvchi chizmada keltirilgan. chizmadan ko'rinishicha pul resurslarini taklif qilayotgan shaxslar unga ehtiyoj sezayotganlarga moliyaviy institutlar, moliyaviy bozorlar orqali yoki to'g'ridan-to'g'ri berishi mumkin. Moliyaviy institutlar moliyaviy bozorda talab tomonida va taklif tomonida turib ishtirok etishi mumkin. Moliyaviy bozorni qisqa muddatli sektori pul bozori deb ataladi, uzoq muddatlisi esa kapital bozori deb atalib, unda fond birjasi o'rni salmoqlidir.

Investitsiya jarayoni ishtirokchilari. Investitsiya jarayonining bosh ishtirokchilari – davlat, kompaniyalar va xususiy shaxslar bo'lib, ularni har biri investitsiya jarayonida talab tomonida, yoki hamda taklif tomonida turib ishtirok etishi mumkin.

Davlat. Ijroiya hokimiyatini har bir darajasiga o'z faoliyatini moliyalashtirishga katta miqdorda pul kerak bo'ladi. Ushbu faoliyat maktab, kasalxona, turar joylar, katta yo'llar kabi ijtimoiy inshootlarni qurishga sarflanayotgan kapital qo'yilmalar bilan bog'liqdir. YUqoridagi loyihalar turli ko'rinishdagi uzoq muddatli qarz majburiyatlar – obligatsiyalar chiqarish yo'li bilan moliyalashtiriladi. Pulga bo'lgan talabni boshqa manbai bo'lib davlatni joriy ehtiyojlari hisoblanadi. Masalan, xukumat soliq ko'rinishida davlat byudjeti daromadiga to'langangan qaraganda ko'p xarajat qilish mumkin. YOki, shahar hokimiyati joriy faoliyati uchun pul kerak bo'lgan holda byudjetga soliqlar to'lanmagan holatlar bo'lishi mumkin.

Investitsiyalash jarayoni⁴

Ustun darajada hokimliklar o'z ehtiyojlarini qisqa muddatli obligatsiyalar chiqarish yordamida moliyalashtiradilar.

Ayrim vaqtda ijroiya hokimiyati idoralari pulni taklif qiluvchilar tomonida qatnashadilar. Masalan, shaharda ma'lum vaqtga kelib qandaydir pul summasi bo'shab qolsa, uni joriy hisob raqamida ushlab turmasdan, shahar hokimiyati mablag''ni qisqa muddatli moliyaviy bozorga qurollarga qo'yib daromad olishlari mumkin.

Ijroiya hokimiyati idoralarini moliyaviy mablag''larga ehtiyoj sezayotgan tomonda va taklif tomonida moliyaviy institutlar va moliyaviy bozorlar holatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Aksariyat hollarda davlat – bu pul mablag''larini iste'molchisidir, ya'ni u mablag'' berishga qaraganda ko'p mablag''ni ishlatadi.

1. ⁴ qarang. Kojuxar V.M. Praktikum otsenka investitsiy: Ucheb posobie. -M.: Izd. Torgovaya koorparatsiya. Dashka. 2005 g.

2.

Kompaniyalar. Ko'pgina kompaniyalar shakllaridan qa'tiy nazar o'z faoliyatini yuritish uchun yirik moliya mablag'lariga muhtoj bo'ladi. Ijroiya hokimiyati idoralari singari, ularni moliyaviy ehtiyojlari uzoq va qisqa muddatliga bo'linadi. Uzoq muddatli maqsadlarni amalga oshirish uchun kompaniyalarga zavodlar qurishga, asbob-uskunalar va inshootlar olishga, yangi mahsulotlarni ishlash uchun pul kerak bo'ladi. qisqa muddatli ehtiyojlar tovar zahiralarini ta'minlash, debitor qarzlarini va boshqa joriy xarajat qoplash zaruratlaridan yuzaga keladi. qisqa va uzoq muddatli ehtiyojlarni moliyalashtirish uchun kompaniyalar muomalaga turli xil qarz qimmatli qog'ozlarni va aktsiyalarni chiqaradilar. qachonki ularda vaqtincha ortiqcha pul mablag'leri paydo bo'lsa, ular pullarni boshqalarga taklif qiladilar. Amalda ko'pgina yirik kompaniyalar naqd pullarini boshqarishni faol va murakkab strategiyasini amalga oshiradilar va qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarni asosiy xaridorlari hisoblanadilar.

Davlatga o'xshab kompaniyalar umuman pul mablag'larini sof xaridorlari hisoblanadi.

Xususiy shaxslar. Xususiy shaxslar investitsiya jarayoniga turli usular bilan: masalan, omonat hisoblarga pul joylashtirish, obligatsiya va aktsiyalar sotib olish, sug'urta polislari olish bilan pul etkazib berishlari mumkin. Moliyaviy qurollarni tanlash ko'pgincha judayam oddiy vazifa emas, u yakka investor o'z oldiga qanday maqsad qo'yayotganiga bog'liq. Pul mablag'lariga xususiy shaxslarni talabi asosan mulkni, odatda uy avtomobil xarid qilishni moliyalashtirish uchun zayom shakliga ega bo'ladi. Vaholanki, unday talabni miqdori juda katta, xususiy shaxslar – pul sof etkazib beruvchilardir, boshqacha qilib aytganda ular investitsiya jarayoniga olganiga qaraganda ko'p beradilar. Davlat va kompaniyalar pul mablag'larining sof xaridorlari hisoblanar ekan, xususiy investorlarning iqtisodiy o'sish va rivojlanishni moliyalashtirish uchun pul etkazib berishdagi roli juda salmoqlidir.

4. Investorlar tipi.

Investorlar tipi. Ikki tipdagi investorlar bor: ular institutsional va yakka investorlar. **Institutsional investorlar** - mutaxassislar bo'lib, ularga begonalarning pulini boshqargani uchun haq to'laydilar. Ularni moliyaviy muassasalar, masalan, banklar, sug'urta kompaniyalari, o'zaro va pensiya fondlari, hamda yirik nomoliyaviy korporatsiyalar, ayrim hollarda xususiy shaxslar yollaydilar. Moliyaviy institutlar o'z omonatchilariga yaxshigina daromadni ta'minlashga harakat qilib katta summani investitsiyalaydilar. Masalan, bankning trast bo'limi unga ishonib topshirilgan mablag'ga etarli daromad to'lashi lozim; hayotni sug'urtalash kompaniyasi mijozlarga, hamda mijoz vafot etgan holatlarda ular merosxo'rlariga va oluvchilariga sug'urta mukofoti to'laydigan daromadni to'lashga sug'urta badallarini investitsiyalash lozim. Sanoat yoki savdoga o'xshash nomoliyaviy kompaniyalar ham ko'pincha ortiqcha pul mablag'lariga ega bo'ladilar, bo'sh pullar daromad keltirishi yoki joriy operatsiyalarga va istiqbolga kapital qo'yilmalari talabni qoplashga yordam berish uchun omonatga qo'yadilar.

YAkka investorlar o'z moliyaviy manfaatlari uchun shaxsiy mablag''larini tasarruf etadilar. YAkka investor ko'pincha pensiyaga ketganda yoki uning oilasini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda daromad manbai bo'lishligi uchun bo'sh turgan pullari foyda keltirishidan manfaatdordir. YAkka investorlarni ko'pchiligi faqat shaxsiy qimmatli qog'ozlar portfelini nima bilan to'ldirish yoki shaxsiy pensiya fondini qanday ta'minlashga izlanish bilan band bo'ladilar. Katta summadagi pullarni qo'yishi mumkin bo'lganlar investitsiya sohasida kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmaganliklari tufayli o'z mablag''larini boshqarishni institutsional investorlarga, masalan, banklarni trust bo'limlariga yoki investitsiyalar bo'yicha malakali maslaxatchilarga topshiradilar.

Institutsional va yakka investorlar uchun asosiy ish tamoyillari yagonadir: to'g'ri institutsional investorlar odatda pul egalari nomidan anchagina yirik summalar bilan ish qiladilar, shuning uchun ular yuqori malakaga ega bo'ladilar va murakkab va nozik usullarni qo'llaydilar.

Investitsiyalash. Maxsus tanlangan moliyaviy qurollarga pulni qiymatini ko'paytirish yoki ijobiy daromad olish maqsadida joylashtirish jarayonini investitsiyalash deb ataladi. Ushbu faoliyat katta iqtisodiy ahamiyatga ega, u mantiqiy ketma-ket xarajatlar sifatida bajarilishi mumkin, uni natijasi esa daromad olish hisoblanadi. Keyingi vaqtlarda bir qator yangiliklar kiritildiki, ular investitsiyalashni rag'batlantiradi va ushbu jarayonni anchagina maqbullantiradi.

Investitsiyalashni ijodiy ahamiyati. Iqtisodiyotni amal qilishi va o'sishi davlatni va kompaniyalarni shuningdek xususiy shaxslarni o'sib borayotgan talablarini moliyalash uchun qanchalik pul mablag''larini engil jalb qilishga bog'liq. Masalan, agar ipoteka zayomlarini ishonch tariqasida bo'lmaganda edi, ko'pchilik uylarni sotib olish imkoniyatiga ega bo'lmasdilar, zayom mablag''larisiz uylarni qurilishida va qurilish ash'yolari ishlab chiqarishda judayam kam ishchi band bo'lgan bo'lur edi. SHuning uchun, agar ko'chmas mulkni kafolatsiz kreditlash xajmi kamaysa, pirovardida bu mamlakatda umumiy iqtisodiy faollikni pasayishiga olib kelgan bo'lar edi: bu tushunarli, chunki aynan pullarni maqbul tassarruf qila olishi mumkin bo'lganlarga ularni olish engil bo'lsa, iqtisodiy o'sishni zarur sharoitini ta'minlagan bo'lur edi. Hamon xususiy shaxslar pullarni etkazib beruvchilar bo'lib hisoblanar ekan, davlat va kompaniyalar ularni sof xaridorlari hisoblanadilar, investitsiyalash jarayoni juda salmoqli natijalarga ega bo'ldi.

Investitsiya mukofoti. Investitsiyalarga daromad yoki foyda joriy daromad yoki qo'yilgan mablag''larni qiymatini o'sishi sifatida olinishi mumkin. Masalan, bankni omonat hisobiga joylashtirilgan pullar muntazam hisoblanadigan foizlar shaklida joriy daromad beradi, shu bilan bir paytda bo'sh turgan er uchastkasi sotib olishga qo'yilgan pullar, uni sotib olish va sotish orasidagi o'tgan paytda uchastkani qiymatini o'simi ko'rinishida daromad keltiradi. Mablag''lar muhtoj bo'layotganlar kimda ular ortiqcha bo'lsa jalb qilishlari mumkin, daromad yoki foyda pul etkazib beruvchilarni tavakkalini qoplashi lozim. Sodaroq qilib gapirganda investitsiyalash jarayoni bir tekis ketishi uchun pul etkazib beruvchilar mukofot olishi lozim, pul xaridorlari esa ushbu mukofotni ta'minlashlari lozim.

Mukofot miqyosi va shakli qimmatli qog'ozlar bilan bitishuvlarni xilma-xilligiga bog'liq.

Investitsiyalashda xarajatlar ketma-ketligi. Amalda investitsiyalashga xilma-xil yondashuvlardan foydalaniladi. Ulardan biri aniq maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan xarajatlarni chuqur rejalashtirishdan iborat. Boshqasi, qarama-qarshi yondashuv bo'lib harakatlar tasodifidan iborat, unda qarorlar intuitsiya asosida qabul qilinadi. Tajribani ko'rsatishicha maqbul yondoshganda natijalar odatda yuqori bo'ladi. SHuning uchun investor dastlab reja tuzishi, keyin umumiy moliyaviy maqsadlarga muvofiq investitsiya dasturini bajarishi kerak. Unday dasturni amalga oshirish natijasi tavakkallikni qoniqarli darajasida mo'ljallangan daromadni beruvchi investitsiya portfelini shakllantirish lozim. Investitsiyalashda asosiy bosqichlarni qisqacha ifodalab ko'ramiz chunki u bizga kontseptsiyalarni, qurollarni va ushbu jarayonni alohida texnik usullarini ko'rib chiqishga yordam beradi.

Investitsiyalashni dastlabki shartlari. Pulni qo'yishdan oldin, siz o'zingizni hayotiy ehtiyojlaringiz bir maromda ta'minlanganligiga ishonch hosil qilishingiz lozim. Pullar joriy ehtiyojlarni ta'minlash uchun qo'yilishi kerak emas, investitsiyalarni maqsadi - joriy pul mablag'larini bo'lajak ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanishdir. Undan tashqari, siz omonat hisobga naqd pullarga ko'zda tutilmagan holatlar paydo bo'lishini oldini olib uncha katta bo'lmagan pul summasini qo'yasiz. Boshqa sharoit esa vafot etganda, kasal bo'lganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, mulkiga ziyon etkazilganda yo'qotishlardan muhofaza qilish bo'lib hisoblanadi. Bunday tavakkallikdan hayotni, salomatlikni, mulkni va majburiyatlarni sug'urtalash muhofaza qiladi. Undan tashqari, pensiyaga chiqqandan keyingi etarli daromadni rejalashtirish ham investitsiya dastlabki shartlaridan biri hisoblanadi, chunki pulni bunday qo'yishni natijasi investitsiyalash dasturini qay darajada muvaffaqiyatli tuzilganligiga bog'liq. O'z oldiga aniq maqsadlar qo'yishdan oldin yakka omonatchi pensiga chiqish paytiga eng kamida qanday natijaga erishishini hohlashini belgilab olishi lozim.

Investitsiyalash maqsadlarini belgilash. Investor dastlabki shartlarni bajarish va moliyaviy vazifalarni aniq belgilangan zahoti, u investitsiyalashni maqsadlarni daromadlilikni hohlagan darajasi bilan bog'liq vaqtini miqyoslarni, shakllarni va tavakallikni aniq darajasini belgilashi lozim. Masalan, ma'lum yilda, yozgi dala hovli sotib olishda birinchi badal uchun 15000 dollar yoki pensiyaga chiqish muddatiga pensiya jamg'armasi sifatida 250000 dollar jamg'arish maqsadini qo'yish mumkin. Ushbu maqsadlar faqatgina umumiy moliyaviy vazifalarga muvofiq kelishilgan emas, balki bajariladigan bo'lishi lozim. qo'yish uchun dastlabki summasiga ega bo'lish va qo'yilgan maqsadlarga erishini qanday daromadlilik me'yori ta'minlashi mumkinligi haqida tushunchaga ega bo'lishi kerak.

Moliyaviy qurollarni baholash. Moliyaviy qurolni tanlashda oldin, uni qo'yish maqsadni nuqtai nazaridan baholash zarur. Uning har bir moliyaviy qurolni bo'lishi mumkin bo'ladigan daromadlilik va tavakkalligi haqida tushunchani shakllantirish kerak, chunki ular hammasi baholashni ya'ni ko'zda

tutilgan qiymatini aniqlashni talab qiladi. Baholash jarayoni natijasi muayyan qurolni aniq daromadlilik tavakkallilik va bahosi miqyoslari bo'lishi lozim.

Investitsiyalashni aniq variantini tanlash. Pul qo'yish variantini tanlash juda muhim chunki, investorni keyingi xarajatlarini borishini ana shu belgilaydi va rejalashtirilayotgan maqsadlarga erishish muvaffaqiyati ko'p jihatdan shunga bog'liq. Eng yuqori daromadlilikni shunchaki ta'minlaydigan variantni o'zi yaxshi bo'lishi shart emas; tavakkal va soliqqa tortish kabi boshqa darajalar ham muhim rol o'ynashi mumkin. Masalan, yuqori yillik dividendlar olishga, eng yuqori kutilayotgan foyda berishi mumkin bo'lgan kompaniyani oddiy aktsiyasini sotib olishga intilayotgan investor. Agarda shu aktsiyani chiqargan firma bankrotga uchrasa, unda aktsioner qo'yilgan pullarini yo'qotadi. qo'yilmalarni muvaffqiyatli boshqarish uchun moliyaviy qurollarni e'tibor bilan tanlash juda muhim hisoblanadi, chunki ular qo'yilgan maqsadlarga muvofiq kelishi va daromadlilikni, tavakkalni va bahoni maqbul darajalari bilan ta'riflanishi lozim.

Diversifikatsiya portfelini shakllantirish. Investitsiya portfeli – bu bir yoki bir qancha maqsadlarga erishishni mo'ljallab tanlanadigan moliyaviy qurollar yig'indisidir. Masalan, Djoan Smitni investitsiya portfelida IBM kompaniyasini 20 oddiy aktsiyasi, 20000 dollarlik davlat obligatsiyalari va “ZDS Grous” o'zaro fondining 10 aktsiyasi bor. Muayyan usullar yig'indisidan foydalanib investor o'z qo'yilmasini shunday kombinatsiya qilish mumkinki, u holda investor daromadlilikni, tavakkalni va narxni maqbul darajasida qo'yilgan maqsadga erishadi.

qulay portfelni shakllantirish uchun, turli tarifga ega bo'lgan bir qancha moliyaviy instrumentlarni yig'indisini kiritish ko'zda tutiladi. Xilma-xil qurollarni qo'llab, investor oxir oqibatda qo'yilmalarni yuqori daromadlilikiga erishishi mumkin yohud moliyaviy qurollar sonini kuchaytirish hisobiga tavakkalni kamaytirish mumkin.

Portfelni boshqarish. Portfel shakllanib bo'lishi bilanoq, investor kutilayotgan natijalarga muvofiq portfel ko'rsatkichlari dinamikasini aniqlashi va baholashi lozim. Masalan, agar daromadlilik, tavakkal va qo'yilmalar qiymati investorni maqsadlari yoki mo'ljallariga muvofiq kelmasa portfel o'zgartirilishi mumkin. Odatda bu bir moliyaviy qurollarni sotib va tushgan pulga boshqa moliyaviy qurollarni olishni anglatadi. SHunday qilib, portfelni boshqarish – bu faqatgina moliyaviy qurollarni maqbul tsig'indisini yaratish emas, balki uning orqasidan u yoki bu qurollarni haqiqiy dinamikasiga muvofiq portfel tarkibini o'zgartirish hamdir.

Tayanch iboralar.

Investitsiya faoliyati ob'ektlari va sub'ektlari, Investorlar, Buyurtmachilar, Pudratchilar, Investitsiyalashning asosiy bosqichlari, Investitsiya faoliyati yo'nalishlari, Investitsiya jarayoni, Investitsiya jarayoni ishtirokchilari, Institutsional investorlar, YAkka investorlar.

Nazorat savollari.

1. Investitsiya faoliyatini tashkil etishda uning ob'ekt va sub'ektlari ishtiroki qanday?
2. Investitsiya faoliyati ob'ektlarini turkumlab bering?
3. Investitsiya faoliyati yo'nalishlari qanday va ularning moliyaviy manbalari?
4. Investitsiya jarayoni deganda nimani tushunasiz?
5. Investitsiya jarayoni ishtirokchilari kimlar?
6. Xorijiy investorlar deb kimlarga aytiladi?
7. Portfelni boshkarish deganda nimani tushunasiz?
8. Diversifikatsiya portfelini shakllantirishda nimani tushunasiz?.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Evsanko O.S. hpargalka po investitsii. Ucheb. Posobie. -M.: TK. Velbi, 2004 g.
2. Kotayubov V.YU. Investitsinno'y potentsial xozyaystvennoy deyatelnosti: Makro ekonomicheskoy i finansovo-kreditno'y aspekto'. Ucheb pos. -M.: MGIMO-Universitet. 2004 g.
3. TSarev V.V. otsenka ekonomicheskoy effektivnosti investitsiy.- SPb.: petr, 2004 g.

4-Mavzu. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish va davlat tomonidan tartibga solish.

Reja

1. **Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish va tartibga solishning usullari.**
2. **Investitsiya faoliyatini tartibga solishda investitsiya strategiyasining o'rni.**
3. **O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni davlat tomonidan boshqarilishi.**
4. **Xorijiy investitsiyalarni tartibga solishning jahon tajribasi.**

1. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish va tartibga solishning usullari.

Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish yo'li bilan kreditlar evaziga, muomalaga, qonunchilikda belgilangan holda, qimmatli qog'ozlar va zayomlar chiqarish hisobiga olib boriladi. Davlat mulkini xususiylashtirish tufayli mamlakat miqyosidagi manbalarni tarkibida mablag''larni kamayib borishi ko'zatilmoqda. Aksincha turli mulk egalariining mablag''lari, yangidan tashkil etilayotgan fondlarni ulushi, chet el investitsiyalarining miqdori ortib boradi. Albatta, bu borada har bir mamlakatning investitsiya siyosati hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Investitsiya manbalarini tashkil etishda mamlakat iqtisodiyotini barqarorligi, milliy valyuta birligini konvertrlanishi, tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, aholi ehtiyojini ishlab chiqarish hisobiga qondirilishi va boshqalar muhim rol o'ynaydi.

Bozor munosabatlarini rivojlantirish davlat tomonidan olib boriladigan ichki moliya siyosatiga chambarchas bog'liqdir. Moliyaviy resurslarni taqsimlash va

qayta taqsimlash hamda u yoki bu yo'nalishda sarflash va jamg'arish mamlakatda qabul qilingan va amaliyotda faoliyat ko'rsatayotgan taqsimot tizimiga bog'liqdir. qonunchilikni rivojlanishi, adolatli qonunlar qabul qilinishi va ularni hayotga tatbiq etilishi bozor munosabatlarining rivojlantirishga, tadbirkorlik, ishbilarmonlikni keng ko'lamda tarqalishiga qaratilsa investitsiya manbalari tarkibida davlat mablag'lari kamayishi hisobiga boshqa mulkdorlar mablag'lari o'sib boradi. Ishlab chiqarish munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va davlatning samarali moliya siyosatini yuritish alohida ahamiyatga egadir. Xorijiy kapitalni kirib kelish darajasi ustun darajada mamlakatni olib borayotgan moliya siyosatiga bog'liqdir.

O'tish iqtisodiyotida investitsiya manbalarini mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- investorlarni o'z moliyaviy resurslari (foйда, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari, fuqarolar, huquqiy shaxslarni jamg'armalari va boshqa manbalar);
- investorlarni qarzga olgan moliyaviy mablag'lari (zayom obligatsiyalari, bank kreditlari va byudjet ajratmalari);
- investorlarni jalb qilgan moliyaviy mablag'lari (aktsiyalar va boshqa qimmat baholi qog'ozlarni sotishdan tushgan mablag'lar, fuqaro va huquqiy shaxslarni paylari va turli xil badallar, hamda turli xil maqsaddagi nodavlat fondlar, mablag'lari); davlat byudjetining investitsiya ajratmalari.

Bozor munosabatlari shakllangan sharoitda investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari tarkibini 3-chizmada ko'rish mumkin.

3-chizma

Investitsiya faoliyatini
moliyalashtirish manbalari tarkibi.

Davlat byudjetidan ajratmalar.	Kreditga olgan mablag'lar.	qarzga olgan mablag'lar.	qimmatbaho kog'ozlar va zayomlar chiqarish hisobiga.	Investorni o'z mablag'lari hisobidan.
--------------------------------------	----------------------------------	--------------------------------	--	---

Xalq xo'jaligini uzoq yillar mobaynida ekstensiv usulda rivojlanishi davlat tomonidan muvofiqlashtirib bo'lmaydigan investitsiya xarajatlariga olib keldi. Natijada, haddan tashqari ko'p asosiy ishlab chiqarish fondlari barpo etildi. Asosan ular harbiy sanoat majmuida va tugallanmagan qurilishda o'lchamsiz moliyaviy resurslarni qaytarilishiga – (mablag' ajratilishini to'xtatilishiga) va tugallanmagan qurilishlarni to'xtatilishiga olib keldi. Bunday ahvolning asosiy sabablari sobiq ittifoq hududida uzoq yillar davomida markazlashgan rejalashtirishni mavjud bo'lganligi, hamda uning oqibatida ijtimoiy va sanoat mahsulotlarning tarkibida ishlab chiqarish qurollarining haddan tashqari o'sishidir.

Markazlashgan rejalashtirishni rivojlanishni asosiy usuli qilib olinishi, ashyolar va pul oqimlari orasidagi mutanosiblikni buzilishiga olib keldi.

Oxirgi yillarda esa mollar bilan pul o'rtasidagi nisbatni buzilishi, byudjet qoplamalarining o'sib borishi hisobiga bo'ldi. Baho siyosatini o'z vaqtida tartibga solinmaganligi byudjet qoplamalarini talab etilishiga va uning hisobiga korxonalar hamda aholi daromadlarini tez o'sishiga olib keldi. Ma'muriy rejalashtirish doirasida bu daromadlarga nisbatan moddiy boyliklar etarli bo'lmay qoldi. Umumlashtirib aytganda, xalq xo'jaligini nomutanosibligini uchta ko'rsatkich bilan ifodalash mumkin; davlat byudjetining kamomadligi, xo'jalik tashkilotlarini banklar oldida istiqbolsiz qarzlarning paydo bo'lishi, hamda aholi daromadlarining xarajatlarga nisbatan ko'payib borishi.

Aholi daromadlarining o'sib borish davri ishlab chiqarishni pasayib borishi bilan to'g'ri keladi. SHunday qilib, xalq xo'jaligida ishlab chiqarish bilan bog'lanmagan holda turli xil pul daromadlarining o'sib borishi jarayoni yuzaga keldi. Birjalar, auktsionlar, qimmatbaho qog'ozlar bozorini barpo etilishi bu jarayonni yanada tezlashtirdi. Davlat tomonidan olib borilayotgan aholini iqtisodiy muhofaza qilish siyosati esa ushbu jarayonga qo'shimcha bo'ldi. Tadbirkorlikni yo'lga qo'yilishida esa raqobat muhiti tashkil etilmadi, bu esa asosan tadbirkorlar tomonidan mlr. so'mlab moliyaviy kapitalni hamda noishlab chiqarish mulkini jamg'arishga olib keldi. Inflyatsiya asosida jamg'arilgan tijorat kapitali ishlab chiqarishga kiritilmadi, bu esa o'z navbatida giperinflyatsiyani rivojlanishiga, hamda mutlaq mol kamomadligiga olib keldi.

SHuning uchun ham bugungi kunning asosiy vazifasi tadbirkorlarning tijorat kapitalini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga, ya'ni ishlab chiqarish investitsiyalariga aylantirishga da'vat etadi.

Markazlashgan ittifoq boshqaruv tizimi barbod bo'lgan va yangi muvofiqlashtirish tizimlari mustaqil respublikalarda vujudga kelmagan bir davrda investitsiya faoliyatida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. 1990-1992 yillar bir tomondan davlat investitsiyalarining keskin qisqarishi bilan ikkinchi tomondan esa tijorat tizimlari kapitallarini noishlab chiqarish sohasida jalb qilinishi bilan tavsiflanadi. Oqibatda chuqurlashib borayotgan investitsiya inqirozini bartaraf etish, davlat tomonidan investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishni talab etadi.

Sobiq ittifoqda va shu jumladan O'zbekistonda investitsiya faoliyati bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar 1991 yilning yanvaridan kuchga kirgan "Investitsiya faoliyatini qonuniy asoslari" hujjatlari bilan muvofiqlashtirib borildi. qabul qilingan va 1991 yildan boshlab kuchga kirgan bu hujjatda investitsiya faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining qonuni "CHet el investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida" 1998 yil 30 aprel. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Xorijiy investitsiyali korxonalarni tashkil etish va faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 31.05.96 y.UP-1467 sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Investitsiya loyihalarini amalga oshirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 19.01.98 y.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirishni mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 09.02.98 y.

Unda muvofiqlashtirishni maqsadlari va shakllari tasdiqlangan. Ushbu hujjatlarga ko'ra, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish quyidagi maqsadlarda olib boriladi:

- bozor iqtisodiyotiga kirib borish jarayonida davlatni iqtisodiy siyosatini amalga oshirish;
- davlat fan-texnika siyosatini o'tkazish va uning asosida dunyo xo'jalik aloqalarini mustahkamlash hamda jahon bozoriga chiqish;

Byudjetdan tashqari investitsiya fondlarini tashkil etish va undan foydalanish ham davlat tomonidan investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda iqtisodiy usullardan biri hisoblanadi. Mulkchilikni shakllanishi va uning turli xil shakllarini vujudga kelishi munosabati bilan bu borada ham davlat oldida, yangidan tashkil topayotgan tijorat tizimlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha amaliyotda birinchi marotaba hal qilinadigan muammolarning kelib chiqishi ma'lum.

Davlat investitsiyalarini to'g'ridan-to'g'ri boshqarish, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirishni yana bir shakli bo'lib hisoblanadi. Bunda, boshqarish byudjet mablag'lari, byudjetdan tashqari fondlar, boshqa jalb qilinadigan mablag'lar hisobiga investitsiyalarni basharotlashtirishni, investitsiyalashni shart-sharoitlarini aniqlashni va aniq faoliyatlarni amalga oshirishni o'z ichiga qamrab oladi.

Sobiq ittifoq parchalanishiga qadar, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan boshqarish markazdan olib borilar edi. O'zbekistonni mustaqillikka erishishi munosabati bilan respublikamizda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish endilikda mustaqil ravishda olib boryapmiz.

Bu borada ham ayniqsa bozor munosabatlarini yo'lga qo'yilishini hisobga oladigan bo'lsak, tajribamiz etarli emas. SHuning uchun bugungi kunda bu faoliyatda tajriba orttirish, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirishni yo'lga qo'yish iqtisodiyotimizni barqarorlashtirishda alohida ahamiyatga egadir.

Investitsiya faoliyatidagi sub'ektlar huquqlarining doimiyliigi davlat tomonidan kafolatlanishi zarurdir. Davlat idoralari va undagi xodimlar investitsiya faoliyatidagi sub'ektlar faoliyatiga aralashishi huquqiga ega emaslar. Agarda investitsiya faoliyatiga sub'ektlar shartnomalardagi majburiyatlarini bajarmasalar qonunchilik, hamda bitilgan shartnomalarga binoan mulkiy va boshqa javobgarliklarga tortiladilar.

Barcha investorlarning investitsiyalarining muhofazasi, mulk shakllaridan qat'iy nazar davlat tomonidan ta'minlanadi.

Investitsiyalar to'lovsiz milliylashtirilmaydi, rekvizitsiya etilmaydi. Agarda qabul qilingan qonunchilik aktlariga asosan investorlarning banklarga qo'yilgan maqsadli bank jamg'armalari, aktsiyalar va boshqa turli xildagi qimmatbaho qog'ozlari davlat tomonidan olinsa, u holda investorlarning to'lovlari yoki bo'lmasa ijara huquqlari ta'minlanadi. Faqatgina investorlarning o'zlarining xatti-

harakatlari oqibatida yoki ularning ishtiroklari bilan yo'qotilgan qiymatlar davlat tomonidan qaytarilishi ta'minlanmaydi.

Ma'lumki, bozor munosabatlari rivojlanishi bilan moliya bozori ham asta-sekinlik bilan rivojlanib va takomillashib boradi.

Ma'lumki, har bir mamlakatda qonunchilikni rivojlanishi uning tizimiga, tanlangan yo'lga, bozor munosabatlarining rivojlanish darajasi va boshqa omillarga bog'liqdir. Bu sohada chet elga chiqish, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, ularning qonunlarini o'rganib chiqib, respublika xususiyatlari, an'analarini hisobga olgan holda, tez, qisqa vaqt ichida ishga solish alohida ahamiyatga egadir. Ma'lumki ish yuritishning aniq shakl va murvatlari har bir sohada qabul qilingan qonunlarda o'z aksini topadi.

qo'shma korxonalarni faoliyatida dividendlarni o'tkazish chet el personaliga ish haqi to'lash va boshqa to'lovlarni yuritish doimiy xususiyatga egadir.

Xorijiy investitsiyalarning to'g'ri yo'nalishlarda kirib kelishida "loyiha moliyalashtirishni" yo'lga qo'yishda, loyihalarni tahlil qilishda, umumiyqtisodiy izlanishlarni olib borish, tavakkalchilikni baholash, ijobiy hal qilish va o'lchash hamda moliyaviy hisob-kitoblarni to'g'ri yo'lga qo'yish juda ham katta ahamiyatga egadir.

Loyihalarni moliyaviy jihatdan tahlil qilishda, xalqaro amaliyotda qabul qilingan ko'rsatkichlar asosida, hisob-kitoblarni olib borish, loyihalarni hayotiy qobiliyatlarini aniqlash imkoniyatlarini yaratadi.

Moliyaviy tahlilning maqsadi loyiha tsiklining butun davomida investitsiyalardan keladigan foydaga baho berishdan iboratdir. Agar olinadigan daromad loyiha qiymatidan yuqori bo'lsa unda loyiha maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Investitsiyalarni jalb qilish murvatlari ancha murakkab hisoblanadi: xalqaro va milliy iqtisod darajasida investitsiyalarni jalb qilishda etarli tajribalar mavjud. Bu masalada boy tajribaga ega bo'lgan Jahon banki investitsion faoliyat olib borishda sezilarli natijalarga erishgan: Jahon banki bir dollar investitsiyaga, chetdan qo'shimcha ravishda 7-8 dollarni jalb qilish imkoniyatiga ega.

Jahon banki moliya bilan ta'min etuvchi loyihalar ustida ishlovchi tashkilot va shaxslarning nazoratiga asoslangan va bank tomonidan "loyiha tsikli" deb nomlangan loyihalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishni cheklangan jarayonga majburiy kiritilgan deb hisoblanadilar. Ushbu tushunchaga binoan tsikl tajribaga bir-biridan farq qiluvchi loyihani tayyorlovchi, ishlab chiqish, ekspertiza qiluvchi va baholovchi bosqichlar, hamda turli nuqtai-nazarlar va o'lchamlar to'plami kiradi. Ular asosida loyihani amalga oshirish xulosalarini baholash mumkin bo'ladi.

Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan usullar nimani, qanday qilishni, investitsiyalarni qaerdan kelishini, loyiha bo'yicha yaratiladigan mahsulotni sotish va etkazib berish, yangi kelajak loyihalarni amalga oshirishda qo'lga kiritilgan tajribalarni qanday hisobga olish masalasini echishda ishlatiladigan yagona yondashuvdan foydalanish imkonini beradi. Baho usuli loyihalarni amalga oshirish xarajatlarini va turli holatlardan olingan natijalarni o'rganishga yo'naltirilgan: ya'ni mehnat jamoasi tomonidan yoki aktsioner tomonidan; loyihani amalga

oshiruvchi tashkilot tomonidan; loyihani amalga oshirish tabiati yoki ijtimoiy mehnat,

Jahon banki tomonidan taklif qilingan usullar, ishlab chiqilgan loyihani iqtisodiy va texnik nuqtai-nazaridan foydali bo'lishi uchun va bunda faqat loyihani texnologik va jiddiy texnik tomonlarini hisobga olib qolmasdan, balki investitsiyalash, boshqaruv va moliya ta'minot tizimini, shuningdek loyihani yashay olish qobiliyatini va uzoq xizmat qilishi natijalarini ham hisobga olish zarur.

Milliy mulkka xorijiylik egalik qilishiga hamma vaqt va hamma joyda xavotirlik bilan qaralgan va ziyraklik talab qilingan. Har qanday ko'chmas mulkni xorijiy shaxs tomonidan sotib olinishi an'anaviy gumonsirash va xavf bilan qabul qilinadi. Erkin kapital, yangi texnika va dastgohlarni olib kelishga qo'shimcha ish joylarni yaratishga qaramasdan xorijiy investorlarga nisbatan hushyor bo'lish davlatni investitsiya siyosatini va investitsiya muhitini shakllanishiga haqiqiy omil bo'lib hisoblanadi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, asosan eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni hamkorlik asosida eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish muvaffaqiyat qozonishga olib keladi va korxonalarni valyuta jihatdan o'z-o'zini qoplashni ta'minlaydi.

Yuqorida qayd etilgan masalalarni va muammolarni echishda davlat tizimlari tomonidan investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish yo'lini to'g'ri aniqlash ayniqsa iqtisodiyotni inqirozdan olib chiqish davrida muhim masaladir.

Bozor munosabatlarini yo'lga qo'yish tugatilmagan qurilishlarni qayta ro'yxatdan o'tkazilishini taqozo etadi. Buning asosida esa qurilish muddatlari tugab ketgan, me'yor muddatlariga nisbatan cho'zilib ketgan ishlab chiqarish qurilishlarini to'xtatilishini, keraksizlarini, bozor munosabatlariga o'tish munosabati bilan voz kechish masalasini ham ko'ndalang qilib qo'yadi. Tugatilmagan qurilish ob'ektlarini ularni boshqa mulk egalari sotish, ijaraga berish imkoniyatlari aniqlanadi. Ijaraga topshirish bu qurilish ob'ektlarini qisqa davr ichida tugatilishini, ishga tushirilishini ta'minlaydi va qurilish cho'zilishini oldini oladi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida kichik va o'rta qurilish ob'ektlarini ham ta'minlash zarurdir. Investitsiya bozorini barpo etish tugatilmagan qurilishlarni tahlili natijalari bo'yicha, jami kerak bo'lmagan zahiradagi va ortiqcha vositalarni ulgurji savdosini tashkil etish lozim bo'ladi.

Investitsiyalar bozorini barpo etilishi turli kichik, o'rta va yirik quruvchi pudrat tashkilotlarini vujudga kelishini ta'minlaydi. Ular turli xildagi mulkchilik egalari tomonidan tashkil etiladi va raqobatni rivojlanishiga olib keladi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, mavjud bo'lgan ko'pgina zararli, past rentabelli korxonalarni tugatilishini talab qiladi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida investitsiya faoliyatini tashkil etishni muvofiqlashtirish maqsadida davlat moliya va kredit murvatlari keng ravishda foydalanish lozimdir. Moliya va kredit murvatlari turli xil tarmoqlardagi turli xil yakka hokimlikni tugatilishiga qaratilmog'i kerak.

Tarkibiy siyosat-o'tish davrida davlat iqtisodiy siyosatini muhim maqsadlaridan biridir. Xo'jalik tizimining bir shakldan boshqa shaklga o'tishi jarayonida tarkibiy o'zgarishlarni zaruriyati dastavval rejali iqtisodiyotdan qolgan texnik qoloqlik va nisbatlarini aks ettirmaydigan buzilgan narxlar, doimiy taqchillik va resurslarni foydalanishni xarajat murvatlarini hukmronligi sharoitida muayyan siyosiy vaziyatga bog'liq ravishda amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish eksportni kengaytirish va importni almashtirishga qaratilgan dastur va loyihalarni davlat tamonidan qo'llab-quvvatlash hisobiga amalga oshadi. Hamma investitsiyalarning 60% ga yaqini ustivor tarmoqlarni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda, ilg'or texnologiya va uskunalarni keltiruvchi to'g'ri investitsiyalar mamlakat uchun o'ta muhim bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun qo'shma korxonalar barpo qilish o'smoqda.

O'zbekiston sanoatining muhim xususiyatlaridan biri uning qishloq xo'jaligi bilan chambarchas aloqasidir, chunki mashinasozlik (kimyo va neft kimyo hamda qishloq xo'jalik xom ashyosini qayta ishlash) bilan, hamda qishloq xo'jalik xom ashyosini qayta ishlash (engil, qayta ishlash va boshqa.) sanoatini resurslar bilan ta'minlaydi. Respublikani sanoat mahsulotini 2/3 miqdorga yaqini qishloq xo'jaligi bilan o'zaro harakat qiluvchi tarmoqlarga to'g'ri keladi.

SHu bilan birgalikda O'zbekistonda boy ma'dan konlariga asoslangan rangli va qora metallurgiya, yoqilg'i-quvvat, qurilish ashyolari kabi sanoat tarmoqlari rivojlandi. Yirik neft va gaz konlari negizida yoqilg'i sanoatini rivojlantirish, yirik issiqlik elektrostantsiyalarini, kimyo va neft-kimyo sanoati korxonalarini qurish imkoniyatini berdi. Investitsiya faoliyatini boshqarishda albatta boshqarish maqsadini, mazmunini ham to'g'ri anglash lozim bo'ladi. Investor faoliyatini asosiy mazmunini investitsion jarayon tushunchasi bilan ta'riflash mumkin. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi: Tashkilot faoliyatini maqsadi va cheklovlar asosida investitsiya strategiyasini, hamda bozor beradigan imkoniyatlarni shakllantirish.

2. Umuman bozorni tahlil qilishni, uni segmentlarini, alohida qimmatli qog'ozlarni nazarda tutuvchi investitsiyalarni tahlil qilish.
3. Investitsiya qarorlarini shakllantirish.
4. Portfelni boshqarish.
5. Investitsiya faoliyatini samaradorligini baholash.

Albatta yuqorida keltirilgan vazifalar bir-biri bilan uzviy bog'liq va ularni ajratib bo'lmaydi.

2. Investitsiya faoliyatini tartibga solishda investitsiya strategiyasining o'rni.

Investitsiya strategiyasining asosi moliyaviy institutlarining faoliyatini maqsadi va cheklovlari hisoblanadi. Samarali investitsiyalarni tanlashni hech qanday vazifasi maqsadni oldindan aniq shakllantirmasdan hal qilib bo'lmaydi. Ushbu holatni har qanday investitsiya boshqaruvchisi uchun o'ta muhim hisoblanadi. "qaysi qimmatli qog'oz eng foydali?" yoki "qanday portfel eng samarali?" degan savollarga javob yo'q;

Vazifani to'g'ri qo'yishni quyidagicha shakllantirish mumkin: maqsadlardan kelib chiqqan holda, rejali istiqbolda, ushbu tashkilot uchun mijozlar oldidagi

majburiyatlar nisbati, qonuniy va boshqa cheklovlarga qarab investitsiya qarori yaxshi bo'ladi. Investitsiya institutlarining (investitsiya fondi, investitsiya kompaniyalari) strategiyasi odatda investitsiya deklaratsiyasi deb nomlanadigan maxsus hujjat bilan shakllantiriladi.

Aslida investitsiya deklaratsiyasi investitsiya fondining yoki investitsiya kompaniyasining nizom fondining bir qismi hisoblanib matbuotda e'lon qilinishi, uni asosiy mazmuni esa aniq tartiblanishi lozim. Ammo investorlar mablag'lariga raqobat uchun ob'ektiv sharoit yo'qligi ko'pchilik investitsiya fondlari va kompaniyalari deklaratsiyalari ularni nomigagina ishlashiga sababchi bo'ladi va faqatgina me'yoriy talablarni qondirish maqsadida tuziladi.

1. Tashkilot maqsadi. Strategik maqsadlar inflyatsiyadan ma'lum foiz ortiq bo'ladigan kafolatlangan eng kam daromadni ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak. Deklaratsiya ba'zi andoza portfelini (ma'lum fond indeksleri asosida shakllantirish) daromadlilikidan ortadigan majburiyatlarni aks ettirishi mumkin.

2. Rejali istiqbol. Deklaratsiya qilinadigan rejali istiqbol bu joriy investitsiya strategiyasi mo'ljallangan vaqt oralig'idir. Rejali istiqbol investitsiya qarorlarini maqbullashtirish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

3. Portfel tarkibi va investitsiya faoliyatini cheklash. Investitsiya deklaratsiyasi ko'pincha portfel tarkibiga umumiy cheklovlarni aks ettiradi: masalan, investitsiyalash majburiyati yuqori sifatli daromadli majburiyatlarga eng kam foizni belgilaydi (eng yuqori reytinga ega bo'lgan davlat qog'ozlari yoki korporatsiya obligatsiyalari). SHu bilan bir vaqtda bozorning boshqa segmentlarida investitsiyalar bo'yicha cheklovlar belgilanadi, hamda bir emmitentning qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar bo'yicha cheklovlar qo'yiladi.

4. Bozorni asosiy segmentlarini daromadliliği haqida taxminlar. Bozorni asosiy segmentlarini tavakkalligi va daromadligi haqida tashkilot taxminlarini deklaratsiya qilish, hamda investitsiyalar samaradorligini baholash va qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan inflyatsiyani bo'lajak darajasi ancha tarqalgan hisoblanadi.

5. Hisobot, samaradorligini baholash, daromadlar to'lash muddatlari va tarkibi. Investitsiya deklaratsiyasida investitsiya faoliyatini samaradorligini baholash birinchi navbatda, qo'yilgan maqsadlarga erishishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday holat haqida ildam axborot to'g'risidagi majburiyatlar bo'lishi mumkin. Investitsiya institutlari uchun mustaqil tashkilot tomonidan o'tkaziladigan davriy audit majburiydir.

Investorlar tomonidan bo'ladigan ishonch omiliga investitsiya vositachilikni muhiti juda ham sezgir, shuning uchun deklaratsiyalangan faoliyatni haqiqiy natijasiga muvofiq nazorat imkoniyatlarini mavjudligi - raqobat doirasida bo'lgan va bozor uchun ham har qanday moliyaviy institut uchun muhimdir.

Samoya qarorlarini qabul qilish tamoyillarini ta'kidlab o'tilganidek, ikki asosiy toifaga bo'lish mumkin, ular aktiv va passiv. Passiv yondashuv moliya bozorini samaradorligini o'rtacha bozor darajasidan past bo'lmagan darajasini ta'minlashi, shu bilan birga tavakkalchilikni turli-tuman omillaridan investitsiyalarni xavfsizlantirishdir. Passiv yondashuvning asosi - **investitsiyalarni diversifikatsiyalashdir**

Diversifikatsiyalash, yoki investitsiyalarni turlicha segmentlari, qimmatli qog'ozlar bo'yicha taqsimlash har bir muayyan turi bilan bog'liq, yakka xavfdan xalos bo'lishga imkoniyat yaratadi. Bir yo'la diversifikatsiya bozor yoki tizimli tavakkalchilikni o'rtachalashtiradi. Passiv yondashuvga ergashadigan investor, ma'lum ma'noda bozorga ergashadi.

Har qanday moliyaviy institut uchun tavakkalchilikning bosh manbai foiz tavakkali hisoblanadi. Tashkilotlar investorlari muvozanatini tashkil qiluvchi moliyaviy aktivlar va majburiyatlar qiymati, bevosita bozor stavkalari ta'siri ostida bo'ladi. Ideal holatda, tashkilotning barcha aktivlari muddatlari bo'yicha moliyalashtirilgan majburiyatlari mos kelsa foiz stavkalarini ta'siri muammolari bo'lmaydi. Aktivlarni vaqtincha tarkibi va majburiyatlarini muvofiq kelish muammosini hal qilishini samarali usuli muddatlilik tahlil qilishdir. Muddatlilik ko'rsatkichi faqatgina obligatsiyalarga emas, balki har qanday vaqtda joylashgan pul oqimlari tarkibiga ham qo'llanishi mumkin.

Investitsiya faoliyatini tartibga solish, huquqiy nuqtai nazaridan, turli miqdorlar o'rtasida moddiy va nomoddiy aktivlarni takror ishlab chiqarish xususidagi o'ziga xos, murakkab, ijtimoiy zarur iqtisodiy (investitsiya) munosabatlarini shakllantirish me'yorlarini nazarda tutadi. Investitsiya jarayonining barcha sub'ektlari - chet ellik investorlardan boshlab, davlat, yuridik va jismoniy, shu jumladan chet ellik shaxslar (rezidentlar va norezidentlar) gacha bu munosabatlarning ishtirokchilariga aylanadilar. Huquq nuqtai nazaridan chet el investitsiyalari boshqa davlat hududida kapitalga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish bilan bog'liq. Iqtisodiy nuqtai nazardan esa ularning hududiy, zamon va makondagi harakati shakllari foyda olish maqsadida ko'pdan - ko'p qo'shimcha risklar bilan to'qnashish ehtimoliga ega bo'ladi.

Investitsiya munosabatlarining mohiyati bu faoliyat ishtirokchilari doirasida va darajasida o'z ifodasini topadi. Investitsiya faoliyati rivojlanishining ob'ektiv sharoitlarini aks ettiradigan alohida investitsiya munosabatlarining mavjudligi tartibga solishning mustaqil predmeti bo'lishini taqozo qiladi. Huquq nuqtai nazaridan investitsiya faoliyatini tartibga solish umumiy huquqiy va xususiy huquqiy tartibga solish me'yorlarini qamrab oladi. Bu me'yorlarning birligi ijtimoiy va alohida investitsiya munosabatlarining xarakteri va mohiyatini ifoda etadi hamda ularni tartibga solish usuliga aylanadi. Tartibga solish usullari huquq me'yorlarining ham alohida, ham ijtimoiy zarur investitsiya munosabatlari xarakteriga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatish yo'llaridan iborat.

Investitsiya faoliyati predmetining ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish davridagi ahamiyati bu faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga solish to'g'risida qonunlar qabul qilinishini talab etadi.

O'zbekiston investitsiya faoliyatini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining "CHet el investitsiyalari to'g'risida", "CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari", "investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunlari va boshqa qonun hujjatlari huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Respublikada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish birinchi navbatda davlatning iqtisodiy, ilmiy - texnikaviy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirish maqsadlarini ko'zlaydi.

Kapitalning mamlakatlararo ko'chib yurishi kengaygan sharoitlarda investitsiya faoliyati, bir tomondan, milliy, ikkinchi tomondan, xalqaro investitsiya munosabatlarini milliy va xalqaro huquq tizimi asosida tartibga solish yo'li bilan amalga oshirilishini talab etadi. Investitsiya faoliyatini tartibga solishdagi xalqaro tajribalarni hisobga olish, chet el investorlariga investitsiyalashning barcha turlari va shakllarida milliy tartibotni berish yanada qulay investitsiya muhitini yaratadi va chet el investitsiyalarining kirib kelishini tezlashtiradi.

Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, bu faoliyat sub'ektlarini sug'urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo'lida tashkil etiladi.

Hozirgi davrda investitsiya munosabatlari kapitallarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish borasidagi munosabatlarni qamrab oladi va nafaqat milliy iqtisodiyot doirasida, balki xalqaro iqtisodiyot darajasida resurslarni taqsimlash, qayta taqsimlash jarayonlarini aks ettiradi.

Bozorga o'tish sharoitlarida investitsiya munosabatlarida ham davlatning, ham o'z manfaatlarini amalga oshiradigan sub'ektlar ishtirok etishi sababi ular mulkchilik xususidagi munosabatlar majmuidan iborat bo'ladi. Xalqaro investitsiya munosabatlari ayrim mamlakatlar, korporatsiyalar, kompaniyalar, xalqaro moliya va kredit muassasalari, yakka investorlar hamda shu kabilar manfaatlarining ro'yobga chiqishini ifoda etadi.

Respublikadako'p ukkladli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitlarida investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: ijtimoiy va xususiy manfaatlarini; ayrim mamlakatlar, korporatsiyalar, xalqaro moliya institutlari, yakka investorlar manfaatlarini to'g'ri aniqlash; ularning o'zaro maqbul nisbatlarini kelishib olish; ularni hayotda ro'yobga chiqarishning teng huquqiy sharoitlari va kafolatlarini belgilash.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishning kengayib borishi darajasiga qarab investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish bevosita chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga hamda qo'shma korxonalarga jalb etishga qaratilishi lozim. Shuningdek tartibga solish xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilishni ham nazarga tutishi lozim. Bunda chet el investitsiyalarining oqib kirishini rag'batlantirish, shuningdek milliy iqtisodiyot sub'ektlarining bu faoliyatda ishtirok etishini taqdirlash muhim o'rinda turadi. Shunday qilib tartibga solishning vazifasi bir tomondan, bevosita chet el investitsiyalari oqimini oshirishdan, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotdagi xususiy mulkchilik sub'ektlarning qo'yilmalarini kengaytirishdan iborat bo'ladi.

Ma'lumki investitsiya faoliyati kapital, tadbirkorlik, moliya, innovatsiya, ijtimoiy, iste'mol va boshqa investitsiyalarning hamma turlari bilan bog'liq bo'lib, odatda soliqlarning fiskal (xazinani to'ldirish) va tartibga solish funktsiyalaridan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu faoliyat, shuningdek, amortizatsiya

siyosatini, dotatsiyalar, subsidiyalar tizimini, kredit, narx siyosatini, davlatkafolatlari tizimini, imtiyozlar yaratishni, chet el investorlarining huquqlarini himoya qilishni va boshqalarni ham qamrab oladi. Davlat harajatlarini moliyalashtirish uchun turli darajadagi byudjetlarga zarur mablag'lar tushumlarini ta'minlashga qaratilgan fiskal vazifaning bajarilishi, milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga bog'liq. Tartibga solish funksiyasining ishlatilishi davlatning takror ishlab chiqarish jarayonida ayrim tarmoqlarga investitsiyalar oqimlarini boshqarishi bilan amalga oshiriladi. SHu bilan birga, iqtisodiyotning turli sohalarida kapital jamg'arilishi jarayonlarini kuchaytirish yoki susaytirish, aholining to'lovga qobil talabini kengaytirish yoki qisqartirish yo'llari bilan tartibga solish funksiyasini bilan foydalaniladi. Soliqlarni tartibga solish makroiqtisodiy jarayon va proportsiyalarga ta'sir etishga qaratiladi. Soliqqa tortishda imtiyozlar asosan mikroiqtisodiyotga qaratilgan va iqtisodiy sub'ektlar manfaatlarini hisobga oladi. Biz yuqorida ko'rib o'tgan funksiyalar soliq stavkalari miqdorini o'zgartirish, imtiyozlar va sanksiyalar (jazo choralari) qo'llash, soliq kreditlar berish, to'lov muddatlarini kechiktirish va boshqa yo'llar bilan amalga oshiriladi.

3. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni davlat tomonidan boshqarilishi.

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jixatdan qayta jixozlash va rekonstruktsiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlar bilan ta'minlandi.

2005 yil 11 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan endilikda 2005 yilning 1 iyulidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarning jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha daromat (foyda) solig'i mulk solig'i, ekalogiya solig'i, mikro firma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdik, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar tulashdan ozod qilinadi.

Endilikda to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi qo'yidagicha bo'lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi:

300 ming AqSH dollaridan 3 million AqSH dollarigacha-3 yil muddatga;

3 milliondan ortiq AqSH dollaridan 10 million AqSH dollarigacha-5 yil muddatga;

10 million AqSH dollaridan ortiq bo'lganda 7 yil muddatga.

Ushbu Farmonning 1-bandida ko'rsatilgan soliq imtiyozlari qo'yidagi shartlar asosida qo'llanilishi belgilab qo'yilgan:

mazkur korxonalarni ortiqcha ishchi kuchi bo'lgan mintaqalar-qoraqolpog'iston Respublikasi, Jizzax, qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo,

Xorazm viloyatlarida, shuningdek, Navoiy, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining qishloq aholi punktlarida joylashtirish;

Investitsiyadan foydalanishda har ikkala tomonlarni iqtisodiy manfaatini teng hisobga olgan holda amalga oshirish kerak. Investitsiyani boshqarish tartibi va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish zarur.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan "O'zsanoatkurilishbank" moliyaviy salohiyatga ega. U respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratmokda. Bugungi kunda u 18,2 mingdan ortiq kichik va xususiy kompaniya va firmalarga xizmat ko'rsatayapti. Ularning 8978 tasi yuridik shaxs maqomidagi tadbirkorlar, shu jumladan, 1276 ta fermer xo'jaliklari, 9225 tasi yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlardir.

O'tgan yil davomida kichik biznes sub'ektlariga umumiy summasi 15,0 mlrd. so'mdan ortiq va mikrokreditlarga 4,2 mlrd. so'mdan ziyod kreditlar taqdim etildi. Bu kreditlarning umumiy miqdorida bankning o'z mablag'lari 13,9 mlrd. so'mni yoki umumiy miqdorning 93 foizini tashkil etadi.

Bundan tashqari bank xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni milliy valyutada moliyalash bilan bir qatorda xorijiy investorlarga ham halqaro moliyaviy institutlarning kredit leniyalari hamda o'z mablag'lari hisobidan ularni kreditlashni ham faol amalga oshirmoqda.

2005 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, bankning kredit qo'yilmalari 235,5 mlrd. so'mni tashkil etib, hisobat davrining boshidagiga nisbatan 49,8 mlrd. so'm yoki 1,27 marta oshdi.

2004 yilda berilgan kreditlar miqdori 148,0 mlrd so'm atrofida bo'lgan. SHundan 52 foizi sanoat korxona va tashkilotlarga tegishlidir. Bir yildan ortiq muddatga taqdim etilgan kreditlarning umumiy salmog'i esa 80,2 foiz yoki 187,7 mlrd. so'mni tashkil etgan edi.⁵

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish hukumat tashqi iqtisodiy faoliyatini diqqat markazida bo'ldi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda hukumat quyidagi tamoyillarga asoslandi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat yuritish;
- respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'ni keng jalb etishni ta'minlaydigan xuquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;
- respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani etkazib berayotgan va iqtisodiyotni zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko'maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yurgizish;

⁵ Ma'lumotlar. Iqtisodiyot Vazirligidan olingan 2005 y

- mablag'larini respublika mustaqilligini ta'minlaydigan, import o'rnini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor yo'nalishda jamlash.

SHuningdek respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyani jalb etishni faollashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

- investitsiya loyihalarini malakali ekspertlar nazoratidan o'tkazish va mukammal tayyorlanishiga erishish;
- qo'shma korxonalar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi boshqa turdagi tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazishdagi to'siqlarni butunlay olib tashlash.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalarga jalb etishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;
- mineral xom ashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo'yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;
- transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilm talab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;
- turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga erishish.

“CHet el investitsiyalari, xalqaro birlashmalar va tashkilotlar ishtirokidagi korxonalarni, shuningdek ularning tarkibiy bo'linmalarini tashkil etish va bu korxonalarning faoliyat tartibi to'g'risida”gi Nizomga binoan mulkida o'zbek va xorijiy yuridik shaxslari hamda fuqarolari ishtirok etuvchi korxonalar O'zbekiston Respublikasi hududidagi qo'shma korxonalar hisoblanadi.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosat jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonini faqat davlat tarkibiy tuzilishi bo'yicha emas, balki xususiy sektor darajasida ham jadallashtirishni nazarda tutadi. Ochiq bozorning faoliyat ko'rsatishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar /arb va SHarq ishbilarmonlarining mamlakatimizga bo'lgan qiziqishining ortib borishini ta'minlamoqda. Bu shuning uchun muhimki, bizning tadbirkorlarimiz ham xorijiy investorlarni hamkorlikka jalb etish imkoniyatlari haqida tez-tez bosh qotirishmoqda.

1998 yil Respublikamizda investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi 3 ta – 1998 yil 30 aprelda O'zbekiston Respublikasining “CHet el investitsiyalari to'g'risida” va “CHet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralari to'g'risida”gi hamda 1998 yil 24 dekabrda “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilashga va uning iqtisodiyotga investitsiya joylashtirish hajmlarini oshirishga yo'naltirilgan.

Turli birlashmalar, uyushmalar, kontsernlar, konsortsiumlar O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyasi bo'lgan korxonalarni ixtiyoriy asoslarda barpo etishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 22 martdagi farmoniga muvofiq quyidagi mezonlarga javob beruvchi chet el, shu'ba va qo'shma

korxonalar chet el investitsiyasi bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari qatoriga kirishi belgilab qo'yildi: ustav jamg'armasi miqdori 150 ming AqSH dollaridan kam bo'lmagan korxonalar; korxona ishtirokchilaridan biri albatta chet el yuridik shaxsi hisoblangan; korxonaning ustav faoliyatida o'z ishlab chiqarishi yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar servis xizmat hissasiga xo'jalik faoliyatidan tushumlar umumiy hajmining 60% dan ko'prog'i to'g'ri keladigan korxonalar.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalar ichida qo'shma korxonalar etakchi o'rinda turadi. To'liq xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan korxonalar kam. Ko'pchilik davlatlarda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish har xil. Ba'zi davlatlarda bu vazifani Moliya vazirligi bajarsa, boshqalarida Adliya vazirligi bajaradi. O'zbekistonda bu vazifani Adliya vazirligi amalga oshiradi. O'zbekistondagi xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar respublika hududida o'zining filiallari yoki vakil korxonalarini tashkil etishlari mumkin. Bundan tashqari ular boshqa davlatlarda ham o'z filiallarini ochishlari mumkin.

O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar O'zbekiston Respublikasi hududida xo'jalik assotsiatsiyalari, kontsernlar va boshqa birlashmalar tuzishlari mumkin. Xorijiy investitsiyalarning huquqiy himoyasi ta'minlangan. Bu himoya har bir korxonada bo'lgani kabi xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar uchun taaluqli. Milliy iqtisodiyotning ustuvor sohalari va hududlariga investitsiya kiritgan xorijiy investorlarga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan qo'shimcha imtiyozlar berilishi mumkin. SHu bilan birga qonunda xorijiy investorlarning faoliyat turlari ham belgilangan. Xorijiy investorlar yoki xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar mavjud qonunchilikka muvofiq, o'z maqsadlari va nizomlaridan kelib chiqib, barcha turdagi faoliyatlarni olib borishlari mumkin.

Xorijiy investorlar investitsiya hajmini, turlarini, yo'llarini belgilaydilar va ularni hoxlagan korxonaga mustaqil ravishda kiritishlari mumkin. Investor o'zi kiritgan investitsiya ob'ektlari va natijalariga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqiga ega. SHu bilan birga reinvestitsiya va savdo operatsiyalarini O'zbekiston hududida milliy qonunchilik asosida, undan tashqarida esa xalqaro qonunlar asosida amalga oshirish huquqlariga ega. Investor egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlarini qonun bo'yicha boshqa huquqiy va jismoniy shaxsga berishi mumkin. Tomonlarning o'zaro huquqlarini bir-biriga o'tkazish vaqtidagi aloqalarni faqat ular o'rtasida tuzilgan hujjat-shartnomalar hal qila oladi. Xorijiy investorlar va korxonalar qonunchilikda ko'rsatilgan holatlarda er uchastkalarini sotib olishlari mumkin. Xorijiy investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga rioya etish zarur:

- O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan qonunchilikka amal qilishi;
- O'zbekistonda mavjud qonunchilik talablari asosida soliq to'lash va boshqa to'lovlarni amalga oshirishi;
- Investitsiya loyihasining sanitariya-gigienik ekologiya talablariga amal qilish bo'limidagi ekspertiza xulosalarini olishi;

Xorijiy investitsiyani o'z iqtisodiyotiga jalb etayotgan har bir davlat xorijlik sheriklariga huquqiy va tashkiliy kafolatlar yaratib beradi. Bu jarayon jahon tajribasida sinovdan ijobiy ravishda o'tgan. O'zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi qonunining 11- moddasida shunday yozilgan: Respublika hududida o'z investitsiya faoliyatini olib borayotgan xorijiy investorlar huquqlarining himoyasini O'zbekiston Respublikasi kafolatlaydi. Bu kafolat albatta, xalqaro huquq normalari asosida beriladi. Agarda O'zbekistonning yangi qabul qilingan qonunchiligi investitsiya sharoitlarini yomonlashtirsa, o'n yilgacha xorijiy investitsiyalar ular jalb qilingan davrda qabul qilingan qonunchilik shartlari saqlanib qoladi. Bu talab mudofaa, milliy havfsizlik, jamoat tartibini saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq qonunchilikni o'zgartirmaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari xorijiy investorlarning huquqlariga putur etkazadigan huquqiy normativlarni qabul qilgan taqdirda, investorlarga etkazilgan zarar shu organlardan sud orqali undiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Germaniya, Hindiston, Janubiy Koreya, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Isroil, AqSH va bir qator boshqa mamlakatlar bilan investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoyalash to'g'risida bitimlar tuzdi.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini amalga oshirishda dunyoning 25 dan ortiq mamlakatlari ishtirok etmoqda. Investitsiyalarni jalb etish vazifasini davlatimiz ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini yaratish va rivojlantirish asosida xaqiqiy mulkdorlarni shakllantirish bilan bog'laydi.

"Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiyl mulk manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoniga binoan xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qo'shma korxonalar ro'yxatga olingan paytdan boshlab besh yil muddatga xorijiy valyutadagi tushumdan soliq to'lashdan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga valyutani majburiy sotishdan ozod qilish ko'zda tutilgan. Xorijiy investitsiya jalb etilgan korxonalarga quyidagi imtiyoz va rag'batlantirish omillari berilgan:

- tovarlar eksporti ishlab chiqarish hajmining kamida 30 foizini tashkil etadigan korxonalarga, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, foyda solig'ini amaldagi stavkalardan ikki barobar kamroq to'lash huquqi;
- xorijiy investitsiyali korxonalar daromadining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiyani yangilashga sarflanadigan qismidan soliq olmaslik;
- Respublika davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha soliqlar to'lashdan etti yil muddatga ozod etish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning 25% bolalar uchun mo'ljallangan bo'lsa, korxona ishga tushgandan boshlab soliqlar to'lashdan besh yil muddatga ozod etish. Keyingi yillarda bu korxonalarning foydasidan olinadigan soliq amaldagiga qaraganda ikki marta pasaytirilgan stavkalarda undiriladi;
- ustav kapitalning 50% va undan ko'proq qismi xorijiy sherikka tegishli bo'lib, ishlab chiqarish eksportga yo'naltirilgan yoki import o'rnini bosishga mo'ljallangan bo'lsa soliqlar to'lashdan ikki yil muddatga ozod etish;
- foydadan to'lanadigan soliq-18%;

- agar ustav kapitalning 50% va undan ko'proq qismi xorijiy sherikka tegishli va ustav kapitalning hajmi 500000 AqSH dollaridan 1 000 000 AqSH dollarigacha bo'lsa, foydadan to'lanadigan soliq-15%;
- agar ustav kapitalning 50% va undan ko'proq qismi xorijiy sherikka tegishli va ustav kapitalning hajmi 1000 000 AqSH dollaridan va undan ko'p bo'lsa, foydadan to'lanadigan soliq-16%;
- agar ustav kapital hajmi kamida 500 000 AqSH dollarini tashkil etsa, mol-mulk solig'idan ozod qilish;
- er solig'idan ikki yilga ozod qilish;
- o'zi ishlab chiqargan mahsulotni ruxsatnomasiz chetga sotish;
- investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun er uchastkalaridan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqini tanlov asosida sotib olish;
- jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatning mulkini xususiylashtirishda bimalol ishtirok etishlari mumkin.

O'zbekistonda xorijiy investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olgan foydalari va boshqa daromadlarini biror-bir cheklovlarsiz istalgancha chet davlatga o'tkazish imkoniyati kafolatlanadi. Bundan tashqari xorijiy investorlar Respublika banklarida hech bir cheklovlarsiz istalgan valyutada hisob raqamiga ega bo'lishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyasi bo'lgan korxona amaldagi qonunlarga binoan o'zi ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksportga chiqarish va o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar importini amalga oshirish xuquqiga egadir.

Xorijiy investorlarga tabiiy boyliklarni qidirish, ishlab chiqarish va foydalanish va boshqa xo'jalik ishlarini yuritish uchun kontsessiyalar berilishi mumkin. Kontsession shartnomalar xorijiy investorlar bilan O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining vakil qilingan organlari o'rtasida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasida barpo etilayotgan korxonalar ustav sarmoyasiga xorijiy investorlarning hissasi sifatida yoki xorijiy xodimlarning o'z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan mulk bojxona to'lovidan ozod qilinadi va import solig'i undirilmaydi.

Xorijiy investorlar O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning aksiyalari, hissaları va paylarini, shuningdek yuridik shaxslar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotib olishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyalari bo'lgan korxonadan chiqish yoki bunday korxonaning tugatilish hollarida xorijiy investorlar shu korxona mulkidan o'zining hissasini korxona mulki bilan qiymatiga mutanosib ravishda pul yoki natura tariqasida qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tuzilgan korxonalarning xo'jalik ishlarida hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida olib borilishi lozim. Bu holatlar ham qonunda ko'rsatilgan. Bu korxonalar bankrot holatiga tushib qolganda u o'z mulki, ya'ni savdo ob'ektlari, xizmat ko'rsatish sohalari, er uchastkasi, binolari, qurilishlari, uskunalaridan kelib chiqib majburiyatlari ta'minlanadi. Erdan foydalanish va egalik qilish huquqi bundan mustasno.

Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan shart-sharoitlar

xalqaro shartnoma va xorijiy investorlar bilan kelishuvlarda ko'rsatilgan shart-sharoitlar farq qilsa, xalqaro shartnoma va kelishuvga asosan faoliyat yurgiziladi.

SHunday qilib, yaratilgan huquqiy asoslar xorijiy hamkorlarning keng investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratib, ularning huquqlari va sarflagan investitsiyasini himoya qiladi.

Hozirga kelib, O'zbekiston hududida xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni asosan nihoyasiga etkazildi va amalda qo'llanilmoqda. Bu faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning quyidagi tizimi ishlab chiqilgan:

- Xususiylashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning qatnashishi;
- Texnikaviy qayta qurollanish;
- Xalq iste'moli va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish;

Bulardan tashqari O'zbekiston bir qator qulayliklar tug'diruvchi shart-sharoitlari bilan ham chet investorlarini o'ziga tortmoqda:

1) Ishlab chiqarishning pasayish davri tugadi, 1995-1996 yil yakunlariga ko'ra iqtisodiy rivojlanishda yangi ijobiy samara natijasi ko'rsatildi.

2) Davlat mulki o'zining ustun holatini yo'qotdi. 2001 yilda YAIMning 74,1 foizi, sanoat ishlab chiqarishining 70,8 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 99,0 foizi, umumiy tovar oborotining 97,1 foizi, qurilishdagi barcha pudrat ishlarning 83,9 foizi, iqtisodiyotda band bo'lganlarning 73 foizi, iqtisodiyotda band bo'lganlarning 76,0 foizi, shuningdek investitsiyalarning 40,7 foizi⁶ nodavlat sektoriga to'g'ri keladi.

3) Bozorning o'sishi va kengayishining uzoq davrli istiqboli mavjud. Bunga ma'lum siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning mavjudligiga qaramay, xorijiy investitsiyalarning olib kirilishini statistik ma'lumotlar tasdiqlab turibdi. Bunga ko'ra O'zbekistonda 1991 yil 191 ta, 1992 yili 368 ta, 1993 yili 237 ta, 1994 yili 380 ta, 1995 yili 583 ta, 1997 yili 3200 ta qo'shma korxonlar tashkil etilgan edi. 2003 yilga kelib qo'shma korxonalarning umumiy soni 3300 tadan oshib ketdi. Bu korxonalar jahonning 80 dan ortiq davlatlari bilan hamkorlikda qurilgan.

4) Nisbatan malakali ishchi kuchining etarli miqdori va ishsizlik darajasining (hatto uning yashirin shakllarini hisobga olganda ham) pastligi;

5) O'zbekiston iqtisodiyotining tashqi bozorga yo'naltirilganligi. 1992 yildan 1996 yilgacha bo'lgan davr mobaynida tashqi savdo oboroti hajmi 3 baravardan ko'proqqa oshdi, ayni paytda unda uzoq xorijiy mamlakatlar ulushi tinimsiz o'sib borib, 2003 yilda 64,3 foizga etdi.

O'zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalarni milliylashtirish va rekvizitsiya qilinmasligiga kafolat beradi. Xorijiy investitsiyalar faqat favqulodda holatlarda, avariya, epidemiya tarqalgan vaqtlarda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan rekvizitsiya qilinishi mumkin. Bu holat investorga ko'rsatilgan zarar miqdorida kompensatsiya qilanadi.

⁶ Sotsialno-ekonomicheskoe polojenie Respubliki Uzbekistan za 2001 g. Statisticheskii sbornik, - Tashkent, 2002.- S. 10, 160.

Xorijiy investorlar uchun zarur moliyaviy-iqtisodiy kafolatlarni ta'minlash uchun hukumat tomonidan xorijiy investorlarni himoyalashning Milliy sug'urta jamg'armasini barpo etish to'g'risida qaror qabul qilingan. Bu jamg'arma respublika hududida ta'sis etilgan chet el banklarida O'zbekiston Respublikasi, xorijiy investitsiya ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari valyuta qadriyatlarining bir qismini deponentlash yo'li bilan hosil qilinadi.

Xorijiy investorlarning qonuniy faoliyatlari orqali qilingan daromadlari xorijiy valyutada, chegaralanmagan miqdorda chegaradan olib o'tishlari davlat tomonidan kafolatlanadi. Bu qonunda xorijiy investitsiyalarni sug'urtasi haqida kam yozilgan, chunki har bir xorijlik hamkor o'zi sarflagan mablag'ni to'liq qaytarib olishga va ularni sug'urtalashga harakat qiladilar. Bu haqda qonunda¹ shunday keltirilgan: investitsiya va tavakkalchilikni sug'urta qilish xorijiy investorlarning hoxishlari asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar sug'urta tizimiga kiruvchi milliy sug'urta kompaniyasi, Rasmiy davlat sug'urta agenti, Xorijiy sug'urta tashkilotlari bilan tuzilgan qo'shma sug'urta kompaniyalari tomonidan ta'minlanadi. Xorijiy investitsiyalarni sug'urta qiluvchi sug'urta tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi majburiyatlariga javob bermaydilar. SHunga mos tarzda O'zbekiston Respublikasi (faqat ikki tomon kelishuvidan tashqari holatlarda) sug'urta tashkilotlarining majburiyatlariga javob bermaydi. Davlat o'z majburiyat va qonunlariga, sug'urta tashkilotlari esa o'z majburiyat va qoidalariga o'zlari javobgardir.

3. Xorijiy investitsiyalarni tartibga solishning jahon tajribasi.

Rivojlangan mamlakatlar xalqaro kapital harakatini asosan kapital eksporti-importini milliy va xalqaro darajada rag'batlantirish orqali amalga oshiradilar. Kapitalning qarzlar, portfel investitsiyalar va boshqalar shaklida harakat qilishi borasidagi davlat siyosati uning harakatidagi barcha cheklashlarni olib tashlash maqsadida olib boriladi. BXIlarga nisbatan davlat har qanday cheklashlarni amalga oshirish huquqini o'z zimmasida qoldiradi, chunki bu milliy iqtisodiy havfsizlik bilan bog'liq. SHunisi xarakterliki, kapitalni chetga chiqarish uni jalb qilishga nisbatan kam darajada tartibga solinib turiladi.

Davlat tartibga solishning quyidagi usullaridan foydalanadi:

- 1) moliyaviy: jadallashtirilgan amortizatsiya; soliq imtiyozlari; subsidiyalar, qarzlar berish; kreditlarni sug'urtalash va kafolatlash;
- 2) nomoliyaviy: er uchastkalari ajratish; zaruriy infrastruktura bilan ta'minlash; texnik yordam ko'rsatish.

Bu borada yirik kapital eksporteri-importeri bo'lmish AqSH tajribasi juda muhimdir. AqSHning BXIlarni tartibga solish siyosati ikki darajada amalga oshiriladi: federal, hamda mahalliy (shtatlar, okruglar, shaharlar). Federal tartibga solish deganda xorijiy investitsiyalarga nisbatan cheklashlar tushuniladi. Bunda milliy havfsizlik masalasi birinchi o'ringa ko'tariladi. AqSH prezidenti amerika

¹ O'zbekiston Respublikasi "Xorijiy investitsiyalar va xorijiy investorlar faoliyatlari kafolatlari" to'g'risidagi qonunning 5 may 1994 yil 13-moddasi.

firmalarining qo'shilishi, yutilib ketilishi va sotib olinishi jarayonlarini (agar bunda firma faoliyati ustidan nazorat xorijiy investor qo'liga o'tsa) to'xtatib qo'yish huquqiga ega.

Mahalliy darajada sug'urta biznesi va qishloq xo'jaligi erlarini sotishni tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Trestlarga qarshi qonunlarni davlat organlari tomonidan qo'llanilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda mahalliy ma'muriyatning xorijiy investorlar faoliyatini tartibga solish imkoniyatlari katta emas. Investitsiyalarni rag'batlantirish tajribasi ko'proqdir. AqSHga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muhim mexanizmlaridan biri – xorijdagi vakolatxonalaridir. Ular investitsiyalarni u yoki bu shtatga jalb etilishiga ko'maklashadilar (YAponiyaning o'zida shunday vakolatxonalardan 40tasi faoliyat ko'rsatmoqda).

AqSHning alohida shtatlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish dasturi quyidagilarni o'z ichiga oladi: soliq imtiyozlari; korxonani qurayotgan yoki modernizatsiyalashtirayotgan xorijiy investor uchun bozordagi stavkalardan pastroq darajada qarzlar va subsidiyalar ajratish; kasbga o'qitish va bandlikka ko'maklashish; transport tarmog'ini takomillashtirish; er uchastkasini qurilish uchun tayyorlash; tekinga foydalanish uchun er uchastkasini ajratish va boshq.

Xalqaro investitsiyalarni tartiga solish bo'yicha muhim amaliy hujjatlardan biri – Osiyo-Tinch okeani hamkorligi tashkiloti doirasida ishlab chiqilgan xorijiy investitsiyalarning "ko'ngilli kodeksi"dir. Kelajakda Umumjahon savdo tashkiloti (UST) tomonidan foydalanilishi mumkin bo'lgan ushbu "kodeks" da quyidagi investitsion tamoyillar qayd etilgan:

- transparentlik;
- donor-mamlakatlarga nodiskriminatsion yondashuv;
- xorijiy investorlar uchun milliy rejim;
- investitsion rag'batlarni sog'liqni saqlash, havfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bilan mos tushishi;
- savdoni va kapital qo'yilmalar o'sishini chegaralovchi investitsiyalarga bo'lgan cheklovlarni minimallashtirish;
- investitsiyalarni ekspropriatsiya qilinishidan voz kechish (bunda ijtimoiy maqsadlar uchun va milliy qonunchilik doirasida, nodiskriminatsiya asosida, xalqaro huquq qoidalariga amal qilgan holda va etarli va samarali kompensatsiya to'lanishi sharti bilan ekspropriatsiya amalga oshirilishi mumkin);
- ro'yxatdan o'tkazilish va konvertatsiyalashuvning ta'minlanishi;
- kapitalni olib chiqishdagi to'siqlarni yo'qotish;
- ikki marotaba soliqqa tortishni bekor qilish;
- retsipient mamlakatning milliy qonunchiligiga, ma'muriy tartib va qoidalariga xorijiy investorning amal qilishi;
- investitsion loyihani amalga oshirish bilan bog'liq xorijiy mutaxassislarni mamlakatdan chiqishiga va vaqtincha tashrif buyurishiga ruxsat berish;
- maslahatlar va muzokara yoki arbitraj yordamida kelishmovchiliklarni bartaraf etish.

Xorijiy investitsiyani o'z iqtisodiyotiga jalb etayotgan har bir davlat xorijlik sheriklariga huquqiy va tashkiliy kafolatlar yaratib beradi. Bu jarayon jahon tajribasida sinovdan ijobiy ravishda o'tgan. O'zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi qonunining 11- moddasida shunday yozilgan: Respublika hududida o'z investitsiya faoliyatini olib borayotgan xorijiy investorlar huquqlarining himoyasini O'zbekiston Respublikasi kafolatlaydi. Bu kafolat albatta, xalqaro huquq normalari asosida beriladi. Agarda O'zbekistonning yangi qabul qilingan qonunchiligi investitsiya sharoitlarini yomonlashtirsa, o'n yilgacha xorijiy investitsiyalar ular jalb qilingan davrda qabul qilingan qonunchilik shartlari saqlanib qoladi. Bu talab mudofaa, milliy havfsizlik, jamoat tartibini saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq qonunchilikni o'zgartirmaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari xorijiy investorlarning huquqlariga putur etkazadigan huquqiy normativlarni qabul qilgan taqdirda, investorlarga etkazilgan zarar shu organlardan sud orqali undiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini amalga oshirishda dunyoning 25 dan ortiq mamlakatlari ishtirok etmoqda. Investitsiyalarni jalb etish vazifasini davlatimiz ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini yaratish va rivojlantirish asosida xaqiqiy mulkdorlarni shakllantirish bilan bog'laydi.

Tayanch iboralar.

Investitsiya faoliyati, Investitsiya faoliyatini boshqarish, Investitsiya loyihasi, Tarkibiy siyosat, Tarkibiy o'zgarishi, Diversifikatsiya, Kafolatlar, Imtiyozlar.

Nazorat savollari.

1. Investitsiya faoliyati nimani anglatadi?
2. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan boshqarish choralari nimalardan iborat?
3. Investitsiya fondlari investitsiya faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Investitsiya faoliyati sub'ektlari va ob'ektlari nimani anglatadi?
5. Xorijiy investitsiyalar qanday boshqariladi?
6. Xorijiy investitsiyalarni boshqarishni chet el tajribasini xususiyatlari nimalardan iborat?

Adabiyotlar ro'yxati.

1. 1. "Xalq so'zi". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning ETTB Boshqaruvchilar Kengashi yillik yig'ilishining tantanali ochilish marosimidagi nutqi. 2003 y. 5 may.
2. "Delovoy partner Uzbekistana" Investitsionno'y forum Uzbekistana 2003 g 6 may.
3. "Delovoy partner Uzbekistana" Pryamo'e inostranno'e investitsii v stranax vostochnoy evropo'. 2003 g 8 may.
4. "Investitsionny potentsial Uzbekistana" X.X. Imomov 3-y Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii g. Samara 20-21 noyabrya 2003 goda.

5. Vlinskiy P.L., Levshets V.N., Smolyak S.A. Otsenka effektivnosti investitsionno'x proektov: Teoriya i praktika: Ucheb. Posob.-3-e izd. Ispr. i dop. -M.: Delo 2004 g.
6. Evsanko O.S. hpargalka po investitsii. Ucheb. Posobie. -M.: TK. Velbi, 2004 g.
7. Kotayubov V.YU. Investitsionno'y potentsial xozyaystvennoy deyatelnosti: Makro ekonomicheskoy i finansovo-kreditno'y aspekto'. Ucheb pos. -M.: MGIMO-Universitet. 2004 g.
8. TSarev V.V. otsenka ekonomecheskoy effektivnosti investitsiy.- SPb.: petr, 2004 g.
9. Siddiqov A. Sanoat ishlab chiqarishiga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari samaradorligi. "Bozor, pul va kredit" jurnali, 2004 №7-8 sonlar.
10. Lizing munosobatlari nazariyasi va amaliyoti. I.f.d., professor D./ozibekov umumiy tahriri ostida.-T.:Fan va texnologiya,2004 y.
11. Titov V.I. Analiz i diagnostika finansovo- xozyaystvennoy deyatelnost predpriyatiya: uchebник. M.: Dashkov i K, 2005 g.
12. Kojuxar V.M. Praktikum otsenka investitsiy: Ucheb posobie. -M.: Izd. Torgovaya koorparatsiya. Dashka. 2005 g.
13. www.uz – perva'y sayt Uzbekistana - resurso' Uzbekistana
14. www.gov.uz – ofitsialno'y pravitelstvenno'y sayt Respubliki Uzbekistan
15. www.stat.uz/index.htm – sayt Gosudarstvennogo komiteta RU po statistike
16. www.mf.uz sayt Ministerstvo finansov Respubliki Uzbekistan.

5-Mavzu. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirishda investitsiya institutlarining roli.

Reja

- 1. Investitsiya institutlarining umumiy xususiyatlari.**
- 2. Investitsiya maslahatchilari.**
- 3. Investitsiya kompaniyalari.**
- 4. Investitsiya fondlari.**
- 5. Moliyaviy bozori.**

1. Investitsiya institutlarining umumiy xususiyatlari.

Investitsiya institutlari – bu qimmatli qog'ozlar bilan o'z faoliyatini asosiy faoliyat sifatida amalga oshiruvchi qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilaridir.

Investitsiya instituti bo'lgan yuridik shaxsning ustavida uning asosiy faoliyat turi albatta ko'rsatilishi kerak (bu – investitsiya institutlarini oddiy xo'jalik yurituvchi sub'ektlaridan ajratib turuvchi birinchi xususiyat). Boshqa mamlakatlarda investitsiya institutlari qimmatli qog'ozlar bozorida o'z faoliyatini maxsus faoliyat sifatida amalga oshiruvchi tashkilot, deb ta'riflanadi.⁷ Investitsiya

⁷ qarang. Rossiyskoe zakonodatelstvo o ro'nke tsenno'x bumag.

institutlari uchun maxsus yoki asosiy faoliyat turi haqidagi talab tartibga soluvchi organlarning yuqori ixtisoslashuvini ta'minlashga va shu orqali qimmatli qog'ozlar bilan doimiy ravishda faoliyat olib boruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kasbiy mahoratining yuqori darajasiga erishishga intilishi bilan shartlangan. Bundan asosiy maqsad pirovardida investorlar manfaatlarini eng yuqori darajada himoyalashga erishishdan iborat.

Biroq mamlakatimiz fond bozori endigina shakllanish bosqichida bo'lib, qimmatli qog'ozlarning likvidligi yuqori bo'lmagan hozirgi vaqtda investitsiya muassasasi maqomini olishga da'vogarlik qiluvchi tashkilotlar uchun bunday sharoitda o'z faoliyatini amalga oshirish juda qiyin bo'ladi. SHuning uchun fond bozorida ishlashga ixtisoslashgan tashkilotlar shakllanish bosqichida o'zlarini ular faoliyatining taqiqlanmagan boshqa aniq investitsiya institutining faoliyati bilan qo'shib olib borilishidan olingan daromadlar hisobidan qo'llab-quvvatlashi hech qanday havfli emas.

SHu bilan birga, qonun hujjatlarida qimmatli qog'ozlar bozoridagi ayrim faoliyat turlarining birgalikda olib borilishi ta'kidlanadi. CHunonchi, investitsiya maslahatchilari, investitsiya fondlari va boshqaruvchi kompaniyalar o'zlariga tegishli faoliyat turini qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatning boshqa turlari bilan birgalikda olib borish huquqiga ega emas. Reestr saqllovchilar o'zlarining qimmatli qog'ozlar egalari reestrini yuritish bo'yicha faoliyatini fond bozoridagi depozitar faoliyatdan tashqari professional faoliyatning boshqa turlari bilan birgalikda olib borishi man etiladi. U bu cheklovlar investorlar huquqlarini himoyalash, ularning qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishdagi xatarlarni kamaytirish uchun, shuningdek, investitsiya instituti hamda mijozlar manfaatlarining qo'shilib ketishi va shu munosabat bilan nizoli vaziyatlarning sodir bo'lishi hollariga yo'l qo'ymaslik uchun zarur. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi har xil faoliyat turlarining birlashtirilishi bir shaxsning o'ziga investitsiya muassasasining har xil turlari sifatida faoliyat yuritish uchun bir necha litsenziyalarni berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Investitsiya institutlari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin. YUridik shaxs hisoblangan investitsiya muassasalarining faoliyati litsenziyalanishi lozim. Litsenziyalar 5 yil muddatga beriladi. Investitsiya muassasalarining litsenziyalanishi ular faoliyatining davlat tomonidan nazorat qilinishini anglatadi. qimmatli qog'ozlar bozoridagi har bir faoliyat turiga mazko'r bozorni tartibga soluvchi organning muayyan litsenziyasi to'g'ri keladi. Jismoniy shaxslar qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya maslahatchisi va investitsiya vositachisi sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin. Ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun jismoniy shaxslar mahalliy hokimiyat idoralarida tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olinishi hamda fond bozorini tartibga soluvchi organ tomonidan beriladigan malaka shahodatnomasiga va litsenziyaga ega bo'lishi lozim. Malaka shahodatnomasi 3 yil muddatga beriladi.

Investitsiya institutlarining ikkinchi o'ziga xos xususiyati shundaki, ularni xodimlarining asosiy tarkibi, xususan:

- investitsiya institutlarining rahbarlari;

- investitsiya institutlarining qimmatli qog'ozlar bilan investitsiya instituti nomidan bitimlar tuzishda bevosita ishtirok etuvchi, shuningdek, mijozlar bilan ishlovchi mutaxassislari fond bozorining ahvoli uchun mas'ul bo'lgan organda majburiy ravishda shahodatlashdan o'tishlari kerak.

Investitsiya institutida ishlovchi va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni bajarishga doir hujjatlarga imzo chekish huquqiga ega bo'lgan shahodatlashdan o'tgan mutaxassislari kamida ikkita xususiyatga ega bo'lishi zarur.

Va nihoyat, investitsiya institutlarining uchinchi o'ziga xos xususiyati shuki, ular etarli darajadagi o'z mablag'lariga ega bo'lishi lozim. O'z mablag'lariga deganda ustav, qo'shimcha, zahira fondlari va bevosita foydadan tashkil topgan mablag'lar hajmi tushuniladi. O'z mablag'larining etarli bo'lishini ta'minlash maqsadida investitsiya institutlari ularning har biri uchun maxsus belgilangan iqtisodiy me'yorga dosh berishlari kerak, bu me'yorlar quyidagilardan iborat:

1. Ustav fondining eng kam miqdori.
2. quyidagi formula bo'yicha aniqlanadigan o'z sarmoyasi va mijozlar mablag'larini o'zaro nisbatining koeffitsienti:

$$N_1 q = \frac{S}{K}$$

H₁ – o'z sarmoyasi va mijozlar mablag'larini o'zaro nisbatining koeffitsienti;

S – investitsiya institutining o'z sarmoyasi;

K – mijozlarning umumiy mablag'larini.

3. Bir mijoz uchun xatarining eng ko'p miqdori investitsiya institutini o'z mablag'ining bir mijoz tomonidan taqdim etilgan mablag'larning umumiy hajmiga nisbati sifatida quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$N_2 q = \frac{S}{1K}$$

N₂ – xatar koeffitsienti;

S – investitsiya institutining o'z sarmoyasi;

1K – bir mijoz tomonidan taqdim etilgan mablag'lar summasi.

2. Investitsiya maslahatchilari.

Investitsiya maslahatchisi – bu maslahat faoliyati bilan shug'ullanuvchi investitsiya institutidir. Maslahat faoliyati qimmatli qog'ozlar bozori va uning ishtirokchilari ahvolini tahlil, taxmin qilish, moliyaviy vositalarni ekspertizadan o'tkazish, ishlab chiqish va tavsiyalar berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni, qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish hamda ularning muomalada bo'lishi, mutaxassislarni qayta tayyorlash, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan investitsiya siyosatini amalga oshirish masalalari bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatishni nazarda tutadi. Investitsiya institutlarining boshqa turlaridan

farqli o'laroq, investitsiya maslahatchisi sifatida yuridik yoki jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya maslahatchisi faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u imkoniyatli investorga muayyan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish yoki sotish bo'yicha tavsiyalar berish huquqiga ega emas, faqatgina unga mustaqil qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotni berishi mumkin.

Investitsiya maslahatchisi ustav sarmoyasining eng kam miqdori eng kam ish haqining 100 barobariga teng bo'lishi kerak. Investitsiya maslahatchilari uchun iqtisodiy me'yorlar sifatida N1 va N2 koeffitsienti qo'llanilmaydi.

Investitsiya maslahatchilari quyidagi ishlar turlarini amalga oshiradi:

a)

aktsiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish hamda qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish kontsentsiyalarini ishlab chiqish, emissiya prospektini tayyorlash, emissiya prospektini davlat tomonidan vakolatlangan organlarda ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish;

b) davlat korxonalarini aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirish bilan bog'liq ishlarni tayyorlash va ularni amalga oshirish, ta'sis hujjatlarining loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni ro'yxatdan o'tkazishga ko'maklashish, qimmatli qog'ozlar nashrini depozitariyda ro'yxatdan o'tkazish, xususiylashtirilayotgan korxonaning aktsiyalashtirish va shunga o'xshash masalalar bo'yicha manfaatlarini davlat boshqaruvining barcha idoralarida ifoda etish;

v) kasbga o'qitish (qimmatli qog'ozlar bozori sohasida mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash);

g) emitentlar, investorlar, investitsiya institutlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish, qimmatli qog'ozlar bozorining ishtirokchilariga axborot xizmatlarini ko'rsatish: maxsus byulletenlar, axborotnomalar chiqarish, buyurtma bo'yicha emitentlarning faoliyati, ularning qimmatli qog'ozlari haqidagi axborotni taqdim etish, vositachini tanlash bo'yicha tavsiyalar berish va h.k.

d) mijozning topshirig'iga ko'ra u yoki bu qimmatli qog'ozlarning reklama qilinishini tashkil etish;

e) emitentlar, investitsiya institutlarining fond bozoridagi faoliyati bilan bog'liq konsalting xizmatlari (kontragentlar, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar berish);

j) qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilariga ushbu bozorga: oid qonun hujjatlari bo'yicha maslahatlar berish;

z) qimmatli qog'ozlarning birja savdolariga kiritilishiga, shu jumladan, listing tadbiridan o'tish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlashga yordam ko'rsatish;

i) investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va ularni ekspertizadan o'tkazish;

k) qimmatli qog'ozlar bozoridagi vaziyatni tahlil qilish (narxning vujudga kelishi, bozor kon'yunkturasini taxmin qilish, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar qilish imkoniyati va h.k.);

l) bitimlarni tuzishda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining manfaatlarini ifoda qilish, kontragentlar o'rtasidagi nizolarni betaraf hakam sifatida bartaraf etish;

m) investitsiyani amalga oshirish uchun emitentni va uning qimmatli qog'ozlarini baholash;

n) sarmoyadarning loyihada ishtirok etishdan bosh tortganligi munosabati bilan investitsiya mablag''larini qaytarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.

Mijoz haqida ma'lumotlar olish ham investitsiya maslahatchisining majburiyatiga kiradi. Mijoz taqdim etmoqchi bo'lgan axborotning to'liq va ishonchli bo'lishi ko'p jihatdan uning mazko'r axborot boshqa shaxslarning qo'liga o'tmasligiga ishonishiga bog'liq. Aynan shuning uchun qator mamlakatlarning qonuniy hujjatlari maslahatchilarni mijozlarning moliyaviy ahvoli haqidagi maxfiy axborotni oshkor etmaslikka, ulardan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanmaslikka, agar mijoz o'zi haqida hech qanaqa ma'lumotlar bermasa, maslahat xizmati ko'rsatishdan bosh tortishga, ular oldida majburiy tartibda u yoki bu qimmatli qog'ozlarga nisbatan shaxsiy manfaatlarini ochiq-oydin bayon qilishga majbur etadi.

Eng avvalo investitsiya maslahatchisi mijoz investitsiyani amalga oshirish natijasida erishishni mo'ljallayotgan maqsadlarini, ko'zlangan maqsadlarga erishishga undovchi sabablarni, shuningdek, omonatchi yo'l qo'yishga tayyor bo'lgan xatar darajasini to'liq asnoda o'ziga tasavvur qilishi kerak.

Asosiy investitsiya maqsadlari quyidagilardan iborat:

- omonatlarni qadrsizlanishdan eng ishonchli tarzda himoyalash;
- yuqori joriy daromadni olish;
- uzoq kelajakni mo'ljallagan holda mablag''larni foydali joylashtirishga intilish;
- qisqa muddatda qo'yilgan mablag''larning maksimal darajada o'sishiga erishishga urinib ko'rish;
- yuqorida sanab o'tilgan maqsadlarga turli uyg'unliklar bilan bir vaqtning o'zida erishish istagi.

Mijozni ma'lum investitsiya maqsadiga erishishga intilishini ta'minlovchi sabablar turlicha va ular bir qancha o'ziga xos sharoitlarga bog'liq. Biroq bu erda, yuqorida ta'kidlanganidek, mijozlarning yoshiga xos xususiyatlarini, ularning harakatchanligi, moddiy ahvoli, ijtimoiy maqomi hamda boshqa bir qancha omillarni inobatga olgan holda muayyan qonuniyatni kuzatish mumkin.

Investitsiyalashning natijalari ularning xatarlilik darajasi bilan bog'liq. SHuning uchun investitsiya maslahatchisi mijoz o'zi uchun mumkin, deb qabul qiladigan barcha xatarlarni inobatga olishi zarur. Investitsiyalashdagi asosiy xatarlar quyidagilar yuz berishi ehtimoli bilan bog'liq:

- qo'yilgan barcha mablag''larning to'liq yo'qotilishi;
- omonatlarning ma'lum qismining yo'qotilishi;
- qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati saqlanib qolgan holda ularga sarflangan mablag''larning qadrsizlanishi;
- qo'yilgan mablag''lar bo'yicha kutilayotgan daromadning to'liq yoki qisman to'lanmasligi;

- daromadlarni olishning kechiktirilishi.

/arb mamlakatlarida o'tkazilgan qator tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, odamlarning tavakkal qilishga bo'lgan istagi uchta asosiy omil bilan belgilanadi: xarakterining o'ziga xos xususiyatlari, yoshi va moddiy ahvoli.

Investitsiya maqsadlari aniqlab olinganidan keyin maslahatchi ularni amalga oshirishning eng samarali yo'lini belgilab olishi lozim. Buning uchun avvalo mijozning moliyaviy ahvoli haqida axborot olishi kerak. Mijoz fond bozori vositalariga joylashtirish uchun ajratishi mumkin bo'lgan resurslarning hajmi belgilanib, summaning vaqt bo'yicha bo'linishi amalga oshirilganidan so'ng maslahatchi katta investitsion rejani tuzishga hamda omonat va jamg'armalarni joylashtirishning mijoz uchun maqbul bo'lgan yo'nalishlarni aniqlashga kirishadi.

Investitsiya strategiyasi va usullarini ishlab chiqishda investitsiya maslahatchilari investitsiyalarning kelajakdagi qiymatini baholashning turli xil usullaridan foydalanishadi, fond bozorining qaysidir sohasidagi ishlar ahvolini chuqur va har tomonlama aniqlab olish imkonini beruvchi asosiy tahlil qilishga kirishadi, yoki bozor kon'yunkturasining o'zgarishini ta'minlash imkonini beruvchi texnik jihatdan tahlil qilish usullariga suyanadi. Investitsiya maslahatchisining faoliyati mamlakatimiz fond bozorining xalqaro fond bozoriga integratsiyalashuvi sharoitlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda mamlakatimiz investitsiya maslahatchilari turli faoliyag turlari tutashgan joyda ish olib borishadi, bular quyidagilar: bevosita investitsiya maslahati, mol-mulkni, qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash, O'zbekiston korxonalarining buxgalterlik balansi va moliyaviy hisobotlari ko'rsatkichlarini xorijiy investorlarga tushunarli shaklga keltirish, yuridik xususiyatli xizmatlarni ko'rsatish.

3. Investitsiya kompaniyalari.

Investitsiya kompaniyasi – bu qimmatli qog'ozlarni chiqarish, qimmatli qog'ozlarga mablag'lar sarflash, qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'zi hisobidan olish–sotish ishlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.⁸

Investitsiya kompaniyalari o'z resurslarini faqat muassislarning mablag'lari va qayta investitsiyalangan o'z mablag'lari hisobidan shakllantiradi hamda yuridik va jismoniy shaxslarga sotiladigan o'z qimmatli qog'ozlari emissiyasini amalga oshiradi.

Investitsiya kompaniyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. qimmatli qog'ozlarni chiqarishni tashkil etish va emitentga (muassislarga) ularning joylashtirilishi kafolatini berish.
2. qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar qilish.
3. qimmatli qog'ozlar bilan o'z hisobidan va shaxsiy tavakkalchilik asosida operatsiyalar (oldi–sotdi) qilish (dilerlik faoliyati).

1. ⁸ Biz investitsiya kompaniyasi, deb ataydigan muassasa amerika amaliyotida investitsiya banki, deb nomlanadi. Kojuxar V.M. Praktikum otsenka investitsiy: Ucheb posobie. -M.: Izd. Torgovaya koorparatsiya. Dashka. 2005 g.

2.

O'zbekistonda investitsiya kompaniyalari. O'zbekistonda dastlabki investitsiya kompaniyalari 1992 yilning oxirida paydo bo'ldi. Ulardan eng yirigi "Toshkent" respublika universal tovar–fond birjasi bazasida tashkil etilgan "Toshkent" O'zbekiston moliya–investitsiya kompaniyasi ("O'zmoliyainvest") edi. Investitsiya kompaniyalari "qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida"gi qonun qabul qilingunga qadar "Korxonalar to'g'risida"gi qonun asosida ish olib borardi. Ularning investitsiya instituti sifatidagi faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonun hujjati mavjud emas edi. SHuning uchun ko'pchilik investitsiya kompaniyalari tijorat va qimmatli qog'ozlar bozori bilan bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanardi. 1996 yilda investitsiya kompaniyalari faoliyatining ayrim cheklovlari qabul qilinganidan keyin (ular o'zlarining jalb qilingan resurslarini aholining omonatlari va mablag'lari hisobidan shakllantirishi mumkin emas edi) ularning ko'pchiligi investitsiya institutlarining boshqa turlariga (odatda, boshqaruvchi kompaniyaga) aylangan holda o'z maqomini o'zgartirdi.

Investitsiya kompaniyasi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri anderrayting – qimmatli qog'ozlarni xarid qilish yoki ularni investorlar o'rtasida joylashtirish kafolatini berish – hisoblanadi. Anderraytingga quyidagilar kiradi: qimmatli qog'ozlarni chiqarish shartlarini belgilash, ularning yangi nashrlarini tayyorlash, qimmatli qog'ozlarni keyin investorlarga qayta sotish uchun emitentlardan sotib olish, ularni joylashtirish kafolatini berish, yangi nashrlarga obuna qilish bo'yicha sindikatlar yoki sotish bo'yicha guruhlar tashkil etish.

Anderrayter – bu qimmatli qog'ozlarga xizmat ko'rsatuvchi va ularning birlamchi joylashtirilishiga kafolat beruvchi, qimmatli qog'ozlarni keyinchalik xususiy investorlarga qayta sotish uchun emitentdan sotib oluvchi investitsiya institutidir.

Anderrayter sifatida investitsiya institutlarining guruhi ishtirok etishi mumkin.

Anderreytingning turlari. "qat'iy majburiyatlar asosidagi" anderrayting. Bunday sharoitda anderrayter aktsiyalarning butun nashrini yoki uning bir qismini qat'iy narxlarda joylashtirish bo'yicha qat'iy majburiyatlarga ega bo'ladi. Mazko'r holatda, agar nashrning bir qismi investorlar tomonidan sotib olinmasa, anderrayterning o'zi ushbu qismni sotib olishga majbur. Agar belgilangan narxlar bo'yicha birlamchi joylashtirishning vaqti ikkilamchi bozorda ko'rsilarning keskin pasayishi bilan to'g'ri kelsa, u holda anderrayter katta yo'qotishlarga duch kelishi mumkin.

"Eng yaxshi harakatlar asosidagi" anderrayting. Bunday vaziyatda anderrayter qimmatli qog'ozlar nashrining tarqatilmagan qismini sotib olish bo'yicha hech qanaqa majburiyatlarga ega bo'lmaydi. U faqat joylashtirishga intiladi, lekin agar u buning uddasidan chiqmasa, tarqatilmagan qimmatli qog'ozlar emitentga qaytariladi, anderrayter esa buning uchun javobgarlikka ega emas. Joylashtirmaslik xatari emitentning zimmasiga tushadi. Bunday anderrayter distribyuter, deb nomlanadi.⁹

⁹ O'zbekiston fond bozorining amaliyotida distribyuterlik shartnomalaridan "Toshkent" Respublika tovar–fond birjasi o'zining 20 mln. rubllik o'n mintta aktsiyalarining ikkilamchi emissiyasi chog'ida keng foydalandi (1992 y.). Emitent birja va brokerlik

Investitsiya kompaniyalari tomonidan anderraytingning amalga oshirilishini quyidagi asosiy bosqichlarga bo'lish mumkin: qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishga tayyorlash, shu jumladan, emitent va bunga ko'maklashuvchi boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda nashrlarni rejalashtirish, muomalaga chiqariladigan qimmatli qog'ozlarni baholash, emitent hamda nazarda tutayotgan investorlar o'rtasida aloqalarni o'rnatish va h.k.; qimmatli qog'ozlarni taqsimlash, shu jumladan, emissiyaning bir qismini yoki butun summasini sotib olish, qimmatli qog'ozlarni investorlarga sotish, mazko'r qimmatli qog'ozni joylashtirish vaqtida uning bozor narxini qo'llab-quvvatlash; sotilgandan keyingi davrda qimmatli qog'ozning ko'rsini ma'lum vaqt mobaynida qo'llab-quvvatlash (odatda bir yil); shuningdek, qimmatli qog'ozning ko'rs qiymati o'zgarishini tahlil va nazorat qilish, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.

Anderraytingni amalga oshirish uchun investitsiya kompaniyalari emissiya sindikatlariga – qimmatli qog'ozlar nashrini va uning kafolatli joylashtirilishini tashkil etuvchi anderrayterlar guruhiga birlashishlari mumkin. Emissiya sindikatlarini odatda muayyan vaqtga (joylashtirish davriga), xo'jalik birlashuvi va yuridik shaxs maqomini ro'yxatdan o'tkazmagan holda tashkil etiladi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda emissiya sindikatlariga kiruvchi investitsiya kompaniyalarining soni bir necha yuztaga etishi mumkin. Sindikat a'zolari qandaydir bir qimmatli qog'ozni joylashtirish borasida muvaffaqiyatli hamkorlik qilishi va fond bozorining boshqa uchastkalarida raqobatlashishi mumkin.

Investitsiya kompaniyalarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular aholi bilan ishlash (o'zlarining jalb etilgan mablag'larini aholi omonatlari va mablag'lari hisobidan shakllantirish) huquqiga ega.

Investitsiya kompaniyasining ustav fondi eng kam ish haqining 1500 barobaridan kam bo'lmasligi, bunda yuqori likvidli aktivlari ustav fondining kamida 30 foizini tashkil etishi lozim. Investitsiya kompaniyalari iqtisodiy me'yorlari ko'rsatkichi: $N_1 > 1$; $N_2 > 1$.

4. Investitsiya fondlari.

Investitsiya fondlari – bu jismoniy va yuridik shaxslar mablag'larini to'plovchi hamda foyda olish, aksiyadorlar xatarini kamaytirish maqsadida ushbu mablag'larni fond nomidan qimmatli qog'ozlarga, bank hisob raqamlariga va omonatlarga joylashtiruvchi tashkilotdir.¹⁰

Investitsiya fondi yuridik shaxs bo'lib, aksiyalarni chiqarish va xarid qilishni, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa bitimlarni amalga oshiradi, shuningdek, u aksiyalariga egalik qilayotgan korxonalarining rivojlanishida va faoliyati samaradorligini oshirishda aksiyador huquqlari bilan ishtirok etadi. YUqorida sanab o'tilgan operatsiyalar investitsiya fondining maxsus faoliyat turiga kiradi.

firmani o'rtasidagi shartnomaning shartlariga ko'ra brokerlik firmasi "Toshkent" Respublika tovar–fond birjasi aksiyalarining ayrim miqdorini muayyan davr ichida birjaga sotuvdan keyin, masalan, har bir aktsiya uchun 12 ming rublni qaytarish majburiyati bilan sotishi lozim edi. Broker – distribyuterlar taklif narxini haddan tashqari ko'tarib yubormasligi maqsadida ular uchun joylashtiriladigan aksiyalar narxlarini bo'yicha chegaralar belgilandi (masalan, 14 ming rubldan yuqori bo'lmagan narxda sotish). Sotuv narxi va "majburiyat" narxi o'rtasidagi farq brokerining daromadini tashkil etardi.

¹⁰ Biz investitsiya fondi, deb ataydigan muassasa amerika amaliyotida investitsiya kompaniyasi, deb nomlanadi.

Investitsiya fondi faoliyatini qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarning boshqa turlari bilan birga olib borishga yo'l qo'yilmaydi. Fondni sarflash bilan bog'liq barcha xatarlar, ularning bozor narxlarini o'zgarishidan ko'rilgan daromad va zararlar aktivlar qiymatini yoki fond aksiyalari joriy narxlarini o'zgartirish yo'li bilan to'liq hajmda aksiyadorlarning hisob raqamlariga kiritiladi. Investitsiya fondlari faqat ochiq aksiyadorlik jamiyatlari ko'rinishida tashkil etilishi mumkin.

Investitsiya fondlari ikki xilga bo'linadi: ochiq va yopiq investitsiya fondlari. Ochiq turdagi investitsiya fondlari aksiyalarni ularni sotib olish majburiyati bilan muomalaga chiqaradi, ya'ni fond qimmatli qog'ozlarining egalariga ularning o'rniga pul summasi yoki mol-mulkni olish huquqini beradi, bu ustavda oldindan ko'zda tutilishi lozim. Yopiq turdagi investitsiya fondlari aksiyalarni ularni sotib olish majburiyatisiz muomalaga chiqaradi.

Investitsiya fondlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Investitsiya fondlarining muassislari bo'lib yuridik va jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin, bunda ularning soni ikkitadan kam bo'lmasligi kerak. Investitsiya fondining ustav fondi eng kam ish haqining 500 barobaridan kam bo'lmasligi lozim. Fond aksiyalariga dastlabki obuna fond davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 30 kundan kechiktirmasdan amalga oshiriladi. Fond ustav sarmoyasining kamida 75 foizi pul mablag'lari bilan to'lanishi zarur. Investitsiya fondi davlat ro'yxatiga olinib, investitsiya muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatish uchun litsenziya olganidan keyin u tashkil etilgan hisoblanadi. Investitsiya muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatish uchun litsenziya 5 yil muddatga beriladi.

Fondni tashkil etishda uning aksiyalari ochiq obuna yo'li bilan tarqatiladi, bunday obuna boshqaruvchi kompaniya tomonidan amalga oshiriladi. Obunaning eng uzoq muddati 6 oy qilib belgilanadi. Obunaning yakunlanishida investitsiya fondining ustav sarmoyasi u tomonidan amalda joylashtirilgan aksiyalar bilan muvofiqlashtiriladi va adliya idoralarida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Investitsiya fondini boshqarish. Investitsiya fondining oliy organi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Umumiy yig'ilishning maxsus vakolatiga qonun hujjatlari bilan belgilanganlardan tashqari, fond faoliyatining chegaralanishini, depozitariy va boshqaruvchi kompaniyalar bilan shartnomalarni ma'qullash kiradi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari o'rtasidagi davr 15 oydan oshmasligi kerak. Ushbu vaqt mobaynida kuzatuvchi kengash uning oliy organi hisoblanadi.

Investitsiya fondi investitsiyalarini boshqarish va uning qimmatli qog'ozlari portfelini shakllantirishni, shuningdek, fondga maslahat xizmatlarini ko'rsatishni boqaruvchi kompaniya amalga oshiradi. Davlat boshqaruvi idoralari tomonidan ta'sis etilgan investitsiya muassasalari yoki ustav fondining 25 foizi davlatga tegishli bo'lgan tashkilotlar, shuningdek, affilyatsiyalangan shaxslar investitsiya fondining boshqaruvchi kompaniyasi bo'la olmaydi. Investitsiya fondining affilyatsiyalangan (tobe) shaxslari deganda yuridik va jismoniy shaxslar, boshqaruvchi kompaniya hamda uning mansabdor shaxslari, muassislari va ovoz beruvchi aksiyalarning 10 foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar tushuniladi. Affilyatsiyalangan shaxslar tarkibiga mazko'r boshqaruvchi kompaniya bilan

boshqarish to'g'risida shartnoma tuzgan barcha investitsiya fondlari kiradi. Investitsiya fondining ishtirokchilari boshqaruvchi kompaniyaning muassisi va a'zosi bo'lishi mumkin emas, o'z navbatida, boshqaruvchi kompaniyaning muassislari, mansabdor shaxslar, mutaxassislar hamda ularning affilyatsiyalangan shaxslari investitsiya fondining aktsiyadorlari bo'la olishmaydi. Investitsiya fondining kuzatuvchi kengashlari hamda boshqaruvchi kompaniyalar tarkibiga davlat hokimiyati va boshqaruvchi idoralarining mansabdor shaxslari kiritilishi mumkin emas. Boshqaruvchi kompaniya bilan investitsiya fondining aktivlarini boshqarish to'g'risidagi shartnomani aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan vakil etilgan fondni kuzatuvchi kengashining raisi tuzadi. Kuzatuvchi kengash boshqaruvchi kompaniya tomonidan tuziladigan bitimlarning ro'yxatini, shuningdek, bitimlarning xususiyati va hajmiga ko'ra chegaralarni belgilashi mumkin. Boshqaruvchi kompaniya o'z faoliyatini investitsiya fondi nomidan amalga oshiradi, aktsiyalari fondga tegishli bo'lgach korxonalar aktsiyadorlarining umumiy yig'ilishida aktsiyador sifatida ishtirok etadi. Boshqaruvchi kompaniya tomonidan olinadigan umumiy yillik mukofot pulining miqdori investitsiya fondi sof aktivlari o'rtacha yillik qiymatining 5 foizidan oshmasligi kerak.

Fond aktsiyalari birinchi nashrining hisobi Markaziy depozitariyda, keyingi nashrlarining hisobi esa, Markaziy depozitariy bilan vakillik munosabatlariga ega bo'lgan boshqa depozitariylarda yuritiladi. Depozitariy fond qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalarni hisobga oladi va nazorat qiladi, shu jumladan, qimmatli qog'ozlarni almashtirish, xarid qilish va sotish bo'yicha cheklovlarini amalga oshiradi. Depozitariyning talabiga ko'ra uning vakili fond kuzatuvchi kengashining majlisida maslahat ovozi huquqi bilan ishtirok etishi mumkin. Investitsiya fondi aktsiyadorlarining reestri depozitariy tomonidan yuritiladi. Depozitariy fondning kreditori yoki kafili bo'lish huquqiga ega emas. Fondning, boshqaruvchi kompaniya va depozitariyning hujjatlari hamda hisobotlarini fond tomonidan tayinlangan mustaqil auditor yillik tekshiruvdan o'tkazadi.

Turli xildagi xatarlarni kamaytirishga erishish. Investitsiya fondiga turli xildagi xatarlarni kamaytirish maqsadida ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanish va moliyaviy yo'qotishlarga olib keluvchi, qator operatsiyalarni amalga oshirish qonun yo'li bilan man etiladi. Masalan, investitsiya fondi:

- qimmatli qog'ozlarga mablag'lar sarflash, opsiyonlar, fyucherslarni xarid qilish, har xil turdagi kafolatlarni berish va mol–mulkni garovga quyishdan tashqari investitsiyaning boshqa turlarini amalga oshirish;
- egalari fond tutatilganidan so'ng aktivlarni sotib olish uchun oddiy aktsiyalarning egalari qaraganda ustunlik huquqlariga ega bo'lgan obligatsiyalar, imtiyozli aktsiyalar va boshqa turdagi majburiyatlar (qarz majburiyatlari)ni chiqarish;
- agar aktsiyadorlik jamiyatining oddiy aktsiyalarini xarid qilgandan keyin investitsiya fondining affilyatsiyalangan shaxslariga ushbu jamiyat aktsiyalarining 10 foizdan ortig'i tegishli bo'lsa, ularni sotib olish;
- o'zining sof aktivlarining 10 foizdan ortig'ini bir emitentning qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish, davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno;

- fondni o'zining affilyatsiyalangan shaxslari qimmatli qog'ozlariga mablag''larni investitsiya qilish, karz majburiyatlariga mablag''larni sarflash (davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno);
- o'zining affilyatsiyalangan shaxslaridan qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlarni sotib olish yoki ularga sotish, boshqa investitsiya fondlarining aksiyalarini xarid qilish huquqiga ega emas.

SHuningdek, investitsiya fondlari faoliyati uchun ayrim boshqa cheklovlar ham mavjud va ular bunga og'ishmay amal qilishlari lozim.

Investitsiya fondi foydasining soliqlar, majburiy to'lovlar va boshqaruvchi kompaniyasining mukofotlari to'langanidan keyin qolgan va sarmoyani ko'paytirishga yo'naltirilmagan qismi aksiyadorlar o'rtasida dividend sifatida taqsimlanadi. Investitsiya fondi tomonidan o'z sarmoyasi va mijozlar mablag''lari o'zaro nisbatining koeffitsienti (N1), shuningdek, bir mijoz uchun xatarning eng kam miqdori (N2) belgilanmagan.

Xususiylashtirish investitsiya fondlari. Xususiylashtirish investitsiya fond(XIF)lari investitsiya fondlarining bir turi hisoblanadi. Ular aholining keng qatlamini xususiylashtirish jarayoniga jalb etish maqsadida tashkil etiladi. XIFlarning vazifasi aholining pul mablag''larini jamlab, ularni xususiylashtirilayotgan davlat korxonalarining aksiyalarini sotib olishga yo'naltirishdan iborat. Xususiylashtirish investitsiya fondi o'z aksiyalarini chiqarish hisobiga mablag''larini jalb etish, o'z mablag''larini hamda olingan maxsus davlat kreditlarini xususiylashtirilayotgan davlat korxonalarining qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish, qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish, aksiyalariga ega bo'lgan korxonalarni rivojlantirish va samaradorligini oshirishda aksiyador sifatida ishtirok etishdan iborat faoliyatni amalga oshiruvchi ochiq aksiyadorlik jamiyatidir.

Xususiylashtirish investitsiya fondlari quyidagi xususiyatlarga ega:

- xususiylashtirilaetgan korxonalar tomonidan chiqariladigan aksiyalar umumiy sonining 30 foizigacha xarid qilish imkoniyati;
- o'zining umumiy aktivlarining 10 foizidan ko'p bo'lmagan qismini bir emitentning qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish imkoniyati;
- maxsus davlat kreditini olish imkoniyati;
- mablag''larni faqat xususiylashtirilgan korxonalarning aksiyalariga va davlat qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish huquqi.

XIF – bu yopiq turdagi investitsiya fondidir, ya'ni u qimmatli qog'ozlarni ularni sotib olish majburiyatlarisiz chiqaradi.

Xususiylashtirish investitsiya fondining investitsiya portfelini tashkil etuvchi aksiyalarni sotish faqat o'z aksiyalarining professionallar tomonidan tashkil etilgan qimmatli qog'ozlarning birja va birjadan tashqari bozorlarida aholi o'rtasida joylashtirilishi tugallanganidan keyin amalga oshiriladi. XIFlar o'z faoliyatida investitsiya fondlari uchun belgilangan cheklovlarga amal qiladi.

XIFlarini tashkil etish va ular faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. XIFlar muassislarning soni kamida ikki nafar shaxsdan iborat bo'lishi kerak. YUridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, ustav fondida davlatning ulushi 25 foizdan kam

bo'lgan korxonalar XIFning muassislari hamda aktsiyadorlari bo'lishi mumkin. XIFning ustav fondi faqat pul mablag'larini kiritish hisobiga shakllantirilishi lozim, bunda muassislar ustav fondi qiymatining 100 foizini davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 30 kundan kechiktirilmagan muddatda to'lashga majbur.

Xususiylashtirish investitsiya fondlari faoliyatining muhim xususiyati shundan iboratki, hisob–kitob raqamlari bo'yicha bank operatsiyalari boshqaruvchi kompaniya tomonidan faqat XIFning mablag'laridan maqsadli foydalanganligini tasdiqlovchi Markaziy depozitariy vaqilining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

XIFlar aktsiyalarining birlamchi joylashtirilishida ular fond do'konlar va boshqa sotuv shohobchalari orqali 100 so'm nominal qiymat bo'yicha sotiladi. Birlamchi joylashtirish chog'ida O'zbekistonning har bir fuqarosi XIFlar aktsiyalarini nominal qiymati bo'yicha xarid qilish huquqiga ega. Amalda to'langan ustav sarmoyasi ro'yxatga olinganidan keyin uning aktsiyalari aholiga joylashtirilishi yakunlariga ko'ra har bir aktsiyador (muassis) ishtirokining ulushi bir oydan ko'p bo'lmagan muddatga ustav fondining 5 foizidan oshmasligi kerak.

XIFlar aktsiyalarini sotish investitsiya muassasalari (fond do'konlari), qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar qilish huquqiga ega bo'lgan banklar orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi davlat–tijorat xalq banki, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish organining talablariga javob beradigan boshqa tijorat banklari barcha ro'yxatga olingan XIFlar aktsiyalarining muassasaviy (institutsonal) tarqatuvchilaridir. Muassasaviy tarqatuvchilarning XIFlar aktsiyalarini sotish bo'yicha xarajatlari XIFlarga aktsiyalarni sotishdan kelib tushadigan Davlat mulki qo'mitasining mablag'leri hisobidan qoplanadi. Maxsus davlat kreditining asosiy summasi qaytarilishiga qarab XIFlar Davlat mulki qo'mitasi tomonidan muassasaviy tarqatuvchilar xizmatlari haqlarini to'lash uchun sarflangan, aholiga sotilgan XIFlar aktsiyalari tegishli paketlariga to'g'ri keladigan mablag'larning qaytarilishini ta'minlaydi.

XIFlar aktsiyalari oddiy, egasining nomi yozilgan bo'lib, har bir aktsiya aktsiyadorlar umumiy yig'ilishida bir ovoz huquqini, shuningdek, dividendlar olish huquqini beradi.

XIF aktsiyalarining birinchi nashri XIFning ta'sis etilishi chog'ida ustav fondiga muassislar tomonidan kiritilgan ulushlarni qoplash uchun amalga oshiriladi. Aktsiyalarning ikkinchi nashri aktsiyalarni aholiga sotish uchun chiqariladi va u XIF davlat ro'yxatiga olinganidan keyin 3 oydan kechiktirilmasdan amalga oshirilishi lozim. XIFlar aktsiyalarining ikkinchi emissiyasi ikkinchi emissiya prospekti ro'yxatga olingan kundan boshlab 6 oy ichida, joylashtiriladi. XIFlar aktsiyalarining keyingi emissiyasi aktsiyadorlarga tegishli bo'lgan foydani kapitalizatsiya qilish, keyinchalik aktsiyalarni aktsiyadorlar o'rtasida taqsimlash yoki aktsiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan ustav fondi oshirilgan taqdirda, shuningdek, unga qo'shilayotgan boshqa XIF aktsiyalariga almashtirilgan holda amalga oshirilishi mumkin. XIFlar quyidagi huquqlarga ega:

- investitsiya muassasasi litsenziyasini olgunga qadar aktsiyalarni sotuvga taklif qilish (muassislar o'rtasida taqsimlanadiganlaridan tashqari);
- o'z aktsiyalarini joylashtirish chog'ida mo'ljallangan daromadlar miqdorini e'lon va reklama qilish;
- o'z aktsiyalarini yuridik shaxslarga sotish (muassislardan tashqari);
- o'z aktsiyalarini aktsiyadorlardan sotib olish.

XIF aktsiyalarining nashri davlat ro'yxatiga olinganidan so'ng ular qimmatli qog'ozlarning birja va birjadan tashqari bozorlarida erkin muomalada bo'lishi mumkin.

XIFlar aktsiyalari va XIFlarga tegishli qimmatli qog'ozlar bilan bajariladigan barcha operatsiyalar faqat Markaziy depozitariyda hisobga olinishi kerak,

XIFlar tomonidan xususiylashtirilgan korxonalar aktsiyalarining sotib olinishi mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 25 sentyabrdagi 410–sonli qarori bilan XIFlar tomonidan kimoshdi savdolari orqali sotish uchun taqdim etiladigan aktsiyalar miqdoriga ega bo'lgan 200 ta ochiq aktsiyadorlik jamiyatining ro'yxati tasdiqlandi. Bundan tashqari, yuqorida qayd etilgan ro'yxatga qo'shimcha ravishda Davlat mulki qo'mitasiga xususiylashtiriladigan korxonalarning davlatga tegishli aktsiyalarini XIFlar uchun sotuvga qo'yishga ruxsat etildi.

Xususiylashtiriladigan korxonalarning aktsiyalari XIFlarga nominal qiymatiga teng ravishda qayd etilgan narxda sotilishi lozim. XIFlarning aktsiyalarga ochiq obuna bo'yicha qayd etilgan narxlarda xarid qilish qobiliyati fond aktsiyalarini aholiga sotishdan kelib tushadigan va kiritilgan ta'sis badallari summasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Davlat mulki qo'mitasi tomonidan vakolatlangan organ savdolarning tartibini belgilab beradi. Ochiq obunani o'tkazish sanasi u o'tkaziladigan kundan bir hafta oldin ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi kerak. Agar bir emitentning aktsiyalarini xarid qilish uchun tushgan talabnomalar miqdori taklif etilayotgan miqdordan yuqori bo'lsa, u holda aktsiyalarni taqsimlash (kimoshdi savdosini o'tkazish sanasida) har bir talabnoma bergan XIF tomonidan amalda to'langan ustav fondini inobatga olgan holda berilgan talabnomalarga mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Ochiq obunaning birinchi davrasida XIFlarga sotilmay qolgan aktsiyalar birja bozorida ochiq savdoga qo'yiladi. SHundan so'ng, agar ushbu aktsiyalar birja savdolariga qo'yilgandan boshlab olti taqvim kunida sotilmasa, ular keyingi 15 kun ichida ochiq obunaning ikkinchi davrasida XIFlarga taklif etiladi. Ikkinchi davrada sotuv aktsiyalarning nominal qiymatiga teng bo'lgan narxlarda amalga oshirila boshlanadi, bordi-yu ularga nisbatan talab bo'lmasa, aktsiyalar narxleri bosqichma–bosqich pasaytiriladi, lekin ular nominal qiymatining 85 foizidan pastga tushirilmaydi. Ochiq obunaning ikkinchi davrasida aktsiyalarni sotib olishda XIFga davlat krediti berilmaydi. Agar mazko'r aktsiyalarga nisbatan ochiq obunaning ikkinchi davrasida ham talab bo'lmasa, ularning emitentlari XIFlarga sotish uchun mo'ljallangan xususiylashtirilgan korxonalarning tasdiqlangan ro'yxatidan chiqarib tashlanadi. Aktsiyalar sotilgandan keyin Davlat mulki qo'mitasi aktsiyalarga egalik qilish huquqini xaridorga topshiradi.

XIFlar tomonidan maxsus davlat kreditlarining olinishi. XIFlarga maxsus davlat krediti Davlat mulki qo'mitasi tomonidan xususiylashtirilayotgan korxonalar aktsiyalarini xarid qilish uchun to'lovni kechiktirish ko'rinishida 5 yil muddatga beriladi. Kreditni rasmiylashtirish faqat Davlat mulki qo'mitasidan xususiylashtirilayotgan korxonalarning aktsiyalarini sotib olishda va zarur bo'lgan garov ta'minoti mavjud hollarda amalga oshiriladi. XIFga tegishli bo'lgan har qanday aktivlar – xususiylashtirilgan korxonalarning aktsiyalari, qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari va hokazolar kredit uchun garov tariqasida qabul qilinishi mumkin. Ta'minot berilayotgan kreditning to'liq summasida bo'lishi kerak. XIF o'z pul mablag'lari bilan xususiylashtirilayotgan korxona aktsiyalari paketi qiymatining 30 foizini to'laydi, aktsiyalar paketi qiymatining qolgan 70 foizi esa, kredit hisobidan sotib olinadi.

Kreditlarni qaytarish kredit berilgan yildan keyingi ikkinchi yildan boshlab XIF tomonidan pul mablag'larining Davlat mulki qo'mitasining maxsus hisob raqamiga o'tkazilishi yo'li bilan amalga oshiriladi. Davlat krediti bo'yicha qarzlarni qaytarilganidan so'ng XIF oddiy investitsiya fondiga aylantirilishi mumkin. Bunda ushbu investitsiya fondi xususiylashtirilayotgan korxonalarning aktsiyalarini ularning nominal qiymati bo'yicha xarid qilish va yangi davlat kreditini olish huquqini yo'qotadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda investitsiya va xususiylashtirish fondlariga o'xshash tashkilotlar moliyaviy jihatdan barqaror sanaladi, chunki ular mablag'larining turli korxonalarga sarflanishi diversifikatsiyasi qonuniy tartibda ta'minlanadi, faoliyatning cheklanishi esa XIFlarga tijorat xususiyatidagi xatolarni qilmaslik imkonini beradi. Bunday tashkilotlarning shtatida turli xil korxonalarning istiqbollarini, aktsiyalar portfelini to'g'ri ta'minlay oladigan yuqori saviyali mutaxassislarining albatta ishtirok etishi fondlar aktsiyadorlariga yakuniy hisobda, hech bo'lmaganda, dividendlarning o'rtacha me'yoriga ega bo'lish imkonini beradi.

Iqtisodiyoti o'tish jarayonini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda xususiylashtirish investitsiya fondlarining zarar ko'rib faoliyat ko'rsatishi va bankrotlikka uchrashi ehtimol mavjud chunki xususiylashtirilgan korxonalarning hammasi ham dividendlarning etarli miqdorini ta'minlay oladigan darajada daromadli emas.

O'zbekistonning qonun hujjatlarida shu narsa ko'zda tutilganki, agar XIF bankrot bo'lsa yoki boshqa sabablarga ko'ra tugatilsa, uning aktivlari tugatish komissiyasi tomonidan ochiq kimoshdi savdosi shaklida tarqatiladi, unda xususiylashtirilayotgan korxonalarning aktsiyalarini xarid qilish huquqiga ega bo'lgan har qanday shaxs ishtirok etishi mumkin. O'zbekistonda 1998 yilning kuzidan boshlab investitsiya va xususiylashtirish investitsiya fondlarining xususiylashtirilgan korxonalar aktsiyalari bo'yicha olgan daromadlari soliqlar, yig'imlar va byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlardan ozod qilingan. Fond tomonidan xususiylashtirilayotgan korxonalar aktsiyalarini sotib olishga yo'naltiriladigan daromadlar ham soliqqa tortilmaydi.

5.Moliyaviy mablag'lar bozori.

Endi investitsiya faolligini rivojlantirishga sharoit yaratish moliyaviy mablag''lar bozorini ko'rib chiqamiz.

Zayom mablag''lari va foiz stavkalari. Zayom mablag''lari nazariyasi doirasida 2-guruh ishtirokchilarni-tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi firmalar (korxonalar) va uy xo'jaliklari mavjud bo'lgan kapital bozorini oddiy namunasini qaraydi. Firmalar kapitalni barpo qilish uchun zarur bo'ladigan zayom mablag''lariga talabni izhor qiladi. Uy xo'jaliklari joriy daromadni bir qismini tejash orqali, moliyaviy resurslarni shakllantiradi.

Zayom mablag''lari nazariyasiga kirish. Kapital bozori umuman moliyaviy bozor singari, iqtisodiy nazariyada zayom mablag''lari sifatida qaraladi. Baho sifatida zayom oluvchini kreditorga uning mablag''ini ma'lum vaqt mobaynida foydalangani uchun to'laydigan foiz namoyon bo'ladi.

Zayom mablag''lari nazariyasida kapital bozorini tahlil qilish uchun bozorning barcha ishtirokchilari o'zlarini maqbul tutadilar, ya'ni ular o'z foizlarini ko'paytirishga harakat qiladilar degan tushunchadan kelib chiqqan holda bozordagi talab, taklif va muvozanatni belgilovchi omillarni tadqiq qilishdan iborat bo'lgan bozorni tahlil qilish uslubiyanidan foydalanadi.

Talab deganda korxona va uy xo'jaliklarini turli baho darajasida-foiz stavkasiga qaramay jami mablag'' miqdorini qarzga olishga rozi bo'lgan holatni nazarda tutadi.

Taklif foiz stavkalarining har qanday darajasida investitsiyalarni qancha miqdorda mablag'' bera olishiga tayyor ekanligini ko'rsatadi. Iqtisodiy nazariyaning asosiy mazmunlaridan biri shuki, agarda bozor raqobatli bo'lsa, ishtirokchilarni birortasi bahoga ta'sir qilish imkoniyatiga ega bo'lmaganda, talab va taklif omillari bahoga talab miqdori taklif miqdoriga tenglashish darajasiga ta'sir qiladi. Ushbu miqdor va baho (foiz stavkasi) tenglashish deb ataladi.

Investitsiya talabi. Korxonalar tomonidan investitsiyaga bo'lgan talab yagona emas, ammo zayom mablag''lariga bo'lgan talab pirovard talabning asosiy omili bo'lib hisoblanadi. Investitsiyaga bo'lgan talab nima bilan begilanadi? Har qanday firma kapital yaratar (yoki yangilar) ekan, uni muayyan manfaat ko'rish maqsadida qiladi. Iqtisodiy nazariyaning asosiy taxminlaridan biri(o'zini oqlagan va tabiiy) firmaning asosiy maqsadi foydani ko'paytirish bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqsadga ershish uchun firma turli ishlab chiqarish omillaridan shu jumladan, kapitaldan optimal nisbatda foydalanishga harakat qiladi. YOki boshqacha, ishlab chiqarish omillarini nomaqbul nisbati investitsiyalashga turtki bo'lib, foydalanilayotgan kapitalni (yoki sifatini oshirish) miqdorini ko'paytirish bilan ko'pincha foyda olish imkoniyatini beradi. Ushbu foydani miqyosini investitsiyalar daromadliligi deb ataluvchi, investitsiya sarflaridan foiz ko'rinishida ifodalash mumkin:

Alohida firmaning eng yuqori samaradorligi chizig'i investitsiyalarning daromadliligini investitsiyalarning miqdoriga bog'liqligini ifoda qiladi. Investitsiyalar daromadliligi faoliyat turi, firma miqyosi va omillarga bog'liq ravishda turlicha bo'lishi mumkin. Ammo, umumiy qonuniyat mavjud-ya'ni investitsiyalar miqdori ko'payishi bilan daromadlilik pasayadi. Misol, har qanday

firma mablag''larni investitsiyalash bo'yicha, shu jumladan daromadliligini xilma-xil imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Foydani ko'paytirishga bo'lgan intilishlardan kelib chiqib, firma birinchi navbatda eng manfaatli loyihalarni amalga oshiradi. Lekin, yuqori daromad olish imkoniyatlari cheklangan va investitsiyalar miqdorini kengaytirishda kam manfaatli loyihalarni joriy qiladi. Investitsiyalarni daromadliligini pasayishi qonuni-ishlab chiqarish omillarini yuqori unumdorligini pasayishi qonunini o'z ichiga oluvchi umumiy iqtisodiy qonunni namoyon bo'lishi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu egri chiziq firmani investitsiya faoliyatidan manfaat olish bo'yicha imkoniyatlarini ta'riflash bilan uni investitsiya talabini ham belgilaydi. Firma qanday mablag''larni o'zinikimi yoki zayom mablag''larini foydalanishidan qat'i nazar xarajat bo'lib hisoblanadi. Zayom mablag''laridan foydalanganlik uchun bozor foiz stavkasini bozorda to'lashi lozim. Agarda korxona jalb qilingan mablag''lardan foydalansa foiz bevosita xarajat shakliga, ya'ni mablag''lardan foydalanganlik uchun to'lov shakliga ega bo'ladi. Agarda o'zining mablag''lari ishlatilsa-foiz stavkasi alternativ xarajat bo'lib hisoblanadi, ya'ni investitsiya resurslarini boshqa bozor ishtirokchilari foydalanishi uchun taqdim qilinmagan qo'ldan chiqarilgan manfaatdir.

Alohida firmaning investitsiyalarini eng yuqori samaradorli egri chizig'i investitsiyalar daromadligini miqdoriga bog'liqligini ifodalaydi. Investitsiyalar daromadligi ishlab chiqarish omillarini eng yuqori unumdorligini kamayish qonunining ta'siri natijasida miqdorni ko'payishi bilan pasayadi¹¹.

Firmaning investitsiya miqdori to'g'risidagi qarori, shunday qilib bir tomondan, o'zining investitsiya dasturlari daromadligi, boshqa tomondan bozorni foiz stavkasi, ya'ni zayom mablag''larini foydalanganlik bahosi bilan belgilanadi.

Investitsiyalarning maqbul miqdori 1^* investitsiyalarni daromadligini v tengligi va bozor foiz stavkasi i bilan belgilanadi. SHu bilan birgalikda investitsiyalarni eng yuqori samaraligi egri chizig'i firmani investitsiyalarga bo'lgan talab egri chizig'ini ifodalaydi.

Bozorlar va usullar. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotidagi moliyaviy bozorning ustivor yo'li iqtisodiy agentlarning jamg'armalarini yig'ishi va ushbu mablag''larni yangidan kapital yaratish uchun foydalanishdir. Moliyaviy bozor o'ta murakkab tizim. Hozirgi zamon iqtisodiyotida moliyaviy resurslarni yig'ish va qayta taqsimlash tizimining investitsiya doirasini asosiy unsurlaridan bo'lib hisoblanadi. Ular qatoriga moliyaviy usullar (moliyaviy aktivlar yoki qimmatli qog'ozlar), moliyaviy institutlar (moliyaviy vositachilar) va moliyaviy bozorlar kiradi.

qimmatli qog'ozlar. qimmatli qog'ozlar moliyaviy bozorda savdo predmeti bo'lib hisoblanadi. qimmatli qog'ozlar bu me'yoriy huquqiy talablarga muvofiq rasmiylashtirilgan, hujjat bo'lib, uning egasiga (yoki sohibiga) muayyan mulkiy huquqlarni ta'minlaydi va shu bilan birga qiymatga ega bo'ladi.

qimmatli qog'ozlar ko'rinishida bugungi qiymatni kelajak qiymatga almashish to'g'risidagi, bitimlar rasmiylashtiriladi yoki qimmatli qog'ozlarni sotib

¹¹ Mertens Investitsii. Kiev, 1997.

olish, pulni kelajak xarid qobiliyatiga almashtirilishdir. Har qanday bitimda bo'lgani singari bu erda ikki tomon ishtirok etadi; emmitent, qimmatli qog'ozni chiqaruvchi va pulga qimmatli qog'oz bilan bog'liq mulkiy huquqni oluvchi investor ishtirok etadi.

qimmatli qog'ozni ajratib turuvchi asosiy xususiyati ularni qayta sotish, ya'ni mulkiy huquqlarni birovdan boshqasiga o'tishi hisoblanadi.

Moliya bozorini yuqorida keltirilgan belgisi amaliy jihatdan juda ham aniq emas.

CHunki, erkin oldi-sotdi predmeti bo'lishi mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlar ko'rinishida bugungi qiymatni kelajak qiymatga almashtirish haqida hamisha bitimlar ham rasmiylashtirilavermaydi. SHuning uchun qoida sifatida kredit bozori va qimmatli qog'ozlar bozorini farq qilinadi.

Kredit ham bugungi qiymatni kelajak qiymatga almashtirish haqidagi bitimlarni ifoda qiladi, ammo zayom beruvchining kreditor oldidagi majburiyati erkin oldi-sotdi predmeti bo'la olmaydi.

3-chizma

Moliyaviy bozorlar tarkibi¹²

	qisqa (bir yilgacha)	Davomli (bir yildan ortiq)	
Erkin sotish-sotib olish imkoniyatisiz moliyaviy qo'yilmalar			
Majburiyat turi			
Bozorda erkin sotilishi yoki sotib olinishi mumkin bo'lgan moliyaviy qurollar			

Moliyaviy bozorni aniq belgilash uchun qo'shimcha murakkabligi moliyaviy majburiyatlarni muddatida bajarishdagi farqlar keltirib chiqaradi. qisqa muddatli majburiyatlar (bir necha kundan bir necha oygacha muddatda) yuqori likvildikka ega bo'lib o'zini xissasi bo'yicha pulga yaqin bo'ladi. qisqa muddatli moliyaviy qurollar bozori (qimmatli qog'ozlar yoki kredit kelishuvlari) qoida sifatida pul

¹² Mertens Investitsii. Kiev, 1997.

bozori tugunchasini birlashtiradi. Pul bozoridan farqli ravishda, kapital bozori mulkiy huquqlarni qamrab oladi, ularni sotish esa nisbatan uzoq vaqt mobaynida amalga oshadi.

Moliyaviy bozorning soddalashtirilgan tarkibi 4 chizmada keltirilgan. Bunda keltirilgan turkumlash aynan amaliy nuqtai nazardan muhimdir. Iqtisodiy nazariyada “qimmatli qog’ozlar toifasiga moliyaviy qurollarning hamma turlari kiritiladi, faqat bir mulkdordan boshqasiga o’tishi mumkin bo’lganlari va erkin oldi-sotti qilinmaydiganlari farq qilinadi”.

Zayom olish usullari. Zayom olish usullari oldi-berdi munosabatlarini rasmiylashtiradi va qimmatli qog’oz emmitentini uni egasiga (kreditlarga) belgilangan pul summasini qo’llashni ifoda qiladi. Belgilangan daromad beradigan qimmatli qog’ozlarni asosiy turlariga veksellar, jamg’arma sertifikatlar va obligatsiyalar kiradi.

Veksellar. Veksel me’yoriy talablarga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlarni ifoda qiladi, unga muvofiq bir tomon boshqasiga muayyan pul summasini to’lash majburiyatini oladi.

Oddiy va o’tkazuvchi veksellarni farq qilinadi. Oddiy veksel beruvchini veksel saqlovchiga belgilangan pul summasini to’lash to’g’risidagi majburiyatidir. O’tkazuvchi veksel beruvchini to’lovchiga, belgilangan summasini uchinchi shaxsga to’lash kerak ekanligi to’g’risidagi ko’rsatmani beradi.

Obligatsiyalar. Obligatsiyalar zayom oluvchilarni (emmitentini) va kreditlarni (investorni) munosabatlarini rasmiylashtiruvchi qimmatli qog’oz bo’lib, emmitentini belgilab pul summasini kelishilgan vaqtda to’lash shartini ifoda qiladi.

Obligatsiyalar bo’yicha to’lov asosiy qog’oz summasidan va foizdan iborat bo’lib, zayom mablag’larini foydalanganligi uchun taqdirlashdir.

Obligatsiya erkin sotilishi va sotib olinishi mumkin, uning uchun etarli darajada rivojlangan bozor bo’lishi lozim.

Jamg’arma sertifikatlar. Jamg’arma sertifikatlar (yoki depozitlar) o’zining mazmuniga ko’ra obligatsiyalaridan uncha farq qilmaydi. Jamg’arma sertifikati-bu bank tomonidan chiqariladigan va uni egasiga oldindan shartlashilgan vaqtda belgilangan summani olish huquqini beruvchi qimmatli qog’ozdir. Jamg’arma sertifikatlarini oddiy muddatli depozitdan afzaligi shundagi, uni uchinchi shaxsga qayta sotish imkoniyatini beradi, yohud, agarda chiqarish shartlarida eslatilgan bo’lsa, muddatdan oldin emmitent-bankka sotilishi mumkin.

Mulkiy huquqlar. Firma kapitallarini moliyalashtirishning ikkita asosiy usuli mavjud: qarz majburiyatlarni chiqarish va firma egalarini o’z mablag’larini foydalanish. Agarda firmani barpo qilish uchun ko’pchilik mulkdorlarni mablag’lari foydalaniladigan bo’lsa unday korxonani korporatsiya deb ataladi. Tashkil qilishning korporativ shakli yakka kishi mulkdor bo’lgan tadbirkorlik firmasiga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, ko’pchilik iqtisodiy agentlar mablag’larini birlashtirish katta miqyosida ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Ikkinchidan, korporativ shakl-ishtirokchilarni korporatsiyani barpo qilishga sarflangan mablag’i miqdorida ma’suliyatlarni cheklaydi va nihoyat korporativ shakl investitsiyalarning likvidligini ta’minlash qobiliyatiga ega, chunki ham ishtirokchilari o’z ulushlarini sotishi mumkin.

Biznesning korporativ tashkil qilishni bir qancha shakllari mavjud. Ulardan asosiylari—ma'suliyati cheklangan jamiyat va aktsionerlik jamiyatidir. Ma'suliyati cheklangan jamiyat bir qancha ishtirokchilar mulki asosida tashkil qilinadi. Firmani kapitalini umumiy miqdorida ularning ulushlari, badallari miqdoriga qarab belgilanadi.

Barcha ishtirokchilarning badallari summasi firmani ustav fondini tashkil qiladi. Ma'suliyati cheklangan jamiyatning farqli xususiyati shundan iboratki, ishtirokchi o'zining ulushini boshqa ishtirokchilarni roziligi bilan uchinchi shaxsga sotishi mumkin.

Aktsioner jamiyatni ustav fondi teng ulushda belgilangan miqdorda bo'ladi va aktsiya deb ataladi.

Oddiy aktsiyalar. Oddiy aktsiyalar korporatsiyaning mulkini bir qismiga egalik qilishi va firmani foydasini bir qismini olish huquqini berish bilan birga korporatsiyani boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi. Aktsioner jamiyatni boshqarishni oliy idorasi aktsionerlar majlisi hisoblanib, qarorlar ularning ovoz berishi orqali qabul qilinadi, albatta har bir aktsioner ularda mavjud bo'lgan aktsiyalar soniga muvofiq ravishda ovozga ega bo'ladilar.

Aktsionerlar soni ko'p bo'lgan aktsionerlik jamiyatlarda odatda aktsiya egalari firmani, korxonani boshqarishda bevosita ishtirok etmaydilar, balki uning uchun ijroiya idorani-direktor (direktorlar) kengashini tashkil qiladilar.

Aktsionerlarga to'lanadigan daromadni, korxonani foyda huquqlari miqdorlari haqida qarorni aktsionerlar majlisi qabul qiladi.

Dividend deb ataluvchi daromad aktsionerlarga ularning qo'lidagi aktsiyalar soniga muvofiq to'lanadi.

CHatishgan usullar. qimmatli qog'ozlarni bir qancha turlari mavjud bo'lib, ular zayom va egalik huquqlari usullarining xususiyatlarini birlashtiradi. Ular imtiyozli aktsiyalar va konvertirlanadigan (almashadigan) obligatsiyalar.

Imtiyozli aktsiyalar. Imtiyozli aktsiyalar, oddiy aktsiyalar singari firmani, korxonaning kapitalini bir qismiga egalik qilish huquqini beradi, ammo uning egasi boshqaruvda ishtirok etish huquqini bermaydi. Imtiyozli aktsiya egalari dividend shaklida foydaning bir qismini birinchi navbatda olish huquqiga ega bo'ladilar va u dividendlarning eng kam miqdori oldindan e'lon qilinishi mumkin. Pirovard holatda imtiyozli aktsiya o'zini xususiyati bo'yicha muomala muddati belgilanmagan obligatsiyalarga yaqin turadi.

Almashadigan (konvertirlanadigan) aktsiyalar. Almashadigan obligatsiyalar-uni egalarga ushbu korporatsiyaviy aktsiyalarini olish huquqini ta'minlovchi korporativ obligatsiyalarni alohida turidir.

Almashadigan obligatsiyalarning ushbu xususiyati unga qarz olish quroli emas, balki mulk quroli belgisini beradi, obligatsiyalarni aktsiyalarga almashtirish shartlari bilan belgilanadi.

qimmatli qog'ozlarni keltirib chiqaruvchilar. qimmatli qog'ozlarni keltirib chiqaruvchilar sifatida asos deb aytiladigan ba'zi real yoki moliyaviy aktivlar bo'yicha tuziladigan kelishuvlar, huquqlar va majburiyatlar qabul qilingan.

Foizlar – odatda bajarish muddati uzaytirilgan oldi-sotdi bitishuvlaridir. Keltirib chiqarilgan moliyaviy qurollarning mavjudligini asosiy sababi kelajakdagi

noaniqlik, va ular avvalambor bozorda narsani ko'zda tutilmagan tebranish bilan bog'liq tavakkalni sug'urtalash maqsadi uchun mo'ljalangan keltirib chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni asosiy turlari forvard (fyuchers) bitimlari va opsiyonlar bo'lib hisoblanadi.

Forvard bitimlari. Forvard bitimlari-kelgusi bitimda belgilangan oldindan gaplashilgan narx bo'yicha ma'lum miqdordagi ba'zi asosiy aktivlarni sotish, boshqa tomon esa sotib olish majburiyatiga muvofiq tuzilgan kelishuvlaridir. Haqiqatda forvard bitimlarga bajarish muddati bir oz uzaytirilgan har qanday kelishuvlar ta'luqlidir. Masalan, xonadonni ijaraga olish yoki katalog bo'yicha mol (tovar) olish to'g'risidagi kelishuvlarni forvard bitimi deb hisoblash mumkin.

Valyuta olish (sotish) real aktivlar (qishloq xo'jaligi va xom ashyo, mollar), qimmatli qog'ozlar olishda forvard bitimlari keng tarqalgan.

Forvard bitimlarining shartlari (etkazib berish muddati, miqdori, sifatiga talab, narxi va hokozolar) asosan tomonlarning kelishuvi orqali belgilanadi. Bunda asosiy kamchilik shundaki, birinchidan likvidligini yo'qligi, ya'ni, bitim bo'yicha o'zining huquqini boshqa shaxsga sotish imkoniyatini yo'qligi kelishuv bo'yicha o'zlarining majburiyatlarini bajarmaslik xavfini mavjudligi. Bunday kamchiliklardan fyuchers bitimi holidir.

Fyuchers bitimlari. F'yuchers bitimlarining belgisi amalda forvard kelishuvlariga o'xshashdir. Farq qiladigan tomoni shundaki, f'yuchers bitimlarini barcha belgilari standartlashtiriladi. Fyuchers bitimlari bilan savdo qilish tashkil qilingan maydonlarda olib boriladi, kelishuvni bajarishni kafolati sifatida kliring palatasi deb atladigan maxsus vositachi tashkilot qatnashadi.

Fyuchers bozorlarini yuzaga kelishi XIX-asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi, birinchi fyuchers kelishuvlarini asosiy aktivlari esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'lgan.

Hozirgi kunlarda esa real aktivlar bo'yicha fyuchers bitimlari singari (bu dastavval, forvardlarga nisbatan qishloq xo'jaligi va xom ashyo mahsulotlari), va valyuta, davlat obligatsiyalari bo'yicha (foiz stavkalari bo'yicha fyucherslar), qimmatli qog'ozlar portfeli bo'yicha (fyucherslarni fond bo'yicha indeksleri) va boshqalar.

Opsiionlar. Opsiion - ma'lum muddatga qilinadigan bitishuvlarning bir turi bo'lib, uning shartlariga muvofiq bir tomon (opsionni sotuvchi) xaridorni talabi bo'yicha asosiy aktivni kelishini vaqtida oldindan belgilangan narxda sotish yoki sotib olish majburiyatini oladi. Opsiionni sotib oluvchi kelishuvni bajarish yoki bajarmaslikning tanlash huquqiga ega bo'ladi. Chunki, narx o'zgarish xavfi sotuvchining ustiga tushadi, sotib oluvchi ushbu huquqni olganligi uchun taqdirlaydi, boshqacha ayganda mukofot to'laydi. Shunday qilib opsiion sotib oluvchiga manfaatli bo'lganda bajariladi.

Moliyaviy institutlar turlari. Moliyaviy institutlarning moliyaviy vositachilarning asosiy turlari bo'lib banklar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari va investitsiya kompaniyalari, pensiya fondlari hisoblanadi.

Banklar. Bank muassasalarining boshqa moliyaviy institutlaridan farqli tomoni, egasi talab qiladigan (hisob yoki chek raqamlari) depozitlarni ochish imkoniyatlari mavjudligi bo'lib hisoblanadi. Depozit hisoblarini kreditlash

imkoniyatlari bilan birgalikda olib borish banklarga haddan tashqari muhim xususiyatlar beradi: bank tizimi “pul barpo qiladi”, ya’ni, pul masalasini ko’paytirish qobiliyatiga ega bo’ladi.

Hisoblarni va qisqa muddatli kreditlarni ta’minlash bo’yicha faoliyatdan tashqari, banklar jamg’arma muassasalari sifatida va qimmatli qog’ozlar bozorida investitsiya vositachilari sifatida ishtirok etishi mumkin.

Investitsiya fondlari va investitsiya kompaniyalari. Investitsiya fondlari va investitsiya kompaniyalarining faoliyat predmetlari bo’lib hamkorlikda investitsiyalash, ya’ni investitsiya faoliyatini amalga oshirish maqsadiga ko’pchilik sub’ektlar mablag’larini birlashtirishdir. Investitsiya fondlari va kompaniyalari mablag’ qo’yuvchilarni mablag’i o’rniga o’z majburiyatlarini chiqaradilar.

Sug’urta kompaniyalari. Sug’urta kompaniyalari faoliyati mazmunini qisqacha tavakkal bilan savdo qilish deb tushuntirish mumkin. Sug’urta kompaniyasi o’zining mijozlari uchun noqulay sug’urta vaziyati yuzaga kelganda yo’qotishlarni qisman yoki to’la qoplash bo’yicha majburiyatlar qabul qilib haqiqatdan ularning havfini yoki tavakkalini sotib oladi. Ko’pchilik uchun tavakkalchilik “qarzi manfaati” hisoblanadi, shuning uchun bunday holatda sug’urta kompaniyasiga muayyan pul summasini-sug’urta badalini to’lashi lozim, va u bir yo’la yoki bir necha muddatlar bo’lib to’lanishi mumkin. Odatda sug’urta kompaniyalari hayotini va fuqarolar mulkini sug’urtalashga, yoki tijorat tavakkalchiligini sug’urtalashga ixtisoslashishi mumkin. Mijozlari muayyan mablag’larni birlashtirib va ularni yaxshi foydalanishga harakat qilib, sug’urta kompaniyalari bir yo’la yirik investitsiya institutlari bo’lib hisoblanadilar.

Pensiya fondlari. Pensiya fondlarini investitsiya fondlarining maxsus turlari sifatida qarash mumkin. Ular faoliyatni asosiy mazmuni-pensiya dasturlarini amalga oshirish, ya’ni kishilarni faol mehnat faoliyati davridagi jamg’armalarining, mehnat faoliyatini to’xtatganidan keyin pensiya to’lovlarini ta’minlash maqsadiga birlashtiradi. Rivojlangan mamlakatlarda xususiy pensiya fondlari katta miqdordagi mablag’larni boshqarish orqali qimmatli qog’ozlar bozorida yirik investorlarga aylanadilar.

Moliyaviy bozorlar. Hozirgi zamon tushunchasida moliyaviy bozorlar deganda moliyaviy aktivlarni savdosi tushunilib, unda savdoni aniq qoidalari, bozor ishtirokchilarini mahorati va rivojlangan bozor infratartibi, kamchiqim va bitishuvlarni amalga oshirishni mustahkamligi mavjud bo’ladi.

Birlamchi va ikkilamchi bozor. qimmatli qog’ozlar bozori birlamchi bozorlarga bo’linadi. Birlamchi bozor qimmatli qog’ozlarni emmitenti (ya’ni, investorlarga erkin sotish uchun qimmatli qog’ozlarni chiqaruvchi xususiy yoki davlat muassasi (tashkiloti) tomonidan birlamchi joylashtirish bo’yicha operatsiyalarni o’z ichiga oladi. Birlamchi joylashtirishni ikkita asosiy usuli mavjud, ular anderrayter deb ataluvchi investorlarga to’g’ridan-to’g’ri sotish va moliyaviy institut vositasida joylashtirishdir.

Anderrayterlar vazifasini rivojlangan bozorlarda odatda, yirik investitsiya kompaniyalari, broker firmalari, hamda ko’pgina mamlakatlarda tijorat banklari ham bajaradilar. Anderrayter emmitirlangan qimmatli qog’ozlarni hammasini yoki uning bir qismini investorlar o’rtasida joylashtirish maqsadida sotib oladi.

Andarrayting to'g'ridan-to'g'ri joylashtirishni asosiy afzalligi shundan iboratki, emmitent amalda unga birdaniga zarur bo'ladigan moliyaviy mablag'ni oladi. Undan tashqari andarrayter, odatda mashhur moliyaviy institut bo'lib, uni qimmatli qog'ozlarni chiqarishda investorlar uchun emmitentdan moliyaviy qurollarni sifatli va mustahkamligi haqida xabar hisoblanadi.

Birinchi joylashtirish texnologiyasi aslida shartnoma asosida olib borishga asoslanishi mumkin - joylashtirish bahosi emmitent va investorlar orasida muzokaralar yo'li bilan belgilanadi va auktsion tamoyiliga muvofiq joylashtirish bahosi auktsion natijasi bo'yicha belgilanadi va qimmatli qog'oz egasi manfaatli shartlar taklif qilgan investor hisoblanadi.

Ikkilamchi bozor – bu qimmatli qog'ozlarni bir investordan boshqa investorga o'tishidir. Ikkilamchi bozorni asosiy roli qimmatli qog'ozlarni likvidligini ta'minlashdan iborat bo'lib, investorlar ko'zi oldida ularni sotib olishni jozibali qilish, bu bilan moliyaviy bozorlarni samarali amal qilishini ta'minlash, ayniqsa ularni asosiy vazifasini bajarishga nisbatan – jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirishdir.

Ikkilamchi bozorni odatda birja va birjadan tashqari bozorga ajratish mumkin. Birjali bozor, qimmatli qog'ozlar bilan savdo qiladigan joy bilan bog'liq bo'lib, unda maxsus tashkil qilingan fond birjasi vositasida amalga oshiriladi. Fond birjalarni ta'sisчилari bo'lib odatda moliyaviy vositachilar hisoblanadi. Birjada bevosita savdo qilishga faqat birja a'zolari qo'yiladi.

qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish. Har qanday bozorni amal qilishi hozirgi vaqtda davlatdan ajralgan holda tasavvur qilish mumkin emas. Davlat bozor munosabatlarini huquqiy asoslarini belgilaydi va nazorat qiladi-bu bozor ishtirokchilarini iqtisodiy munosabatlari qoidalari asoslarini belgilaydi va mulkka egalik huquqlarini kafolatlaydi.

O'zbekistonda investitsiya faoliyat sohasiga tegishli bo'lgan qonuniy me'yorlar Konstitutsiyada, Fuqaro kodeksida, "Mulk to'g'risidagi", "Tadbirkorlik" to'g'risidagi, "Dehqon-fermer xo'jaliklari to'g'risidagi" va boshqa qator huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan.

Har qanday mamlakatda davlat to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita u yoki bu shaklda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soladi. qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish ularni qonuniyligini ta'minlashdan tashqari, qimmatli qog'ozlar chiqarish va muomalasini yo'lga qo'yish, yangi chiqarilganlarni ro'yxatdan o'tkazish, qimmatli qog'ozlar bozorida kasb faoliyatini litsenziyalash, investorlar huquqini himoyalash, yakkahokimlik haqidagi qonunchilikka rioya qilishni nazorat qilish, bahoni barpo qilish tizimini va malakali bozor ishtirokchilarini faoliyatlarini nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

Bozorni amal qilishini ko'pgina muhim masalalari Milliy bank, Moliya vazirligi va Davlat soliq idorasi ixtiyorida bo'ladi.

Soliqqa tortish. Me'yoriy tartibga solish vazifalaridan tashqari moliyaviy bozorni amal qilishiga davlatni ta'sir qilish omili bo'lib soliqqa tortish hisoblanadi. Soliqlar to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita moliya bozorida narx barpo qilishga, investitsiya qarorlari qabul qilishga ta'sir qiladi va umuman bozorni amal qilishini

belgilovchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Davlatning maqsadi har doim fiskal vazifa umumiy iqtisodiy samaradorlik o'rtasida murosaga erishish hisoblanadi.

O'zbekiston soliq tizimi hali oyoqqa turish bosqichida. Uning asosiy ta'rifi ba'zi bir tomonlari bilan bozor iqtisodi shakllangan mamlakatlar soliq tizimlariga mos keladi, ba'zi bir tomonlari farq qiladi. Boshqa mamlakatlarda bo'lgani singari O'zbekistonda ham asosiy soliq to'lovchilar bo'lib korxonalar va alohida fuqarolar hisoblanadi. Korxonalarda soliqqa tortishga asosiy ob'ekt bo'lib qo'shilgan qiymat solig'i va korxonalar foydasi hisoblanadi. Soliq stavkalari tarmoqlar bo'yicha farq qilishi mumkin. Fuqarolarni soliqqa tortish ob'ekti bo'lib ularning yalpi daromadi hisoblanadi, soliqqa tortish stavkasi progressiv shkala bo'yicha amalga oshiriladi.

Tavakkalchilik va daromad: tavakkalchilik sharoitida qarorlar nazariyasi asoslari.

Tavakkalchilik bizni har joyda o'rab turadi-bu shunchalik ob'ektivki, xuddi ob'ektivligi bizni o'rab turgan dunyoda ob'ektivlikning unsurlari o'z tabiatiga ko'ra tasodifiy va noaniqdir. Iqtisodiyot, jumladan moliyalar-shunday sohaki, unda tavakkalchilik omili anchagina sezilarlidir.

Tavakkallik shunday vaqtda yuzaga keladiki, ba'zi qarorlar natijalarini oldindan bilish qiyin. Iqtisodiyotda qarorlar natijalari ko'pincha qiymat o'lchovida baholanadi, shu nuqtai nazardan tavakkalchilikni u yoki bu iqtisodiy qarorlarni natijasida qiymatni yo'qotish yoki imkoniyati tasodifiy tabiatga ega sifatida qarash lozim.

Kapital bozorida tavakkalchilik omili o'ta muhim. Aslida, tavakkalni yo'q bo'lishi, kapital bozorlarini, umuman moliyaviy bozorni ularni ko'p qirraliligi bilan yagona foiz stavkasini bir xil qarz majburiyatlariga aylantirgan bo'lar edi.

Noaniqlik omili, shunga muvofiq tavakkallik murakkab tizim sifatida iqtisodiyotga xosdir. Inson qaror qabul qilar ekan doimo tavakkalchilik bilan to'qnashadi.

Oddiy haqiqat shuki – kishilar ko'pincha taqdirlash evaziga tavakkalchilik qilishga rozi bo'ladilar, bu esa moliyaviy nazariyaning asosiy tamoyillaridan bo'lib hisoblanadi.

Investitsiya samaradorligini baholash mezonlari.

Agarda muayyan loyiha bo'yicha ta'minlanadigan daromadni diskontrlangan qiymati (kelajak pul oqimlarini hozirgi qiymatda hisoblash) ja'mi, diskontrlangan sarflar qiymatini jamidan ortiq bo'lsa investitsiyalash manfaatli bo'ladi. Ushbu mezon sof keltirilgan qiymat mezonini nomini olgan.

Sof keltirilgan qiymat:

0, 1, 2,..... t,..... n vaqt mobaynida

$c_0, c_1, c_2, \dots, c_t, \dots, c_n$ sof pul oqimlarini ko'zda tutuvchi investitsiya loyihasi deylik (0 vaqtni bugungi kun deb hisoblaymiz.)

Sof pul oqimi t vaqtda

C_t q loyiha bilan bog'liq daromad o'sishi- sarf o'sishi sifatida aniqlanadi.

Investitsiya loyihasining sof keltirilgan qiymatini biz ushbu loyiha ta'minlaydigan sof pul oqimlarining jami bugungi qiymati deb ataymiz:

$$NPV = -c_0 + \sum_{t=1}^n PV(c_t)$$

tq1

Boshqacha so'z bilan aytganda, sof keltirilgan qiymat –bu sarfni jami keltirilgan qiymati chegaralangan jami keltirilgan daromad qiymatidir. Investitsiya qarorlarini baholash NPV mezonini bugungi sarf va daromadlar qiymatini taqqoslashdan iboratdir: agarda $NPV > 0$ investitsiyalash manfaatli bo'ladi, agar $NPV < 0$ manfaatli bo'lmaydi.

Har qanday iqtisodiy muammo resurslarni iloji boricha yaxshi taqsimlash vazifasini talab qiladi. Har qanday iqtisodiy sub'ekt alohida kishimi, korxonami, yoki hukumatmi ixtiyorida bo'lgan moddiy, moliyaviy, inson va hakoza resurslarni qanday taqsimlash masalasi bilan to'qnashadi. Iqtisodiy nazariya har qanday sub'ekt, qaror qabul qilar ekan ko'proq manfaat olishga harakat qiladi. Ushbu tamoyil yaxshi investitsiyalash qarorlari asosiga qo'yiladi.

U yoki bu investor uchun nima manfaatli? O'zini jamg'armalarini qo'lda saqlashmi, bank depozitlariga joylashtirishmi, davlatga zayomga berishmi, korxona aksiyasini sotib olishmi. Bu haqda mablag' egalari maqbul qaror qabul qilishlari lozim.

Eng yaxshi portfelni tanlash va diversifikatsiyalash.

N boylikka ega bo'lgan investorni oldida uni qanday foydalanish lozimligi vazifasi turadi.

Investorda mablag'larni n imkoniyati mavjud, ulardan har biri sarflangan mablag' birligiga muayyan daromad keltiradi. qaror qabul qilish uchun yuzaga keladigan muammo shundan iboratki daromad qancha bo'lishligi oldindan noma'lum. Ushbu holatni tahlil qilganda, muqobil qarorlar qabul qilish muhim hisoblanadi. Unda, investitsiyalarni kutilayotgan daromadligi va daromadlilik standart og'ishi muhim hisoblanadi.

Korporativ moliyalar nazariyasi. Xo'jalik yuritishni korporativ shakli bozor iqtisodiyotiga o'tgan har qanday mamlakatda biznesni tashkil qilishni shakllari orasida asosiy o'rin tutadi. Korporatsiyani tadbirkorlik firmasidan farq qiladigan asosiy xususiyati firmani moliyalashtirish uchun ko'pchilik investorlarni mablag'larini kapital barpo qilish uchun birlashtirish bo'lib hisoblanadi. Tashkil qilishni korporativ shakli – alohida uy xo'jaliklarini jamg'armalarini ishlab chiqarishni investitsiyalash maqsadlari uchun foydalanish jarayonini ta'minlashni asosiy murvatlaridan biridir.

Korporativ moliyani hozirgi zamon nazariyasi - moliyaviy nazariyaning muhim va anchagina murakkab qismlaridan biridir. Unda tadqiq qilinadigan masalalar, kapitalni barpo qilish haqidagi va firmani qiymatini baholash masalalaridir. Korporativ moliya nazariyasida tavakkal va daromad, zamonda qiymatlarni o'lchamliligi, assimetrik va buyurtmachi-agent o'zaro munosabatlari, shartli talablarni baholash va ko'pincha boshqa masalalar kabi iqtisodiy nazariya muammolari o'z aksini topadi. (Assimetrik axborot-iqtisodiy munosabatlarning bir tomoni boshqa tomoniga qaraganda yaxshi xabardor bo'lishlik holatidir).

Umuman, korporativ moliyalar alohida fanni ifoda qilib, unga katta miqdorda maxsus o'quv adabiyotlari va ko'pgina ilmiy tadqiqotlar bag'ishlangan.

Kapitalni moliyalashtirish chiqimlari va korporatsiya qiymati. Har qanday firmani kapitalini moliyalashtirish manba'larini ikki toifaga bo'lish mumkin:

o'zining mablag''lari (firma egalarini mablag''lari), va qarzga olingan mablag''lar. Tadbirkorlik firmasida o'zining mablag''lari – bu ishlab chiqarishni moliyalashtirish uchun foydalaniladigan egasining jamg'armalari. **Korporatsiya** uning kapitalini bir qismiga huquqini beruvchi aktsiyalar-qimmatli qog'ozlar chiqarish yo'li bilan ko'pgina investorlarni mablag''larini jalb qilish imkoniga egadir.

qarz olish hisobiga moliyalashtirishni bank krediti bilan bir qatorda o'zining qarz majburiyatlarini chiqarish, ya'ni obligatsiya shaklida amalga oshirish mumkin.

SHunday qilib, har qanday firmani kapitali ikki qismdan - o'zining kapitali va qarzdan iborat bo'ladi. SHuning uchun firma kapitalini qiymati yoki firma qiymati – bu o'zining kapitali (aktsiya qiymati) va qarz qiymati summasidir.

Formulada izohlansa:

$$VqSqB$$

YA'ni V-firma (korporatsiya) qiymati, S-o'zining kapitali qiymati, B-qarz qiymati. qarz qiymatini asosiy kapital qiymatiga nisbati (B/S) moliya liveriji koeffitsienti deyiladi.

(liverij-1)investitsiya daromadliligini ko'paytirish uchun zayom kapitalini foydalanish; 2)zayom mablag''larini korporatsiyani o'z kapitaliga nisbati).

Firma kapitalini moliyalashtirishni har qanday shakli chiqimlar bilan bog'liq. CHiqimlarni qarz majburiyati holatida– bu kredit beruvchilarga asosiy qarz summasidan ortiq to'lovdir: kredit bo'yicha foizlar yoki obligatsiyalar bo'yicha erishilgan daromad to'lovlari. Asosiy kapital holatida – bu mulkdorlarga ularni qo'ygan mablag''lariga to'lanadigan daromadlardir. Asosiy kapitalni yaratish chiqimlari firmani tashkil qilish shakllaridan qat'iy nazar mavjud bo'ladi. CHiqimlarni korporativ shakli – bu korporatsiyani o'z aksionerlariga to'lanadigan aktsiyalar bo'yicha daromaddir. Tadbirkorlik firmasi uchun, uning egasi o'zining jamg'armalarini foydalansa chiqimlar muqobil chiqimlar shakliga ega bo'ladi, ya'ni tadbirkor o'zining mablag''larini manfaatli muqobil foydalanganda olishi mumkin bo'lgan yo'qotilgan daromadlardir.

Biz chiqimlarni, kapital qiymatiga foiz nisbatda ifoda qilamiz. O'z kapitali chiqimlarini – orqali belgilash – bu o'z kapitalini qiymati birligi hisobiga mulkdorlarga to'lanadigan daromad. SHunga muvofiq, qarz qiymati birligi hisobiga kreditorlarga to'lanadigan daromad. Firma kapitalini yaratish chiqimlarini o'rtacha o'lchamli – kapital chiqimlari aks ettiradi, u S/V nisbati firma kapitalini umumiy tarkibida o'z kapitalining ulushini aks ettiradi, B/V -qarz ulushini aks ettiradi.

Mablag''larni qarzga berish o'zini kapitaliga qo'yishga qaraganda tavakkalchilik darajasi ancha kam bo'ladi. Birinchidan, shuning uchunki, odatda qarz bo'yicha foizlar shartlari oldindan belgilangan bo'ladi, aktsiyalar bo'yicha daromad esa oldindan noma'lum va u firmani faoliyat natijalariga bog'liq bo'ladi. Tabiiyki, u holatda ham, bu holatda ham tavakkallik mavjud bo'ladi, firma u yoki bu sabab bilan qarz bo'yicha foizlar to'lovini ta'minlay olmaydi, xuddi shuningdek asosiy kapital daromadlari qism bo'yicha ham. Ammo, oxirgi holatda qarzga

berish, firma aktivlariga kreditorlarning huquqini mavjudligi oqibatida, tavakkalchilik darajasi kam bo'ladi, bu narsa mutlaq ko'pchilik mamlakatlarni xo'jalik qonuniyatlarida mustahkamlangan. Ushbu tamoyilga muvofiq; agarda firma operatsiyalarni to'xtatganda, qarzlarni qaytarish bo'yicha kreditorlar talablari birinchi navbatda qondiriladi. Mulkdorlar – aktsiya egalari, qoldiq talablarga ega bo'ladilar - ular da'vo qilishi mumkin bo'lgan aktivlar miqdori kreditorlar oldidagi majburiyatlar qoplangandan keyingi qoldiq qiymatga teng bo'ladi, demak, ushbu nuqtai-nazardan ham o'zining kapitali zayom kapitaliga qaraganda xavfli hisoblanadi.

Keltirilgan mulohazalar kapital chiqimlar muammosiga an'anaviy yondashuvi asosida yotadi, shunga muvofiq qarz hisobiga moliyalashtirish, odatda o'zining mablag'lari hisobiga moliyalashtirishga qaraganda arzon bo'ladi. Haqiqatda, ko'pchilik investorlarning tavakkalchilikka moyil emasliklari tavakkalchilik investitsiyalari o'ziga tortishi uchun ular katta daromadlilikni ta'minlashlari lozim.

SHunga muvofiq, firma kapitalini umumiy tarkibida qarz ulushini ko'payishi – kapitalni umumiy chiqimlarini pasaytirishi lozim. Lekin, qarz majburiyatlarini chiqarish hisobiga moliyalashtirish imkoniyatlari cheksiz bo'lmasligi mumkin. B/S liveriji miqdorini o'sishi moliyaviy qobilyatsizlik tavakkalini ko'paytiradi. Tavakkalchilikni ko'payishi, o'z navbatida qarz qiymatini pasaytiradi, oqibatda – chiqimlarni (daromadlilik) ko'payishiga olib keladi, chunki B qiymat va r_b daromadlilik teskari bog'liqlikka ega.

Boshqacha so'z bilan aytganda, YU liverij ko'payishi bilan bog'liq katta xavf, investorlarni kreditga katta to'lovni talab qilishiga olib keladi.

SHunday qilib, firma kapitali qiymat va tarkibga ananaviy qarashlarga muvofiq, firma kapitalini umumiy miqdorida qarz ulushini ko'payishi muayyan vaqtgacha kapitalni umumiy chiqimlarini pasaytiradi, lekin keyinchalik chiqimlar liverijini (B/S) ko'payishi qarz majburiyatlarini xavfliligini o'sib borishi bilan o'sib boradi.

Keltirilgan mulohazaga rioya qilgan holda, kapitalni moliyalashtirishni eng kam chiqimlarini ta'minlovchi, moliyaviy liverijni maqbul darajasi mavjud va har bir firma uchun kapitalni maqbul tarkibi mavjud va unga chiqimlarni pasaytirish maqsadida ular intilishi lozim.

O'z aksionerlariga firmani to'laydigan dividendlari, odatda soliqqa tortish ob'ekti bo'lib hisoblanadi, chunki kishining soliqqa tortiladigan umumiy daromadiga qo'shiladi. Demak, aksioner qilingan investitsiyalar daromadliliigi davlat qog'ozlari bo'yicha (odatda, soliqqa tortilmaydigan) eng kamida soliq miqdoriga xavfsiz daromadlilikdan ortiq bo'lishi lozim.

An'anaviy nuqtai nazarga muvofiq investorlar yuqori dividendli firmalarni hohlashadi degan fikr Modilyani-Miller nazariyasi bo'yicha inkor qilinadi. Ammo, soliqqa tortish omili oqibatida, va ayniqsa soliqqa tortishni progressiv stavkasini mavjudligi tufayli nazariyani xulosalari birmuncha tuzatiladi. Dividendlarga munosabat investorning umumiy daromad (boylik) darajasiga bog'liq bo'lishi mumkin. Past darajali daromadga (nisbatan yuqori bo'lmagan soliqqa tortish

stavkasiga ega bo'lgan) investorlar tabiiyki ularni joriy iste'molini ko'paytiradigan dividendlashni ma'qul ko'radilar. Yuqori daromadga ega bo'lgan investorlar aksiyalar qiymatlarini yuqori sur'atda o'sishini ma'qul ko'radilar, chunki, dividendlar to'laganda ularni anchagina qismi soliqlar to'lashga ketadi, qiymatini o'sishidan olinadigan kapital daromad esa faqat aktsiya sotgandagina soliqqa tortilishi mumkin.

Moliyaviy qarzlarni baholash va investitsiya portfelini boshqarish.

qarz majburiyatlari, yoki boshqacha belgilangan daromadli moliyaviy qurollarni baholash usullari investitsiya faoliyatida muhim hisoblanadi, chunki, ular bo'yicha qo'llanadigan to'lov miqdorlari oldindan emissiya shartlar bo'yicha e'lon qilinadi (va'da qilinadi). Bu tavakkalni yo'qligini anglatmaydi. Belgilangan daromadli qurollar to'lov qobiliyatsizligi (kredit tavakkali) ega bo'lishi mumkin. Undan tashqari, hamma vaqt ko'zda tutilmagan inflyatsiya, foiz stavkalarini o'zgarishi yoki boshqa omillar bilan bog'liq qiymatni yo'qotish xavfi bo'ladi. Belgilangan daromadli moliyaviy qurollarga, avvalambor obligatsiyalar, veksellar, jamg'arma sertifikatlari kiradi. Ba'zi eslatmalar bilan ushbu toifaga korxonani imtiyozli aksiyalarini ham kiritish mumkin.

Obligatsiyalarning qiymati va daromadliligi. Obligatsiyalar- qimmatli qog'oz bo'lib, uning egalari, uni chiqarish shartlari bo'yicha oldindan belgilangan muddatlarda daromad olish huquqiga egadirlar, obligatsiya emmitenti (qimmatli qog'ozlarni erkin investorlarga sotish uchun chiqaruvchi davlat va xususiy muassasalari zayomchilar o'rnida qatnashib, ushbu to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni oladi. Obligatsiyalarni chiqarish odatda muayyan mulk yoki kafolatlar bilan ta'minlanadi. Obligatsiya nominal qiymatga ega buladi. Nominal- bu obligatsiya bo'yicha asosiy qarz summasi bo'lib, uni to'lash obligatsiyani qoplash deb ataladi.

CHiqarilgan vaqti va qoplash orasidagi to'lovlar, agarda emissiya shartlari bilan belgilangan bo'lsa kupon to'lovlari yoki oddiy qilib aytganda kupon deb ataladi. qoida sifatida kupon to'lovlari miqdori bo'yicha bir xil va teng vaqt oralig'ida amalga oshirilib kupon davri deb ataladi. Kupon to'lovlari miqdorini obligatsiya qiymatiga nisbati kuponli stavka deb ataladi.

qiymati bo'yicha qoplanadigan kuponsiz obligatsiya diskonti (qimmatli qog'ozni nominal qiymati va narxi orasidagi farq) obligatsiya deb ataladi.

Obligatsiya uning egasiga muayyan daromadni ta'minlashi nazarda tutiladi. CHunki nominal qiymatdan past narxda chegirma bilan joylashtiriladi. Diskont nominal qiymat va obligatsiyani sotib olish narxi orasidagi farq (agarda narx nominaldan yuqori bo'lsa ushbu farqni mukofot deb ataladi). Obligatsiyalar qo'yiladigan investitsiyalar bilan bog'liq tavakkalchilik- bu avvalambor kredit tavakkali va foiz stavkasidir. Obligatsiyaga nisbatan kredit tavakkali shundan iboratki, obligatsiya bo'yicha haqiqiy daromadlar chiqarish bo'yicha belgilanganligi bilan muvofiq kelmasligi mumkin. Masalan, emmitentning to'lov qobiliyatsizligi holatida, obligatsiya sohibi ba'zi to'lovlarga ishonishi mumkin (agarda obligatsiya emmitentning mulki bilan ta'minlangan bo'lsa), ular miqdor bo'yicha va'da qilingani hamda muddati bo'yicha farq qilishi mumkin.

To'lovlarni noaniqligi obligatsiyalarni chiqarish shartlarini o'zida ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin. Masalan, emmitentning agarda uning daromadlilikini bozor stavkalari bo'yicha noqulay bo'lib qolsa u oldindan belgilangan qiymat bo'yicha muddatidan oldin sotib olish huquqini saqlab qolishi mumkin. Bunday holatda obligatsiyalarda muddatidan oldin sotib olish xavfi paydo bo'lishi mumkin. Bundan tashqari emissiya sharti obligatsiyalar bo'yicha kupon stavkasining oldindan belgilangan qoidalariga muvofiq o'zgarish imkoniyatlarini ko'zda tutishi mumkin.

Foiz tavakkali obligatsiyalar bozoriga nisbatan tizimli (bozor) tavakkalini aks etishidir. Bu umuman daromadlilikni bozordagi o'zgarishidir. Agarda kredit tavakkali (majburiyatlarni bajarmaslik tavakkali) obligatsiyalarni har xil turlari uchun farqlansa, unda foiz tavakkali ularni turli ko'rinishlari uchun bir xildir. Foiz tavakkaliga bog'liq inflyatsiya tavakkali - inflyatsiya sur'atlarini mislsiz o'zgarishidir. Nega foiz tavakkali aniq ma'lum bo'lgan daromadi belgilangan investitsiyalarda ishtirok etadi? Haqiqatda agar biz davlat obligatsiyalarini sotib olib uni qoplash muddatigacha ushlab turishga harakat qilsak, unda biz oladigan daromad miqdori oldindan ma'lum bo'ladi u holda tavakkalchilik yo'qoladi.

Lekin agarda investor obligatsiyani qoplaguncha uni sotishni rejalashtirsa, daromadini oldindan aytish mumkin emas- obligatsiyani sotish narxi, uni sotish vaqtiga daromadlilikni bozor stavkasiga bog'liq bo'ladi, shuning uchun uni aniq-bashoratlash mumkin emas.

Tayanch iboralar.

Investitsiya institutlari, qimmatli qog'ozlar, Investitsiya maslahatchilari, Ustav sarmoyasi, Emmitent, Fond bozori, Investitsiya kompaniyasi, Anderrayter, Depozitariy, Xususiyashtirish, Veksellar, Obligatsiyalar, Jamg'arma sertifikatlar. CHatishgan usullar, Forvard, Fyuchers, Option, Birlamchi va ikkilamchi bozorlar. Tavakkallik, Liverij.

Nazorat savollari.

1. Investitsiya institutlari qanday faoliyatini amalga oshiradi?
2. Kimlar investitsiya institutlari bo'lishi mumkin?
3. Investitsiya maslahatchilarini bajaradigan faoliyatlari nimalardan iborat?
4. Investitsiya kompaniyalari qanday vazifalarni bajaradi?
5. Investitsiya fondlari va ularni amalga oshiradigan ishlari nimalardan iborat?
6. Affilyatsiyalangan shaxslar kimlar va ular qaerlarda ishtirok etadilar?
7. Daromadlilik qanday ko'rsatkich?
8. Tavakkallik darajasini pasaytirish usullari?
9. Anderreytingning turlarini ayting?
10. Obligatsiyalarning qiymati va daromadlilikini tushuntiring?

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Kotayubov V.YU. Investitsionno'y potentsial xozyaystvennoy deyatelnosti: Makro ekonomicheskoy i finansovo-kreditno'y aspekto'. Ucheb pos. -M.: MGIMO-Universitet. 2004 g.
2. TSarev V.V. otsenka ekonomecheskoy effektivnosti investitsiy.- SPb.: petr, 2004 g.

3. Siddiqov A. Sanoat ishlab chiqarishiga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari samaradorligi. "Bozor, pul va kredit" jurnali, 2004 №7-8 sonlar.
4. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. I.f.d., professor D./ozibekov umumiy tahriri ostida .-T.: Fan va texnologiya, 2004 y.
5. Titov V.I. Analiz i diagnostika finansovo-xozyaystvennoy deyatelnost predpriyatiya: uchebnik. M.: Dashkov i K, 2005 g.
6. Kojuxar V.M. Praktikum otsenka investitsiy: Ucheb posobie. -M.: Izd. Torgovaya koorparatsiya. Dashka. 2005 g.
7. www.uz – pervo'y sayt Uzbekistana - resurso' Uzbekistana
8. www.gov.uz – ofitsialno'y pravitelstvenno'y sayt Respubliki Uzbekistan
9. www.stat.uz/index.htm – sayt Gosudarstvennogo komiteta RU po statistike
10. www.mf.uz sayt Ministerstvo finansov Respubliki Uzbekistan.

6-Mavzu. Investitsiya muhiti.

Reja

- 1. Investitsiya muhiti va tushunchasi**
- 2. Investitsiya risklari va toifalari.**
- 3. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar.**
- 4. Investitsiya muhitini aniqlashning jahon tajribasi.**

1. Investitsiya muhiti va tushunchasi.

Xorijdan kapital qabul qiluvchi tomonidan investitsiya muhiti modelini ishlab chiqish har tomonlama asoslangan tashqi iqtisodiy aloqalarni aniqlab beruvchi vositadir. U orqali xorijiy investorga ta'sir ko'rsatuvchi omillar to'g'risida aniq tushunchalarga ega bo'lish, xorijlik investorlarning xulq-atvorini har tomonlama anglash va mamlakatdagi iqtisodiy holatni chuqurroq baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu jarayonlarning barchasi respublikamizning boshqa davlatlar bilan dastlabki iqtisodiy munosabatlarini yo'lga qo'yish jarayonida chetdan kapitalni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy investitsiya ishtirokida amalga oshirilishi lozim bo'lgan loyiha va dasturlarni ishlab chiqishda nafaqat o'z manfaatlari bilan chegaralanmasdan investorning maqsad va imkoniyatlari bilan hisoblashish alohida e'tiborga loyiqdir.

Investitsiya muhiti tushunchasi o'zining murakkabligi va mukammalligi jihatidan makro va mikro iqtisodiyot darajasida ko'rib chiqiladi. Makroiqtisodiyot darajasida u kapitalni qabul qiluvchi mamlakatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni o'z ichiga oladi. Makroiqtisodiyot darajasida yondashilganda xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat siyosati, xalqaro shartnomalar shartlarini bajarish xorijiy mulkni milliylashtirish, turli masalalar bo'yicha xalqaro shartnomalar tizimida ishtirok etish davlat boshqaruv tizimlarining mustahkamligi, siyosiy rahbariyatning muqarrarliligi, davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi, iqtisodiy siyosatning mukammalligi, davlat apparatining ish samaradorligi, banklar tizimining takomillashuv darajasi, pul muomalasi va davlat

byudjetining barqarorligi, davlatning ichki va tashqi qarzlari miqdori va boshqalar hal qiluvchi o'rinda turadi. Investitsiya muhitiga kapitalni qabul qiluvchi mamlakatning qonunlarida aks ettirilgan to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar va xorijiy firmalarining faoliyatini chegaralovchi yoki taqiqlovchi omillardan tashqari, to'liq aniqlanmagan ba'zi bir qoidalar va muvofiqlashtirilmagan jarayonlarning mavjudligi salbiy ta'sir etadi.

Mikroiqtisodiyot darajasida investitsiya muhiti bir tomondan investor-firma va ikkinchi tomondan xorijiy investitsiyani qabul qiluvchi xo'jalik sub'ektlari, ya'ni sotuvchilar, sotib oluvchilar, banklar hamda kasaba uyushma va boshqa jamoat tashkilotlari o'rtasidagi ikkiyoqlama munosabatlarni aks ettiradi. Bu darajada investitsiya iqlimi umumlashtirilgan baholar iqtisodiy, huquqiy va madaniy jabhalarda yaqqol ko'rinadi. Makro va mikroiqtisodiyot darajalari birgalikda yagona investitsiya muhitini tashkil etadi va potentsial investorlar hamda kapitalni qabul qiluvchi tomonlarning bo'lajak munosabatlarini belgilab beradi.

Investitsiya muhiti ob'ekt kategoriyasi bo'lib, har bir alohida olingan vaqt doirasida investorlar uchun haqiqatda mavjud bo'lgan shart-sharoitlar majmuasini aks ettiradi. Lekin hozirgi sharoitda investitsiya muhiti faqat davlat organlari ta'siri ostida shakllanmoqda. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda jahon tajribasidan, jumladan xorijiy investitsiya bilan tashkil etilib, yuksak iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishgan kompaniya va firmalar tajribasidan kengroq foydalanish kerak. Bu jarayonni amalga oshirishda milliy xususiyatlarni ham hisobga olish lozim.

Davlat hokimiyatining ta'sirchanligi investitsiya muhitini aniqlovchi omillardan biridir. SHundan kelib chiqib, har bir kapital jalb qiluvchi mamlakat ma'lum bir investitsiya tizimiga egaligini ta'kidlash mumkin. Bu tizim huquqiy me'yorlar va muassasalardan iborat xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi va investitsiya muhitini o'z ichiga oladi. Xorijiy kapitalni qabul qilish tizimi investitsiya muhitining komponenti bo'lib xizmat qiladi va unga nisbatan mustaqil ravishda tashkil etiladi. CHunki u investitsiya muhitini o'zgartirishga qodirdir. Xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi qabul qiluvchi tomonni xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga qulay ravishda kirib kelishini namoyon etsa, investitsiya muhiti kirib kelgan kapitalni mamlakat ichida optimal ravishda o'sib borish vaziyatiga baho beradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali sanoatni yangi zamonaviy texnologiyalar bilan, qishloq xo'jaligida qayta ishlovchi sanoat majmuini va boshqa sohalarda tub o'zgarishlar yasash mumkin. SHunday ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarga qulay bo'lgan investitsiya muhitini yaratib berish kerak. Investitsiya muhiti iqtisodiyotda yangi tushuncha emas, ammo mustaqil O'zbekiston sharoitiga nisbatan ishlab chiqilmagan. Endi bu sharoitni yaratishga urinishlar bo'lmoqda. Bir qator rivojlangan davlatlar bu jarayonni ijobiy tarzda amalga oshirgan. Investitsiya muhitining ahamiyati, amaliy jihatdan, qaysi boyliklar va yo'nalishlar tizimi asosida xorijiy investorlar faoliyat yuritishlari to'g'risida tushuncha beradi va shuning negizida xorijlik investorlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

Investitsiya muhiti- juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammolar va masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Investor tomonidan ma'lum bir davlatga investitsiya qilishning qulay va noqulay tomonlari baholanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafko'rasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi. Investitsiya muhiti har tomonlama chuqur tahlil qilinishi asosida investitsiya riski aniqlanadi. Investitsiya muhiti va risk darajalari bir-birlariga teskari nisbatdadir. Investitsiya muhiti qanchalik qulay bo'lsa, investorning tadbirkorlik riski shunchalik past darajada bo'ladi va bu investorlarning kirib kelishini ko'paytiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo'lsa, risk darajasi yuqori bo'ladi. Bu esa investitsiya qabul qiluvchining sarf-xarajatlarining o'sishiga olib keladi. SHunday qilib, investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir.

2. Investitsiya risklari va toifalari.

Hozir turli mamlakatlar va mintaqalar o'rtasidagi investitsiya uchun avj olayotgan raqobat ko'rashi nuqtai nazaridan investitsiya riski tushunchasini ko'rib o'tish zarur. Investitsiya oqimlarining u yoki bu mamlakatlarga yo'nalganligi, shuningdek ularning real hajmlari oxir-oqibat shu risklar bilan belgilanadi.

Umuman olganda investitsiya riskini uch toifaga bo'lish mumkin:

1. Asosiy (yoki mamlakat bilan bog'liq) risk:

- investitsiya kiritiladigan mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy barqarorlik;
- hukumat o'tkazadigan makroiqtisodiy siyosatning izchilligi va barqarorligi (inflyatsiya darajasini nazorat qilish, byudjet, kredit siyosati va boshqalar);
- tadbirkorlik faoliyatidan olingan foyda va boshqa daromadlarning investitsiya qo'yilgan mamlakatdan xorijga o'tkazish imkoniyatlari va sharoitlari;
- investitsiyalashning o'zga huquqiy sharoitlari (xorijiy investorlar huquqini himoya qiladigan qonun va qonun doirasidagi harakatlarning mavjudligi).

2. SHartnoma yoki investitsiyaga qadar risk:

- murakkab jarayonlarning davomiyligi va samaradorligi;
- shartnoma shartlarini kelishish va ma'qullash jarayoni, shuningdek tomonlarning shartnomalarda nazarda tutilgan shartlarga rioya etishlarini nazorat qiladigan muassasalarning bo'lishi va samarali ishlashi;
- munosib mahalliy sherik topish imkoniyati;
- yangi tashkil etiladigan korxona nizom jamg'armasiga uskuna–jihozlar, texnologiyalar, nou-xau, xom ashyo, materiallar va boshqa ko'rinishida qo'shiladigan hissani baholash tizimining mavjudligi;
- intellektual mulkni himoya qilishning xuquqiy asoslari, shu jumladan texnologiyalarni transfertlash (o'tkazish) masalalari.

3. Operatsion yoki investitsiyadan keyingi risklar:

- operatsion (harakat) qarorlarni qabul qilish jarayoni tartib-qoidalari va davomiyligi;
- foyda va uni taqsimlash masalalari bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida ta'sir ko'rsatish darajasi;

- menejmentni tashkil etish masalalari, shu jumladan investitsiya loyihasi infratuzilmasini, xodimlarni boshqarish, moliyaviy menejmentni tashkil etish;
- mahalliy xom ashyodan foydalanish imkoniyatlari va uni olish tartiblarini hal qilishning davomiyligi;
- mahalliy bozor marketingi;
- malakali mahalliy ish kuchining topilishi;
- jamoat havfsizligi, shu jumladan ushbu mamlakatda ishlayotgan xorijlik xodimlar uchun havf-xatarsiz ishlash sharoitlari.

Har bir kompaniya o'zining investitsiyalash strategiyasi, raqobat ko'rashidagi o'z o'rnidan kelib chiqqan holda investitsiya riski majmuini mustaqil baholaydi va u yoki bu mamlakatga investitsiya kiritadi. Keyingi o'n yillarda rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar bilan sanoat jihatidan jadal rivojlanayotgan mamlakatlarning kompaniyalari o'rtasidagi farqlar yaqqol ko'zga tashlana boshladi.

Rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar g'oyat sinchkov va pishiqdigi bilan ajralib turadilar. Ular mamlakatdagi siyosiy– iqtisodiy vaziyatni uzoq o'rganadi, tahlil etadi va shundan keyingina bu mamlakatga investitsiyalar kiritish yoki kiritmaslik haqida bir qarorga keladi. Yangi sanoati rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar ularga qaraganda faolroq. Ularning strategiyasi hujumkorligi va tezkorligi bilan ajralib turadi. Bu kompaniyalar uchun yangi bozorlarga tez kirish hamda u erda etakchi mavqeni egallash asosiy masala hisoblanadi.

Bozorga kirishning ham birinchi, ham ikkinchi strategiyasiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Ammo ularning qaysi biri yaxshi, qaysi biri yomon degan savolga javob berish qiyin. Bu strategiyalar umuman boshqa-boshqa, har biri mazko'r mamlakatlarning tarixiy tajribasi, biznes olami an'analari, kishilarning mentaliteti (dunyoqarashi) asosida shakllangan.

O'zbekistonda mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish tizimini yaratishga kirishildi. Bu borada bir qator qonunlar va Prezident farmonlari chiqarildi. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida", "CHet el investitsiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlarini takomillashtirish to'g'risida"gi qonun va farmonlari shular jumlasidandir. Bu qonun va farmonlar ma'lum ma'noda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy asosini tashkil etadi.

Jahon statistikasining dalolat berishicha, uch yildan ortiq faoliyat ko'rsatgan firmalarning 30 foizi muassislarning o'zaro da'volari hal etilmasligi oqibatida yopilib qolmoqda. Tadbirkorlarning professional bilimlari etarli emasligi mazkur firmalar tugatilishining yana bir sababidir. O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanib va o'sib borayotgan sektorlarida yangi barpo etilayotgan KO'B (kichik o'rta biznes) korxonalari (elektronika, informatika tizimlari, kompyuter texnikasi sohasidagi korxonalar) o'sib, kengayib borayotganligi bilan an'anaviy biznes sohasidagi KO'B korxonalaridan farq qiladi. Kengayishstrategiyasiga amal qiluvchi bu korxonalar an'anaviy biznes korxonalaridan farqli o'laroq, turli sohalarida: marketing, yangi tovarlar, ishlab chiqarish, moliyalashtirish muammosi mazkur sohalar orasida eng muhimdir. Amalda, yangi tashkil etilgan KO'B

korxonalari aylanma kapitalni shakllantirish uchun o'z mablag'iga ega bo'lmaydi, asosiy kapitalga investitsiya qo'yish haqida gap yuritmasa ham bo'ladi.

O'sishning mutanosib emasligi, qarz majburiyatlarining ko'payib borishi o'z kapitali, odatda, venchur investitsiyalar hisobiga shakllanadi. Venchur kapitalning investori o'zining barcha mablag'idan mahrum bo'lishi mumkin, ammo bu kapital 10 va hatto 50 baravar ko'payish ehtimoli ham bor. Venchur kapitalidan foydalanish imkoniyati esa fond bozorining holatiga bevosita bog'liqdir. Venchur kapital egalari hamisha hayotiy qobiliyatga ega bo'lgan va faol kapital bozorini izlash jarayonida bo'ladilar. Ularni doimiy ravishda yuksak texnologiya sohasidagi loyihalar qiziqtiradi.

An'anaviy biznes sohasidagi kichik korxonalar kengayish maqsadini ko'zlamaydi. Odatda, ular bir-ikki korchalonga juda qaram bo'ladi va ularning ixtisoslashuvi uchun deyarli imkoniyat bo'lmaydi. qabul etiladigan qarorlar esa bir yoki bir necha menejerlarning xohish-irodasiga bo'ysunadi, istiqbolda esa strategik maqsadlarni aniqlash juda qiyin vazifaga aylanadi. qarorlarning ko'p qismi durustroq tahlil etilmay qabul qilinadi. Kapital korxona egalarining mablag'i hisobidan shakllantiriladi, ularda esa mablag' etishmasligi sezilib turadi.

KO'B korxonalari byudjet mablag'laridan, fond bozoridan foydalana olmaydi, ularning jamg'armasi ham yo'q. qarzga olinadigan kreditlar va bank ssudalari ularni moliyalashtirishning asosiy manbalaridir. 2000 yilda KO'B sub'ektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 92 mlrd. so'mdan yuqori bo'ldi va 2,5 baravar oshdi, shu jumladan 12,9 mlrd. so'm mikrocredit tarzida berildi. Byudjetdan tashqari fondlardan KO'B loyihalarining moliyalashtirilishiga 2000 yilda 4,4 mlrd. so'm, yoki 1999 yildagiga nisbatan 1,7 baravar ko'p mablag' ajratildi¹. 2000 yilda tijorat banklari tomonidan KO'B korxonalariga berilgan kreditlar umumiy hajmining tarkibiga qisqa muddatli ssudalar 65 foizini tashkil etdi. Buning ma'nosi shuki, KO'Bning investitsiya loyihalarini amalga oshirishga kreditlarning atigi 35 foizi yo'naltirilgan.

2000 yilda kichik firmalarga va yakka tadbirkorlarga mikrocredit berishning yangi tartibi qabul qilindi. Bu tartib mikrocreditlar olish qoidasini osonlashtiradi, garovga nisbatan yumshoqroq talablar qo'yadi va mikrocreditlar 50 foizgacha bo'lgan qismini naqd pul bilan olish imkonini beradi. SHu bilan birga, KO'B korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi zarur. qishloq ho'jaligi sohasida KO'B korxonalari uchun kredit tiftfoqlari(kooperativlari) kredit olishning juda muhim tuzilmasi bo'lishi mumkin. Ular orqali qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtirish, qayta ishlash va sotishni kreditlashni uyushtirish mumkin bo'lur edi.

3. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar.

Investitsiya muhitiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy omillar:

- xorijiy investitsiya borasida davlat siyosati;

¹ 1 Karang. Prioriteto' malogo i srednego biznesa na 2001 god. Narodnoe slovo, 11 yanvar 2001 god.

- xalqaro kelishuvlarga rioya qilish;
- davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi;
- iqtisodiy siyosatning hayotiyligi;
- mamlakatning xalqaro shartnomalar tizimida qatnashuvi;
- davlat apparatining ish faoliyati;
- siyosiy hukumatning investitsiyalarga moyilligi.

Iqtisodiy omillar:

- iqtisodiyotning umumiy holati (yuksalish, pasayish);
- valyuta ko'rsining barqarorligi;
- inflyatsiya jarayonining dinamikasi;
- soliq imtiyozlari;
- bojxona tartibi;
- ish kuchidan foydalanish tartibi;
- ish kuchi qiymati;
- aniq mahsulotlarga talab va taklif;
- kredit qiymati va boshqalar.

Ijtimoiy omillar:

- jamoatchilikning xususiy mulk va xorijiy investitsiyalarga munosabati;
- jamiyatning mafko'raviy birdamlik darajasi;
- mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining asosiy masalalari bo'yicha kelishuvning mavjudligi;
- ishchi guruhining tashkilotchiligi.

Biron mamlakatning investitsion muhitini tahlil qilinganda, amaldor nuqtai nafari emas, balki o'z mablag'ini daromad keltiruvchi loyihaga joylashtirmoqchi bo'lgan xorijiy investorlarning fikrlari ahamiyatlidir. Ularning fikricha investitsiya muhiti bir qator zaruriy omillarga bog'liq bo'lib, ularning mavjudligi investitsiya muhitining eng qo'lay bo'lishini ta'minlaydi.

Birinchisi, **siyosiy barqarorlik** bo'lib, uning mavjud bo'lishi investorning kelgusi ishlarini rejalashtirish va ishonch bilan oldinga intilishiga imkon beradi. U kuchli qonuniy tizimning mavjudligi, tashqi va ichki harbiy nizolar, hamda inqilobiy o'zgarishlarning bo'lmasligida namoyon bo'ladi.

Ikkinchisi, **iqtisodiy samaradorlik**. Har bir investor iqtisodiy o'sish juda yuqori bo'lgan, hukumat iqtisodiyotni rivojlantirish borasida barqaror siyosat olib borayotgan mamlakat iqtisodiyotiga mablag' sarflashni hohlaydi.

Yana bir muhim omil mamlakatdagi hukumat rahbarlari, mehnat jamoalari, muholif partiya vakillari va xalqning xorijiy investorlarga nisbatan bo'lgan **do'stona munosabatlaridir**. Undan tashqari oddiy xalqning xorijliklarga, ularning mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatiga bo'lgan munosabati ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu omil ham investorlarning mamlakatdagi faoliyatlariga katta ta'sir o'tkazadi.

Hukumatning siyosati yana bir muhim omil hisoblanib, investorlarning faoliyatiga turli xil ta'sir o'tkazishi mumkin. Albatta, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat bevosita yoki bilvosita biznes, savdo va investitsiyalash jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunda uch jihatga alohida e'tibor berilishi zarur: xorijiy investorlarning loyihalarda qatnashish darajasi. Xorijiy investorlarni o'z

biznesining qanday qismiga egalik qilishlari qiziqtiradi. Bu esa loyiha turiga bog'liq: a) agar investitsiya loyihasi eksportga yo'naltirilgan, hamda xom ashyoning asosiy qismi chetdan keltirilayotgan bo'lsa, investor biznesning maksimal darajada katta qismiga (ba'zida 100%igacha) egalik qilishga da'vogar bo'ladi; b) agar investitsiya loyihasi eksportga yo'naltirilgan, hamda xom ashyoning asosiy qismi mamlakatning ichki xom ashyosi bo'lsa, investor huddi shunday biznesning qo'shni mamlakatlardagi shart-sharoitlariga qarab ish tutadi; v) agar investitsiya loyihasi mahsulotni ichki bozorda sotishga mo'ljallagan bo'lsa, ko'pgina TMKlar sherikchilik asosida ish yuritishga harakat qiladilar, aks holda boshqa raqobatchilar ulardan oldin bozorni egallab olishlari mumkin. Xorijliklarning mehnati. Xorijiy investorlar o'z biznesi va daromadlarini hamyurtlari nazorati ostida bo'lgani ma'qul deb fikralashadi. Ammo ishga juda ko'p xorijliklarni jalb etish xarajatlarni oshirib yuboradi. Valyuta muomalasini tartibga solish. Xorijiy investorlarni mamlakatga mablag' olib kirish, uni sarflash imkoniyatlaridan tashqari biznesdan topilgan daromadni konvertirlangan valyutaga ayirboshlash, chetga olib chiqish, valyuta hisob raqamiga ega bo'lish imkoniyatlari nihoyatda qiziqtiradi.

Keyingi omil **infrastruktura** holati bo'lib, u mamlakatdagi yuqoridagi sanab o'tilgan omillarning mavjud bo'lishidan keyingi muhim omillardandir. Unda ishlab chiqarish uchun er maydonlaridan foydalanish, erni ijaraga olish shartlari va muddati, avtomobil va temir yo'llarning sanoat hududlarini asosiy transport bo'g'inlari (portlar, aeroportlar) va bozorlar bilan bog'langanligi, elektr energiyasining mavjudligi, suv ta'minoti darajasi (ba'zi hollarda ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi), telekommunikatsiyaning rivojlanish darajasi, telefon, faks, teleks aloqalarining mavjudligi, kompyuter orqali aloqa o'rnatish masalalari muhimdir.

Ishchi kuchi. Ko'pincha xorijiy investitsiyalarni kiritishning asosiy sababi qilib qabul qiluvchi mamlakatda ish kuchining arzonligi ko'rsatiladi. Lekin, investitsiyalarni jalb qilishga savodxonlik, ishchi kuchining malaka darajasi, mehnat qilish etikasi, mehnat unumdorligi darajasi, turli ijtimoiy harakatlarning ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri va boshqalar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Banklar va moliya. Mamlakatda jahon savdosi va investitsiya sohasida foydalaniladigan barcha moliyaviy instrumentlar mavjudligi ushbu sohadagi xizmatlar sifatini anglatadi. Investorlar uchun mamlakatda etarli miqdorda faoliyat ko'rsatuvchi moliya institutlari va jahondagi yirik banklarga tegishli filiallarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda jahonning yirik savdo va investitsiya kompaniyalari filiallarining faoliyat ko'rsatishi investorlar uchun ishonchlilik darajasini oshiradi.

Hukumat strukturalaridagi rasmiyatchilik. Hukumat o'z investitsiya siyosatini qanday baholashi muhim emas. Bunda katta tajribaga ega bo'lgan tadbirkorlar bergan baho muhimdir. Investorlar rasmiyatchilik, qog'ozbozlik avj olgan muhitga kamdan-kam o'z mablag'larini sarflaydilar. Hukumat uchun eng muhimi, rasmiyatchilik sabab bo'lib amalga oshirilishi to'xtab qolgan loyihalarni ekspertizadan o'tkazish, yo'l qo'yilgan xatoliklarni tuzatishdir.

Mahalliy ishbilarmonlik muhiti. Bu tushuncha juda keng bo'lib, unga: advokat, maslahatchilarning ko'pligi, malakali ish yurituvchilar, buxgalterlar, arxitektorlar va konstruktorlarning mavjudligi kiradi. Bundan tashqari qo'shma korxona ochishda mahalliy hamkorning tajribasi, aloqalari, mehnatsevarligi va ishonchliligi ham hisobga olinadi.

Yashash sifati. Ushbu omil xorijiy investorga taklif qilinayotgan barcha narsalarda o'z aksini topadi. Aholi turmush tarzi va daromadlarining darajasi ishlab chiqarilayotgan mahsulotning xilma-xilligi va mehnat uchun qilinadigan xarajatlar hajmida o'z aksini topadi. Xorijiy investor o'zi uchun ishlash, yashash, bank va boshqa xizmat turlaridan foydalanishda komfort talab qiladi.

4. Investitsiya muhitini aniqlashning jahon tajribasi.

Investitsiyalash borasidagi qo'shma loyihalar va qo'shma korxonalarni tashkil etishdagi risklarni hisobga olishda ko'pchilik xorijiy investorlar BERI indeksidan foydalanadilar. Ushbu indeks mamlakatdagi investitsiya muhitini turlicha salmoqqa ega bo'lgan 15 ta baholash mezonlari asosida hisoblab chiqadi. Har bir mezonga 0 dan (to'g'ri kelmaydi) 4 gacha (o'ta qulay) baho beriladi. To'plangan yuqori ball "barqaror mamlakat"ni anglatadi. Mamlakat to'plagan ball qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalashdan olinishi mo'ljallangan foyda ham shuncha yuqori bo'lishi zarur, aks holda investitsiyalash asossiz hisoblanadi. BERI indeksining umumiy ko'rinishi quyidagicha: 1-Jadval

BERI indeksi

№	Mezonlar	Sal mog'i, %
1.	Siyosiy barqarorlik: kutilmagan hukumat to'ntarishlari imkoniyatlari va ularning tadbirkorlik faolligiga ta'sirini baholaydi	12
2.	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat: xususiy tadbirkorlarga tegishli ijtimoiy ehtiyojlarga bo'lgan xarajatlar hajmi	6
3.	Milliylashtirish: beg'araz ekspropriatsiya imkoniyatlaridan to mahalliy xomiyatlarga imtiyozlar berishgacha	6
4.	Devalvatsiya: devalvatsiya ta'siri, hamda korxona faoliyatiga devalvatsiyaning ta'sirini yumshatuvchi choralarning hayotiyliigi	6
5.	To'lov balansi: hisoblar balansi va umumiy balansga, hamda xorijiy investorlarning daromadlariga ta'sir etuvchi omillar	6
6.	Rasmiyatchilik masalalari: davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, bojxona rasmiyatchiliklarini amalga oshirilishi, valyuta o'tkazishlari va boshqa shunday operatsiyalar	4
7.	Iqtisodiy o'sish sur'atlari: yillik yalpi mahsulot ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi 3%, 3-6%, 6-10% va 10%dan yuqori chegaralarda	10
8.	Valyutaning konvertirlangani: milliy valyutaning xorijiy valyutaga almashtirish imkoniyati, hamda milliy valyutaning (korxonalarga zarur bo'lgan darajada) valyutalar bozoridagi o'rni	10
9.	SHarnomani amalga oshirish imkoniyati: shartnomaga amal qilish imkoniyati, hamda til va urf-odatlardagi farq natijasida qiyinchiliklarning yuzaga kelishi	6
10.	Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar: ish haqi darajasi, mehnat unumdorligi, ishga qabul qilish tartibi	8
11.	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati: korxonalarga yuridik, buxgalteriya, marketing bo'yicha maslahatlar berish, texnologiya va qurilish ishlarini amalga oshirish sohalarida maslahatlar kutish imkoniyati	2

12.	Aloqa va transportni tashkil etish: faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va ularning filiallari orasidagi transport yo'llari va aloqa tizimini (mamlakat ichidagini ham) tashkil etish va foydalanish imkoniyati. Transport infratuzilmasini baholash	4
13.	Mahalliy boshqaruv va hamkor: boshqaruvning turli masalalarini echishda o'z kapitali bilan qatnashish va hamkorlikda faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan mahalliy hamkorlarning soni va imkoniyatlari	4
14.	qisqa muddatli kredit: xorijiy hamkorlarga qisqa muddatli kreditlar berish va ulardan foydalanish imkoniyati	8
15.	O'zoq muddatli kredit va shaxsiy kapital: hamkorlar tomonidan nizom kaptaliga o'z ulushlarini qo'shish shartlari va milliy valyutada uzoq muddatli kredit berish shartlari	8

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga nisbatan BERI indeksi asosida investitsiya muhiti imitatsion baholangan bo'lib, u quyidagi 2-jadvalda qayd etilgan:

2.-Jadval

**O'zbekiston Respublikasi investitsiya muhitining
imitatsion baholanishi.**

№	BERI indeksi mezonlari	bahosi	salmog'i,%	indeks
1	Siyosiy barqarorlik	4	12	0,48
2.	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat	3	6	0,18
3.	Milliylashtirish	2	6	0,12
4.	Devalvatsiya	0	6	0
5.	To'lov balansi	1	6	0,006
6.	Rasmiyatchilik masalalari	1	4	0,04
7.	Iqtisodiy o'sish sur'atlari	1	10	0,01
8.	Valyutani konvertirlanganligi	1	10	0,01
9.	SHarnomani amalga oshirish imkoniyati	3	6	0,18
10.	Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar	2	8	0,16
11.	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati	1	2	0,02
12.	Aloqa va transportni tashkil etish	1	4	0,04

13.	Mahalliy boshqaruv va hamkor	3	4	0,12
14.	qisqa muddatli kredit	1	8	0,08
15.	Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital	2	8	0,16
16.	JAMI		100	1,61

Mamlakat investitsiya muhitini baholashda yana **Xalqaro kredit reytinglaridan** ham foydalaniladi. 3-Jadvalda. Ular jahondagi o'n bir obro'li agentliklar tomonidan ishlab chiqiladi. Ulardan beshtasi – amerika, uchasi – yapon, ikkitasi – kanada va bittasi angliya agentliklaridir. Bunda bozorning 90% ikki yirik va mashhur amerika kompaniyalariga tegishlidir – Standart and Poor's Investor Service va Moody's Investor Service. 3-Jadvalda

3.-Jadval

Xalqaro kredit reytinglarini tuzishda foydalaniluvchi qimmatbaho qog'ozlarning ishonchliligi klassifikatsiyasi.

Reyting belgilari		REYTING INTERPRITATSIYASI
Standart Poor's	Moody's	
AAA	Aaa	O'ta yuqori ishonchlilik. Foizlar va qarzning asosiy summasining to'lanish ehtimoli o'ta yuqori.
AA+ AA AA	Aa1 Aa2 Aa3	YUqori ishonchlilik. Foizlar va qarzning asosiy summasining to'lanish ehtimoli yuqori.
A+ A A-	A1 A2 A3	Ishonchlilik o'rtadan yuqori. Emitentning qarzni va foizlarni to'lash imkoniyatlari yuqori, ammo iqtisodiyotni ichki barqarorligiga bog'liq.
VVV+ VVV VVV-	Vaa1 Vaa2 Vaa3	Ishonchlilik etarli darajada. Emitentning qarz va foizlarni to'lash imkoniyatlari to'lov vaqtidagi iqtisodiyotning ichki barqarorligiga bog'liq.
VV+ VV VV-	Va1 Va2 Va3	SHaroitni ishonchli deb hisoblasa ham bo'ladi, ammo ichki iqtisodiy holatning beqarorligi tufayli doimo to'lamaslik havfi mavjud.

V+	V1	To'lamaslik havfi yuqori. Emitentning to'lov qobiliyati cheklangan, ammo joriy vaqtdagi majburiyatlarga mos keladi.
V	V2	
V-	V3	
SSS+	Saa	To'lanishi ehtimoli kam yoki to'lanmaydigan majburiyatlar. Emitentning to'lov qobiliyatiga mamlakatning ichki iqtisodiy beqarorligi bilan putur etkazilgan.
SSS		
SSS-		
S	Sa	Umuman to'lanmaydigan majburiyatlar (to'lovlarni muddatini uzaytirish yoki to'lamaslik). Emitent bankrot yoki zarar ko'rmoqda.

Xorijiy investorlar reytingdagi ma'lumotlardan vaqtini tejash maqsadida keng foydalanadilar. Mamlakatning reytingi yuqori yoki pastligi albatta ahamiyat kasb etadi. Lekin shu reytingga kirishning o'zi ham investorlarda ushbu mamlakatga nisbatan u yoki bu darajada ishonch uyg'otadi.

Tayanch iboralar.

Investitsiya muhiti. Investitsion tavakkallik. Makrodarajadagi muhit. Mikrodarajadagi investitsion muhit. Siyosiy omil. Iqtisodiy omil. Ijtimoiy omil. Beri indeksi.

Nazorat savollari.

1. Investitsiya muhiti nimani anglatadi?
2. Investitsiya muhitiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Investitsiya muhitini baholashda Beri indeksini ahamiyati nimalardan iborat?
4. Iqtisodiy omil qanday usullarni o'z ichiga oladi?
5. Mahalliy ishbilarmonlik muhitini tushuntiring?
6. Valyuta muomalasini tartibga solishda nimani tushunasiz?
7. qimmatli qog'ozlarni turlarga ajrating?
8. Beri indeksini tushuntirib bering?

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Vlinskie P.L. , Levshets V.N., Smolyak S.A. Otsenka effektivnosti investitsionno'x proektov: Teoriya i praktika: Ucheb. Posob.-3-e izd. Ispr. i dop. -M.: Delo 2004 g.
2. Evsanko O.S. hpargalka po investitsii. Ucheb. Posobie. -M.: TK. Velbi, 2004 g.
3. Kotayubov V.YU. Investitsinno'y potentsial xozyaystvennoy deyatelnosti: Makro ekonomicheskoy i finansovo-kreditno'y aspekto'. Ucheb pos. -M.: MGIMO-Universitet. 2004 g.
4. TSarev V.V. otsenka ekonomicheskoy effektivnosti investitsiy.- SPb.: petr, 2004 g.
5. Siddiqov A. Sanoat ishlab chiqarishiga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari samaradorligi. "Bozor, pul va kredit" jurnali , 2004 №7-8 sonlar.
6. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. I.f.d., professor D./ozibekov umumiy tahriri ostida .-T.: Fan va texnologiya, 2004 y.
7. Titov V.I. Analiz i diagnostika finansovo- xozyaystvennoy deyatelnost predpriyatiya: uchebnik. M.: Dashkov i K, 2005 g.

8. Kojuxar V.M. Praktikum otsenka investitsiy: Ucheb posobie. -M.: Izd. Torgovaya koorparatsiya. Dashka. 2005 g.
9. [Areferat.ru :: Investitsiya - \(leksiya\)](http://areferat.ru/go/ref.php?id) <http://areferat.ru/go/ref.php?id>
10. [Investitsiya. Pr. pos. I.Tokarev. 2003. 504](http://www.bizbook.ru/detail.html?book_id)
http://www.bizbook.ru/detail.html?book_id
11. <http://books.iznutri.ru/books/m.php/74231.html>
12. www.uz – perva'y sayt Uzbekistana - resurso' Uzbekistana
13. www.gov.uz – ofitsialno'y pravitelstvenno'y sayt Respubliki Uzbekistan
14. www.stat.uz/index.htm – sayt Gosudarstvennogo komiteta RU po statistike
15. www.mf.uz sayt Ministerstvo finansov Respubliki Uzbekistan.

7-Mavzu. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va moliyalashtirish.

Reja

- 1. Xorijiy investitsiyalarning mohiyati va amalga oshirilishi sabablari.**
- 2. Bevosita va portfeli xorijiy investitsiyalar.**
- 3. Xorijiy investitsiya eksporterlari va importerlari.**
- 4. Xalqaro kapitallar migratsiyasi.**

1. Xorijiy investitsiyalarning mohiyati va amalga oshirilishi sabablari.

Bir davlatdan boshqa davlatga daromad olish uchun yo'naltirilgan har qanday shakldagi mulkni to'la qonli xorijiy investitsiya deyishimiz mumkin. Ammo shunday mulk shakllari borki, biz ularni xorijiy investitsiya deya olmaymiz. Masalan, elchixona chet davlat mulki hisoblanadi, yoki xorijiy fuqaro shaxsiy uy sotib olsa bu xorijiy shaxs mulki hisoblanadi, lekin xorijiy investitsiya bo'la olmaydi.

Xalqaro investitsiyalar – jahon mamlakatlari o'rtasida harakatda bo'lgan investitsiyalardir. Investitsiyalarni xorijga chiqarish, ularning mamlakatlar o'rtasidagi faol harakati zamonaviy jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralib turuvchi xususiyatlariga aylandi. Investitsiyalarni chetga chiqarish jahon xo'jaligidagi tovarlarni chetga chiqarish monopoliyasini tugatdi. Hozirgi vaqtda xalqaro investitsiyalarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 30%dan oshadi. Bu ko'rsatkich jahon savdosi o'sishi sur'atlaridan deyarli 5 marotaba ortiqdir. Xalqaro investitsiyalar o'zida moddiy boylik barpo etish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish, pul va tovar shakllarida jamg'arilgan zahiralarni mujassamlashtiradi. Ushbu investitsiyalar doimiy ravishda mamlakat ichida bir tarmoqdan boshqasiga, hamda davlatlararo harakatda bo'ladi.

Kompaniyalar va jismoniy shaxslar investitsiya jarayonining ishtirokchilaridir. Ular investitsiya jarayonida ham talab tomonida ham taklif tomonida ishtirok etishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyalarning ichki investitsiyalardan farqi shundaki, ularda investor boshqa mamlakat fuqarosi bo'ladi. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra xorijiy investitsiyalar ssuda kapitali (ya'ni qarz va kredit), hamda bevosita va portfel

investitsiyalarga bo'linadi. Investitsiyalar nimaga yo'naltirilganligi ular qaysi xorijiy investitsiya turiga kirishini belgilaydi.

Xorijiy investitsiyalar qo'shma korxonalarda o'z hissasi bilan qatnashib, xorijiy investorlarga to'liq tegishli bo'lgan korxonalarni yaratish, xususiylashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishi, er va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bo'lishi, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyalarga asosan 2 guruh omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) iqtisodiy omillar:

- ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining bir maromda ushlab turilishi;
- jahon va alohida mamlakatlar iqtisodiyotida chuqur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi (ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va jahon xizmatlar bozori taraqqiyoti ta'siri ostida olib borilishi);
- ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi;
- jahon iqtisodiyotini transmilliylashtirilishini o'sib borishi (AqSH Transmilliy korporatsiya (TMK)lari xorijiy filiallarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi AqSH tovar eksportidan 4 marotaba ortiqdir);
- ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM)ning faol rivojlanishi va boshq.

2) siyosiy omillar:

- kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (Erkin iqtisodiy hududlar (EIH), offshor hududlari va boshq.);
- rivojlanayotgan mamlakatlarda industirlashtirish siyosatini olib borish;
- iqtisodiy islohotlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiylashtirish, xususiylashtirish sektorni va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash);
- bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshq.

Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samarasi. Xalqaro kapital harakatning iqtisodiy samarasini ko'rsatish uchun, kapital qo'yilmalardan olinadigan foyda turli mamlakatlarda turlicha degan tasavvurdan kelib chiqish zarur. Jahonda ikki mamlakat mavjud deb hisoblaylik. **I** mamlakat **AK** miqdorda, **II** mamlakat **AK'** miqdorda kapitalga ega.

Ikkala mamlakatning umumiy kapitali **KK'** ga teng. **S₁** va **S₂** to'g'ri chiziqlar **I** va **II** mamlakatlarda qo'yilgan kapital hajmiga bog'liq ravishda ishlab chiqarish hajmini o'sishini aks ettiradi. Agar xalqaro kapital harakati mavjud emas deb faraz qilinsa **I** va **II** mamlakatlar o'z kapital mablag'larni mamlakat ichkarisida sarflab daromad oladi (**I** mamlakat **KS** hajmida, **II** mamlakat **K'D** xajmda). **I** mamlakatning o'z kapitali yordamida ishlab chiqarish hajmi segmentlarining yig'indisiga teng bo'lib, bulardan kapital egalarining foydasi ga teng bo'ladi, qolgani esa er va mehnat kabi boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining foydasidir. **II** mamlakatning ishlab chiqarish hajmi ga teng bo'lib, bundan kapital egalarining foydasi , qolgani esa boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining

foydasidir. $KC < K'D$ ekanligi **I** mamlakatda kapital qo'yishdan olinadigan foyda **II** mamlakatnikidan kam ekanligini anglatadi.

Bevosita xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samarasi.

Agar ikkala mamlakat kapitalning xalqaro harakatini taqiqlovchi cheklovlarni olib tashlasa **I** mamlakatdagi kapitalning bir qismi (**AV**) **II** mamlakatga ko'chadi, chunki investitsiyalardan keladigan foyda ikkala mamlakatda turlichadir. SHundan so'ng investitsiyalardan keladigan foyda **BR** darajasida balanslashadi. Buning natijasida **I** mamlakatning o'z kapitali yordamidagi ishlab chiqarish hajmi segmentlarining yig'indisiga teng bo'lib, mahsulotlar ichki investitsiyalar hisobiga, - **II** mamlakatga qilingan xorijiy investitsiyalar hisobga olingandir. Kapitalni bir qismini **II** mamlakatga investitsiyalash hisobiga yalpi ishlab chiqarish (yalpi kapital hajmi o'zgarmagan holda) ma'lum bir hajmga (**h** segment hajmiga) o'sadi. Bunda kapitaldan olingan daromad ham **KS** dan **KE** darajagacha oshadi. Kapital egalarining daromadi hajmgacha o'sib, boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining daromadi **S** segment hajmida bo'ladi, xolos.

Boshqa tomondan, kapitalni **I** mamlakatdan **II** mamlakatga oqib kelishi unda kapitaldan olinadigan foydani $K'D$ hajmidan $K'F$ hajmgacha qisqarishiga olib keladi. SHu vaqtning o'zida **I** mamlakatdan jalb qilingan va o'zining ichki kapitalini ishlatish natijasida **II** mamlakatda ishlab chiqarish hajmi dan gacha kengayadi. Albatta, segmentlar xorijiy kapital hisobiga ishlab chiqarilgan bo'lib, oxir natijada **I** mamlakat investorlariga foyda tariqasida berilish zarur. SHunday qilib **II** mamlakatda ichki ishlab chiqarishning sof o'sishi **g** segmentga teng bo'ladi. **II** mamlakatda kapital qo'yilishidan olinadigan foyda pasayishi natijasida kapital egalarining daromadi xajmdan **k** hajmgacha qisqaradi, boshqa ishlab chiqarish omillari egalarining daromadi esa **i** dan hajmgacha o'sadi.

Jahon xo'jaligi miqyosida qaralganda kapitalning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga oqib o'tish natijasida yalpi ishlab chiqarish hajmi dan hajmgacha, ya'ni hajmgacha o'sadi. Bunda **h** **I** mamlakatning kapitalini **II** mamlakatga investitsiyalab samaraliroq foydalanish natijasida yuzaga keladi, **g** esa **II** mamlakatga tegishli bo'lib, shu mamlakatda investitsiyalanadigan kapital hajmini o'sganligi natijasida vujudga keladi.

SHunday qilib, kapitalning xalqaro harakati (tovarlarning xalqaro harakati kabi) ishlab chiqarish omillarini samaraliroq qayta taqsimlash va ulardan foydalanish evaziga yalpi umumjahon ishlab chiqarishini o'sishiga olib keladi. Bunda, kapitalni eksport qiluvchi mamlakatdagi kapital egalarining daromadi o'sadi va boshqa omillar (ayniqsa mehnat va er) egalari daromadi esa qisqaradi. Kapitalni import qiluvchi mamlakatdagi kapital egalarining daromadlari qisqaradi va ishlab chiqarishning boshqa omillari egalarining daromadlari esa o'sadi.

Mamlakatlarning XKM jarayonlarida qatnashishi bir qator ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi. Bularga kapital eksporti (importi) hajmi, kapital eksporti-importi saldosi, mamlakatdagi xorijiy kapitalli korxonalar soni, ularda bandlar soni va boshqalar kiradi. Saldodan kelib chiqib, jahon xo'jaligi mamlakatlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

➤ kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlar (YAponiya, SHveytsariya);

- kapitalni import qiluvchi mamlakatlar (AqSH, Buyuk Britaniya);
- taxminiy muvozanatdagi mamlakatlar (Germaniya, Frantsiya).

Boshqa guruh ko'rsatkichlar esa kapitalni eksport-import qilish darajasiga bog'liq holda mamlakatlarning XKM dagi taqsimlanishini aks ettiradi. Ular quyidagilardir:

1) Kapital importi koeffitsienti (K_{ik}) - xorijiy kapital (XK)ning mamlakat YAIMdagi ulushini aks ettiradi;

evropa mamlakatlari ichida eng yuqori ko'rsatkich Belgiya va Lyuksemburgda;

2) Kapital eksporti koeffitsienti (K_{ek}) - eksport qilinadigan kapitalni (EK) mamlakat YAIMga nisbatini aks ettiradi:

,evropa mamlakatlari ichida maksimal ko'rsatkich Niderlandiyaga tegishli;

3) Mamlakat iqtisodiyotiga sarflanayotgan kapital qo'yilmalarning umumiy hajmida xorijiy kapitalni ulushini aks ettiruvchi ko'rsatkich:

bu erda K_{ex} – ehtiyoj koeffitsienti, XK – xorijiy kapital, $D(K)$ – mamlakatda kapitalga bo'lgan talab. AqSHning kapitalga bo'lgan ichki ehtiyojlarining 33% xorijiy kapital hisobiga qondiriladi;

4) Boshqa nisbiy ko'rsatkichlar – milliy ishlab chiqarishda xorijiy yoki aralash kompaniyalarning ulushi, o'tgan davrga nisbatan kapital eksporti (importi)ni o'sish sur'atlari, mamlakat aholisining har biriga to'g'ri keladigan xorijiy investitsiyalar summasi va boshqalar.

2. Bevosita va portfeli xorijiy investitsiyalar.

Maqsadiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar bevosita va portfel investitsiyalarga bo'linadi. **Bevosita investitsiyalar** – bu kapitalni to'g'ridan-to'g'ri eksporti bo'lib, investitsiya kirituvchiga shu korxona ustidan nazorat qilish huquqini beradi. Bunda korxona asosiy kompaniyaning xorijdagi shahobchasiga aylanadi. Bevosita xorijiy investitsiya(BXI)lar asosan xususiy tadbirkorlik kapitali shaklida bo'ladi.

Xalqaro statistikada investitsiyalarni BXIlar turiga kiritish bo'yicha har xil yondashuvlar mavjud. Xorijiy investorlar tomonidan nazorat qilish huquqini belgilovchi ko'rsatkich sifatida ular ega bo'lgan aktsionerlik kapitalining hissasi ko'rsatkichidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkich AqSHda 10%, Frantsiya va Buyuk Britaniyada 20% ga yaqin, Germaniyada 25%dan 50% gacha, O'zbekistonda esa 49% darajasida belgilangan. SHuningdek, shu korxonaning boshqaruvida bevosita amalga oshirilaetgan investitsiyalarning uzoq muddatli ekanligi ham uning muhim belgilaridan biridir. Investitsiyaning bu ko'rinishi tavakkalchilikni, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi uchun ma'suliyatni davlat va aholi zimmasiga yuklamasdan, balki ularni tadbirkorlik tizimlari o'rtasida taqsimlashning eng yaxshi va sinalgan usuli hisoblanadi.

BXI borasidagi yana bir yondashuv bu turdagi investitsiyalarni faqat mulkchilik ko'lam bilan, ya'ni aktsionerlik kapitalidagi ulushi bilan bog'liq, deb ko'rsatadi. Unga muvofiq BXIlarni:

- a) xorijda aktsiyalarni sotib olish orqali;
- b) foydani qayta investitsiyalash yordamida;
- v) firma ichki qarzlar va qarzdorliklari orqali amalga oshirish mumkin.

Ko'pchilik iqtisodchilar bu shakllar etarli emas, deb hisoblashadi va asosli ravishda turli xil noaktsioner shakllar orqali bu ro'yxatni davom ettirishadi (subkontraktlar, boshqaruv kelishuvlari, francheyzing, litsenzion kelishuvlar va boshqalar).

BXIlarning shakl va usullariga bog'liq tushunchalar bilan bog'liq turli xil yondashuvlarning ko'payishi qator muammolarni keltirib chiqardi. Bu muammolar umumbashariy xarakterga ega bo'lib, nostandart yondashuvlar echimini talab etadi.

Bevosita investitsiyalar ikki guruhga bo'linadi:

1. Transkontinental kapital qo'yilmalar.
2. Transmilliy qo'yilmalar.

Transkontinental kapital qo'yilmalar - investitsiya kiritish uchun qulay bozor sharoiti bo'lgan holda boshqa bir davlat yoki kontinentdan investitsiya eksportini amalga oshirishdir. Asosiy maqsad – bozorni egallash va shu kontinentda yangi ishlab chiqarishni tashkil etish.

Transmilliy kapital qo'yilmalari asosan qo'shni davlatlarga amalga oshiriladi. Bundan asosiy maqsad – bosh kompaniyaga nisbatan qilinadigan kapitalning harakatini minimum darajada amalga oshirish.

Bevosita investitsiyalar ikki maqsadga yo'naltiriladi:

1. Yangi kompaniya tashkil etish.
2. Bankrot bo'lgan kompaniyalarni xarid qilish.

Portfel investitsiyalar (portfolio investments) - shunday investitsiyalarki, bunda kapitalni daromad olish maqsadida korxonalarning aktsiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun sarflanadi. Bunday investitsiyalar korxonalarning moliyaviy xo'jalik faoliyati ustidan nazorat o'rnatish huquqini bermaydi. Xorijiy portfel investitsiyalar barcha xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda firmalar uchun muhim ahamiyatga ega. By turdagi investitsiyalarga asosan moliyaviy muammolarni echish uchun murojaat qilinadi. Korporatsiyalarning moliyaviy bo'limlari mablag''larning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga qisqa muddatli investitsiyalardan yuqori foyda olish uchun o'tkazadilar. Bunday investitsiyalar ko'pincha xususiy tadbirkorlar kapitaliga asoslangan, ba'zida esa o'z qimmatbaho qog'ozlarini chiqaradi va xorijiy qimmatbaho qog'ozlarini sotib oladi.

Xalqaro portfel investitsiyalari mamlakat to'lov balansida qanday klassifikatsiyalangan bo'lsa, shunday aks ettiriladi. Portfel investitsiyalar quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- aktsioner qimmatbaho qog'ozlari (equity securities) - bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, hujjat egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan mulkiy xuquqqa egaligini tasdiqlaydi;
- zayom qimmatbaho qog'ozlar (debt securities) - bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, zayom egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan munosabatini tasdiqlaydi.

Zayom qimmatbaho qog'ozlari quyidagi shakllarda chiqariladi:

- obligatsiya (bond) (oddiy veksel, qarz majburiyati) pulli dastak bo'lib, uning sohibiga kafolatlangan va qat'iy belgilangan pul daromadi yoki shartnoma asosida belgilangan o'zgaruvchan pul daromadini olish huquqini beradi;

- pul bozori dastaklari - pulli dastak bo'lib, uning sohibiga ma'lum bir davr ichida kafolatlangan va qat'iy belgilangan pul daromadi olish huquqini beradi. Bu dastaklar bozorda pasaytirilgan narxlarda sotiladi, narxni pasaytirish darajasi foiz stavkasining katta-kichikligiga va qarzni qoplanish muddatiga bog'liqdir. Bularga g'azna veksellari, depozit sertifikatlari, bank apsentlari va boshqalar kiradi.
- moliyaviy derivatlar (financial derivatives) – bozor narxiga ega bo'lgan pulli dastak bo'lib, uning sohibiga birlamchi qimmatbaho qog'ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi. Bularga opsiyonlar, fyucherslar, varrantlar, svoplar kiradi.

Xalqaro portfel investitsiyalari harakatini hisobga olish maqsadida to'lov balansida quyidagi kategoriyalar qabul qilingan:

- Nota (qarz majburiyati) (note) - qisqa muddatli (3-6 oy) pulli dastak bo'lib, bank bilan kelishuv asosida qarz oluvchining o'z nomiga chiqariladi, bozorda joylashtirilishi kafolatlanadi va sotilmagan notalar sotib olinadi, rezerv kreditlar bilan ta'minlanadi. Keng tarqalgan notalar – Evronotalardir.
- Opsiya (option)- shartnoma (qimmatbaho qog'oz) bo'lib, xaridorga ma'lum bir qimmatbaho qog'oz yoki tovarni belgilangan muddatdan so'ng yoki ma'lum bir davr ichida qat'iy belgilangan narxlarda sotib olish yoki sotish huquqini beradi. Opsiya xaridori uning egasiga yuqorida qayd etilgan huquqlarni sotishi evaziga mukofot pulini to'laydi.
- Varrant (warrant) – opsiyaning bir turi bo'lib, egasiga belgilangan muddat ichida emitentdan imtiyozli sharoitda ma'lum bir miqdordagi aksiyalarni sotib olish imkonini beradi.
- Fyuchers (futures) –qimmatbaho qog'ozlarni, valyuta yoki tovarlarni belgilangan narx va kelajakdagi belgilangan muddatda sotish yoki sotib olish borasidagi bajarilishi majbur bo'lgan qisqa muddatli standart shartnomalardir.
- Forward ko'rsi (forward rate)- asosiy qarz summasining ma'lum bir o'zgarma qismiga nisbatan belgilangan vaqtda to'lanadigan foiz stavkasining hajmi to'g'risida kelishuv bo'lib, u o'sha kundagi foiz stavkasidan past yoki yuqori bo'lishi mumkin.
- Svop (swap) – savdo qoidalariga amal qilgan holda bitta qarzni to'lash bo'yicha ma'lum bir muddat o'tgandan so'ng shartlarni o'zgartirish bo'yicha bitim

Portfel investitsiyasining bevosita investitsiyalardan afzallik tomoni shundaki, ular tugatilish vaqtida qimmatbaho qog'ozlar tezda naqd valyutaga almashtirib olinishi mumkin. Portfel investitsiyalarning amalga oshirilishining asosiy sababi – tavakkalchilik darajasini hisobga olgan holda xorijiy investor o'z mablag'larini xorijda maksimal foyda keltiruvchi qimmatbaho qog'ozlarga joylashtirishi mumkin. Ma'lum bir ma'noda portfel investitsiyasi pulni inflyatsiya va spekulyatsiya yo'li bilan foyda ko'rishdan saqlash vositasi sifatida qaraladi. Bunda investitsiya qilinayotgan soha ham, qimmatbaho qog'oz turi ham xech qanday ahamiyatga ega emas, u ustama ko'rs o'sishiga qarab istalgan foydani bersa va devidendlar to'lansa bo'ldi. 4-Jadvalda

Bevosita va portfel investitsiyalar o'rtasidagi farqlar¹³

Belgilar	Bevosita investitsiyalar	Portfel investitsiyalar
Kapital chiqarishdan asosiy maqsad	Xorijiy firma ustidan nazorat o'rnatish	YUqori foyda olish
Maqsadga erishish yo'llari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil etish va olib borish	Xorijiy qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish
Maqsadga erishish usullari	a) xorijiy firmaga to'liq egalik qilish b) aktsiyalar nazorat paketini sotib olish (XVJ nizomiga binoan kompaniya aktsioner kapitalining 25%dan kam bo'lmasligi kerak)	Xorijiy firma aktsioner kapitalining 25%dan (AqSH, YAponiya, Germaniyada 10%dan) kamini sotib olish
Daromad shakllari	Tadbirkorlik faoliyati foydasi, dividendlar	Dividendlar, foizlar

3. Xorijiy investitsiya eksporterlari va importerlari.

70-yillarda boshlangan va tobora kengayib borayotgan kapitallar bozorining baynalmilallashuv jaraeni bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar o'rtasidagi kapital oqimi hajmining ortib borishi bilan ajralib turadi. Xalqaro kapitallar oqimi - bu ishlab chiqarish omillaridan birining harakatidir. Bunda alohida tovar va xizmatlar boshqa mamlakatlardagi ishlab chiqarishning iqtisodiy afzalligi tufayli o'sha tomonga oqib o'tadi. Bu haqda bevosita va portfel investitsiyalar hajmining umumiy o'sishi, qisqa va uzoq muddatli kreditlar hajmining ortishi, evrovalyuta bozorlaridagi operatsiyalar miqyosining oshib borishi va boshqalar darak beradi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarda etakchi o'rinlardan birini egallar ekan, u o'z navbatida jahon xo'jaligi rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Bu ta'sir, avvalombor, kapitallar migratsiyasining jahon iqtisodiyotini o'sish sur'atlarida o'z aksini topadi. Kapital ishlab chiqarishning qulay investitsiya muhiti mavjud sohalarini izlab, chegaralarni kesib o'tadi. Xalqaro investitsiyalar ko'pchilik retsipient mamlakatlar uchun ishlab chiqarishdagi kapital etishmasligi muammosini hal etish, investitsiya salohiyatini oshirish va iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlatish imkonini beradi.

Kapitalning chetga chiqishi xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatlararo kapitallar harakati ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar va hamkorlikni

¹³ Akopova E.S., Voronkova O.N. i dr. Mirovaya ekonomika i mejdunarodno'e ekonomicheskie otnosheniya. Rostov-na-Donu: "Feniks", 2000.- S. 278 (416 s).

mustahkamlaydi, ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvini chuqurlashtiradi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi jahon savdosi rivojini rag'batlantirar ekan, u mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshiradi, jumladan, xalqaro korporatsiyalar filiallari o'rtasidagi oraliq mahsulotlar ayirboshlanishini tezlashtiradi. Moliyaviy bozorlarning o'zaro integratsiyalashuv va baynalminallashuv sharoitida kapitalning xalqaro takroriy ishlab chiqarilishi ta'minlanadi hamda xalqaro iqtisodiy aloqalar mexanizmining samaradorligi oshadi. Boshqa tomondan esa nazorat qilinmaydigan kapitallar oqimi mamlakat to'lov balansi muvozanatining buzilishiga va valyuta ko'rsining sezilarli darajada tebranishiga olib keladi.

Deyarli barcha mamlakatlar amalda investitsiyalarning ham eksporteri, ham importeri hisoblanishadi (chunki, BXIlar asosan TMK orqali amalga oshiriladi) yoki investitsiyalarni etkazib beruvchi (qaerda TMK bosh boshqaruv bo'limi joylashgan bo'lsa) hamda qabul qiluvchi (TMK o'z shahobchalari, bo'limlariga ega bo'lsa, ular BXIlar asosida harakat qilishadi) sifatida ishtirok etishadi. BXIlarni dunyo mamlakatlari o'rtasida taqsimlanishini xorijiy kapitalni jalb qiluvchi – importer va kapitalni chetga chiqaruvchi – eksporter mamlakatlarga bo'lib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. XX asrning 90-yillarida rivojlangan mamlakatlar BXIlarni asosiy eksportyorlari va importyorlari bo'ldilar. Ular hissasiga jami BXIning uchdan ikki qismi to'g'ri kelardi. 5.-jadvalda.

5-Jadval

BXIlarni dunyo bo'ylab taqsimlanishi (2001 y. % da)¹⁴

	Kapital jalb qilish	CHetga kapital chiqarish
Butun dunyo	100	100
Sanoati rivojlangan mamlakatlar	62,5	83,2
Rivojlanayotgan mamlakatlar	37,8	15,1
Markaziy va SHarqiy Evropa mamlakatlari	4,2	0,7

BXIning dunyo bo'yicha oqimiga salbiy omillarning ta'siri bo'lishiga qaramasdan, u yildan yilga o'sib borib 2001 yilda uni chetga chiqarish 649 mlrd.doll.ga teng bo'lib, jalb etish esa 644 mlrd.doll.ni tashkil etdi. BXIning dunyo bo'yicha oqimiga ta'sir etuvchi salbiy omillarga quyidagilar kiradi:

- Osiyo mamlakatlaridagi (YAponiyada ham) iqtisodiy tushkunlik;
- Osiyo, Rossiya va Lotin Amerikasi moliya bozorlarining beqarorligi;
- banklar tomonidan beriladigan kreditlar sonining qisqarishi;
- xalqaro savdoning qisqarishi;
- xom ashyo tovarlariga (ayniqsa neftga) bo'lgan narxlarning pasayishi;

¹⁴ Xasbulatov R.I. Mirovaya ekonomika: V 2-x t. T.I.-M.: "Izdatelstvo "Ekonomika", 2001. S.539 asosida tuzilgan

- xususiylashtirish ulushini pasayishi;
- ortiqcha ishlab chiqarish kuchlarini (ayniqsa avtomobilsozlikda) paydo bo'lishi.

Agar nisbatan yirik kapital eksporterlari va importerlarini ajratadigan bo'lsak, bir qarashda hammasi odatdagidek tuyulishi mumkin. Ular tarkibiga rivojlangan mamlakatlar kirib, ular har yilgi norasmiy yig'ilishlarida jahon iqtisodiyotiga muhim ta'sir ko'rsatuvchi qarorlari bilan ajralib turishadi. (6-jadval). Ammo bu ko'rinish unchalik to'g'ri emas, chunki importerlar orasida YAponiyaning ulushi juda ham past darajada. Bunga uning olib boradigan an'anaviy siyosati sababchidir. Importerlar sharoitida o'zining doimiy o'rniga hozir Xitoy, Ispaniya, Avstraliya, Gollandiya, Belgiya, Lyuksemburg kabi mamlakatlar ega bo'lishmoqda. Asosiy eksporterlar sifatida esa Gonkong (Xitoy) va Xitoy singari mamlakatlar chiqishmoqda 6-Jadvalda.

6-Jadval

BXIlarni mamlakatlar bo'ylab taqsimlanishi
(2002 y. mlrd.doll.)¹⁵

Davlatlar	Kap. Kiritish	Davlatlar	Kap. chiqarish
1. AqSH	100	1.AqSH	135
2. Buyuk Britaniya	42	2. Buyuk Britaniya	45
3. YAponiya	4,7*	3.YAponiya	28,5*
4. Xitoy	45**	4.Germaniya	45
		5. Gonkong va Xitoy	137,5

*-2003 yil ma'lumoti.

** -2002 yil ma'lumoti.

Umuman BXIlar tarkibida AqSH, Evropa Ittifoqi va YAponiyadan iborat "uchlik" ni ajratib ko'rsatish kifoyadir. Ularga jami xalqaro investitsiyalar hajmining 4/5 qismi to'g'ri keladi. Bu esa ularning tashqi savdo oboroti hajmidan ham salmoqliroqdir.

Bu mamlakatlar ichida AqSH dunyodagi eng yirik kapital importeri bo'lib qolmoqda. Bevosita investitsiyalarning ichki hududiy harakati hajmining o'sishi asosida Evropa Ittifoqida integratsiya jarayoni tezlashmoqda, uning hududi esa kapitalning yirik eksporteri sifatida rol o'ynay boshladi. YAponiyada ham kapital olib chiqish tendentsiyasi tezlashmoqda.

Osiyo mamlakatlari (YAponiyaning hisobga olmaganida) yaqin yillar ichida BXIlarni jalb qilish borasida /arbiy Evropani ortda qoldirib ketishi kutilmoqda.

Markaziy, SHarqiy Evropa va MDH mamlakatlarida BXI harakatining hajmi nisbatan kichik. 2000-2001 yillarda bu borada sezilarli o'sish yuz berdi (bevosita investitsiyalar hajmi 1998 yilga nisbatan ikki barobar, Vengriya va CHexiyada uch barobar oshgan). Bu jaraen xususiylashtirish va iqtisodiy jonlanish jarayoni bilan bog'liq bo'ldi. Bu guruhda BXIning eng katta ulushi quyidagi mamlakatlarga tegishli: Vengriya-15403 mln.doll., Polsha-8442 mln.doll., CHexiya-7473

¹⁵ Xasbulatov R.I. Mirovaya ekonomika: V 2-x t. T.I.-M.: "Izdatelstvo "Ekonomika", 2002. S.548-552 dagi ma'lumotlar asosida tuzilgan

mln.doll., Rossiya-9743 mln.doll., Ruminiya-2389 mln.doll., qozog'iston—4267 mln.doll.

MDH mamlakatlariga qo'yilayotgan investitsiyalar, asosan, Evropa Ittifoqi tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu mamlakatlarga jalb qilingan investitsiyalardagi AqSHning hisssasi 15%ni, YAponiyaniqli esa - 1%ni tashkil etmoqda. MDH mamlakatlarida ham investitsion jonlanish kuzatilmoqda.

4.Xalqaro kapitallar migratsiyasi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi bilan bog'liq oqibatlar mamlakatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirishga bevosita ta'sir o'tkazadi. Tabiiyki, ulardan kutiladigan salbiy va ijobiy oqibatlar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, shuningdek, o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar uchun turlichadir. Ammo har qanday sharoitda ham salbiy oqibatlarni chetlab o'tgan holda faqatgina ijobiy omillardan foydalanish mumkin emas. Xorijiy kapitalni jalb qilish bilan bog'liq o'ta murakkab va ziddiyatli jarayon bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatida bu borada yustuvor yo'nalishlarni belgilab olish lozim bo'ladi.

Hozirgi kunda kapitallarni jalb qilish va chetga chiqarish borasidagi salbiy oqibatlarga qaramasdan kapitalni chetga olib chiqish tendentsiyasi tobora kuchaymoqda. Chetga kapital olib chiqishni faollashtiruvchi omillardan biri milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi o'sib boraotgan o'zaro bog'liqlik hisoblanadi. Ishlab chiqarishning baynalminallashuvi kapitallar xalqaro migratsiyasiga katta ta'sir o'tkazadi va uning harakatini tezlashtiradi. Kapital eksporti ayniqsa, bevosita investitsiyalar shaklida chetga olib chiqilishi ishlab chiqarishning xalqaro tus olishiga va xalqaro mahsulot deb atalmish mahsulotlarning yaratilishida asosiy omil hisoblanadi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi jahon xo'jaligining rivojlanishida rag'batlantiruvchi omil sifatida yuzaga chiqishi bilan birgalikda xorijiy kapitalni jalb qiluvchi va eksport qiluvchi mamlakatlar uchun turli oqibatlarga olib keluvchi ta'sir o'tkazadi.

Kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlar uchun kapitallar migratsiyasi quyidagicha salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- chetga chiqarilayotgan kapital o'rnini qoplovchi xorijiy investitsiyalarni jalb qilmaslik chetga kapital chiqaruvchi mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin;
- kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlar uchun kapitalni chetga chiqarish ularda bandlik darajasining pasayishiga olib keladi;
- chetga kapital chiqarish mamlakat to'lov balansiga salbiy ta'sir qiladi.

Kapitalni qabul qiluvchi mamlakatlar uchun esa quyidagi ijobiy tomonlar xos:

- boshqariladigan kapital importi mamlakat iqtisodiy o'sishiga yordam beradi;
- jalb qilingan kapital qo'shimcha ish o'rinlarini yaratadi;
- xorijiy kapital yangi texnologiyalarni olib keladi, samarali menejment esa mamlakatda ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT)ni tezlashtiradi;

- kapitalning kirib kelishi retsipient mamlakat to'lov balansining yaxshilanishiga olib keladi.

O'z navbatida kapitalni jalb qilishning salbiy oqibatlari ham mavjud:

- xorijiy kapital milliy kapitalning o'rnini egallab, uni foyda normasi yuqori tarmoqlardan siqib chiqaradi. Natijada ma'lum sharoitlar ta'sirida mamlakat iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanishi va uning iqtisodiy holati havf ostida qolishi mumkin;
- kapital importi ko'pincha retsipient mamlakat bozorlarida o'z hayotiy tsiklini o'tab bo'lgan tovarlarni o'tkazish bilan bog'liq, shuningdek, ishlab chiqarishdan sifatsizligi aniqlanganligi bois olib tashlangan tovarlar bilan bog'liq bo'ladi;
- ssuda kapitali importi mamlakat tashqi qarzining ko'payishiga olib keladi;
- moliyaviy inqirozlar natijasida va fond bozorlaridan chayqovchilik kapitalining oqib ketishi mamlakat valyutasining barqarorligiga va umumiy moliyaviy-iqtisodiy holatga jiddiy zarar etkazadi. Misol uchun 1997 yilda Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlarida yuz bergan moliyaviy inqiroz va uning jahon iqtisodiyotiga ta'sirini keltirish mumkin;
- xalqaro korporatsiyalarning transfert napxlapdan foydalanishlari retsipient mamlakatning soliq tushumlari va bojxona yig'implari bo'yicha zarar ko'rishlariga sabab bo'ladi.

TMKlarning ko'plab filiallari orqali kapital qo'yish ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyalashuviga olib keladi. Turli mamlakatlarning mustaqil yuridik kompaniyalari bir xalqaro korporatsiya doirasida tarmoqli, texnologik, detalli ixtisoslashuv orqali yaqin aloqada bo'lishadi. Kapital eksporti esa bu aloqalarni mustahkamlaydi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy o'sishni ta'minlash, sanoatning etakchi tarmoqlarini rivojlantirish, bandlilikni oshirish uchun salmoqli hajmdagi xorijiy kapitalni jalb etish bilan bog'liq iqtisodiy siesatlari ham kapitallar migratsiyasini rag'batlantiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar esa investitsiya muhitini erkinlashtirish orqali xorijiy kapitalni jalb etish va bu orqali iqtisodiy rivojlanishga turtki berishga harakat qilishadi.

Kapitallarning xalqaro harakatini rag'batlantiruvchi omillardan yana biri xalqaro moliyaviy tashkilotlar faoliyati bo'lib, ular kapitallar oqimini tartibga solib turishadi.

Mamlakatlar o'rtasida tuzilgan daromadlar va kapitallarni ikki karra soliqqa tortishning oldini olish maqsadidagi xalqaro kelishuvlar o'z navbatida mamlakatlar o'rtasidagi savdo, ilmiy-texnik hamda investitsiyalarni jalb qilish borasidagi aloqalarni mustahkamlaydi.

90-yillarda BXIlarni davlatlar tomonidan boshqarish borasidagi magistral tendentsiyalar asosini erkinlashtirish jarayoni tashkil etadi. Amalda dunyodagi barcha mamlakatlar BXIlarni faol qo'llab-quvvatlashmoqda. Ularning erkin harakati uchun qulay muhit yaratishga intilmoqda, mavjud cheklanishlar bekor qilinmoqda, ekspropriatsiya qilinishdan saqlash holatlari kuchaytirilmoqda, amaldagi bozor raqobati uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Hozirgi sharoitda O'zbekiston kapitalni import qiluvchi mamlakat sifatida jahon maydoniga chiqmoqda. Bu borada bir qator milliy manfaatlar hisobga olinadi. Kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar hozircha etishmayotgan milliy resurslarni to'ldirishi, zamonaviy texnologiyalar, uskunalar, "nou xau"ni olib kirishi, xorijiy mutaxassislar, ekspert va konsultantlarni jalb qilish tufayli mahsulot sifati va ishchi kuchi malakasini oshirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, qo'shimcha ish joylari yaratadi, ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy kooperatsiya tufayli mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga yordam beradi.

Tayanch iboralar.

Xorijiy investitsiya. TMK. qarz va kredit. Iqtisodiy samara. Kapital importi Kapital eksporti. Ehtiyoj koeffitsienti. Transmilliy qo'yilma. Bankrotlik. Nota. Varrant. Moliyaviy derivatlar.

Nazorat savollari.

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Xorijiy investitsiyalarni shakllari va turmushi qanday?
3. Jahon kapital migratsiyasida TMK ni o'rni qanday?
4. Bevosita va portfeli xorijiy investitsiyalarni aytib bering?
5. Xorijiy investitsiya eksporterlari va importerlarini tushuntiring?
6. Ehtiyoj koeffitsientini aniqlang?
7. Kapital eksporti nima?
8. Kapitalning chetga chiqishi nimani anglatadi?

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Evsanko O.S. hpargalka po investitsii. Ucheb. Posobie. -M.: TK. Velbi, 2004 g.
2. Kotayubov V.YU. Investitsinno'y potentsial xozyaystvennoy deyatelnosti: Makro ekonomicheskoy i finansovo-kreditno'y aspekto'. Ucheb pos. -M.: MGIMO-Universitet. 2004 g.
3. TSarev V.V. otsenka ekonomecheskoy effektivnosti investitsiy.- SPb.: petr, 2004 g.
4. Siddiqov A. Sanoat ishlab chiqarishiga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari samaradorligi. "Bozor, pul va kredit" jurnali , 2004 №7-8 sonlar.
5. Lizing munosobatlari nazariyasi va amaliyoti. I.f.d., professor D./ozibekov umumiy tahriri ostida .-T.: Fan va texnalogiya, 2004 y.
6. Titov V.I. Analiz i diagnostika finansovo- xozyaystvennoy deyatelnost predpriyatiya: uchebnik. M.: Dashkov i K, 2005 g.
7. Kojuxar V.M. Praktikum otsenka investitsiy: Ucheb posobie. -M.: Izd. Torgovaya koorparatsiya. Dashka. 2005 g.
8. [Investitsiya](http://www.nalogi.studentu.ru/index.phtml?uid) <http://www.nalogi.studentu.ru/index.phtml?uid>

9. Investitsiya. <http://cultinfo.ru/fulltext/1/001/008/002/555.htm>
10. Investitsiya http://fem.grsu.by/Kafedry/KD/academic_process
11. Investitsionnie klimit <http://www.buh.ru/documents.jsp?ParentID>
12. Investirovanie http://skbkontur.ru/buhinfo/txt/kn_t1c.html
13. Investitsionnie klimit <http://lexaudit.ru/stat57.html>
14. Investitsionnie klimit. <http://www.ckat.ru/normdoc/pbu13/pbu13g2.htm>
15. Investirovaniya... <http://db.socionet.nw.ru/RuPEc/xml/rus/book-gp0675...>
16. Investirovaniya... <http://zakon.kuban.ru/doc/107n.shtml>
17. www.uz – perva'y sayt Uzbekistana - resurso' Uzbekistana
18. www.gov.uz – ofitsialno'y pravitelstvenno'y sayt Respubliki Uzbekistan
19. www.stat.uz/index.htm – sayt Gosudarstvennogo komiteta RU po statistike
20. www.mf.uz sayt Ministerstvo finansov Respubliki Uzbekistan.

8-Mavzu. Iqtisodiy tizimda kapital qo'yimalarning mohiyati va moliyaviy manbalari.

Reja

1. **Kapital qo'yimalarning mohiyati.**
2. **Kapital qo'yimlar va ularning texnologik tarkibi.**
3. **Kapital qo'yimlarni samaradorligini oshirish.**
4. **Kapital qo'yimalarning moliyaviy manbalari.**

1. Kapital qo'yimalarning mohiyati.

Kapital qo'yimlar-ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida yangi qayta qurilgan, hamda kengaytirilgan joriy asosiy jamg'armalar tashkil qilishga mo'ljallangan moliyaviy mablag'lar.

Mablag'lar muntazam tayyorlov bosqichidan qurilish ishlab chiqarish bosqichiga aylanadi, shundan so'ng mahsulotni sotish bosqichiga o'tiladi, bunda ular jamg'arma bo'lib o'zgaradi.

Kapital qo'yimlar quyidagi xarajatlarga yo'naltiriladi:

- qurilish-montaj ishlariga;
- turli jihozlarni va asboblarni sotib olishga;
- boshqa har qanday xarajatlar - loyiha qidiruv ishlari, qurilish maydonini tayyorlash kabilar.

YUqorida qayd qilingan uch elementning o'zaro nisbati kapital qo'yimalarning tuzilishini tashkil qiladi. U tarmoq texnologik va takror ishlab chiqarish tuzilishi bilan ta'riflanadi. Kapital qo'yimlar xalq xo'jaligi sohalarida buyurtmachilarga ularning mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji, rivojlanish va haqiqiy ishlab chiqarish kuchlariga qarab taqsimlanadi. Bu esa soha tuzilishini tashkil qiladi. Kapital qo'yimalarning texnologik tarkibi qurilish montaj ishlarining, jihozlarning, asbob-uskunaning, shuningdek jamg'armaning mulkiy hajmi hisobidagi turlicha xarajatlarning ratsional hajmini aniqlashga qaratilgan. Kapital qo'yimalarning texnologik tuzilishini qurilish-montaj ishlariga sarflayotgan xarajatlar miqdorini kamaytirish yo'li bilan amaldagi asosiy jamg'armalardan ham to'liq foydalanish imkonini beradi. Amaldagi korxonalarning quvvatlarini qo'llab-quvvatlashda, ularni texnik qayta qurollantirishda, kengaytirish va qayta qurishda,

shuningdek yangi korxonalarni qurishda kapital qo'yilmalarining takror ishlab chiqarish tuzilishini aks ettiradi.

Kapital qo'yilmalar tarmoq, texnologik va takror ishlab chiqarish tarkiblari bilan ta'riflanadi. Kapital qo'yilmalarning tarmoq tarkibi-bu xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha kapital qo'yilmalarni miqdoriy nisbatini aks ettiradi.

Kapital qo'yilmalarning texnologik tarkibi – bu mashina va asbob-uskunalarni sotib olishga va qurilish montaj ishlarini amalga oshiriga ketadigan xarajatlar orasidagi nisbatni aks ettiradi. Asosiy fondlarni aktiv qismini (mashina va asbob-uskunalar)ni takror ishlab chiqarishni kapital qo'yilmalardagi ulushini oshirish yo'li bilan ularni texnologik tarkibini takomillashtirish sarflar samaradorligini oshirishni muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Kapital qo'yilmalarni takror ishlab chiqarish tarkibi ularni bir tomondan yangi qurilishlarga, ikkinchi tomondan mavjud korxonalarni qayta qurish va texnik qayta qurollantirishni va kengaytirishga saflanadigan mablag'lar miqdori o'rtasidagi nisbatni aks ettiradi.

Mulkchilik shakllari o'zgarib, rivojlanib borayotgan sharoitda kichik, o'rta biznes va xususiy tadbirkorlik (KO'B va XT)ni rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik muhim vazifadir. Jahon tajribasi shuni tasdiqlaydiki, KO'B va XT ichki bozorni istemol tovarlari va xizmatlar bilan mo'l-ko'l ta'minlaydi, eksport imkoniyatini oshiradi, ish bilan ta'minlash muommosini hal etadi, aholining real daromadlari darajasini oshiradi. Iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida KO'B investitsiyalarni kam talab qilishi, epchilligi va moslashuvchanligi o'zgartirib turishni ta'minlaydi.

Tadbirkorlik tuzilmalarining kredit resurslaridan, investitsiyalarni moliyalashtirishning noan'anaviy usullaridan, ayniqsa xalqaro moliya institutlari ishtiroki bilan moliyalashtirish usullaridan, lizing operatsiyalaridan bimalol foydalanishlarini ta'minlash va shu yo'l bilan ularni xorijiy texnika va texnologiya bilan qurollantirish ustuvor vazifadir. KO'B va XTni rivojlantirish orqali raqobat muhiti vujudga keltiriladi, soliqqa tortish bazasi kengaytiriladi, aholinig ish bilan bandligi oshiriladi, bozorlar tovar va xizmatlar bilan mo'l-ko'l ta'minlanadi.

2. Kapital qo'yilmalar va ularning texnologik tarkibi.

Kapital qo'yilmalarning samaradorligiga ularni texnologik tarkibi, ya'ni qo'yilmalarni umumiy yig'indisida sarflarni alohida turlari – uskunalar, asboblari va ishlab chiqarishda ishlatiladigan buyumlar; qurilish ishlari; loyiha va boshqa ishlarga saflarni nisbati katta ta'sir ko'rsatadi.

Kapital qo'yilmalarning tarkibida uskunalarning ulushini, hamda ishlab chiqarish ishtirokchilarini – asosiy fondlarni faol qismini qurilish ishlariga nisbatan ko'payishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotni birligiga kapital qo'yilmalarni pasayishiga olib keladi va ularni iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Kapital qo'yilmalarning tarkibini yangilashga: sanoatning texnik darajasini oshishi, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning o'sishi, uskunalar takomillashtirishga, ishlayotgan korxonalarni kengaytirish va qayta

qurishga, ularning kooperatsiyalashuvi va guruhlarga birlashtirish va hokazolarga sharoit yaratadi.

Kapital qo'yimalarni tarkibini yaxshilashda rejalashtirishni yaxshilashga va qurilish ishlarining qiymatini pasaytirishga qaratilgan tarbirlar katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Mamlakat iqtisodiyotida kapital qo'yimlar muttasil oshib boradi.

Ayniqsa butun xalq xo'jalagi tarmoklarida texnik taraqqiyotni ta'minlashga ko'maklashuvchi: kimyo sanoati, elektroenergiya, mashinasozlik, neft va gaz sanoati, qurilish materiallari sanoati kabi tarmoqlarga kapital qo'yimlar tez sur'atlar bilan o'smoqda.

Yangi texnikani joriy qilish asosida ishlayotgan korxonalarni qayta qurish qisqa muddatlarda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga va yangi korxonalarni qurishga qaraganda kamroq kapital saraflashga imkon yaratadi.

Hozirgi vaqtda korxonalarni qayta qurish, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishga katta miqdorda kapital qo'yimlari yo'naltirilmoqda. Ishlab turgan korxonalarga kapital qo'yimlarni sarflanishi texnik taraqqiyotning jadallashib borishi va ishlab turgan texnikaning eskirib borishiga bog'liqdir.

Agarda mamlakatni yangi tabiiy boyliklar konlarini ochilishi bilan bog'liq bo'lgan mintaqalarda kapital qo'yimlarni yangi korxonalarni qurishga va yangi quvvatlarni barpo qilishga sarflanishi to'g'ri bo'lsa, boshqa mintaqalarda, ayniqsa qayta ishlash sanoatidagi, ishlayotgan korxonalarni qayta qurish, texnik qayta qurollantirish to'g'ri bo'ladi.

Hozirgi sharoitda ilgari qurilgan ko'pgina korxonalarda eskirgan uskunalarni modernizatsiyalash zarurati yuzaga kelgan. Bu ishlab chiqarishning intensivlashga va texnikani hozirgi zamon talablariga javob berishiga va mehnat unumdorligini oshirishga olib keladi. qator mintaqalarda qayta qurish ushbu mintaqalarning iqtisodiyotini ko'p qirrali rivojlantirish, korxonalarni zarur buyumlar bilan ta'minlanishi uchun ham zarurdir.

Ammo ishlayotgan korxonani qayta qurish har bir holatda chuqur iqtisodiy asoslarni talab qiladi.

Tajribani ko'rsatishicha ayrim korxonalarda dastlabki iqtisodiy hisob-kitoblarni qilinmaganligi natijasida qayta qurish bo'yicha samarasiz ishlarni amalga oshirildiki, oqibatida qayta qurishga ketgan sarflardan ham oshib ketdi.

Hozirgi paytda kapital qo'yimlar samaradorligini oshirish birinchi navbatda korxonalarni texnik qayta qurollantirish, mexanizatsiya va avtomatizatsiya, uni ixtisoslashtirish, texnologiyani yaxshilash va tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi va bank kreditlari hisobiga korxonalarni texnik qurollantirish ko'payib boradi.

Kapital qo'yimlar dastavval boshlangan qurilishlarni tugatish va ishga tushirish lozim bo'lgan ob'ektlarga yo'naltiriladi; shuning asosida ishlab chiqarish quvvatlarini va asosiy fondlarni ishga tushirishga erishiladi.

3. Kapital qo'yimlarni samaradorligini oshirish.

Kapital qo'yimalarni samaradorligini oshirish vazifasini bajarish uchun har bir sarflangan so'm uchun mahsulot ishlab chiqarishni o'sishini oshirishga erishish va uning keng miqyosda tashkiliy-texnik tadbirlarni amalga oshirish lozim: ularga

1. alohida tarmoqlarga va korxonalarga kapital qo'yimalarni yo'nalishini iqtisodiy asoslash;
2. o'zining texnik darajasi bo'yicha vatan va chet el fani va texnikasini yangi yutuqlariga javob beradigan va mehnat unumdorligini o'sishini, mahsulot tannarxini pasaytirishni va ishlab chiqarishni foydaliligini o'stirishni ta'minlaydigan qurilishlarni va loyihalarni sifatini oshirish;
3. qurilishlarni va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishni tezlashtirish, loyiha-smeta hujjatlari va moddiy-texnik resurslar va ishlab chiqarishni tashkil qilishni ta'minlash.

Korxonalarda kapital qo'yimalarni rejalashtirish uning iqtisodiy rivojlanish rejasining ajralmas qismi bo'lib, korxonaning ishlab chiqarishini va uni ishlab chiqarish salohiyatini takomillashtirish asosi bo'lib xizmat qiladi.

Rejalashtirish kapital qurilishni uzluksizligini ta'minlaydi va ularni amalga oshirishni o'z vaqtida tayyorlashga imkon yaratadi.

Kapital mablag'lardan foydalanishda tarkibiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Buni barcha kapital qo'yimlarining ikki muhim soha bo'yicha taqsimlanishida kuzatish mumkin. YA'ni sarflanayotgan kapital qo'yimlarining 56% ishlab chiqarish ob'ektlariga va 44% noishlab chiqarish yohud xizmat ko'rsatish tarmoqlariga sarflanmoqda. Agrosanoat, oziq-ovqat majmualaridan tashqari moddiy ishlab chiqarish sohalariga kapital mablag'larni yo'naltirish sur'atlari birmuncha pasayib, uning yo'nalishi yanada ijtimoiy tus olmoqda.

Barcha kapital qo'yimlarning asosiy qismi- 60% dan ziyodrog'i qurilish-montaj ishlariga sarf bo'lmoqda. Uning qariyb chorak qismi, ya'ni 24% asbob-uskunalar va jihozlarga, mavjud inventarlarni ta'mirlashga va qolgan 15% boshqa turli xil jarayonlarga ketmoqda.

Ishlab chiqarish ob'ektlari bo'yicha davlat kapital mablag'lari sarfining takror ishlab chiqarish tuzilishini olib qaraydigan bo'lsak, shu narsa ayon bo'ldiki, bu maqsadga yo'naltirilayotgan barcha kapital qo'yimlarining yarmidan ko'prog'i ishlab turgan korxonalarni texnik jihatdan qayta qurollantirish va ularni rekonstruktsiya qilishga ketmoqda.

Kapital qo'yimalarni to'g'ri rejalashtirish uchun va qurilish ishlab chiqarishini to'g'ri tashkil qilish uchun mahalliy tashabbusni kengaytirish lozim. Rejalashtirish kapital qurilish muntazamligini ta'minlashi va qurilishlarni o'z vaqtida tugatilishiga sharoit yaratishi lozim. qurilish nisbatan ishlab chiqarish tsiklini qayta muddat talab qilishligi bilan ajralib turadi, shuning uchun ham tayyorgarlik davri uzoq vaqttni o'z ichiga oladi.

Kapital mablag'larni o'zlashtirish bo'yicha rejalarini yo'qligi qurilish va rekonstruktsiya qilish ishlarini qimmatlashtiradi. SHuning uchun kapital qo'yimlari joriy rejalashtirishni va qurilish-montaj ishlarini asosi bo'lgan istiqbol rejalarini ishlash muhim hisoblanadi. Istiqbol rejalaridan kelib chiqib ishlarni yillar bo'yicha, yangi talablar asosida taqsimlash uchun aniqlashtirilgan rejalar va dasturlar ishlanadi.

Kapital qo'yilmalar bo'yicha reja topshiriqlari muayyan tarmoqlar, iqtisodiy mintaqalar va korxonalar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishlarida mo'ljallangan o'sishni ta'minlovchi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini o'z vaqtida ishga tushirishni ta'minlaydi.

SHuning uchun ham sanoatdagi kapital qo'yilmalar rejasi sanoat ishlab chiqarishining ishlab chiqarish dasturi bilan bog'liq ravishda tuziladi. SHu bilan birga kapital qo'yilmalar rejasi boshqa rejalar bilan muvofiqlashtirib tuziladi, bu esa o'z navbatida kapital qurilishlarni o'z vaqtida moddiy va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash imkoniyatini beradi.

Kapital qo'yilmalarni tarmoqlar bo'yicha taqsimlash yoki sanoatda kapital qo'yilmalarini tarmoqlararo tarkibi o'sha davrning xo'jalik-siyosiy vazifalari bilan belgilanadi. Sanoatni ayrim tarmoqlariga kapital qo'yilmalarni rejali miqdorini to'g'ri belgilash uchun ishlab chiqarish quvvatlarini rejali muvozanatlari tuziladi. SHu bilan bog'liq kapital qo'yilmalarni tarmoqlar bo'yicha taqsimlash ishlab chiqarish va kapital qurilishning rejalarini muvozanatli bog'lash asosida, hamda o'zaro bog'liq tarmoqlarni muvozanatlash orqali aniqlashtiriladi.

Sanoatni alohida tarmoqlariga kapital qo'yilmalarini rejali miqdorini to'g'ri belgilash uchun, ishlab chiqarish quvvatlarini rejali muvozanatlari ishlanadi. Ushbu muvozanatlarda reja davri boshiga mavjud ishlab chiqarish quvvatlari aniqlanadi, hamda mo'ljallangan miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan quvvatlar aniqlanadi. CHuqur tahlillardan so'ng mavjud quvvatlardan ishlab chiqarish miqdorini ko'paytirish va qayta qurish yoki yangi korxonalarni qurish yo'li bilan ishlab chiqarish quvvatlarini qo'shimcha o'stirish zarurati belgilanadi.

4. Kapital qo'yilmalarning moliyaviy manbalari.

Asosiy fondlarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda yalpi milliy mahsulot va tarkibiy qismlarini qoplash fondi va milliy daromad, iste'mol fondi va jamg'arish fondi orasidagi aloqa va nisbatlarda o'z ifodasini topadi. Kapital qo'yilmalarning bosh manba'i–bir vaqtning o'zida takror ishlab chiqarish jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalanish natijasi va ishlab chiqarish asosi sifatida ishtirok etuvchi milliy daromad hisoblanadi. Asosiy fondlarni qo'llash jarayonida, iqtisodiy doiraga tabiiy va mehnat resurslarini kiritish bilan yaratilgan yalpi milliy mahsulotda alohida sarflar asosiy fondlarni qoplash va jamg'arishga qilinadi va ma'lum resurslar jamiyatning joriy ehtiyojlarini qondirishga sarflanadi.

Milliy daromad jamiyatning joriy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan iste'mol fondlaridan va asosiy fondlarni shakllantirishga ketadigan jamg'arma fondlaridan tashkil buladi. Hozirgi vaqtda davlat kapital qo'yilmalarining kattagina kismi jamg'arma fondidan, qolgan qismi asosiy fondlarni oddiy takror ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan amortizatsiya ajratmalaridan tashkil topadigan qoplama fondlar hisobidan amalga oshiriladi.

Kapital qo'yilmalarga bo'lgan ehtiyoj maxsus mablag'lar va turli fondlarga ajratmalarni hisobiga shakllantiriladigan korxona va tashkilotlarni markazlashmagan mablag'larini hisobidan ham qoplanadi.

YAngicha xo'jalik yuritish sharoitlarida ham asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishda markazlashmagan qo'yimalarning roli ham sezilarli darajada oshdi.

YAngi texnikani joriy qilishga, uskunalarni yangilashga, xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarishni kengaytirish va tashkil qilishga sarflanadigan ishlab chiqarishni rivojlantirish fondlari va bank kreditlari markazlashmagan mablag'larni barpo qilishni bosh manba'i hisoblanadi.

Ko'mir va gaz qazib chiqarish hisobiga yoqilg'i sanoati tarmoqlarida ilg'or o'zgarishlar ro'y berdi.

qurilish tashkilotlari shahobchalarini kengayishi va qurilish ishlab chiqarishni industrlashtirish darajasini oshishi katta miqdorda kapital qo'yimalarini o'zlashtirilishiga imkoniyat yaratdi. Davlat tomonidan yirik mablag'lar qishloq xo'jaligiga, birinchi navbatda paxtachilikka va uning asosi bo'lmish sug'orma dexqonchilikka ajratildi.

SHu bilan bog'liq qo'riq erlarning yangi massivlari o'zlashtirildi. Transport vositalarini o'sishi va takomillashishi ta'minlandi, avtomobil va temir yo'llarining keng shoxobchalari barpo etildi, aloqa korxonalari, sog'liqni saqlash, maorif muassasalari, kommunal xo'jalik-maishiy xizmat korxonalari qurildi.

Sanoat tarmoqlari bo'yicha kapital qo'yimalarni miqdorini to'g'ri belgilash uchun ishlab chiqarish quvvatlarini rejali balanslari ishlandi. Ushbu balanslarda reja davri boshida ishlab chiqarishni mavjud quvvatlari hamda mo'ljallanayotgan miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur quvvatlar belgilanadi. Mavjud quvvatlarda ishlab chiqarish quvvatlarini ko'paytirish hamma rezervlarni hisobga olgan holda chuqur tahlil qilingandan keyin ishlab turgan korxonalarni qayta qurish yoki yangilarini qurish yo'li bilan ishlab chiqarish quvvatlarini qo'shimcha o'stirish zaruriyati belgilanadi.

Tarmoq bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini balansi quyidagicha belgilanishi mumkin: bo'lajak yilda mo'ljallanayotgan miqdor mahsulot Mni ishlab chiqarish uchun qni Mx.Fk ni teng bo'lgan ishlab chiqarish quvvati talab qilinadi, unda Fk-ishlab turgan quvvatlarni foydalanish koeffitsienti, ularni yangi quvvatlarini kiritish muddatlari, hamda rejalashtirilayotgan yilda harakatdagi quvvatlarni ro'yxatdan chiqarilishiga muvofiq kelishi kerak. O'rtacha yillik quvvatni miqyosi qo'yidagi miqdorlardan tuziladi:

- ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash texnologik jarayonlarni yaxshilash, uskunalarni o'zgartirish va boshqa tashkiliy texnik tadbirlarni hisobiga o'rtacha yillik quvvatlarni o'sishi:

- ishlab turgan korxonalarga qayta qurish hisobiga quvvatlarni o'rtacha yillik o'sishi;

yangi qurilish hisobiga quvvatlarni o'rtacha yillik o'sishi:

- jismoniy va ma'naviy eskirish bilan bog'liq quvvatlarni o'rtacha yillik ro'yxatdan chiqishi

quvvatalarni o'rtacha yillik o'sishi miqdori dastavval yil davomida yangi quvvatlarni kiritilishiga bog'liq.

Yil oxiriga tarmoq ega bo'ladigan ishlab chiqarish quvvati ishga tushirilayotgan quvvatdan ko'p bo'lishi lozim. Ishlab chiqarish quvvatlarining rejali balansi kelajak yilga yangi quvvatlarni to'g'ri asoslashga imkoniyat yaratadi.

Uzoq davrni o'z ichiga oladigan istiqbolli rejada sanoatda kapital qo'yilmalar tiplari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishining mo'ljalalanayotgan o'sishiga bog'liq holda belgilanishi mumkin.

Kapital qo'yilmalarning tarmoqlararo balanslarda, shu jumladan kapital qo'yilmalarning tarmoqlararo balans tenglamalariga kiritish usuli masalalarini aks ettirishni ilmiy asoslari etarli darajada o'rganilmagan. SHu nuqtai-nazardan ularni bozor iqtisodiyoti sharoitida yangicha xo'jalik yuritish tamoyillariga mos holda amalga oshirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Tayanch iboralar.

Kapital qo'yilma. Iqtisodiy tizim. Tarmoq tarkibi. Texnologik tarkib. Moliyaviy manba. Markazlashgan va markazlashmagan manbalar.

Nazorat savollari.

1. Kapital qo'yilmalar qanday mablag'lar?
2. Kapital qo'yilmalarni maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Kapital qo'yilmalarni moliyaviy manbalarini nimalar tashkil qiladi?
4. Kapital qo'yilmalarning moliyaviy manbalarini ayting.
5. Kapital qo'yimlarga bo'lgan ehtiyoj tushunchasini ayting.
6. Kapital qo'yilmalarning texnologik tarkibi nimani anglatadi?

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Vlinskiy P.L., Levshets V.N., Smolyak S.A. Otsenka effektivnosti investitsionno'x proektov: Teoriya i praktika: Ucheb. Posob.-3-e izd. Ispr. i dop. - M.: Delo 2004 g.
2. Kotayubov V.YU. Investitsionno'y potentsial xozyaystvennoy deyatelnosti: Makro ekonomicheskoy i finansovo-kreditno'y aspekto'. Ucheb pos. -M.: MGIMO-Universitet. 2004 g.
3. TSarev V.V. otsenka ekanomecheskoy effektivnosti investitsiy.- SPb.: petr, 2004 g.
4. Siddiqov A. Sanoat ishlab chiqarishiga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lar samaradorligi. "Bozor, pul va kredit" jurnali, 2004 №7-8 sonlar.
5. Lizing munosobatlari nazariyasi va amaliyoti. I.f.d., professor D./ozibekov umumiy tahriri ostida.-T.: Fan va texnologiya, 2004 y.
6. Titov V.I. Analiz i diagnostika finansovo- xozyaystvennoy deyatelnost predpriyatiya: uchebnik. M.: Dashkov i K, 2005 g.
7. Kojuxar V.M. Praktikum otsenka investitsiy: Ucheb posobie. -M.: Izd. Torgovaya korporatsiya. Dashka. 2005 g.
8. www.uz – pervo'y sayt Uzbekistana - resurso' Uzbekistana
9. www.gov.uz – ofitsialno'y pravitelstvenno'y sayt Respubliki Uzbekistan
10. www.stat.uz/index.htm – sayt Gosudarstvennogo komiteta RU po statistike
11. www.mf.uz sayt Ministerstvo finansov Respubliki Uzbekistan.

9-Mavzu. Kapital qo'yilmalarni uzoq muddatga kreditlash.

Reja

1. **Kapital qo'yimalarni amalga oshirishda kreditlarni roli.**
2. **Kapital qo'yimalarni amalga oshirishda tijorat kreditlaridan foydalanish.**
3. **Kapital qo'yimalarni iqtisodiy samaradorligini baholash.**
4. **Kapital qo'yimalarni kreditlash.**

1. Kapital qo'yimalarni amalga oshirishda kreditlarni roli.

Kredit - bu foizi bilan qaytarib berish sharti asosida vaqtincha pul va moddiy vositalarni foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Mablag''larni qarzga bergan huquqiy yoki jismoniy shaxslar kreditchi, uni olganlar esa zayomchi deb ataladi. Hozirgi sharoitlarda belgilanadigan kreditlar asosan pul shaklida bo'ladi. Kreditlarni ob'ektiv asosi bo'lib korxonalarni aylanma fondlarida mablag''larni vaqtincha bo'shashi xizmat qiladi. Korxonalarni jamg'arilgan amortizatsiya ajratmalari, ishlab chiqarishni rivojlantirish, fan va texnika fondlari kapital qo'yimalarga ehtiyoj paydo bo'lishi bilan sarflanadi.

Iste'mol qilingan xom ashyo, ashyolar, yoqilg'ilar qiymatini aks ettiruvchi mahsulotlarni sotishdan tushgan tushum birdaniga moddiy zahiralarini, to'lashga yo'naltirilmaydi. Ma'lum vaqt mobaynida ish haqiga foydalanadigan mablag''lar ham bo'sh bo'lib qolishi mumkin. Korxonalardan, tashkilotlardan davlat byudjetiga tushadigan mablag''lar ma'lum vaqt moboynda biron bir xarajatlarni moliyalashga yo'naltirilmaydi. Bo'shagan mablag''lar korxonaga beriladi va ular ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirish uchun foydalanniladi. Korxonalar, tashkilotlar, tarmoqlar va mintaqalar orasida keyinchalik qaytarish sharti asosida pul mablag''larini taqsimlanishi kreditlarni bosh vazifasini tashkil qiladi. Uzoq muddatli kredit moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari kapital qo'yimalarning manbalaridan biridir.

Kreditlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga va uni samaradorligini oshirishga ta'sir ko'rsatadi. Bank idoralari oldiga kreditlar berishda davlat va tadbirkor korxonalar manfaatlarini muvofiqlashtirish vazifalari qo'yilgan. Hozirgi sharoitda kreditlar zayomlar, obligatsiyalar orqali amalga oshiriladi.

Kichik biznesning ishbilarmonlik tarkiblarini kredit bilan ta'minlash-bu ularga moliyaviy pul yoki tovar shaklidagi vositalarni ma'lum muddatga xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun berishdir. Kredit bilan ta'minlashni quyidagi turlari mavjud:

*Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga pul ssudalarini yoki tavarni kapital o'rnida to'g'ridan - to'g'ri berish shakli.

*Hisob - kitob turlaridan biri sifatida kredit bilan ta'minlash, ya'ni to'lov muhlati uzaytirilganligi hisobi bilan.

Bu erda "Kredit" tushunchasi keng ma'noga ega. Birinchidan: Kredit to'lash va foiz to'lash sharti bilan ssuda ko'rinishida pul yoki tovar shaklida bo'lishi mumkin. Yuridik yoki jismoniy shaxslar qarzga vosita beruvchilar - kreditorlar, oluvchilar - zayomchilar deb ataladi. Kreditning asosiy vazifasi pul vositalarni qaytarib berish sharti bilan korxonalar, tashkilotlar, tarmoqlar va noxiyalar orasida taqsimlash va vaqtincha bo'sh pul mablag''larini samarali

ishlatishdan iboratdir. Kreditni boshqa vazifasi bu haqiqiy pullarni kredit pullariga (bankotlar) va kredit operatsiyalariga (naqd pulsiz hisob - kitobga) almashtirishdan iborat.

Ikkinchidan: Kredit o'zini ssuda kapital shaklida namoyon etadi. Pul yoki tovar shaklidagi ssudda qaytarilishi va to'lov sharti bilan kreditor va zayomchi orasidagi iqtisodiy munosabatni aks ettiradi. Kichik biznes bilan ta'minlash keng shakllarda tassavvur etiladi bu erda quyidagi kreditlar ishlatiladi: tijorat, bank, davlat, iste'molchi, xalqaro. Ularning hammasi kredit berilish muddatiga qarab qisqa muddatli (bir yilcha), o'rta muddatli (bir yildan uch yilgacha) va uzoq muddatli (uch yildan ortiq) bo'lishi mumkin.

2000 yil boshlarida O'zbekistonda 8,9 mingta o'rta, 23,2 mingta kichik va 127,6 mingta mikrofirmalar ro'yxatga olingan edi. 2000 yilda ularning soni 13 foiz ko'paydi.¹ 2001 yil 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan o'rta, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 183,0 mingtaga etdi, 143,3 mingta o'rta, kichik korxona va mikrofirmalar, shu jumladan 6,4 mingta o'rta, 20,4 mingta kichik korxona va 122,5 mingta mikrofirmalar faoliyat ko'rsatdi. KO'Bni rivojlantirish hisobiga 2000 yilda 193 mingta yangi ish o'rni tashkil qilindi, bu raqam 1999 yilga nisbatan 1,5 baravar ko'p.² 2000 yilda KO'B tuzilmalari mamlakat yalpi ichki mahsulotning 31 foizi miqdorida mahsulot ishlab chiqardi, ish bajardi va xizmat ko'rsatdi. KO'B ning sanoat mahsulot hajmidagi ulushi 11,3 foizga, qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmidagi ulushi 72,4 foizga, qurilish ishlaridagi ulushi 37,0 foizga etdi. 2000 yilda KO'B korxonalarining tashqi savdo aylanmasi tashqi savdo umumiy hajmining 11,7 foizini shu jumladan eksport 5,3 foizini, import 18,7 foizini tashkil etdi.

Keyingi yillarda xorijiy texnologiya, asbob-texnikalar va boshqalarni jalb etish hisobiga hozircha mazkur tuzilmalar eksportni importdan oshirishga erishganlari yo'q. KO'B korxonalarining importi ularning eksportidan bir necha baravar ko'pdir, buni keyingi yillardagi ma'lumotlardan ko'rish mumkin (7-jadvalga qarang).

KO'B sub'ektlarining moddiy-texnika, moliya va kredit resurslaridan bimalol foydalanishini ta'minlash vazifasi naqadar muhimligini ana shu ma'lumotlardan bilib olish mumkin. Ularning sanoatdagi, banklar, xalqaro moliya institutlarining kredit portfelli tuzilmasida, lizing operatsiyalaridagi ulushini oshirishga erishish lozim. 7-Jadvalda.

O'zbekiston kichik va o'rta biznes korxonalarning tashqi savdo aylanmasi. (mln. AqSH dollari)

№ 7 jadval

EKSPORT			IMPORT		
2002	2003	2004	2002	2003	2004

¹ 1 qarang ; O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning 2000 yilda mamlakat ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish yakunlari hamda 2001 yilda iqtisodietni erkinlashtirish va isloxlarni chukurlashtirishning ustuvor yunalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasi "Xalk so'zi" gazetasi, 2001 yil 17 fevral, 1-bet.

² 2 karang ; O'zbekiston prezidenti I. Karimovning 2000 yilda mamlakat ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish yakunlari hamda 2001 yilda iqtisodietni erkinlashtirish va isloxlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasi, "Xalq so'zi" gazetasi, 2001 yil 17 fevral, 1-bet.

Jami:	951,5	172,6	160,1	1104,9	551,9	778,2
SHu jumladan:						
Kichik korxonalar	118,8	61,6	51,7	539,6	183,2	172,5
Mikro firmalar	73,7	61,6	53,7	212,5	168,0	296,7

Jadval: Mikro iqtisodiyot va statistika vazirligining ma'lumoti asosida tuzildi.

KO'B korxonalari mehnatga layoqatli barcha aholining 70-80 foizini ish bilan ta'minlash imkoniyatiga ega. YAponiyada ish bilan band aholining 80 foizi, EI mamlakatlarida 70 foizidan ko'prog'i iqtisodiyotning shu sektorida faoliyat yuritadi. EI mamlakatlarida KO'B ning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 67 foizdan oshadi. KO'B korxonalarini rivojlantirish istiqbollari qanday bo'lishi mumkinligi ravshan ko'rinib turibdi.

2. Kapital qo'yilmalarni amalga oshirishda tijorat kreditlaridan foydalanish.

Tijorat krediti - tovar shaklida (beriluvchi) sotuvchilar tomonidan xaridorlarga beriluvchi kredit bo'lib sotilgan tovarni qiymatini orqoroq surishdan iboratdir. Natijada hisob - kitoblar veksel' yoki ochiq hisob bilan amalga oshiriladi. Birinchi holatda xaridor tovar hujjatlarini olgandan so'ng o'tkazilish sotuvchi tomonidan quyilgan vekselni (trattani) talaffuz etadi yoki oddiy veksel' rasmiylashtiradi. Ikkinchi holatda sotuvchi xaridorning qarz majburiyatlarini olmaydi va qarz bo'yicha hisob ochadi. qarzni uzish davriy to'lovlar sifatida qisqa muddatlarda (1 - 2 oy) amalga oshiriladi.

Tijorat kreditiga bo'lgan zaruriyat kapitalni ishlatish va muomila vaqtini bir - biriga to'g'ri kelmasligi natijasida kelib chiqadi. Bu erda tovarni kreditga sotish ishlab chiqarish jarayoning uzliksizligiga yordamlashadi, kapitalni aylanishini tezlashishini va foydani ko'payishini ta'minlaydi. Ushbu shaklda kredit odatda qisqa muddatli bo'ladi.

Bank krediti ishbilarmon va korxonalarga pul ssudasi ko'rinishda beriladi.

Bank ssudasi - bu korxona, tashkilotlarning alohida fuqarolarning vaqtincha bo'sh vositalari bo'lib bank tomonidan shartnoma asosida, ularning roziligi bilan jalb qilinadi va ssuda fondi tashkil bo'ladi. Kredit olish uchun kredit va zayomchi tomonidan kredit shartnomasi tuziladi, u o'z ichiga quydagilarni oladi. Kredit turi, miqdori, uning berilish tartibi va muddati, kredit berish sharti, foiz to'lovining miqdori, har ikkala tomon javobgarligi, kreditor va zayomchilar to'g'risidagi ma'lumotlar.

Kichik biznes taraqqiyoti uchun davlat krediti davlat byudjetidan eng muhimi zamonaviy ishbilarmonlik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar asosida beriladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish iqtisodiy rivojlanishni hozirgi bosqichida bosh vazifalardan bo'lib hisoblanadi. Ushbu vazifalarni hal qilishga ko'maklashuvchi usullar turlicha. Bu borada tovar-pul munosabatlaridan

tashqari, bozor iqtisodiga o'tish jarayonida yangicha usullar, xususan lizing kreditlari kabi usullar ham keng qo'llanila boshlanmoqda.

Rivojlangan iqtisodiyotda tijorat banklari o'z faoliyatini doimiy ravishda o'sib boruvchi raqobat sharoitida amalga oshiradilar. Ular o'zaro va boshqa kredit-moliya muassasalari bilan, shu jumladan, oxirgi vaqtda taklif etilayotgan har xil yangi xizmat turlarini amalga oshiruvchi xorijiy banklar bilan raqobatlashadilar.

qattiqqo'l raqobat sharoitida tijorat banklari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri investitsion faoliyat hisoblanadi

Investitsiya- bu xususiy,davlat korxonalari va tashkilotlari qimmatli qog'ozlariga uzoq muddatga qo'yilgan mablag''lardir.Tijorat banklari krediti investitsiyasidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, bank kredit berganda, bank mablag''larini nisbatan qisqa vaqt ichida foydalanishga beradi va kredit summasi hamda u bo'yicha foiz stavkasini o'z vaqtida qaytarishni talab qiladi. Investitsiyada esa qo'yilgan mablag''lar (qo'yilmalar)hali o'z egasiga qaytib kelishidan oldin uzoq davr mobaynida bankka daromad olib kelishini bildiradi.

Ikkinchidan, bank kreditida kredit munosabatlarini yuzaga keltirish bo'yicha tashabbus qarz oluvchi tomonidan o'rta tashlanadigan bo'lsa,investitsiyada esa qimmatli qog'ozlar bozorida aktivlarni sotib olishga intiluvchi tijorat banki tashabbus ko'rsatadi.

Uchinchidan,bankning kredit shartnomasida bank kam miqdordagi kreditorlar orasida asosiydir. Investitsion shartnomalarda esa tijorat banki ko'plab kreditorlardan biridir.

To'rtinchidan,bank kreditida bank va qarz oluvchi bevosita kredit shartnoma orqali bog'langan bo'lib, ularning faoliyatiga hech kim aralashmaydi.Investitsiyada esa turli xil qimmatli qog'ozlar orqali korxona, tashkilotlarning faoliyati bilan bankning faoliyati bog'lanib ketadi.

Tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyat olib borishdan asosiy maqsad ularning daromadlilik va likvidlilikini(bankning faoliyati bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olish qobiliyati)ta'minlashdan iborat. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tijorat banklarining investitsiya siyosati bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va banklarning likvidlilikini ta'minlaydi. Banklarning investitsion faoliyati turli xil qimmatbaho qog'ozlar: oddiy va imtiyozli aktsiyalar, davlat qarzдорlik majburiyatlari, depozit sertifikatlar, veksell va boshqalarga mablag''larini qo'yish orqali amalga oshiriladi. Alohida olingan davlatlarda banklar tizimining rivojlanishi va banklar o'tkazadigan operatsiyalarning turlari va ko'lamiga qarab ularning investitsion faoliyati turli yo'nalishlarga qaratilgan bo'lishi va shu operatsiyalar turlari bo'yicha olinadigan daromad salmog'i ham turli xil bo'lishi mumkin.

Masalan, Amerika banklari amaliyotida davlatning qisqa muddatli qarz majburiyatlarini ifodalovchi qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish odatda kam daromad keltiradi, ammo ular yuqori likvidlilikka ega va ular bo'yicha to'lanmaslik riski nulg teng bo'lib, bozor stavkasining o'zgarish riski ham kichik bo'lgan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar yuqori daromad keltiradi, shuning uchun banklar ularni muddati tugaguncha saqlashadi. Banklar o'z mablag'larini munitsipalitetlarning qimmatboho qog'ozlariga ham qo'yishadi, chunki ular bo'yicha to'lanadigan foiz soliqqa tortilmaydi. O'z likvidligini ta'minlash maqsadida banklar uncha katta bo'lmagan summani boshqa qimmatli qog'ozlar: bank aktseptlari, qimmatli qog'ozlar bozoridagi tijorat qog'ozlari, brokerlik ssudalar va tovar-kredit korparatsiyalari sertifikatlariga qo'yishadi.

Daromadlilikni ta'minlash maqsadida, lekin likvidligini havf ostiga qo'ygan holda banklar o'z mablag'larini ba'zi bir hukumat muassasalari obligatsiyalari va korparatsiyalarning birinchi darajali obligatsiyalariga investitsiya qiladilar.

Rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining investitsion faoliyati daromad keltirishi no'qtai nazaridan bank daromadi tarkibida kredit foizidan keyingi ikkinchi manba hisoblanadi.

Tijorat banklari investitsion faoliyatining daromadlilik darajasiga bir qator iqtisodiy va tashkiliy omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar orasida asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin. Bular:

- davlatning barqaror rivojlanuvchi iqtisodiyoti;
- tovar ishlab chiqarish va xizmat sohasidagi turli mulkchilik shakllarining mavjudligi, shu jumladan bank faoliyatida xususiy va aksioner mulk shakllarining ustivorligi;
- kredit-moliya tizimining bir me'yorda va aniq faoliyat yurituvchi strukturasi mavjudligi;
- qimmatli qog'ozlar bozorining zamonaviy va rivojlangan muassasalarining mavjudligi;
- qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilari faoliyatini nazorat qiluvchi qonuniy aktlar va tartiblarining mavjudligi;
- tijorat banklarining xalqaro investitsion faoliyatini yuritish amaliyotida bo'lgan yuqori sifatli qimmatli qog'ozlar muomalasining amal qilishi;
- investitsion faoliyat sohasi va qimmatli qog'ozlar bozori uchun mo'ljallangan yuqori malakali mutaxassislar va tadbirkorlarning mavjudligi, ularni tayyorlash va boshqalar.

3. Kapital qo'yilmalarni iqtisodiy samaradorligini baholash.

Kapital qo'yilmalarni iqtisodiy samaradorligi ularni foydalanish ko'rsatkichlaridan bo'lib, mablag'larni ijtimoiy-ishlab chiqarishning u yoki bu tarmog'iga sarf qilishdan tutiladigan maqsad bo'lib hisoblanadi.

Davlat kapital qo'yilmalarni xalq xo'jaligini turli sohalariga sarflar ekan, albatta uning yordamida ishlab chiqarishni kengaytirishni, ya'ni ishlab chiqarish quvvatlarini ishga solishni, va shu orqali mahsulotlarini miqdorini ko'paytirishni, uning sifatini yaxshilash, raqobatbardoshligini oshirishni maqsad qilib qo'yadi.

Ana shu qo'yilayotgan maqsadlarga erishishni turli yo'llari mavjud:

1. kapital qo'yilmalarni iqtisodiy asoslangan yo'nalishlarga sarflash va ularni mintaqalar bo'yicha samarali joylashtirish;

2. korxona va tashkilotlarda milliy iqtisodiyot va chet el texnikasini oxirgi yutuqlari asosida ishlangan texnika va texnologiyalarni qurilishni va ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sifatini oshirish, mehnat unumdorligini, mahsulot tannarxini va foydalilik darajasini o'sishini ta'minlash;
3. qurilishni jadallashtirish va ishlab chiqarishga yangi quvvatlarni kiritish, qurilishlarni sifatli ishlangan texnik loyihalar bilan ta'minlash;
4. qurilish qiymatini va kapital qiymatlarini ulushini pasayishi orqali kapital sarflarning birligiga foydali samara olish;
5. yangi yaratilayotgan quvvatlarni o'zlashtirish muddatlarini qisqartirish.

Kapital qo'yilmalarni umumiy miqdorida ishlab turgan korxonalarni qayta qurishga ketadigan sarflarni ulushini ko'paytirish – ularni iqtisodiy samaradorligini muhim ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi.

Ammo korxonalarni qayta qurish har bir aniq holatida chuqur iqtisodiy asoslashni talab qiladi. Tajribalarni ko'rsatishicha bir qator holatlarda dastlabki iqtisodiy hisob-kitoblarni qilinmasligi oqibatida ko'pgina korxonalarda iqtisodiy jihatdan samarasiz ishlar amalga oshiriladi. Natijada ular qayta qurish va jihozlash ishlarini amalga oshirishni xarajatlarini oshirib yuboradi va samaradorligini pasaytiradi.

Korxonalarni qayta qurishga sarflayotgan kapital qo'yilmalarni iqtisodiy samaradorligini aniqlashda qayta qurishgacha bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar undan keyingi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi. Sanoat korxonalarini qayta qurish ishlab chiqarishni texnik darajasini oshirishni, uskunalarni unumdorligini o'stirishni va ishlab chiqarish quvvatlarini o'sishini ko'zda tutadi.

qayta qurish natijasida mahsulot ishlab chiqarishni o'sishi korxona foydasini pasayishiga olib keladi, ammo mahsulot tannarxini pasayishiga olib kelmaydi.

Agarda kapital qo'yilmalarni birligiga olinadigan foyda o'simi iqtisodiy samaradorlikni belgilangan koeffitsientidan past bo'lmasa qayta qurish maqbul hisoblanadi. Boshqa holatlarda ishlab chiqarish quvvatlarini ko'paytirishni boshqa echimlarini izlash lozim bo'ladi.

Xaqiqatdan ham ishlab chiqarish quvvatlarini o'sishi va shunga muvofiq mahsulot ishlab chiqarishni o'sishi ustama xarajatlarni nisbatan kamaytirish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish bilan va mahsulot miqdorini ko'paytirish orqali erishiladi.

Tannarxni pasaytirishga qayta qurish bilan unumli uskunalarni qo'llash va ilg'or texnologiyalarni joriy qilish orqali erishiladi.

Loyiha echimlarini iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun dastlab ishlab turgan korxona va inshootlarni rekonstruktsiya qilish va yangilarini qurishni zarurligini va maqsadga muvofiqligini texnik-iqtisodiy asosnomalar (TIA) ishlanadi. Bunday texnik-iqtisodiy asosnomalar rejalariga kiritiladigan har bir qurilish bo'yicha ishlashi lozim.

Yirik korxonalar bo'yicha texnik-iqtisodiy asosnomalar loyiha tashkilotlari tomonidan ishlanadi.

Texnik-iqtisodiy asosnomalarda odatda:

Tegishli tarmoqlarda quvvatlarning o'sishini ta'minlovchi loyihalashtirilayotgan korxonalarni ahamiyatini xususiyatlari; korxonani

mo'ljallayotgan quvvatlarni va mahsulot xillarini asoslash; zarur kapital qo'yilmalar hisob-kitobi; kapital qo'yilmalarning kutilayotgan iqtisodiy samaradorligi va mo'ljallanayotgan qurilishning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari o'z aksini topishi lozim.

Asosiy ko'rsatkichlardan tashqari kapital qo'yilmalarni iqtisodiy samaradorligini asoslash, ularni o'zini oqlash muddatlarini hisoblash; loyiha echimlarini iqtisodiy baholash uchun qo'shimcha va yordamchi texnik-iqtisodiy ko'satkichlar ham qo'llaniladi. Ularni qatoriga ishlab chiqarish maydonining 1 m kvadratiga mahsulot ishlab chiqarish, imorat va inshootlarning qurilish kubaturasini ko'rsatuvchi miqdor koeffitsienti va boshqalar zarur bo'ladi.

Sanoat korxonalarini loyihalashda ishlab chiqarish maydonlarini tegishli foydalanish, imoratlar xillarini to'g'ri tanlash ancha sezilarli iqtisodiy samara berishi mumkin.

4. Kapital qo'yilmalarni kreditlash.

Kredit berish jarayonida iqtisodiy faoliyat kredit shartnomasini bajarishga, qarz oluvchining olingan kreditdan samarali foydalanishiga, uni o'z vaqtida va to'la tulashiga, kreditdan foydalanishning butun muddati davomida ssudani qarzga oluvchi bilan yaqin aloqani saqlab turishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ana shu maqsadda mijozning moliyaviy xo'jalik faoliyati, uning tuzilgan shartnomalarga muvofiq mahsulot etkazib berish majburiyatlarini, ishlab chiqarish hajmlarini bajarish, noishlab chiqarish xarajatlari va nobudgarchiliklar, muomala chiqimlari, foyda, o'z aylanma mablag'lari mavjudligining dinamikasi, tovar moddiy boyliklar zaxiralarining holati va aylanma mablag'larning aylanish tezligi tahlil etiladi. Bank qarz oluvchining kreditga qobiliyatini muntazam tekshirib boradi, uni qarz oluvchining maxsus dos'esida tizimlashtirib boradi.

qarz oluvchining moliyaviy xo'jalik faoliyati yomonlashgan, bankning nazoratidan bo'yin tovlagan, hisobot ma'lumotlaridagi noto'g'ri faktlar aniqlangan va buxgalteriya hisob-kitobi o'z holiga tashlab qo'yilgan taqdirda bank keyinchalik kredit berishini to'xtatish va kredit shartnomaning shartlaridan kelib chiqadigan kreditni ta'minlash majburiyatlarini amalga oshirish orqali ilgari berilgan kreditlarni qarz oluvchining o'z mablag'lari hisobidan muddatidan ilgari undirish huquqiga ega bo'ladi.

Agar qarz oluvchi kredit shartnomasiga ko'ra qarzni to'lash majburiyatini bajarmasa, bank O'zbekiston Respublikasi "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunga muvofiq noqobillik (bankrotlik) to'g'risida ishni qo'zg'atish uchun xo'jalik sudiga murojaat qilishi kerak. Banklar amaldagi qoidaga ko'ra kreditlar portfelining sifatini muntazam tahlil etib turishlari lozim.

Har bir kreditning xatar darajasini tasniflab, uni quyidagi 5 ta tasnif razryadlaridan biriga kiritishlari kerak:

- a) yaxshi;
- b) qoniqarli;
- v) substandart;

- g) gumonli;
- d) ishonchsiz;

Tijorat banki tomonidan ssudalar bo'yicha ehtimol tutilgan yo'qotishlar uchun majburiy tartibda rezerv tashkil etiladi. Rezervga o'tkazish amaldagi tartibga binoan amalga oshiriladi. Ssudalar bo'yicha ehtimol tutilgan yo'qotishlar uchun rezerv xo'jalik sub'ektlariga berilgan kreditlarni tahlil etish va bank xatari darajasiga ta'sir o'tkazuvchi omillarni aniqlash asosida tashkil etiladi. Rezervning hajmi xatar guruhini hisobga olgan holda ssuda sifatiga bog'liq bo'ladi.

Bank oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmayotgan qarz oluvchiga nisbatan bank kredit shartnomasining shartlaridan kelib chiqib, quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:


-agar qarz oluvchi bankning tavsiyalarini kelishilgan muddatda bajarmasa, unga kredit berishni to'xtatish to'g'risidagi ogohlantirish da'vo xatini jo'natish;

-kreditdan foydalanganlik uchun foizlar o'z vaqtida to'lanmagan, shuningdek kredit shartnomasida belgilangan muddatda kreditni o'sish istiqboli bo'lmagan taqdirda ssuda bo'yicha qarz qoldig'ini muddatidan ilgari undirish, ssudani qarzga oluvchiga bankrotlik to'g'risidagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan jazo choralarini unga nisbatan qo'llanish to'g'risida ogohlantirib, da'vo xatini jo'natish;


-qarz oluvchi buxgalteriya hisobi va hisobotini bo'zganligi faktlari aniqlangan taqdirda kredit berishni to'xtatish va bu haqda soliq inspeksiyasiga xabar qilish, shuningdek, hisob va hisobotdagi bo'zilishlarning sabablari to'g'risida tushuntirishnomani, bunday qonun bo'zilishlarini to'g'atish bo'yicha tadbirlarni bankka taqdim etishni talab qilish;

Kreditdan ko'zlangan maqsadda foydalanmaganlik uchun ssudani qarzga oluvchi bank foydasiga kredit shartnomasida belgilangan miqdorda jarima to'laydi. Kapital qo'yilmalarni uzoq muddatga kreditlashni amalga oshirishda bir qancha moliyaviy xatarlarga duch keladi. Bu moliyaviy xatarlarni biz quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin.

CHizma №3 Moliyaviy xatarlar¹⁶



¹⁶ Manba; V. Gulomov va M. SHarifxujayev "Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti" Ukituvchi.



Manba; S. /ulomov va M. SHarifxo'jaev "Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti" O'qituvchi.

Tayanch iboralar.

Kreditlash. Iqtisodiy samaradorlik. Samaradorlik koeffitsienti. Texnik-iqtisodiy asosnoma. Foyda o'sishi. qisqa muddatli. Uzoq muddatli. Kantokarent. Overdiraf.

Nazorat savollari.

1. Kapital qo'yilmalarni kreditlashni maqsad va o'ynalishlari nimalardan iborat?
2. Kreditlashni qanday turlari bor?
3. Samaradorlikni aniqlashni qanday usullarini bilasiz?
4. Kapital qo'yilmalarni iqtisodiy samaradorligini baholang?
5. Samaradorlik koeffitsientini tushuntiring
6. Kreditlashda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Kotayubov V.YU. Investitsionno'y potentsial xozyaystvennoy deyatelnosti: Makro ekonomicheskoy i finansovo-kreditno'y aspekto'. Ucheb pos. -M.: MGIMO-Universitet. 2004 g.
2. TSarev V.V. otsenka ekonomicheskoy effektivnosti investitsiy.- SPb.: petr, 2004 g.
3. Siddiqov A. Sanoat ishlab chiqarishiga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari samaradorligi. "Bozor, pul va kredit" jurnali , 2004 №7-8 sonlar.

4. Lizing munosobatlari nazariyasi va amaliyoti. I.f.d., professor D./ozibekov umumiy tahriri ostida .-T.: Fan va texnologiya, 2004 y.
5. Titov V.I. Analiz i diagnostika finansovo- xozyaystvennoy deyatelnost predpriyatiya: uchebnik. M.: Dashkov i K, 2005 g.
6. Kojuxar V.M. Praktikum otsenka investitsiy: Ucheb posobie. -M.: Izd. Torgovaya korporatsiya. Dashka. 2005 g.
7. Investitsionnie klimit. <http://www.ckat.ru/normdoc/pbu13/pbu13g2.htm>
8. Investirovaniya...<http://zakon.kuban.ru/doc/107n.shtml>
9. www.uz – pervo'y sayt Uzbekistana - resurso' Uzbekistana
10. www.gov.uz – ofitsialno'y pravitelstvenno'y sayt Respubliki Uzbekistan
11. www.stat.uz/index.htm – sayt Gosudarstvennogo komiteta RU po statistike
12. www.mf.uz sayt Ministerstvo finansov Respubliki Uzbekistan.

10-Mavzu. Iqtisodiyotda lizing kreditlaridan foydalanish.

Reja

1. **Lizing va uning turlari.**
2. **Lizing operatsiyalarini amalga oshirish bosqichlari.**
3. **Xalqaro lizingning modifikatsiyalari.**
4. **Xalqaro lizing.**

1. Lizing va uning turlari.

Jahon amaliyoti lizingni kapital joylashtirishni mablag'' bilan ta'minlashning, aniqrog'i, loyihalarga investitsiyalar jalb etishning yuqori samara beradigan turi ekanligini ko'rsatdi. kup yillik kuzatish shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida lizing kompaniyalarining sinishi kamdan-kam uchraydigan holdir.

Lizingning oddiy ijaradan asosiy farqi shundaki, lizingda ijaraga berilgan asbob-uskunalar shartnoma muddati tugagandan so'ng, ularni qoldiq qiymati bo'yicha sotib olish ko'zda tutiladi. Lizingning farqli xususiyatlaridan yana biri shundaki, lizing kompaniyalarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish uchun o'z mablag''lari etishmaydi. SHu sababli ko'pchilik lizing operatsiyalarida jalb qilingan mablag''lar keng qo'llaniladi. Bunda, odatda, bankning uzoq muddatli ssudalari jalb qilinadi.

Bozor sharoitida hukumat bugungi kun bilan emas, balki kelgusini o'ylab iqtisodiy siyosat olib boradi. Lizing fan-texnika taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ertangi kunda ishlab chiqarish bugungi olinmagan soliqlarni to'liqligicha qoplaydi, demak, u iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratib beradi.

Lizing muomalalarini amalga oshirish deganda, ishlab chiqarish vositalarining (mashina, uskunalar va hokazolarni) tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga o'rta yoki uzoq muddatlarga ijara shartlari asosida berilishi tushuniladi. Hammamizga odat bo'lib qolgan oddiy ijara tushunchasidan farqli o'laroq, lizingga olingan ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarni, mashina va uskunalarni pirovard natijada, ya'ni shartnoma

muddati tugagandan so'ng, ijarachi ularni qoldiq qiymati bo'yicha sotib olishi hamda ularga egalik qilishi mumkin. Odatda, lizing muomalalari jarayonida uch tomon ishtirok etadi, bular: 8-Jadvalda.

Lizing jarayoni ishtirokchilari

8.-Jadval

<u><i>Ishlab chiqaruvchi (etkazib beruvchi, sotuvchi)</i></u>	zarur mashina va asbob-uskunalar bilan ta'minlovchi (yoki ularni sotuvchi).
<u><i>Lizing beruvchi</i></u>	ishlab chiqarish korxonalaridan (yoki sotuvchidan) kerakli mashina va uskunalarni sotib oluvchi hamda ularni o'z mijozlariga etkazib beruvchi.
<u><i>Ijarachi (lizing oluvchi)</i></u>	ishlab chiqarish vositalarini shartnoma asosida ijaraga oluvchi.

Rivojlangan mamlakatlarda lizing muomalalarini maxsus moliya jamiyatlari, jumladan lizing kompaniyalari, firmalar va yirik banklar amalga oshiradilar.

Lizing muomalalarining xilma-xil turlari mavjud bo'lib, amalda esa ularning quyidagi ikki turi nisbatan ko'proq qo'llaniladi:

1. **Operativ lizing.** Lizingning bu turida ijaraga berilayotgan texnika uskunalarning ijara muddati ularning xizmat qilish muddatiga qaraganda qisqa bo'ladi. Mulk egasi tomonidan (lizing beruvchi) ijaraga berish maqsadida sotib olingan zarur asbob-uskunalar hamda ularga ketgan sarf-xarajatlar faqat qisman qoplanadi.
2. **Moliyaviy lizing.** Bu lizing asosida o'zaro tomonlar imzolangan shartnomaga binoan, shartnoma muddati tugagandan so'ng ijarachi lizingga olingan uskunalarni qoldiq qiymati bo'yicha sotib olishi mumkin. Bu holda lizingga berilgan mashina va uskunalarga egalik qilish huquqi bevosita ijarachiga o'tadi.

Operativ lizing quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

- texnik uskunalar va jihozlarni ijaraga beruvchi lizing kompaniyasi hech mahal "barcha sarf-xarajatlarni yakka-yu yagona mijozim evaziga qoplayman" qabilida hisob-kitoblarga tayanmaslik;
- ijaraga berilgan texnika, asbob-uskunalarining nosoz holga kelishi yoki yo'qolishi, shuningdek tabiiy ofatlar - zilzila, yong'in va sel ketish oqibatida ko'riladigan moddiy zararlar, asosan lizing beruvchi kompaniya hisobiga qoplanishini nazarda tutish;
- ijara muddati mavjud asbob-uskuna va jihozlarning jismonan butunlay ishdan chiqish muddatini qoplamasligi darajasida belgilamaslik;
- kelishilgan muddat tugagandan so'ng, ijaraga olingan barcha uskunalar egasiga, ya'ni lizing beruvchiga qaytarib beriladi.

Operativ lizing quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **Renting.** Mulkni bir kundan to bir yilgacha bo'lgan qisqa muddatga ijaraga berishni nazarda tutadi.
- **Xayring.** Bunda mulk 1 yildan 3 yilgacha muddatga ijaraga beriladi. Odatda, bu muddat o'rta muddat hisoblanadi.

YUqoridagi muomalalar bir turdagi (turdosh) uskunalarni bir ijarachi tasarrufidan boshqa biriga tez-tez o'tib turishini taqozo etadi.

Moliyaviy lizing bo'yicha kelishilgan muddat tugagandan so'ng ijarachi tomonidan ijaraga olingan uskunalar qiymatini to'lashi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijaraga berilgan mashina va uskunalar, ularni ishlab chiqargan korxona tomonidan belgilangan iqtisodiy foydalanish muddati (amortizatsiya davri)ni o'tashi, shubhasiz, lizing kompaniyalari kutgan va oldindan belgilagan foydani keltiradi.

Moliyaviy lizing ham o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi:

- ba'zi xizmat turlarini qamrab oluvchi lizing;
- levedj-lizing;
- "paketdagi" lizing.

Ba'zi xizmat turlarini qamrab oluvchi lizing. Bunda lizing kompaniyasi ijaraga berilgan uskunalarni o'rnatish, sozlash, mutaxassislar tayyorlash kabi bir qator majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Levedj-lizing. Bunda ijaraga berilayotgan uskuna va jihozlar narxining katta miqdori uchinchi tomondan, ya'ni investordan qarzga olinadi.

"Paketdagi" lizing. Mavjud ishlab chiqarish inshootlari va binolar kreditga berilib, zarur bo'lgan mashina va uskunalar esa ijarachiga ijara shartnomasi asosida beriladi.

Lizing muomalalari ularni keltirib chiqaruvchi ob'ektiv shart-sharoitlarga qarab, aniqrog'i, ob'ektga egalik qilish manbalari nuqtai nazaridan ikkiga: bevosita va yana o'ziga qaytuvchi lizing turlariga bo'linadi.

Bevosita lizing. Bunda lizing kompaniyasi mijoz uchun uning buyurtmasi asosida mashina va uskunalarni ularni ishlab chiqarayotgan korxonalardan sotib oladi.

YAna o'ziga qaytuvchi lizing. Moliyaviy lizingning nisbatan kam uchraydigan bu turi "liz-bek" deb ham ataladi. Bunda ishlab chiqaruvchi korxona o'z tasarrufidagi xususiy mulkning bir qismini lizing kompaniyasiga naqd pulga sotadi. Ayni chog'da lizing kompaniyasi bilan korxona o'rtasida sotilgan mulk xususida shartnoma tuziladi. Amalda esa asbob-uskunalar o'z o'rnini o'zgartirmagan holda, ishlab chiqarish jarayonida xizmat qilaveradi. SHartnomaga binoan lizing kompaniyasi esa muayyan muddat ichida ijara haqini olaveradi. Bu sharoitda korxona sotilgan mulk uchun olgan mablag'larni ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirish maqsadlariga sarflash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

SHartnoma amal qilayotgan muddat ichida ijaraga berilgan barcha ishlab chiqarish vositalari-mashina uskuna va jihozlar lizing kompaniyasi balansi hisobida bo'ladi va kompaniya yuqoridagi texnika uskunalarning sohibi (egasi) sifatida e'tirof etiladi.

Ijaraga berilayotgan mulkka nisbatan lizing quyidagi turlarga bo'linadi:

Sof lizing. Bunda ijaraga berilayotgan mulk va ularni ishlatishga sarflanadigan barcha qo'shimcha xarajatlar ijarachi zimmasiga yuklatiladi.

To'liq lizing. Bu lizing turiga binoan ijaraga berilayotgan mashina va uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha sarf-xarajatlar lizing kompaniyasi zimmasiga tushadi.

Agar lizing beruvchi sub'ekt sifatida lizing kompaniyasi faoliyat ko'rsatsa, bunday hollarda lizing bo'yicha operatsiyalar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- SHartnoma imzolangunga qadar lizing oluvchi sub'ektning talab va ehtiyojlari bayon etilgan buyurtmasi ko'rib chiqiladi. Kompaniya rahbariyati o'z navbatida, yuqoridagi buyurtma bilan murojaat qilgan tashkilotning so'nggi yillardagi moliyaviy ahvoli bilan tanishib chiqadi. Agar tekshiruv natijasi qoniqarli deb topilsa, kompaniya mazko'r tashkilot bilan lizing shartnomasini imzolaydi.
- SHartnoma ikki tomon o'rtasida lizing kompaniyasi (ijaraga beruvchi) va lizing oluvchi (ijarachi) yoki bo'lmasa uch tomonlama imzolanishi mumkin. Bunda, shartnomada uchinchi tomon sifatida zarur mashina va uskunalarni ishlab chiqaruvchi korxona ishtirok etadi.

Lizing shartnomasi ikki tomonlama imzolangan taqdirda lizing kompaniyasi ikkinchi tomon bilan shartnoma shartlarini kelishib olgandan so'ng, uning buyurtmasiga muvofiq, so'ralayotgan texnika va texnologiyalarni, mashina va asbob-uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonaga ma'lumotnoma yuboradi hamda ijaraga olinayotgan uskunalarining narxлари ijaraga shartlari va hokozolarni kelishib oladi. Lizing oluvchi sub'ekt esa, o'z navbatida, kompaniyaga, o'ziga kerakli uskunalarini ijaraga olishini tasdiqlovchi majburiyat xati yuboradi. Odatda, bu xatga kerakli uskunalarini olish haqidagi buyurtma blankasi ilova qilinadi.

2. Lizing operatsiyalarini amalga oshirish bosqichlari.

Lizing operatsiyasi tushunchasi asl mohiyatiga ko'ra lizing kompaniyasining o'z hisobiga muayyan texnika va texnologiyalarni, mashina va uskunalarini sotib olishi, so'ngra esa ularni lizing oluvchi sub'ektga shartnoma asosida ijaraga berishi muomalalarini o'z ichiga oladi.

Lizing operatsiyasi uch bosqichga bo'linadi: 9-Jadvalda.

9-Jadval

Lizing operatsiyasi bosqichlari.

Bosqichlar	Bajariladigan ishlarning mazmuni
------------	----------------------------------

1 - bosqich	Lizing operatsiyalarini amalga tatbiq etishning boshlang'ich bosqichida lizing kompaniyasi umumiy tayyorgarlik ishlarini olib boradi. Bungacha albatta, lizing kompaniyasi barcha hujjatlarni huquqiy jihatdan tartibga keltiradi, chunonchi, lizing loyihasining barcha xususiyatlari va shartnomalarini chuqur o'rganib chiqish, shular jumlasidandir. Mazko'r bosqichda lizing olishga imkoniyati bor lizing oluvchilarning buyurtmalari ko'rib chiqiladi hamda olgan kredit mablag'larni o'z vaqtida qaytara olish imkoniyatlari to'la tahlil qilinadi, texnika va texnologiyalarni sotib olish uchun sarflanayotgan mablag'larni maqsadga muvofiqligi hamda ularni kelgusida foyda keltirishi bilan bog'liq hisob-kitoblar amalga oshiriladi. SHuningdek bu bosqichda biznes-plan tuzilib, unda bayon etilayotgan ma'lumotlar to'la tahlil qilinadi.
2 - bosqich	Bu bosqichda yuqorida bayon etilgan barcha hujjatlar rasmiylashtiriladi, ya'ni ular amaldagi qonun va me'yoriy hujjatlar asosida tartibga keltiriladi. Bunda asosan zarurat tug'ilganda lizing to'lovlarini kafolatlash, biror mulkni garovga qo'yish bo'yicha shartnoma imzolash, shuningdek lizing shartnomasi va lizing bo'yicha Bosh shartnomani imzolash, lizing ob'ektlarini keltirish bilan bog'liq; shartnomani imzolash, lizing operatsiyalarini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan loyihalarni o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lar hisobiga moliyalash, keltirilgan texnika va texnologiya hamda uskunalarni ishlab chiqarishga joriy qilish bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish, shuningdek lizing ob'ektlariga texnik xizmat ko'rsatish hamda ularni sug'urtalash kabi qator muomalalar amalga oshiriladi.
3 - bosqich	Bu bosqich lizing to'lovlarini to'lash, monitoring, ya'ni lizing ob'ektlarini ishlatilishini hamda lizing to'lovlarini vaqtida to'lashni nazorat qilish, lizing ob'ektini lizing beruvchiga qaytarish yoxud uni lizing oluvchiga berish hamda lizing kompaniyasi tomonidan sarflangan qarzlarni qaytarish va hokozolarni o'z ichiga oladi.

Har qanday lizing jarayonida lizing kompaniyasi uchun muhim jihatlardan biri-bu mijozlar bilan olib boriladigan iqtisodiy ish jarayoni hisoblanadi. Lizing kompaniyasi lizing operatsiyalarining barcha bosqichlarini, ya'ni biror uskunani olish uchun buyurtma yig'ishdan boshlab, to'lovlarning o'z vaqtida to'lanishi, lizing ob'ektlarining to'g'ri ishlatilishi, qolaversa, lizing shartnomasi muddatining tugashiga qadar bo'lgan davrning ta'minlanishi hamda ularni nazorat qilishi, shuningdek yuqoridagi bosqichlarni o'z ichiga olgan bu ishlarga jiddiy munosabatda bo'lishi lozim.

3. Xalqaro lizingning modifikatsiyalari.

Xalqaro lizing lizingning alohida bir turi bo'lib, bunda tomonlarning hech bo'lmaganda birortasi (yoki hammasi turli mamlakatlardan) boshqa mamlakatga tegishli bo'ladi, yoki tomonlarning biri xorijiy firma bilan qo'shma kapitalga egadir. Xalqaro lizingning quyidagi modifikatsiyalari mavjud: to'g'ridan-to'g'ri eksport va import, tranzit (bilvosita), to'g'ri bo'lmagan.

To'g'ridan-to'g'ri xalqaro lizingda bitim bo'yicha barcha operatsiyalar turli mamlakatlarning yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan tijorat tashkilotlari o'rtasida amalga oshiriladi.

Tranzit (bilvosita) lizingda bir mamlakatdagi lizing beruvchi boshqa mamlakatdan kredit oladi yoki zarur bo'lgan uskunalarni sotib oladi va uchinchi bir mamlakatdagi ijarachiga etkazib beradi.

To'g'ri bo'lmagan lizingda lizing firmasi va iste'molchi bir mamlakatga tegishli bo'ladi, lekin lizing firmasi boshqa mamlakatda joylashgan bo'ladi.

Xalqaro lizing biznesi ichki lizingga nisbatan ancha kech rivojlana boshladi. Xalqaro lizing operatsiyalini rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir etgan: ko'pchilik mamlakatlarda kredit olish shartlarining og'irligi, banklar tomonidan foiz stavkalarini oshirishlari, lokal moliyaviy inqirozlar, ba'zi mamlakatlar soliq tizimining beqarorligi va boshqalar.

Xalqaro lizing operatsiyalarini amalga oshirishdagi qiyinchiliklar shundan iboratki, ular nafaqat o'zining balki hamkor mamlakat hukumatining ham valyuta, bojxona va boshqalarni tartibga solish qoidalari ta'siri ostida bo'lishadi. Xalqaro moliyaviy lizing taraqqiyoti oldidagi to'siqlarni yo'q qilish, undan foydalanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida turli mamlakat va xalqaro tashkilotlar mutaxassisarlari tomonidan ishlab chiqilgan Xalqaro moliyaviy lizing bo'yicha Ottava Konventsiyasi 1988 yilning may oyida qabul qilindi.

Yirik xalqaro lizing tashkilotlaridan "Ebikliz"ni va milliy lizing assotsiatsiyalarining Evropa federatsiyasi (Lizyurop)ni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. "Ebikliz" Gollandiya, Italiya, Germaniya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Belgiya va Frantsiya davlatlaridagi lizing kompaniyalarini birlashtiradi. Bu tashkilot ko'pchilik hollarda xalqaro lizing bitimlarini amalga oshirishda vositachi vazifasini o'taydi. "Lizyurop" 1979 yilda tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda 17 ta mamlakatning 700 ta lizing kompaniyasini birlashtiradi. Uning tarkibiga Avstriya, Belgiya, Bolgariya, SHveytsariya, Germaniya, Daniya, Ispaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Irlandiya, Lyuksemburg, Norvegiya, Gollandiya, Portugaliya, SHvetsiya, Finlyandiya davlatlari lizing kompaniyalari kiradi.

Xalqaro lizing tashkilotlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) a'zo mamlakatlarning qonunchiliklarini o'rganish va taqqoslash;
- b) barcha xuquqiy, soliq, moliyaviy masalalarni hal etish;
- v) lizing bitimlarining shartlari to'g'risidagi statistik ma'lumotlarning yig'ish;
- g) lizing firmalarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rganish.

80-yillar oxirlarida jahonning 60 mamlakatida joylashgan lizing kompaniyalar o'z operatsiyalarini 150 mamlakatda amalga oshirardilar.

“Lizyup” xalqaro assotsiatsiyasiga kiruvchi 16 ta milliy lizing kompaniyalarga tegishli shartnomalarning umumiy summasi 1986 yilda 36 mlrd.doll.ni tashkil etdi. 80- yillar o’rtalarida eksport lizing operatsiyalarining yillik hajmi 15-20 mlrd.doll.ni tashkil etdi, shu jumladan AqSHda 8-10 mlrd.doll., YAponiyada – 3-4 mlrd.doll., Angliyada – 0,5-1,5 mlrd. doll. Agar yangi uskunalarni ijaraga olish uchun investitsiyalar bo’yicha hisob-kitob qilinsa, bu erda rivojlangan mamlakatlarning ulushi 75%ni tashkil etadi (AqSH-50%, YAponiya-14%, Germaniya-4,6%, Buyuk Britaniya-3,8%).

4. Xalqaro lizing.

AqSHdagi lizing operatsiyalari. Hozirgi vaqtda lizing yordamida amalga oshiriladigan jahon savdo oborotining teng yarmi AqSH hissasiga to’g’ri keladi. AqSHda lizingni yuksak sur’atlarda rivojlanishining muhim sabablaridan biri investitsiyalarga nisbatan beriladigan soliq imtiyozi edi. Bunga yangi investitsiyalar yig’indisining 10 foizgacha soliq yig’indisidan chiqarib tashlanar edi. Masalan, asbob-uskunalar sotib olish xarajatlari 100 ming dollar deylik, soliq imtiyozi 10%, soliq yig’indisidan 10 ming dollar chiqarib tashlanadi. Lizing shartnomasida soliq imtiyozi Moliya vazirligining ichki daromadlari boshqarmasi tomonidan ijara uchun o’rnatgan qoidalarga mos kelgan holdagina qo’llaniladi. SHunday qoidalaridan biriga ko’ra bu lizingning davomiyligi 30 yildan kam bo’ladi.

Buyuk Britaniyada lizing operatsiyalari. Buyuk Britaniyada lizing nisbatan kech, ya’ni 1970 yildan keyingina keng ko’lamda rivojlandi. 1981 yildan 1986 yilgacha hukumat korporatsiyalaridan olinadigan soliq 52%dan 35%ga pasaygan. SHu vaqtgacha qo’llab kelingan 100% li soliq imtiyozi (bu imtiyoz birinchi yilga nisbatan qo’llanilardi) 25% li imtiyoz bilan almashtirildi. Korporatsiyalardan olinadigan soliq stavkasi pasaytirilishi bilan lizingga nisbatan qo’llaniladigan soliq imtiyozining ham ahamiyati pasaydi. Bu esa lizing va uskunalar sotib olish qiymatining pasayishiga olib keladi. Hozirgi kunda ham soliq imtiyozlarining ma’lum qismi saqlanib qolgan. Masalan, birinchi yil mobaynida ijara to’lovlari soliqa tortilmaydi.

Frantsiyada lizing operatsiyalari. Frantsiyada 1967 yilda “Lokafrans” nomli birinchi lizing kompaniyasi yuzaga keldi. Hozirgi kunda keng turdagi tovarlar, samolyot va vertolyotlar, hisoblash texnikalari, tibbiy asbob-uskunalar, sanoat dastgohlari va hokazolar lizing yordamida ishlatilmoqda.

Frantsiyada lizing operatsiyalarining quyidagi asosiy xususiyatlarini ko’rsatish mumkin:

1. lizing ob’ektining qoldiq qiymati uning boshlang’ich qiymatining 1%i dan 7% gachani tashkil etadi;
2. ijara to’lovlari oyda 1 marta, 3 oyda, 6 oyda va yilda to’lanadi;
3. qo’zgalmas mulk lizinggi keng rivojlangan.

Bunday lizing, odatda 15-20 yil davom etadi. Bu sohadagi eng yirik tashkilot SIKOMI bo’lib, u aktsiyador kompaniyadir. Hozirgi kunda 10 mln.frankdan oshiq nizom fondiga ega.

Germaniyada lizing operatsiyalari. Hozirgi kunda Germaniyada ko'plab lizing kompaniyalari uchraydi. Ulardan 57 tasi nemis lizing assotsiatsiyasi tarkibiga kiradi. Lizing sohasidagi eng yirik tashkilotlardan ikkitasini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Bular "Mitfinants Gimbx" va "Gefa-lizing Gimbx". "Mitfinants Gimbx" 1962 yilda tashkil etilgan. Germaniyada birinchi bo'lib tashkil etilgan bu lizing kompaniyasining ustav kapitali 1 mln. nemis markasini tashkil etardi. Hozirgi vaqtda uning oltita o'ziga qarashli kompaniyasi mavjud. "Gefa-lizing Gimbx" 1968 yilda tashkil etilgan. O'zining hozirgi kungacha bo'lgan faoliyati mobaynida, u o'z mijozlariga 3 mlrd. nemis markasi miqdordagi uskunalarni ijaraga berdi.

Avstriyadagi lizing operatsiyalari. Avstriyada lizingning rivojlana boshlaganiga 25 yil bo'ldi. Avstriyada ijaraning o'rtacha muddati lizingga berilayotgan predmetning ishlatilishi muddatiga qarab 2 yildan 15 yilgacha bo'lgan vaqtni tashkil etadi. SHartnoma muddati tugagandan so'ng, ijarachi predmetning qolgan ishlash muddatiga yangi lizing shartnomasini tuzish mumkin yoki lizing predmetini sotib olish to'g'risidagi muzokarani boshlashi lozim. Avstriyada lizing muddatini uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi. Lizingga xatto bolalar bog'chalari va maktablar beriladi. Avstriyada 1984 yilda qabul qilingan yangi soliq qonuniga muvofiq, lizing berishda soliq imtiyozlari qo'llaniladi. Ammo buning uchun lizing shartnomasining muddati uskunaning umumiy ishlatilish muddatining 40-90% idan oshmasligi lozim. Avstriyada "Rayfanzen lizing"ni etakchi lizing firmalaridan biri sifatida misol keltirish mumkin.

Italiyada lizing operatsiyalari. Italiyada birinchi lizing kompaniyasi 1963 yilda paydo bo'ldi. Hozirgi vaqtda Italiya lizing assotsiatsiyasi 50 ta kompaniyani o'z ichiga oladi. Lizing bo'yicha soliq imtiyozlari jamoat tashkilotlari va iqtisodiyotdagi ayrim tarmoqlarga nisbatan qo'llaniladi. Yirik lizing kompaniyalaridan "Lokafit"ni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. "Lokafit" er tekislovchi mashinalarni, qishloq xo'jalik mashinalarini, bosh idora (ofis)lar uchun uskunalarni, komp'yuterlar, qo'zg'almas mulk, transport vositalari (samolyotlar, kemalar, avtomobillar va hokazolar)ni lizingga beradi. "Lokafit"ning Germaniya, Frantsiya, AqSH, Ispaniya, Xitoyda qo'shma korxonalari mavjud. SHuningdek, u YUGoslaviya va Vengriya bilan lizing operatsiyalarini amalga oshiradi.

YAponiyada lizing operatsiyalari. YAponiya lizing operatsiyalari rivojlangan mamlakat hisoblanadi. YAponiyada eng yirik lizing kompaniyalaridan biri "Century Leasing System" bo'lib u 1969 yilda tashkil topgan. Uning to'plangan ustav kapitali 584 500 000 ienni tashkil etadi. Bu kompaniya Gonkongda, Singapurda, Buyuk Britaniyada o'z filiallariga ega. Bitta tijorat banki bitta savdo va ikkita sug'urta kompaniyasi "Century Leasing System"ning aksionerlari hisoblanadi.

SHvetsiyada lizing operatsiyalari. SHvetsiyada lizing operatsiyalarining rivoji 60-yillarning boshlariga to'g'ri keladi. O'sha paytlarda lizingdan kichik va o'rta kompaniyalar foydalanar edi. Gap shundaki, bu paytda maxsus bank qonunchiligi mavjud bo'lib, unga ko'ra, har bir bank o'zining ko'pchilik ssudalari uchun ta'minlaganlik bo'lishini talab etar edi. Lizing bu holatni engillashtirdi, chunki bunda kredit beruvchi asbob-uskunalarining egasi hisoblanadi. Dastlabki

paytlarda qayta sotib olish to'g'risida shartnomalar tuzilardi, bu shartnomalarga ko'ra asbob-uskunalar etkazib beruvchi korxona yoki mijoz lizing bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan taqdirda, uskunalarni qayta sotib olish majburiyatini olardi. Hozirgi kunda bunday qayta sotib olish shartnomalari SHvetsiya lizing amaliyotida juda kam qo'llaniladi. Ijaraning asosiy muddati 3-5 yilni tashkil etadi. Kamdan-kam hollarda bu muddat 9 yilgacha cho'zilishi mumkin.

Ispaniyadagi lizingning huquqiy asoslari. Ispaniyada hozirgi vaqtda 117 tadan oshiq lizing kompaniyasi mavjud. SHulardan 20 tasi mustaqil, qolganlari banklar qoshidagi kompaniyalardir. Ijara muddati asosan 3-5 yilni tashkil etadi. Lizing operatsiyalarini amalga oshirish quyidagi qonuniy hujjatlarda o'z aksini topgan:

1. 1977 yilda qabul qilingan lizingning mazmuni haqidagi dekret;
2. 1980 yilda qabul qilingan qo'zg'almas mulklar bo'yicha lizing operatsiyalari haqidagi dekret;
3. bank muassasalarining ishtiroki xususida 1988 yilgi qonun.

Har qanday tadbirkorlik faoliyati singari lizing shartnomalari ham ishonchli huquqiy asosga ega bo'lishi kerak. YAqin vaqtlargacha ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda mavjud qonunchilikka ko'ra mashina va uskunalar ijarasi umumiy normalar asosida boshqarilar, tomonlar munosabatini bildiruvchi texnologik aniqliklar mavjud emas edi. Keyingi vaqtlarda bir qator xorijiy mamlakatlardagi fuqorolik huquqlarida lizing va uning turlariga huquqiy aniqlik berilgan, ulardan bir qanchasi bo'yicha esa tegishli qonuniy hujjatlar qabul qilingan.

Lizing munosabatlarining huquqiy ta'minlanganlik darajasi bo'yicha mamlakatlar asosan 3 guruhga bo'linadi:

1. Lizing shartnomalarini boshqaruvchi maxsus qonunlar mavjud mamlakatlar guruhi (Kontinental /arbiy Evropa mamlakatlari: Frantsiya, Belgiya, Italiya).
2. Maxsus qonuniy hujjatlar amal qilayotgan mamlakatlar ("Umumiy huquq" mamlakatlari: Angliya, Avstraliya, YAngi Zelandiya).
3. Amalda maxsus qonunchiligi mavjud bo'lmagan mamlakatlar: (AqSH, Germaniya). Birinchi guruh mamlakatlaridagi mavjud qonunchilik uchun xarakterli xususiyat, lizing munosabatlari nafaqat asosiy hamkorlar (lizing oluvchi va lizing beruvchi) o'rtasida boshqariladi, balki lizing kompaniyasi bilan etkazib beruvchi o'rtasida (lizing operatsiyalari mobaynida transport vositalari xizmatidan foydalanish hollari, mol-mulk kompaniyasi) ham boshqariladi.

Birinchi qonunchilikka ko'ra lizing kelishuvlarida (uch tomonlama) quyidagi holatlar albatta ko'rsatilishi kerak: uskunalarning aksariyati keyinchalik ijaraga topshirilishi va ular faqat professional maqsadlar uchun ishlatishi lozim. Unda yana sotib olish va baho huquqi shart-sharoitlari ham ko'rsatiladi, ya'ni kelishuv muddati tugagandan so'ng qaytarib olishi mumkin. SHu bilan birgalikda risk va mas'uliyat bo'yicha muammolar fuqarolik va savdo huquqlariga oid umumiy normalar orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchi guruh mamlakatlari qonunchiligiga ko'ra lizing kelishuvlari vaqtinchalik ishlatishga berilayotgan buyumning qiymati va lizing kelishuvlari sub'ektlariga bog'liq ravishda boshqariladi.

Uchinchi guruh mamlakatlaridagi maxsus qonunchilikning mavjud emasligi. Masalan, AqSHda. YAqin vaqtlargacha bu mamlakatlarda lizingga bo'lgan munosabatni belgilovchi asosiy vosita soliq va amortizatsiya imtiyozlari edi. Ular soliqqa tortish masalalariga bag'ishlangan qonuniy hujjatlarda belgilab berilgan. Bu mamlakatlarda lizing kelishuvlarida umumiy fuqarolik va savdo huquqlari keng qo'llaniladi.

O'zbekistonda lizingni rivojlanishi. Xalqaro moliya korporatsiyasi 1995 yilda O'zbekistonning birinchi lizing kompaniyasini moliyalashtirgan. XMK ishtirokida "Uzbeklizing interneshnl" aksionerlik birlashmasi tashkil topgan. XMK respublika lizing operatsiyalari bozorini tartibga solib turuvchi huquqiy-normativ hujjatlarni qabul qilinishida faol ishtirok etgan. Hozirda esa lizing operatsiyalari bozori Fuqarolik kodeksi (1996 yil) va "Lizing to'g'risida"gi qonun asosida tartibga solinmoqda. 2002 yil qishda Oliy Majlis sessiyasida lizing qonunchiligiga 38 ta tuzatishlar kiritilgan. Tuzatishlarning muhimlaridan biri bu lizing kompaniyalariga lizing operatsiyalarini moliyalashtirish uchun mablag' jalb etish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Undan tashqari, 2001 yilda O'zbekiston xalqaro moliyaviy lizing to'g'risidagi UNIDRUA konventsiyasini ratifikatsiya qildi.

O'zbekistonda lizing operatsiyalarini asosan 6 ta lizing kompaniyalari amalga oshiradilar.

"Uzbeklizing interneshnl" kompaniyasining ustav kapitali 6 mln. AKSH dollarini tashkil etadi. U 50 ming doll.dan 1,7 mln.doll.gacha qiymatdagi uskunalarni lizingga berishga ixtisoslashgandir. 2002 yil oxiriga qadar kompaniya 9,4 mln.doll.ga teng qiymatdagi 40 ta loyihani amalga oshirgan. Bu loyihalarning barchasi 50 mln.doll.dan 500 mln.doll.ga teng bo'lgan loyihalardir. Birinchi loyihalardan kompaniya yiliga 15%, so'mdagi loyihalardan 25% oladi. "Uzbeklizing interneshnl" kompaniyasi foizlarni asosiy summadan hisoblaydi (boshqa lizing kompaniyalari foizlarni ssuda qarzlaridan hisoblaydilar). Loyihalar muddati bir yildan besh yilgacha. Kafolat ta'minoti 50%ga boradi. Moliyalashtirishni ochilishini minimal muddati – ikki hafta. "Uzbeklizing interneshnl" mamlakatimizdagi o'z valyuta resurslariga ega bo'lgan yagona lizing kompaniyasidir.

Osiyo-evropa trast kompaniyasi 1996 yilda tuzilgan. Uning ustav kapitali – 50 ming doll. U respublikaga uskunalarni import qiladi, hamda mablag'larni kichik va o'rta korxonalarga investitsiyalashga sarflaydi. Kompaniya 3,6 mln.doll. qiymatdagi 10 ta loyihani amalga oshirgan. Kompaniya ta'sischilari tarkibida o'zgarishlar sababli oxirgi 1,5 yilda yangi loyihalar moliyalashtirilmayapti.

"Baraka" universal lizing kompaniyasi 1996 yilda tashkil topgan, ustav kapitalini 2003 yilda 1 mlrd.so'mga etkazish mo'ljallangan. U asosan qiymati 100 doll.dan 60000 doll.gacha bo'lgan uskunalarni ichki lizingi bilan shug'ullanadi. Kompaniya 9,1 mln.doll. qiymatidagi 97 ta loyihani amalga oshirgan. U Isroildan 15 ta kichik sut zavodlarini lizingini ta'minlagan. Loyihaning umumiy narxi 206 ming doll. So'mli loyihalar bo'yicha "Baraka" kompaniyasi yiliga 34-35% hisoblaydi.

“UzKEYSagrolizing” kompaniyasi 1997 yil tashkil etilgan. Ustav fondi - 5 mln.doll. Kompaniya “KEYS” amerika kompaniyasi ishlab chiqargan qishloq xo’jaligi texnikasini lizingini amalga oshiradi. Hozirga qadar umumiy qiymati 7,2 mln.doll.lik 37 loyiha amalga oshirilgan.

Lizing operatsiyalarini amalga oshirishda etakchi o’rinni egallaydigan kompaniyalardan biri “Uzselxozmashlizing” 1999 yilda tashkil etilgan. Ustav fondi – 1,5 mln.doll. Umumiy qiymati 152,9 mln.doll.ga teng 4420 ta loyiha amalga oshirilgan. Kompaniyaning etakchi pozitsiyalari mahalliy ishlab chiqarilgan qishloq xo’jaligi texnikasini 7 yilga 15% foydasi bilan lizingga berishga asoslangandir.

1997 yilda tashkil topgan “O’zavializing” kompaniyasining kapitali 24,5 mln. so’mdir. Hozirgi kunga qadar kompaniya \$15 mln.lik bitta bitimni amalga oshirdi. Navbatda DAI “TAPOiCH” ga ishlab chiqarish aviatexnikasini lizingini Rossiya va Xitoy aviakompaniyalari bilan birgalikda amalga oshirish turibdi.

O’zbekistonda kichik va o’rta biznesga lizing xizmatlarini amalga oshiruvchi beshta lizing kompaniyasi faoliyat ko’rsatmoqda. Undan tashqari lizing xizmatlarini mamlakatning 11 tijorat banklari ham ko’rsatadilar. Lizing loyihalari soni bo’yicha kutilmaganda “Tadbirkorbank” etakchi o’ringa chiqib oldi (103 loyihaning umumiy summasi \$ 220 ming). qishloq xo’jaligi lizingi jadal rivojlanmoqda. 2002 yil avgust oyida Prezident farmoni chiqqunga qadar banklarga lizing operatsiyalarini amalga oshirishdan ko’ra kreditlar berish afzallroq edi. Chunki hozirda lizing to’lovlari qo’shilgan qiymat solig’idan ozod qilingan. Undan tashqari lizingga berish uchun olib kirilayotgan texnologik uskunalar qqS va bojxona to’lovlaridan ozod qilingandir. Lizing oluvchilar esa lizing ob’ekti bo’yicha mulk solig’ini to’lamaydilar.

Tayanch iboralar.

Lizing. Lizing kreditlari. Lizing operatsiyasi. Operativ lizing. Moliyaviy lizing. qaytaruvchi lizing. Xalqaro lizing. Levedj lizing. Paketdagi lizing. Sof lizing. To’liq lizing. Xayring. Reyting. Tranzit lizing.

Nazorat savollari.

1. Texnika taraqqiyotida lizing kreditlarini o’rni qanday?
2. Lizing operatsiyasida nechta tomon qatnashadi?
3. Lizingni qanday turlari bilasiz?
4. O’zbekistonda lizingni rivojlanish ahvoli qanday?
5. Operativ lizingniga izoh bering.
6. qaytaruvchi lizing nima?
7. Lizing kreditlari nima?
8. Xalqaro lizing nima?

Adabiyotlar ro’yxati.

1. Evsanko O.S. hpargalka po investitsii. Ucheb. Posobie. -M.: TK. Velbi, 2004 g.

2. Kotayubov V.YU. Investitsionno'y potentsial xozyaystvennoy deyatelnosti: Makro ekonomicheskoy i finansovo-kreditno'y aspekto'. Ucheb pos. -M.: MGIMO-Universitet. 2004 g.
3. TSarev V.V. otsenka ekonomecheskoy effektivnosti investitsiy.- SPb.: petr, 2004 g.
4. Siddiqov A. Sanoat ishlab chiqarishiga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari samaradorligi. "Bozor, pul va kredit" jurnali , 2004 №7-8 sonlar.
5. Lizing munosobatlari nazariyasi va amaliyoti. I.f.d., professor D./ozibekov umumiy tahriri ostida .-T.: Fan va texnologiya, 2004 y.
6. Titov V.I. Analiz i diagnostika finansovo- xozyaystvennoy deyatelnost predpriyatiya: uchebnik. M.: Dashkov i K, 2005 g.
7. Kojuxar V.M. Praktikum otsenka investitsiy: Ucheb posobie. -M.: Izd. Torgovaya koorparatsiya. Dashka. 2005 g.
8. [Investitsiya](http://www.nalogi.studentu.ru/index.phtml?uid) <http://www.nalogi.studentu.ru/index.phtml?uid>
9. [Investitsiya](http://cultinfo.ru/fulltext/1/001/008/002/555.htm) <http://cultinfo.ru/fulltext/1/001/008/002/555.htm>
10. [Investitsiya](http://fem.grsu.by/Kafedry/KD/academic_process) http://fem.grsu.by/Kafedry/KD/academic_process
11. Investitsionnie klimit <http://www.buh.ru/documents.jsp?ParentID>
12. Investirovanie http://skbkontur.ru/buhinfo/txt/kn_t1c.html
13. Investitsionnie klimit <http://lexaudit.ru/stat57.html>
14. Investitsionnie klimit. <http://www.ckat.ru/normdoc/pbu13/pbu13g2.htm>
15. Investirovaniya... <http://db.socionet.nw.ru/RuPEc/xml/rus/book-gp0675...>
16. Investirovaniya...<http://zakon.kuban.ru/doc/107n.shtml>
17. www.uz – pervo'y sayt Uzbekistana - resurso' Uzbekistana
18. www.gov.uz – ofitsialno'y pravitelstvenno'y sayt Respubliki Uzbekistan
19. www.stat.uz/index.htm – sayt Gosudarstvennogo komiteta RU po statistike
20. www.mf.uz sayt Ministerstvo finansov Respubliki Uzbekistan.

11-Mavzu. Investitsiya loyihasini ishlab chiqish asoslari.

Reja

- 1. Investitsiya loyihasini ishlab chikish boskichlari.**
- 2. Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash.**

1. Investitsiya loyihasini ishlab chikish boskichlari

Investitsiya loyihasini ishlab chikish va uni hayotga tadbik etish, birinchi navbatda, uning ishlab chiqarishga yunaltilganligi va uzok muddat mobainida amalga oshirilishi bilan, ya'ni g'oyadan boshlab uning moddiylikka aylanishi bilan izoxlanadi.

Iqtisodiyotda investitsiya loyihalarini ishlab chikish turli tarmoklarda turlicha olib boriladi. Investitsiya resurslarining takchilligi sharoitida ustuvor yunalishga ega bulgan loyihalar kishlok xujaligi va sanoat tarmoklarida, ijtimoiy soxalarda (fan, soglikni saklash, madaniyat, maorif va x- k.) ishlab chiqilishi lozim. Investitsiya loyihalarining ishlab chiqilishi turli tarmoklarda olib borilishi mumkin:

1. Axolini ozik-ovkat mahsulotlari bilan ta'minlashda, agrosanoat ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va ozik-ovkat resurslarini kupaytirish kabi soxalarda investitsiya loyihalari ishlab chiqilishi mumkin. Bu loyihalardan don xujaligini rivojlantirish va ta-komillashtirishga, chorva mollari mahsulotlarini ishlab chiqarishni oshirishga karatilgan bo'lishi, shuningdek kishlok xujaligi mahsulotlarini qayta ishlashda, sotishda, saklashda yukotishlarni kamaytirishga yunaltirilgan bo'lishi lozim.

2. Mashinasozlik soxasida ishlab chikilgan va amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari energiyani kam sarf kiluvchi mashina va uskunalar bilan ta'minlashga karatilgan bo'lishi kerak.

3. Kurilish sanoatida investitsiya loyihalari, asosan, yakka tartibdagi va umumiy kurilish uchun kerak bulgan sifatli va arzon kurilish materiallari bilan bozorni tuldirish, sanoat kurilish materiallari korxonalarini kam energaya sarf kiluvchi texnologiyalar bilan ta'minlash va qayta kurollantirish, xom ashyo bazasini rivojlantirish bilan boglik buladi.

4. Aloka va informatika tarmogidagi korxonalarda loyihalar kupincha uni texnik qayta kurollantirish va elektr aloka tarmogini ta'mirlash, yangi xizmat alokalarini kengaytirish bilan boglik buladi.

5. Ximiya sanoatidagi investitsiya loyihalari sanoatdagi rakobatbardosh yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni sotish bilan boglik buladi.

6. Urmon kompleksidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirishda daraxtni qayta ishlovchi korxonalarni yangi texnologiyalar bilan ta'minlovchi hisobiga ularning ish unumini oshirish, urmon xujaligining ishlab chiqarish tarmogini takomillashtirish va ekologiyaga ta'sir etuvchi chikindilarni pasaytirishdan iborat.

7. Ekologiya tarmogidagi loyihalar sanoat va kishlok xujaliga korxonalarining xozirgi va keyingi faoliyatlarini, ularning mulk shakllarini hisobga olgan xolda, me'yor va koidalar asosida ekologik vaziyatni yaxshilashga yunaltirilgan bo'lishi kerak.

Investitsiya loyihalarini ishlab chikishda loyiha tsiklining boskichlari muhim ahamiyatga ega. "Loyiha tsikli" tushunchasiga loyihani ishlab chikish va amalga oshirishning turli boskichlari kiradi. Loyiha tsiklining boshlangich va tugallanish davrlari, goyadan to uning moddiy qiymatga ega bulgunga kadar davrlarni uz ichiga oladi.

Investitsiya loyihalarini yaratish va uni amalga oshirish quyidagi boskichlarni uz ichiga oladi:

- investitsiya goyalarining shakllanishi, ya'ni goyani tanlash va dastlabki asoslash, yangilik, ekologik nuktai nazardan bir qarorga kelish, uni amalga oshirish davomida kuyiladigan talablarga javob berish va davlat idoralari bilan kelishuv;
- investitsiya imkoniyatlarini izlash, ya'ni ishlab chiqariladigan mahsulotga yoki xizmat turiga buladigan talabni urganish loyiha ishtirokchilari tarkibi buyicha takliflar, loyihaning qiymati va uning samarasini aniqlash;
- loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishi;
- shartnoma xujjatlarini tayyorlash;
- tender savdolariga tayyorgarlik;
- saloxiyatli (potentsial) investorlar bilan mulokotlar;

- loyihada xujjatlarini tayyorlash;
- nostandart texnologik jixozlarni tayyorlovchi va etkazib beruvchilarni aniqlash;
- kurilish-montaj ishlari;
- ob'ektni ishlab chiqarishda tajribadan utkazish, iqtisodiy ko'rsatkichlar monitoringi va ob'ektni loyiha kuvvatiga etkazish.

Investitsiya loyihasini ishlab chikishning asosiy boskichi bo'lib, investitsiya oldi fazasi hisoblanadi. Bu investitsiya loyihasi buyicha dastlabki izlanishlardan to uni amalga oshirish buyicha qaror qabul qilingungacha bulgan davrni uz ichiga oladi. Investitsiya oldi fazasi, asosan, investitsiyalarni loyihalashtirishga taalluklidir.

YAkuniy qaror sifatida loyihani amalga oshirishga kelishish va tasdiklash (ishchi xujjatlar) uchun loyihaning investitsiya oldi fazasida bulgusi loyihalashtirish ob'ektining imkoniyatlari urganiladi. Korxona (investor, loyiha tashkilotchisi) loyihaga investitsiya qilish to'g'risida dastlabki qarorni qabul kiladi va kurilishi kerak bulgan ob'ektga raxbarni (boshkaruvchi, direktorni) tanlaydi. Loyihani amalga oshirishning turli xil variantlarini urganish, loyihani texnik-iqtisodiy asoslash (TIA) va uning samaradorligini baholashni korxona uz kuchi bilan yoki maxsus tashkilotlar, masalan, loyihachi, arxitektor, kurilish tashkiloti, maslaxatchi firmalarning kumagida amalga oshirishi mumkin.

Texnik-iqtisodiy asoslash (TIA) termini kup xollarda kisman noto'g'ri tushuniladi, uning ahamiyati esa uskuna yoki texnologiyalarni etkazib beruvchilar tomonidan aklan ishonchsiz ochib beriladi. Kup xollarda uskunani etkazib berish yoki texnologiyalarni tanlashga boshlangich muljallangan loyiha eskizini TIA deb atashadi (garchi bu narsa loyihaning barcha jixatlarini kamrab ololmaydigan injener-tadkikot yoki tadkikotni ta'minlashgacha hisoblansa ham). Ayrim xollarda ishlab chiqarish yoki sotish xajmini baholash rivojlangan mamlakatlarda kuzatiladigan yoki rivojlanaetgan mamlakatlar shart-sharoitlariga nisbatan zaif, kuchsiz munosabatlarga ega davlatlarning sharoitlarini hisobga olishga asoslanadi.

Bunday tadkikotlar maxalliy shart-sharoitlarga to'g'ri kelmagan yoki ularga yomon boglangan buladi, ular ishonchsiz yuldan borishi mumkin va rivojlanaetgan mamlakatlarda u tez-tez resurslarning noto'g'ri joylashtirilishiga olib kelishi mumkin. TIA mavjud ishlab chiqarish omillariga, maxalliy bozor va ishlab chiqarish shart sharoitlariga boglangan bo'lishi lozim. Tahlil natijalari xarajatlar, daromadlar va sof foyda kismini yakkol ko'rsatib berishi lozim. TIAni ishlab chikish tadkikot natijasida aniqlangan kerakli moliyaviy mablag'lar etarli darajadaligi ma'lum bulgandagina amalga oshirilishi lozim.

TIAni ishlab chikish tugallangandan sung barcha aniq bulgan mahsulotlari va taxmin qilingan risklar, xarajatlar va foyda bilan boglik xolda turli xil ishtirokchilar investitsiya loyihasini baholashda uzlarining shaxsiy tahliliy xulosasini beradilar. Yirik investitsiya va moliyaviy tashkilotlar yaratilgan va shakllantirilgan usullar yordamida loyihani baholashni olib boradilar va tegishli xulosalarni tayyorlaydilar. TIA sifati kanchalik yuqori bulsa, loyihani baholash ishi shunchalik engil kechadi. Loyiha goyasi tugilgan vaktdan boshlab sunggi davrgacha kup vakt va mablag'lar sarfi kuzatiladi. Sunggi baholash xulosalari esa

ushbu ishlab chiqarishdan oldingi qilingan xarajatlar uzini oklashi mumkinligini ko'rsatadi va shu jixatdan yuqori ahamiyatli hisoblanadi.

Mablag'larni loyihaga investitsiyalashdan oldin bajariladigan muhim ishlardan biri bu loyiha buyicha investitsiya imkoniyatlarini aniqlashdir. Saloxiyatli investorlar, ular kanday bo'lishidan katiy nazar rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlarda yuzaga kelaetgan investitsiya imkoniyatlari to'g'risida ma'lumot olishga kizikishadi. Bunday investitsiya loyihalari buyicha ma'lumotlarni urganish va tahlil etish ikki xil yunalishda amalga oshiriladi:

1. Iqtisodiet sektori darajasi buyicha yondashish (makro).
2. Korxona darajasi buyicha yondashish (mikro).

Iqtisodiet sektori darajasi buyicha izlanishlarni olib borish usha davlatning butun investitsiya saloxiyatini (potentsialini) hamda bu davlatga boshka davlatlar tomonidan investitsiya qilinishi mumkin bulgan mablag'lar xajmini urganish va tahlil qilishni uz ichiga oladi.

Korxona mikyosidagi tahlil aniql investitsiya loyihasi buyicha kuyilayotgan talablardan kelib chikkan xolda amalga oshiriladi.

Loyiha buyicha investitsiya imkoniyatlarini urganish va tahlil qilishda quyidagi omillarga aloxida e'tibor beriladi:

- umumiy investitsiya muxiti, shart-sharoitlar;
 - qayta ishlanishi mumkin bulgan tabiiy boyliklar va xom ashyo resurslari;
 - ishlab chiqarilishi muljallanayotgan tovarga (xiz-matga) kelgusidagi talab (axolini o'sishi hisobiga, axoli xarid kobiliyatining o'sishi hisobiga va boshka omillar);
 - loyihaning atrof-muxitga ta'siri;
 - boshka tarmoklar bilan kelgusidagi uzaro aloka imkoniyatlari;
 - diversifikatsiyalash imkoniyati.
- Masalan, nefteximiya majmuasidan farmatsevtik ishlab chiqarishga utish;
- ishlab chiqarish resurslarining mavjudligi va ularning qiymati;
 - eksport imkoniyatlari;
 - import urnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish

Investitsiya imkoniyatlari buyicha izlanishlar yuqorida keltirilgan omillar buyicha xar birining aloxida tahliliga emas, balki umumiy baholashga asoslanadi. Loyiha goyasini rivojlantirish uchun aniql takliflar kiritishda talab etiladigan ma'lumotlarni miqdoriy baholash uchun investitsiya imkoniyatlarini tadkik etish asosiy vosita hisoblanadi. Bunda quyidagi jixatlar tahlil etiladi:

- qayta ishlovchi sanoat uchun kerakli bulgan tabiiy resurslar;
- kishlok xujaligiga asoslangan sanoat tarmogi uchun asos bulgan amaldagi kishlok xujaligi tarkibi;
- muayyan iste'mol talablariga kelgusi talab, axoli o'sishi hisobiga ortib boruvchi talab;
- atrof-muxitga ta'sir ko'rsatish;
- qayta ishlovchi sanoat sektori;
- maxalliy yoki transmilliy va boshka tarmoklar bilan mumkin bulgan alokalar;
- umumiy investitsiya muxiti;
- ishlab chiqarish siyosati;

- ishlab chiqarish omillarining mavjudligi va qiymati;
- eksport saloxiyaati va boshkalar.

Umumiy imkoniyatlarni tadkik etishni quyidagi uchta kategoriyaga ajratish mumkin:

1. Xududdagi imkoniyatlarni aniqlash uchun belgilangan izlanishlar.
2. Sanoat soxasidagi, masalan, kurilish materiallari yoki ozik-ovkat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi imkoniyatlarni aniqlash uchun belgilangan izlanishlar.
3. Tabiiy resurslar, kishlok, va sanoat mahsulotlaridan foydalanishga (neft, ximiya, metallurgiya, yogochni qayta ishlash) asoslangan imkoniyatlarni aniqlash uchun belgilangan izlanishlar.

Loyiha imkoniyatlarini tadkik etish natijasida olingan ma'lumotlarni tayyorlashga biron-bir miqdordagi katta xarajatlar jalb qilinishi kerak emas, chunki u sanoat ob'ektini investitsiyalash buyicha qilinishi mumkin bulgan takliflarning fundamental ji-xatlarini aniqlashga asoslangan buladi. Bunday tadkikotlarning maqsadi investitsiya imkoniyatlarining birmuncha muhim holatlarini kam xarajatlar asosida tez baholash hisoblanadi. Loyihaning investitsiya imkoniyatlarini tadkik etish investitsiyalashga ta'sir etuvchi milliy yoki xalkaro tashkilotlar tomonidan yoki bulmasa moliyaviy institutlar tomonidan qabul qilinsa, tadbirkorning kizikish belgilari paydo bulganda ish manfaatdorligini oshirish uchun dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash (DTIA) amalga oshirilishi lozim.

DTIAning asosiy maqsadi quyidaga holatlar bajarilish mumkinligini aniqlashga asoslanadi:

- loyihaning barcha mumkin bulgan mukobillari kurib chikilgan;
 - loyiha kontseptsiyasi TIA yordamida puxta tahlil utkazishni oklaydi;
 - loyihaning barcha jixatlari uning amalga oshishligi, funktsional tadkikotlar yuli bilan chukur urganishning zarurligini tan olish yoki bozorni tahlil etishni, laboratoriya yoki ishlab chiqarish tajriba sinovlari kabi tadkikotlarni ta'minlash nuktai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi;
 - loyiha goyasi loyihaning mavjud ma'lumotlar asosida hayotiyiligini aloxida investor yoki investorlar guruxi uchun jozibador ekanligini aniqlashi kerak buladi;
 - rejalashtirilayotgan kurilish maydonidagi ekologik muxit va kuzda tutilayotgan ishlab chiqarish jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatish milliy andozalarga mos keladi.
- DTIAni loyiha imkoniyatlarini tadkik etish va puxta TIA urtasidagi oralik boskich sifatida kurib chikish lozim. Ularning farki esa olinadigan ma'lumotni detallashtirish darajasi va loyiha variantlarini chukur kurib chikishga asoslanadi. DTIAning tuzilishi murakkab tarzidagi TIAning tuzilipsh "kabi bo'lishi lozim. Mumkin bulgan mukobillarni, pyxta tahlil etish DTIA boskichida aloxida urin egallashi lozim. Xususan, tahlil tadkikotning quyidagi soxalarida aniqlanuvchi turli xil mukobillarni kamrab olishi lozim:
- loyiha strategiyasi yoki loyihaning korporativ strategiyasi va andozasi;
 - bozor va marketing kontseptsiyasi;
 - xom ashyo, asosiy va yordamchi ishlab chiqarish materiallari;
 - loyihaning joylashish urni, maydoni va atrof-muxit;
 - tashkil etish va o'zgarmas (ustama) xarajatlar;

- mexnat resurslari, xususan, boshkaruv xodimlari, ishchilar uchun ish xaki sarflari, shuningdek professional ukitishga talablar va unga doyr xarajatlar;
- loyihani amalga oshirish ruyxati va byudjetini tuzib chikish va x.k.

Yuqorida keltirilgan omillar ta'siri moliyaviy va iqtisodiy nukgai nazardan baholangan bo'lishi lozim. Birok loyiha iqtisodiy jixatdan shubxa tugdiradigan bulsa, u xolda DTIA katiy tartibda utkaziladi. Agar investorlar loyiha shartlari va shart-sharoitlari buyicha tulik tushuncha va bilimga ega bulsalar, bunday holatda DTIASiz ixchamlashirilgan izlanishlar olib boriladi. SHuningdek kiskartarilgan izlanishlar investitsiya va ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy moddalarinigana emas, balki ikkinchi darajali moddalarini aniqldash uchun ham ishlatiladi. Asosiy kiritiladigan resurslar loyiha hayotiyiligini aniqlashda xal kiluvchi omilga aylangandagina tadjikot ta'minoti DTIA va TIA boskichlarigacha olib boriladi. Agar muayyan aniql mahsulot ishlab chiqarilishini aniqlash uchun zarur bulgan puxta urganishlar ham TIAGA xos bulsa, tadjikot ta'minoti aloxida, biroq DTIA va TIA bajarilish bilan bir paytda olib boriladi. Tadjikot ta'minoti TIA tugallanishidan keyin ham olib borilishi mumkin.

TIA investitsiyalash to'g'risida qaror qabul qilish uchun kerakli barcha ma'lumotni berishi lozim, uz navbatida, investitsiya loyihasining tijorat, texnik, moliyaviy, iqtisodiy va ekologik jixatlari aniqllangan bo'lishi lozim va DTIA boskichida kurib chi-kib bulingan mukobil variantli-echimlar asosida tulik baholangan bo'lishi lozim. Izlanishlarning moliyaviy kismi sof aylanma kapital, ishlab chiqarish va marketing xarajatlari, sotishdan tushgan tushum va investitsiya qilingan kapitaldan olingan foydani uz ichiga olgan xolda investitsiyalar xajmini aniqllashdan iborat. Investitsiya va ishlab chiqarish xarajatlarini yakuniy baholash, shuningdek moliyaviy va iqtisodiy foydaliligini aloxida hisoblash loyiha ulchami buyicha barcha muhim jixatlarni va ular bilan boglik xara-jatlarni hisobga olgan xolda to'g'ri aniqllangandagina maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Loyihaning barcha xajmi kelgusi ishlarning asosiy kismi bo'lib xizmat kiluvchi chizmalar, sxemalar, jadvallarda tula aks ettirilgan bo'lishi lozim. YAkuniy baholash faqatgana aniql loyiha bilan cheklanib kolmasdan, shuningdek u bilan boglik sanoat soxasi va tegishlicha iqtisodiyot bilan ham kizikkan xolda bajariladi. Deylik, agar avtomobil kurilishi korxonasi baholanayotgan bulsa, u xolda xulosa xom ashyo va uskuna etkazib beruvchi soxa, transport soxasi, mavjud avtomobil va temir yo'llari va energiya ta'minoti imkoniyati bilan boglik masalalarni ham hisobga oladi. YAkuniy xulosa tuzishda keng kamrovli loyihalar uchun tuplangan ma'lumotlar va loyihaning barcha omillari tahlilini qayta jiddiy tekshirib chikish kat'iy talab etiladi.

2. Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash

Investitsiya loyihasining dastlabki tahlili va samaradorligini baholash natijalari dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash (DTIA) va texnik-iqtisodiy asoslashni (TIA)ni tayyorlashda kullaniladi.

Texnik-iqtisodiy asoslash — bu loyihaning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini kurishga imkon beruvchi boshlangich ma'lumotlar, shuningdek asosiy texnik va tashkiliy qarorlar, hisob-smeta, baholash va boshka ko'rsatkichlarni uzida mujassamlashtiruvchi hisob-analitik xujjatlar tuplami.

Texnik-iqtisodiy asoslashni loyihaning maqsadliligi yuzasidan olib boriladigan texnik-iqtisodiy tadkikotlar sifatida ifodalash mumkin.

Investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslashning asosiy maqsadi investitsiya loyihalarining milliy valyutadagi kabi xorijiy valyutada ham koplanishini aniqlash hisoblanadi.

Investitsiya loyihasining TIAsini bajarish uchun karz oluvchi loyihaning amalga oshirilishining yuridik, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jixatlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni uzida mujassam etgan xujjatlar tuplamini tayyorlashi lozim. Bu xujjatlar tuplami quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

1. Karz oluvchining moliyaviy holati va uning kreditga layokatligi.
2. Xorijlik hamkorning ish faolligi, moliyaviy axvoli, tashabbuskorligi.
3. Karz oluvchi korxona kandy turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi yoki ishlab chiqarishni rejalashtirmokda, mazkur mahsulotlarning asosiy xaridorlari kimlar hisoblanadi?.
4. Ichki bozorda karz oluvchi korxonaning mahsulot ulushi kandy va u jaxon bozorida kandy ulushga ega, bozorning kandy sektorlarida o'sish yoki o'zgarishlar kutilmokda?.
5. Rakobatchilar tomonidan kandy risklar mavjud va mahsulot sotilishi uchun kim asosiy javobgar hisoblanadi?.
6. Karz oluvchi korxonaning va kafolat beruvchi tashkilotning yuridik makomi va tashkiliy tuzilishi kandy?.
7. Karz oluvchi korxona malakali, yuqori tajribali, etuk mutaxassis va ishchilarga egami, agar ular yuk bulsa, xodimlarni ukitish kim tomonidan tashkil etilgan?.
8. Xorijlik hamkorlar va mutaxassislar tomonidan kandy yordamlar kancha vakt mobaynida ko'rsatilishi lozim buladi, xorijiy mutaxassislarning soni va malakaviy darajasi, ular tomonidan ko'rsatiladigan yordam xarajatlari kandy?.

Loyihani byudjet yoki byudjetdan tashkari fondlar orkali, markazlashtirilgan resurslar, davlat korxonalarining uz mablag'laridan tulik yoki kisman moliyalashtirish uchun TIAning tuzilishi majburiy hisoblanadi. Investitsiya loyihalari samaradorligiga, asosan, boshka manbalar hisobiga moliyalashtirishning TIA tuzilshpi to'g'risidaga qarorni investorning uzi qabul kiladi.

TIA loyihani amalga oshirishdan oldin injener-konstruktorlik, texnologik va kurilish qarorlarini, mukobil variantlarni takkoslash va loyihani amalga oshirishning aniql usulini aniqlashni uz ichiga oladi. Unda loyihani amalga oshirish boskichida qabul qilingan texnologik, konstruktorlik, tabiatga zarar etkazmaslik va boshka masalalar aniqlashtiriladi, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy natijalar va loyihaning xavfsizligi tulik baholanadi.

Oldindan hisobga olinmagan ishlab chiqarish va boshka ob'ektlarni asoslash kurilish joyini tanlashning muhim omillarini va tabiiy shart-sharoitlarni baholash asosida amalga oshirilishi kerak. Bu esa investitsiya xajmi va ishlab chiqarish xarajatlariga ma'lum bir ta'sirini utkazadi.

TIA investorga kelgusi korxonaning moliyaviy barqarorligini va tulovga layokatligini tasdiklash uchun kullaniladi. TIA loyihachi va buyurtmachi urtasida tuzilgan shartnomaga asosan loyihalashtirish ishlarini amalga oshirish uchun litsenziyasi bulgan loyihachilar tomonidan ishlab chikiladi.

TIA ni ishlab chikishning boshlangich boskichida investor (buyurtmachi) maqsadlar to'g'risidagi deklaratsiyani tayyorlaydi. U quyidagi ma'lumotlardan iborat:

- investor va uning manzilgoxi;
- ob'ektga tavsif (nomlanishi, texnik va texnologik ma'lumotlar, belgilangan faoliyatning asoslanishi);
- ob'ektni kurishda mexnat va boshka resurslarga bulgan extiyoj (kadrlar soni va ularni ta'minlash manbalarini, moddiy va xom ashyo, suv va energiya resurslariga bulgan extiyoj);
- asosiy uskunalar ruyxati va ularning kurilish tavsifi;
- transport ta'minoti;
- ishchilar va ularning oilalarini uy-joy va ijtimoiy-maishiy tomondan ta'minlash;
- atrof-muxitga bulgan ta'siri;
- loyihani moliyalashtirish manbalari;
- kurilish muddati;
- tayyor mahsulotdan foydalanish va boshkalardir

Deklaratsiya tegishli davlat boshkaruv organlariga yuboriladi va ulardan ijobiy xulosani olgandan sung TIA ni ishlab chikishga kirishiladi.

TIA ning tarkibi va mazmuni buyurtmachi bilan loyihachi tashkilot urtasida uzaro kelishilgan xolda qabul qilinadi va shartnomada ham uz aksini topadi. TIA da katta va murakkab ob'ektlarning mukobil variantlarini va investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini aloxida nazarda tutish kerak hamda soliq amortizatsiyasi va kredit siyosatini hisobga olish, iqtisodiy hisob-kitoblar (kurilish davri, loyiha kuv-vati va ekspluatatsiya ob'ektini uzlashtirish) bajarilishi uchun aniql davrni belgilash lozim.

TIA investitsiya loyihasi to'g'risida etarli ma'lumotlarni uzida aks ettirgan bo'lishi lozim. CHunki shu asosda investitsiyalashning maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosaga kelish mumkin yoki, aksincha, maqsadga muvofiq bulmasa, ushbu masala oldindan bartaraf qilinadi. Investitsiyalash va ishlab chiqarish xarajatlari, moliyaviy va iqtisodiy daromadlarning katiy hisobi faqat dastlabki TIA da loyiha andozasi aniql bulgan xoldagina bajariladi. Loyiha andozasi barcha mumkin bulgan jixatlar va ular bilan boglik masalalarni hisobga olishi kerak. Sanoat korxonalarining istalغان turi, xajmi va kategoriyasini kamrab oluvchi TIA ning yagona bir yondashuvi yoki universal modeli amaliyotda mavjud emas. Kupincha investitsiya loyihalariga keng kulamdagi tavsiyalar kul keladi.

TIA mazmuniga kura dastlabki TIA ga uxshash bulsa ham, optimal tavsiflarga tijorat, texnik, tadbirkorlik risklarini kushgan xolda investitsiya loyihasi takrorlanadigan jarayon yuli bilan puxta ishlab chiqilishi kerak. Agar loyihaning puxtaligi yoki uning foydaliligini asoslash ishonchli bulmasa, ko'rsatkichlar chukurrok tahlil qilinishi lozim, kerak bulsa, loyiha maqsadga muvofiq bo'lishi uchun o'zgartirilishi ham mumkin.

SHunday kilib, xar bir investitsiya loyihasi TIA boskichida mumkin bulgan tijorat, texnik, tadbirkorlik va boshka risklar nukta nazaridan batafsil ishlab chiqilishi va takomillashtirilishi kerak. Bundan tashkari, kelgusida korxonaning zararlarini yukotish yoki xech bulmaganda kiskartirish (kamaytirish) uchun investitsiya loyihasi chukur tahlil qilinishi zarur

CHet el mamlakatlarining tajribasini, xususan, YUNIDO tajribasini hisobga olgan xolda investitsiya loyihalari TIAsining taxminiy tarkibiy tuzilishini keltiramiz:

- loyihaning asosiy goyasi va shart-sharoitlari;
- bozor tahlili va marketing strategiyasi;
- resurslar bilan ta'minlanganlik;
- investitsiya ob'ektining joylashish joyi, kurilish maydoni va atrof-muxit;
- loyihalashtirish va texnologiya;
- korxonani tashkil qilish va ustama xarajatlar;
- mexnat resurslari;
- investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayonini rejalashtirish;
- moliyaviy tahlil va investitsiyalarni baholash;
- rezyume ,TIAning kiskacha mazmuni.

Ammo xozirgi zamon amaliyotida tijorat banklari (kreditorlar) tadbirkorlardan investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashlarini ishlab chikishni biroz uzgacha tartibda, keng mazmunda va yuqori sifat bilan tayyorlangan bo'lishi lozimligi talab kilmokdalar.

Mazkur talablar asosida ishlab chikiladigan TIA-lar quyidagi murakkab tartib va mazmunda, lekin tushunarli, uzaro bogliklikda (bulimlardan iborat) bo'lishi lozim:

1. Kirish.

Ushbu bulimda karz oluvchi korxona kimga tegishli va u kanday faoliyat turi bilan shugullanishi, uning boshkarish va moliyaviy axvoli, bozor segmenti kandayligi, kimlar xorijiy hamkorlar hisoblanishi (agar mavjud bulsa), korxonani kimlar boshkarishi va ushbu soxada ularning boshkarish tajribasi kay darajadaligi, korxona ishchilari soni va tarkibi, korxonaning biznes-rejasi mavjudligi va uning kelgusidagi strategiyasi, kuzda tutilayotgan investitsiyalarning kanday kurinishda va maqsadlarda ishlatilishi, loyihada yana boshka kanday ishtirokchilar katnashishi va ularning moliyaviy kuyilmalari kanday kurinish kasb etishi kabilar batafsil yoritilishi lozim. Bundan tashkari, korxonaning oxirgi ikki yillik hisobot ma'lumotlari, sotish xajmi, shuningdek eksport miqdori hamda yakin ikki-uch yillik rivojlanish rejasi uz aksini topgan bo'lishi kerak.

2. Loyihadagi operatsiyalar.

Mazkur bulimda loyiha muxokamasi, uning faoliyat soxasi va mantikiy ifodasi (asoslanishi), amalga oshirish chora-tadbirlari, loyihaning yangiligi yoki ishlab chiqarishni kengaytirish uchun muljallanganligi, agar ishlab chiqarishning kengaytirilishi na-zarda tutilgan loyiha bulsa, uning chiqaradigan mahsulotlari, kuvvati, zaif tomonlari, kengaytirishdan kuzlangan maqsad va boshkalar tulik keltirilgan bo'lishi lozim.

3. Loyihaning afzalliklari va foydaliligi.

Bu bulim qo'shimcha ishchi kuchini tashkil etish, ekologik axvolni yaxshilash, mamlakat eksport saloxiyatini kutarish, kimmatli yokilgi importiga extiyojmandligini (bogliqlikni) kamaytirish, import mahsulotlari urnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarish, ishlab chiqarishni kengaytirish va sifatini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy boshkaruv tizimini tadbik etish, resurslar va energiyalar sarfini tejash nuktai nazaridan loyiha-ning maxalliy ishlab chiqarish va iqtisodiyot uchun muhimligi jixatidan samaradorligini ochib berish vazifasini utaydi.

4. Loyiha ta'sischilari va xomiylari.

Ushbu bulim mazmuni karz oluvchi korxonaning yuridik nomlanishi va manzili, bank rekvizitlari, telefon, teleks va fakslari, tashkil etilish vakgi, mulkchilik shakli, raxbarlari, xizmatchilar ruyxati va taj-ribasi, ta'sischilar va xomiylar ish faoliyatining tajribalari tutrisidagi ma'lumotlar, yillik tovar oboroti, aktsiyadorlik kapitali, moliyaviy imkoniyatlari, kuzda tutilgan moliyaviy kuyilmalar va risklar, xorijiy hamkorlarning loyihada ishtirok etishining mantikiy asoslanganligi (agar mavjud bulsa) va ta'sischilarning sunggi ikki yillik daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari hamda auditorlik firmalari xulosalari bilan ifodalanadi.

5. Loyiha buyicha bitimlar (shartnomalar) qiymati.

Tomonlar urtasida tuzilgan bitimda uning qiymati, bitim qiymatining asosliligi, ya'ni xarajatlarning er, uskuna xodimlarni ukitish, kurilish-montaj ishlari, talab qilingan aylanma kapital va boshlangich xarajatlarga bulinishi hamda ularning bahosi, xarajatlarning maishiy va xorijiy valyutada kiy-mati vatuzilishi, investitsiya xarajatlari kabilar mukammal tarzda aks ettirilgan bo'lishi zarur.

6. Loyihaning moliyalashtirish rejasi.

Moliyalashtirish rejasida moliyalashtirishning tarkibiy tuzilishi to'g'risidagi boshlangich tasavvurlar, kreditlar, maxalliy va xorijiy karzlar hamda xususiy mablag'larni olish manbalari, loyihaning likvidliligini ta'minlash uchun talab etiladigan muddat va shart-sharoitlar, ya'ni kreditlarning qaytarilishi va kuyilgan mablag'larning koplanishi uchun talab etiladigan vakg va shartlar, moliyaviy rejalarda aniqlangan etishmovchiliklar aniql mazmunda va tartibda bayon etilishi kerak.

7. Loyihadagi xom ashyo va boshka xarajatlar.

Loyiha buyicha xom ashyo va materiallar xarajatlari va ularning bozori, resurslar bozorining joylashuvi va xajmi, xom ashyo va resurslarni etkazib beruvchilar, ularning ishonchliligi va sifatli xizmati, xom ashyolarning sifati va milliy va xorijiy valyutadagi baholari, xom ashyo va materiallar bilan ta'minlashdagi kuzda tutilgan risklar, ularni etkazib berish sxymasi, shartlari va xarajatlari, xom ashyolarning bevosita yoki vositachilar orkali sotib olinishi hamda resurslar bozori marketingi tadbikotlari, asosiy ishlatiluvchi xom ashyolar va ularning zaxiralari ko'rsatilishi zarur.

8. Loyiha buyicha tovar va xizmatlar. Sotish bozorlari.

TIANing mazkur bulimi etkazib beriluvchi tovar va xizmatlarning rakobatbardoshligi, asosiy sifat ko'rsatkichlari va ularning xalkaro standartlarga javob berishi, afzalligi, kadoklashning uziga xos xu-susiyatga egaligi, tovar

xizmatini tashkil etish, mahsulotning ichki va tashki bozorlardagi xarakati, korxona tovarlari va xizmatlari buyicha sotish bozorining holati, bozor joylashuvi, iste'molchilar turlari, korxonaning bozordagi ulushi, mahsulotga bulgan talabning o'sishiga ta'sir etuvchi omillar, rakobatchilar, marketing rejasi, tovarlarning bozorda joylashtirilish sxemasi (xususiy dukonlari, ulgurji tijorat tashkilotlari va maxsus iste'molchilar), narxni shakllantirish, reklamani tashkil etish va reklama xarajatlari, mijozlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish shartlari va imkoniyatlari hamda yuz berishi mumkin bulgan risklar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitilgan bo'lishi lozim.

9. Loyihaning tashkiliy masalalari.

Bunda korxonaning tashkiliy sxemasi va tuzilishi, boshkaruv tizimi, tayyor malakali mutaxassis va ishchilarning mavjudligi, agar yuk bulsa, ularni ukitishning tashkiliy ijrosi, xorijiy hamkorlar yoki mutaxassis xodimlar tomonidan ko'rsatiluvchi kerakli yordamlar va ularning sifati, muddati va xarajatlari, xodimlarning loyihani kullab-kuvvatlash va rivojlantirish yulida samarali va ishonchli ish yuritishlarini tashkil etish uchun kerakli bulgan dasturlarga boglik ma'lumotlar tuplami tahliliy asosda tashkil etilgan bo'lishi lozim.

10. Loyiha buyicha mulk va uskunalarni sugurtalash.

TIAning ushbu bulimida loyiha buyicha barcha mulk va uskunalarni sugurtalash buyicha tuzilgan shartnoma shartlari, muddati, shakli, summasi, sugurtalovchi tashkilot va uning faoliyati, imidji (obrusi) to'g'risidagi ma'lumot, sugurtalanayotgan mulk va uskunalarning tulik tarkibiy elementlari va shu kabilar ifodalangan bo'lishi zarur.

11. Loyiha buyicha atrof-muxitni muxofaza qilishga doyr ma'lumotlar. Loyihaga boglik xoldagi atrof-muxitni muxofaza qilish masalalari ob'ektning joriy va tarixiy holati va uning atrof-muxitga ta'siri, atrof-muxit to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjuddigi, loyiha buyicha atrof-muxitga salbiy ta'sir ko'rsatishlarni kamaytirish uchun kullanilishi kuzda tutilgan texnologik usullar, karz oluvchining atrof-muxit buyicha umumiy siyosati, baxtsiz xodisalar va "fors-major" holatlarida atrof-muxit uchun salbiy okibatlarining kelib chikish risklarikabilar Tabiatni muxofaza qilish davlat kumitasining loyiha buyicha ekspertiza xulosalari asosida xal etilgan bo'lishi lozim.

12. Loyiha buyicha konun va koidalar.

Loyihani amalga oshirish va u buyicha tegishli shartnomalarni tuzishda mavjud konun va koidalarga tegishli yuqori tashkilot organlarining ruxsatnomalariga va atrof-muxitni muxofaza qilish tartiblariga katiy amal qilinilishi, agar korxona tashki iqtisodiy faoliyat bilan shugullanadigan bulsa, u xolda tashki iqtisodiy alokalar agentlikdan, agar kushma korxona bulsa, Moliya vazirligidan ruyxatdan uttanligi, agar korxona faoliyat turi maxsus litsenziyalarni talab etsa, unda tegishli litsenziyalarga egaligi kabilar kuzda tutilgan bo'lishi lozim.

13. Loyiha buyicha texnologiya va uskuna.

Bu bulimda kuzda tutilgan uskuna va texnologayani olish manbasi, etkazib beruvchi firma, ixtisoslashgan firma va ular tutrisida kiskacha ma'lumot (manzili, raxbarlari, ish tajribasi, telefon rakamlari va fakslari), etkazib berish shartlari va kafolatlari, uskuna va texnologiyaning ishonchliligi, uskuna va texnologiyalarni

etkazib beruvchi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, ularning energiya va boshka resurslarni iste'mol qilishlik darajasi, texnologik kommunikatsiyaning saviyasi, ishlab chiqarish sifati va jarayoni, texnologiya va uskunaning rakobatbardoshligi va ularning xalkaro standartlarga sifat jixatdan mosligi, bahosi, talab etiladigan ishlab chiqarish maydoni va binosi, ularning tayyorligi, texnologiya va uskunalarining maxalliy xom ashyolarga mos kelishi, shartnoma mavjudligi holatida tashki iqtisodiy alokalar agentligi ekspertizasi xulosalari, uskuna va texnologiyaning mukobil variantlari bilan takkoslanganligi va afzalligi asoslanganligi, ularning texnik xujjatlari, kadrlarni ukitish va "nou-xau", kuril ish-montaj ishlari qiymati, extiyot kismlar va tashish xarajatlari qiymati kabilar mufassal ko'rsatilishi kerak.

14. Loyihani kreditlashda banklarning urni.

Mazkur bulimda loyihani amalga oshirishda uni moliyalashtiruvchi bankning urni, uning bir uzi yoki boshka kreditorlar bilan birgalikda karz oluvchiga kreditni takdim etishi, bank tomonidan urnatilgan shart-sharoitlar, talablar va karz oluvchi bilan tuzgan shartnomasi, kredit uchun takdim etilgan garovlar yoki mulkning sugurtalanganligi, maslaxat xizmatlari, uskunaning lizing asosida takdim etilishi, ustav kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalar kiska, lunda va mukammal ma'lumotlar tuplami asosida tayyorlanishi lozim.

15. Loyiha buyicha kafolatlar.

Unda kafolat turlari: mulk, uskuna, tovarlar, kafolat xati, sugurtalangan kreditlar va shu kabilar ko'rsatalishi zarur.

16. Loyiha kuvvati va uning yillar buyicha uzlashtirilishi.

Bunda loyiha kuvvatining nimaga asoslanib baholanganligi va ishonchliligi, uning yillar buyicha uzlashtirilish boskichi va muddati, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sotuvchilar bilan birgalikda rejalashtirilganligi kabilar tahliliy asosda aks ettirilgan bo'lishi talab tiladi.

17. Loyihadagi tayyor mahsulotning yillar buyicha sotilishi.

TIAning mazkur bulimida mahsulotning ichki va tashki bozorda sotilish tarkibi va tuzilishi, ularning baholari va olinadigan tushumlar, korxonada xar yilning oxiriga koldirilishi muljallangan tayyor mahsulot zaxiralari (kunlarda), sotiladigan mahsulot turlari va mahsulotlarning yillar buyicha sotilish xajmi rejasi ishlab chikilgan bo'lishi shart.

18. Loyiha buyicha xarajatlar.

Xarajatlar tarkibi mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun zarur bulgan ma'lumotlar tarkibidan tashkil topgan xolda ularning xom ashyo va materiallarga, ishchilar va ijtimoiy sugurta va boshka ajratmalarga, elektr energiyasi, gaz, suv va shu kabilarga, amortiza-tsiya ajratmalari, umumishlab chiqarish xarajatlariga, zaxiralarga, reklama va transport xarajatlariga hamda sotish xarajatlariga ajratilishi bilan yillar buyicha ketma-ketlikda va uzaro alokadorlikda ifodalanishi jadval ma'lumotlari asosida bajarilishi lozim.

19. Loyiha buyicha kredit tulovlari va foizlarning yillar buyicha hisob-kitobi.

Hisob-kitob ishlaridan avval kreditlash shartlarini, ya'ni kredit takdim etilish muddatini, kreditning davriyligi — qaytarilish shartlari, foizlarning qaytarilish shartlari va foiz stavkalari o'zgarishini bilib olish zarur. SHu asosda loyihada

asosiy karzlar va ular buyicha foizlarning yillar buyicha davriy hisoblanish va tulanish rejalari. jadval kurinishida aks etgarilishi lozim.

20. Loyiha buyicha daromadlar jadvali.

Avvalgi hisob-kitob ma'lumotlari asosida daromadlarning yillar buyicha tashkil topish rejasi jadval ma'lumotlari orkali aks ettiriladi. Daromadlar umumiy xolda hamda aloxida mahsulot turlari buyicha ichki va tashki bozorda sotilishi hisobiga xosil qilinishi nukgai nazaridan ham milliy, ham xorijiy valyutada aks ettirilishi zarur. Bunda daromadlar sotishdan tushgan tushumdan umumiy xarajatlarni, foizlarni va soliqlarni tulash ketma-ketligi va ularning natijasi sifatida olingan sof foyda kurinishida ifodalanishi lozim.

21. Loyiha buyicha joriy aktivlar va passivlarning, aylanma kapital (ishchi kapitali) ning hisob-kitobi.

Ushbu ma'lumotlarning barchasi jadvali kurinishda, umumiy xolda yillar buyicha tuzilishi lozim. Bunda ularning aloxida bandlari buyicha tegashli ma'lumotlar tushunarli tarzda aks ettirilishi, ya'ni kelib tushishi kutilayotgan tushumlar, debitorlik karzlari, tayyor mahsulot zaxiralari, joriy aktivlar, kreditorlik karzlari, joriy passivlar, sof ishchi kapitali va ularning o'zgarishi uzaro bog'liklik asosida berilgan bo'lishi shart.

22. Loyiha buyicha pul okimi hisob-kitobi.

Mazkur hisob-kitob yuqorida olingan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Unda soliq va foizlarni tulagungacha daromadlar va amortizatsiya ajratmalari, ishchi kapitalidagi o'zgarishlar, faoliyat buyicha pul okimi, moliyalashtirish manbalari (kreditlar, uz ka-pitali va boshkalar), kredit uchun asosiy karz va u buyicha foiz tulovlari, soliq tulovlari, taksimlanmagan foyda, investitsiyaga yunaltirilgan mablag'lar (foydadan ajratilgan), taksimlash fondlari, dividendlar va sof pul okimi ma'lumotlari ketma-ketlik va tartib asosida, jadval kurinishida rejalashtirilgan yillar buyicha ishlab chiqilishi zarur.

Loyihaning TIAsi yuqorida ko'rsatilgan tartib va bulimlar asosida amalga oshirilishi loyihaning yuqori sifat darajasini ta'minlashga xizmat kiladi va u karz oluvchilarga ham, karz beruvchilarga ham muayyan iqtisodiy samaraga erishishga imkon beradi.

Lekin shunday xollar ham kuzatilishi mumkinki, karz oluvchilarning loyiha TIA sini tayyorlashdagi bilim va tajribalarining etishmasligi, maxsus investitsion-konsalting va injiniring kompaniyalari xizmati doirasining torligi sababli TIA larning sifatsiz tayyorlanish xollari kuzatilishi mumkin. Undan tashkari, ayrim xollarda TIA buyicha hisob-kitoblarning bir tomonlama ishlab chiqilishi loyihaning amalga oshirilish imkoniyatlarini kiskartirishi mumkin. SHu sababdan investitsiya loyihalari buyicha TIA-larni tayyorlashda kredit muassasalari, loyiha tashabbuskorlari, konsalting va injiniring firmalarining uzaro hamkorlik qilish tizimini takomillashtirish, TIA da loyiha ishtirokchilarining uzaro kelishilgan manfaatlarini ta'minlashga erishish va uning hayotiyiligini yuzaga chiqarish masalalarini xal etish nafaqat TIA larning sifatida, shuningdek investitsiya loyihasing yuqori samaradorlikka erishishida muhim ahamiyatga egadir.

Mazkur matn buyicha umumiy xulosalar

1. Loyixdni texnik-iqtisodiy asoslash uning samaradorligi va afzalligini ta'minlash uchun olib borilgan izlanishlar natijasida olingan tahliliy ma'lumotlarni, baxrlash va hisob-smeta ko'rsatkichlarini, texnik va tashkiliy qarorlarni uzida mujassam etuvchi hisob-analitik xujjatlar tuplami hisoblanadi. Loyihani texnik-ikisodiy asoslashning maqsadi investitsiya loyihasining samaradorligini, hayotiyligini va yuqori daromad bilan ta'minlanganligini aniqlashdan iborat.

2. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslashning unga kuyilgan talablar asosida yuqori sifat bilan amalga oshirilishi loyihaning samaradorligini ta'minlash bilan birga uni amalga oshiruvchilar manfaatlarining to'g'ri hisobga olinishini ta'minlaydi. Lekin ayrim xollarda karz oluvchilarning loyihami texnik-iqtisodiy asoslashdagi bilim va tajribalarining etarli emasligi va tadkikrtlar uchun lozim bulgan ma'lumotlarni tulik, topish imkonining yukligi, loyihami ishlab chikish bilan shugullanuvchi maxsus tashkilotlarning bajargan ishlari uchun katta xak tulashga imkoni bulmaganligidan karz oluvchining loyihami mustakil ishlab chikishi va shu kabilar sababli texnik-iqtisodiy asoslash buyicha hisob-kitoblar bir tomonlama ishlab chiqilishi, bu esa uni amalga oshirish imkoniyatlarini kiskartirishi mumkin.

Uzini uzi tekshirish va takrorlash uchun savollar

1. Loyihani texnik- iqtisodiy asoslashning mazmuni va maqsadini tushuntirib bering.
2. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslash uzida kanday ma'lumotlarni mujassamlashtiradi ?
3. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslash tarkibi necha bulimdan iborat va bu bulimlarda nimalar aks etgarilgan bo'lishi lozim?
4. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslashning biznes-rejadan kanday farqlari mavjud?
5. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslash puxta ishlab chikilganligani kanday aniqlash mumkin?
6. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslash uchun kanday ishlar va ular bilan boglik, xarajatlar amalga oshiriladi?

Tayanch iboralar

Xarajat, Investitsiya oldi xarajatlari; Moliyaviy qarorlar; Korxona aktivlari; Joriy aktivlar; Sof aylanma kapital; Tugalanmagan ishlab chiqarish;

Adabiyotlar ruyxati:

- 1.L.Suxova...,N.CHernova .Praktikum po razrabotke biznes plana i finansovomu analizu predpriyatiya.Ucheb.posobie..M.:Finanso' i statistika,2001
- 2.Biznes plan. PRO Forma (na angliyskom yazo'ke). Material uchebnogo seminara,2001
- 3.Biznes-plan investitsionnogo proekta :Otechestvenno'y i zarubejno'y opo't.Sovremennaya-praktika dokumentatsiya.Uchebn.posobie.Pod.red.Popova V.M.,M.:2003.
- 4.Goremo'kin V.A.Nesterova N.V.Entsiklopediya biznes-planov Metodika razrabotki.75-realno'x obraztsov biznes-planov. M.:O 2003

12-Mavzu. Investitsiya loyihalarida xarajatlar tahlili.

Reja

- 1. Investitsiya loyiholari xarajatlarini baholashning umumiy holati**
- 2. Asosiy kapitalga investitsiya xarajatlari va sof aylanma kapital.**
- 3. Ishlab chiqarish va marketing xarajatlari tahlili.**

1. Investitsiya loyiholari xarajatlarini baholashning umumiy holati

Investitsiya loyihalarini baholashning tarkibiy kismi bo'lib, xarajatlarni mukammal va ishonchli baholash hisoblanadi. Tahlilda xarajatlarning barcha bulimlari chukur tekshirilishi lozim, chunki ular aynan loyihalarning moliyaviy jixatdan amalga oshishiga sezilarli ta'sir etishi mumkin.

Sezgarlik (xis etuvchanlik) tahlili xarajatlar tahlilining muhim tomonlarini ochib berishga imkon beradi, oxirgi tarkibiy tahlili esa xarajatlar tarkibi bo'lishi mumkin bulgan nomuvofiqlik va nobalanslilikni urganishga yordam beradi.

Xarajatlarni baholashga tayyorlash quyidagi boskichlarni uz ichiga kamrab oladi: investitsiya oldi, investitsiyalash (loyihaning amalga oshishi) va loyihani ishlatish (ekspluatatsiya). Ushbu boskichlarning xar birida unga muvofiq xoldagi xarajatlar, ya'ni boshlangich investitsiyaga, ishlab chiqarishga, marketing va sotishga, uskunaga, aylanma kapitaldagi extiyojlarga boglik xarajatlar hisobga olinadi. Baholashlar maxalliy va xorijiy tuzuvchilarga bulinishi lozim va doimiy yoki joriy (real va nominal ko'rsatkichlar) narxlarda kurib chiqilishi mumkin.

Boshlangich investitsiya xarajatlari asosiy kapital (investitsiya buyicha asosiy kapitalga xarajatlar ishlab chiqarish oldi xarajatlari) va sof aylanma kapital summasi buyicha aniqlanadi. Bunda asosiy kapital, inshoot va korxona uchun talab qilinadigan resurslarni uzida mujassam etadi, sof aylanma kapital esa uni tulik yoki kisman ishlatash uchun zarur bulgan resurslardan tashkil topadi. Loyihaning ishlatilish davridaga zarur bulgan investitsiyalarni loyihaning iqtisodiy hayotiylik muddati nuktai nazaridan kurib chikish lozim, chunki u investitsiyalarning ob'ektlari uchun (bino, mashina, uskuna va x- k.) turlichadir.

Ishlab chiqarish oldi xarajatlari — bu shunday xarajatlarki, ular loyihani tayyorlash va amalga oshirishning turli boskichlarida yuzaga keladigan xarajatlar va bular quyidagilar hisoblanadi:

- a) kimmatli kogozlarni chiqarish uchun boshlangich xarajatlar (bu korxonani ruyxatga olish va tashkil etishda yuzaga keladi);
- b) tadkikotlarni tayyorlash xarajatlari;
- v) boshka ishlab chiqarish oldi xarajatlari (masalan, safar xarajatlari, vaktinchalik inshootlarni barpo etish va x- k.);

- g) sinovdan utkazish va ishga tayyorlash hamda ishga tushirish xarajatlari;
- d) uskuna va kurilmalarni almashtirish xarajatlari;
- e) tugatish xarajatlari, ya'ni loyiha hayotiyligining oxirida asosiy kapitalni foydalanishdan chiqarish bilan boglik xarajatlar minus aktivlarni sotishda tushgan tushum.

2. Asosiy kapitalga investitsiya xarajatlari va sof aylanma kapital

Investitsiya buyicha asosiy kapitalga xarajatlar ,xarajatlarning asosiy jixatlarini uziga kamrab olishi lozim va ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:

- erni sotib olish, maydonni tayyorlash va uni yaxshilash;
- binolar va fukarolik kurilishi buyicha ishlar;
- ishlab chiqarish mashinalari va uskunalari;
- sanoat mulkchiligiga xukuk, "nou-xau" buyicha tulovlar va ruxsatnomalar.

Baholash uz ichiga uskunani etkazib berish, kadoklash, tashish, urnatish va montajga oid barcha xarajatlarni kamrab oladi. Investitsiya buyicha asosiy kapitalga tulik yillik xarajat rejalashtirilgan ishlab chiqarish darajasiga etmaguncha kurilishning xar bir davrida loyihalashtiriladi. Loyihani ish bilan ta'minlash uchun ishlatish boskichida talab qilinadigan barcha investitsiyalar- investitsiya buyicha asosiy kapitaldagi xarajatlar tarkibiga kiritilishi lozim.

Joriy aktivlarni baholash korxona faoliyatining maromiga etishganini aniqlashda muhim urin egallaydi. SHunga kura, joriy aktivlarni baholash:

- investitsion qarorlar qabul qilish;
- ishlab chiqarish qarorlarini qabul qilish;
- moliyaviy qarorlar qabul qilish;
- daromadlar, foyda va dividendlar to'g'risida qarorlar qabul qilish nuktai nazardan dolzarb hisoblanadi.

Boshkacha suz bilan aytganda, joriy aktivlarni baholash korxona faoliyatining zararsizligini ta'minlash dastagi hisoblanadi.

Korxona aktivlarini, xususan, joriy aktivlarni baholash ular holati va tarkibini urganish asosida aktivlarni boshkarish yuzasidan to'g'ri va aniql qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu esa kapital xarakatining uzluksizligi, doimiyliigi, tez aylanuvchanligi va samaradorligini oshirish buyicha ishonchli chora-tadbirlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. SHunga kura, korxona aktivlarini xar doim baholab borish, ularni samarali boshkarish orkali korxonada ishlab chiqarishning maromiyligini ta'minlash buyicha qarorlar qabul qilish uchun zarur ma'lumotlarni olishga xizmat kiladi. Uz navbatida olingan tahlil natijalari korxona kapitalini kupayishi, mavjud muammolarni ham aniql ko'rsatib beradi..Joriy aktivlarning tarkibi va zarurligini urganishda quyidagi ikkita asosiy tushunchalarni farklab olish zarur buladi:

1. YAlpi aylanma kapital – bu xom ashyo zaxiralari, tugallanmagan, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, kadoklangan materiallar, extiet kismlar, debitorlik karzlari, pul mablag'lari va kelgusi davr xarajatlari yigindisi.

2. Sof aylanma kapital - bu joriy akgivlardan joriy majburiyatlarni, ya'ni muddatli karzdorlik, kiska muddatligiga karamay, ayrim xollarda mijozlarning

depozitlaridan tashkil topgan kiska muddatli majburiyatlarning ayirmasidan xosil qilingan.

Korxonaning kelgusi faoliyatini loyihalashtirayotganda jami aylanma kapital kabi sof aylanma kapitalni ham baholash zarur hisoblanadi. Odatda ular korxona jami xarajatlarining muhim tarkibiy kismi sifatida talkin etiladi.

Bundan tashkari, turli soxalarda aylanma kapitalga talablar turlichaligini hisobga olmoq ham zarur. Masalan, kommunal loyihalar buyicha (energiya va suv ta'minoti), sanoat loyihalariga nisbatan aylanma kapitalga nisbatan kam darajadagi talablar kutiladi.

Sof aylanma kapital kiska muddatli majburiyatlarni hisobdan chiqarib tashlagan xolda joriy aktivlarni (tovar, moddiy zaxiralar summasi, tez sotiluvchi kimmatli kogozlar va x. k.) birlashtiradi.

Sof aylanma kapital investitsiya loyihasi uchun zarur bulgan boshlangich kapital kuyilmalarning ma'lum bir kismini uzida namoyon etadi, chunki u korxona ishlarini moliyalashtirish uchun talab etiladi. Kiska muddatli majburiyatlardagi yoki joriy aktivlardagi xar kandy o'zgarishlar, ya'ni ishlab chiqarish xajmining yoki tovar-moddiy zaxiralarining kupayishi yoki kamayishi moliyaviy extiyojlarga ta'sir etadi. Aylanma kapital uzok muddatli majburiyatlar yoki aktsiyadorlik kapitali evaziga moliyalashtirilishi lozim.

Investitsiya loyihalarini tahlil etishda boshlangich aylanma kapitaldagi extiyojlarni baholashda xarajatlar, shuningdek korxonani ishlatish davrida yuzaga keladigan o'zgarishlar hisobga olinganligi chukur tahlil etilishi lozim. Aylanma kapitalni doimiy va o'zgaruvchan (vaktinchalik) kapital sifatida tasniflash lozim. Doimiy aylanma kapital — bu talabni minimal (eng past) darajada kondirish uchun zarur bulgan tovar va xizmatlarni yaratishdagi talab etiladigan mablag'lar summasi. SHuni ta'kiddash joizki, doimiy aylanma kapitalni ifodalovchi mablag'lar xujalik jarayonini xech kachon tashlab ketmaydi.

O'zgaruvchan (vaktinchalik) aylanma kapital xar doim ham foydali kullanilavermaydi. Masalan, mavsumiylik xususiyatiga ega bulgan loyiha buyicha olib boriladigan faoliyat xosil yigimi mavsumida nisbatan kup o'zgaruvchan (vakginchalik) aylanma kapitalni talab etadi. SHuning uchun joriy aktivlarga vaktinchalik investitsiyalangan kapitalni (masalan, xosil yigimi davridagi paxta zaxirasi) xosil qilishda uning kaytishiga imkon beruvchi manbalardan olish lozim buladi (masalan, bank ssudasi va boshkalar).

"Sof aylanma kapital" tushunchasi aktivlarning xususiyati va summalarini aniqlashda ishlatiladi va bunda kiska muddatli majburiyatlarni tulashda kullaniladi. Karzlar tulangandan keyin keladigan summa kelgusi ishlab chiqarish extiyojlarini kondirish uchun ishlatiladi.

Agar analitik aylanma kapitalning doimiy va o'zgaruvchan kapital sifatida tasniflanishiga e'tirozli munosabati bulmasa, u xolda sof aylanma kapital aylanma kapitalning urtacha uzok muddatli darajasi sifatida kullaniladi va u urta yoki uzok muddatli moliyalashtirish yoki aktsiyadorlik kapitali hisobiga koplanishi lozim. Investitsiya aylanma kapitali summasi optimal bo'lishi, ya'ni jarima tulovlaridan saklanish uchun unchalik katta yoki kichik bulmasligi kerak ham emas. Aylanma kapital sinchkovlik bilan nazorat qilinishi va baholanishi kerak.

Debitorlar — mahsulotni sotish sharti sifatida xaridorlarga berilgan tijorat kreditlari, uz navbatida, bu bulimning xajmi ushbu firmaning kreditga nisbatan sotish siyosati bilan aniqlanadi. Yillik yalpi sotish xajmining qiymati sotilgan mahsulotga ketgan xarajatlardan (ya'ni, ishlab chiqarish xarajatlari marketing va sotish xarajatlari) amortizatsiya va foizlarni ayirish yuli bilan hisoblanishi lozim.

Tovar-moddiy qiymatliklari kerakli miqdordagi aylanma kapital miqdorini tashkil etishda muhim urin tutadi. SHu sababli aylanma kapitaldagi extiyojlarga tovar-moddiy zaxiralar shakli bilan boglik kapital summasi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tovar-moddiy zaxiralarini lozim topilgan eng past darajagacha tushirish vazifasi muhim masala hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, tovar-moddiy zaxiralari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish materiallari;
- tugatilmagan ishlab chiqarish;
- xom ashyo va yarim tayyor fabrikatlar;
- tayyor mahsulot va boshkalar.

Ishlab chiqarish materiallarini hisoblashda yordamchi ishlab chiqarish materiallari va xom ashyoni etkazib berish usullari va manbalariga e'tiborni karatish lozim.

Agar materiallar maxalliy bulsa va ular etarli miqdorda hamda uz vaktida etkazib berilsa, u xolda ularning faqat cheklangan zaxiralarini saklash lozim. Agar materiallar import qilinayotgan bulsa va ularni etkazib berish jarayoni uzok vakti talab etsa, unda moddiy zaxiralarning 6 oylik extiyoj darajasida ta'minlanganligini saklab turish lozim. Zaxiralar xajmiga boshka omillar ham ta'sir kiladi, ya'ni etkazib berishning mavsumiyligi va ishonchliligi, etkazib beruvchilar soni va kutilayotgan narxlarning o'zgarishi.

Ishlab chiqarishning maromiyligi ishlab chiqarish vositalari va texnikalarining uzluksiz va ishonchli ishlashiga kup jixatdan boglik. Ishlab chiqarish vositalari va texnikalarning bunday ishlashini ta'minlashda extiyot kismalarning urni kattadir. Extiyot kismal darajasi ushbu mintakadagi texnik xizmatlar ko'rsatish vositalariga, import jarayoniga va ularni etkazib berish imkoniyatlariga, shuningdek korxonaning faoliyatiga boglik. Odatda, korxona extiyot kismalarining boshlangich zaxira tuplami bilan ta'minlanadi.

Aylanma kapital holati va tarkibini baholashda tugallanmagan ishlab chiqarishni hisobga olish katga ahamiyat kasb etadi. Sababi, u aylanma kapital tarkibini tuldirsada, shu bilan birga ishlab chiqarishning yakuniga etishi uchun qo'shimcha aylanma mablag'larni ham talab etadi. Tugallanmagan ishlab chiqarishdagi xarajatlarni koplash uchun kapitaldagi extiyojlarni baholashda ishlab chiqarishning xar bir boskichidagi qayta ishlash darajasi va texnologik jarayon xar tomonlama tahlil etilishi lozim. Extiyoj ishlab chiqarishning xususiyatiga boglik xolda ishlab chiqarish oylari yoki kunlarida ifodalanadi. Masalan, mashina kurulishida bu muddat bir kancha oyga chuzishi mumkin, ozik-ovkat yoki engil sanoatda esa bir necha soatdan bir necha kungacha chuzilishi mumkin.

Baholash tugallanmagan ishlab chiqarishdaga umum-ishlab chiqarish ustama xarajatlariga asoslanadi. Ishlab chiqarishning mahsuli hisoblangan tayyor mahsulot aylanma kapitalini xosil qilish va tuldirishda markaziy urinni egallaydi. CHunki

uning sotilish bahosi, miqdori va tezligi aylanma kapitalning xarakati va tarkibiy o'zgarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Tayyor mahsulot zaxirasi bir kancha omillarga:

- mahsulot turi va xususiyatiga;
- savdo amaliyoti va boshkalarga boglik.

Baholash korxona xarajatlari qiymatiga ma'muriy ustama xarajatlarni kushgan xolda amalga oshiriladi.

Gazna va bankdagi nakd pullar aylanma kapitalning tarkibiy o'zgaruvchanligi va faol xarakatiga katta va eng tez ta'sir ko'rsatishi bilan aylanma kapitalning boshka tarkiblaridan ajralib turadi. Gaznadagi nakd pullar summasini kutilmagan holatlarda aylanma kapital zaxirasiga kushilgan xolda ham kurish mumkin. Bank hisob-rakamidagi pul mablag'lari korxonaning sof aylanma kapital zaxirasini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, xizmatlar, odatda, tulov yuz berayotgan davrda muayyan vaktga kreditga sotib olinadi.

Soliqlar tulovi buyicha tuplangan karzdorliklar ham aniql bir davr mobaynida tulanadi va tulov uchun hisoblarga uxshash boshka moliyaviy manba ham bo'lishi mumkin. Korxona ishchilariga tulanadigan ish xakiga taallukii tulovlar ham tegishlidir.

Kredit buyicha bunday tulovlar (kreditorlik karzlari) sof aylanma kapitalning talab qilingan summasini kiskartiradi.

SHuni tushunish muhimki, investitsiyalar uzok muddatli kuyilmalarni anglatganligi va shuning uchun ular uzok muddatli resurslar hisobidan (aktsiyador yoki karz mablag'lari) moliyalashtirilishi lozimligi sababli investitsiya bilan boglik kreditorlik karzlari aylanma kapitaldagi talablar hisob-kitobidan chiqarilishi lozim.

Sof aylanma kapitaldagi extiyojlarni hisoblashda kiska muddatli majburiyatlar va joriy aktivlarni koplash uchun minimal kunlar sonini aniqlash lozim. Undan keyin yillik umumishlab chiqarish va ishlatish (ekspluatatsiya) xarajatlarini hisoblash kerak, shuningdek sotilgan mahsulotga ketgan xarajatlar joriy aktivlarning bir kancha komponentlarining qiymati kabi ushbu ko'rsatkichlarda aks ettiriladi. Korxona tulik ishga tushirilishi sababli, aylanma kapitalga extiyoj kanchalik kupaysa, bunday xolda ishlab chiqarish boshlanishi davridan to tulik kuvvatga utishi uchun yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar hisoblanishi lozim. Agar korxona etarlicha nakd pul mablag'lari zaxiralarini barpo etgan bulsa (uzini uzi moliyalashtirish imkoniyatlari), unda tashki manbalar hisobidan aylanma kapitalning sof o'sishini moliyalashtirishdagi zaruriyatga barham beriladi. Korxonada joriy aktivlarning etarlshshgi kiska muddatli majburiyatlarni koplash imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. Kiska muddatli majburiyatlar va joriy aktiv komponentlari uchun mablag'larning aylanuvchanlik koeffitsientini aniqlash orkali mavjud axvol to'g'risida aniql natijani xosil qilish mumkin. Bu esa 360 kunni minimal koplanish kuniga bo'lish yuli bilan amalga oshiriladi. SHundan sung kiska muddatli majburiyatlar va joriy aktivlarning xar bir moddasi buyicha xarajatlar miqdori tegishli aylanuvchanlik koeffitsientiga bulinadi. Oxirida ishlab chiqarishning turli xil boskichlari uchun sof aylanma

kapitalga extiyoj joriy aktivlar summasidan kiska muddatli majburiyatlarni olib tashlash yuli bilan aniqlanadi.

Talab qilinadigan gaznadagi nakd pullar aloxida hisobga olinadi. Mavsumiy korxonalar (paxta, shakar, tomat ishlab chiqarish korxonalari va sh. k.) uchun aylanma kapital bir kancha boshka asoslarda hisoblanadi. Yil esa ish va ishsiz davrlarga bulinadi. Ish davri vaktida aylanma kapitalga bulgan talab odatiy asos buyicha hisoblanadi. Nomavsumiy davr uchun faqat doimiy xarajatlar saklanib kolishi bonk kerakli aylanma kapital kiskartirilishi lozim.

Birok ish mavsumi vakgida tovar-moddiy zaxiralari kupaytirilishi lozim, sababi aylanma kapitalga extiyoj usadi. Boshkacha aytganda, mavsumiy ishlab chiqarish xususiyatiga ega bulgan korxonalar ish davrida aylanma kapitalni jamgarishi va uni ishsiz davrda kiskartirishi lozim.

Mavsumiy korxonalar uchun aylanma kapital hisobi yillik bashoratdagi tulovlar va tushumlarga asoslanadi.

Texnik-iqtisodiy asoslash jarayonida loyiha kuruvchisini, investorni va moliyaviy tashkilotni loyihadan foydalanishni moliyalashtirish uchun zarur bulgan mablag'larni investitsiya mablag'lari bilan (ishlabchi-karisholdi xarajatlari va asosiy kapitalga investitsiya xarajatlari) takkoslagan xolda aylanma kapitalga bulgan extiyojni hisoblash juda muhimdir. SHuni ta'kidlash joizki, "sof aylanma kapital" terminini "joriy aktivlar" termini bilan almashtirmaslik lozim.

Umumqabul qilingan amaliyot bo'lib, joriy aktivlardan va kuyilgan kapital uchun foyda hisobidan, shuningdek doimiy ishlatiladigan kapital, ya'ni asosiy kapitalga kuyilgan investitsiyalar aylanma kapitalga mos keluvchi mablag'lar uchun diskontlashtirilgan real pul okimlaridan kiska muddatli majburiyatlarni ayirib tashlash hisoblanadi.

Balans hisoboti tarkibi

Aktivlar

Aktsiyador kapitali va zaxiralari

Doimiy kapital

Uzok muddatli majburiyatlar

Kiska muddatli majburiyatlar

Passivlar

Asosiy kapital

Ishlab chiqarish oldi xarajatlari

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Joriy aktivlar

Aylanma kapital hisob-kitobdagi mablag'lar

Asosiy kapitaldagi investitsiyalarni aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan, ishlab chiqarish oldi xarajatlaridan va rejalashtirilgan sof aylanma kapitaldagi ko'rsatkichlardan kelib chikib, kurilayotgan loyiha uchun tulik boshlangich xarajatlarni hisoblash mumkin. SHuni ta'kidlash joizki, tulik investitsiya xarajatlarini fazalar buyicha ajratishda, birinchi navbatda, boshlangich investitsiyalarni, undan keyin kurilish ob'ekti tulik kuvvatga chikkuncha buladigan barcha keyingi o'zgarishlarni kushish kerak.

3. Ishlab chiqarish va marketing xarajatlari tahlili

Loyihaning kelgusi hayotiyligini aniqlash uchun ishlab chiqarish xarajatlarining bashorati juda muhimdir.

Xarajatlar tarkibi va uning muhim moddalari tahlili, shuningdek uxshash loyihalarni tankidiy tarzda takkoslash investitsiyalarni moliyaviy jixatdan amalga oshirish bashoratlari va istikbolli xarakatlarini baholashning aniqligi va ishonchliligini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari tulik yillik xarajatlar kabi va mahsulot birligiga nisbatan nisbiy yillik xarajatlar sifatida hisoblanishi lozim.

Ishlab chiqarish xarajatlari loyihadan manfaatdor moliyaviy tashkilotlar va investorlar uchun gorizont rejalashtirishga mos keluvchi ishlatilish davri va kuvvatlardan foydalanishning turli xil darajalari buyicha aniqlanishi lozim. Tulik ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish uchun zarur bulgan xarajatlarning barcha elementlari rejalashtirishning butun davri va ishlab chiqarish dasturiga muvofiq xolda rejalashtirilishi va loyihalashtirilishi zarur.

Ishlab chiqarish xarajatlarining doimiy va o'zgaruvchan bulimlari va mahsulot ishlab chiqarishning rejalashtirilgan darajaga chikishidagi ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlab olgandan sung doimiy xarajatlarning, xakikatda, o'zgarishsiz kolishini nazarda tutgan xolda o'zgaruvchan xarajatlarni kuvvatlardan foydalanish foizlariga (darajasiga) proportsional ravishda o'zgartirib turish mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy miqdorini olish uchun barcha xarajat elementlarini birgalikda umumlashtirish lozim.

Umumishlab chiqarish va ma'muriy ustama xarajatlari summasi loyihaning ishlatilish (ekspluatatsiya) xarajatlari sifatida aniqlanadi. Ishlab chiqarish xarajatlari uz ichiga quyidagi mod-dalarni kamrab oladi:

- materiallar (asosan, o'zgaruvchan xarajatlar), ya'ni xom ashyo, asosiy va yordamchi ishlab chiqarish materiallari, extiyot kismlar;
- ishchi kuchi (ishlab chiqarishdagi xodimlar);
- ishlab chiqarish elementlari va mexnatning turlariga boglik xoldagi doimiy yoki o'zgaruvchan xara-jatlar;
- umumishlab chiqarish ustama xarajatlari (ya'ni, doimiy xarajatlar).

Amortizatsiya xarajatlari — bu xar yillik sof daromad (foyda va zararlar hisoboti) hisobotida aks etuvchi ajratmalar va ular asosiy kapitalning ishlab chiqarishda ishlatilishi xarajatlari xolida emas, aksincha, investitsiey faza mobaynidagi real pul chi-kimi uchun amalga oshiriladi. Ular uzlarini ishlab chiqarish yoki investitsiya xarajatlari sifatida namoyon etadilar.

Uz navbatida, sof real pul okimi sof daromadlar tutrisidagi hisobotlarda keltirilgan sof foydadan (soliq tulangandan keyingi) hisoblansa, amortizatsiya ajratmalari qayta kushilishi lozim.

Amortizatsiya ajratmalari kdnchalik yuqori bulsa, soliqka tortiladigan daromad shunchalik past bo'lishi va daromaddan olinadigan soliqka muvofiq real pul chikimi shunchalik kam bo'lishi sababli, amortizatsiya xarajatlari sof real pul okimlariga kuchli ta'sir etadi. Xarajatlar tarkibi va uning loyiha foydaligiga (investitsiyalar foydasi va tegashliche aktsiyador kapitali foydasi) ta'siri to'g'risida

tasavvurga egabo'lib, TIAdagi xarajatlarning turli xil elementlarining uzaro ta'siri quyida keltirilgan.

Real pul okimini tahlil qilish uchun xar yilgi xarajatlarni hisoblash etarlidir, lekin texnik-iqtisodiy asoslash uchun mahsulot ishlab chiqarishga nisbatan sotish baholari bilan takkoslashni engillashtirishda nisbiy xarajatlarni ham aniqlash zarur. Bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona loyihalari uchun nisbiy xarajatlar tayyorlangan mahsulotlar soniga ishlab chiqarish xarajatlarini bo'lish yuli bilan hisoblab topiladi.

Agar masala bir necha turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalardagi loyihalar ustida ketsa, unda xarajatlarning bevosita hisobini kullash va to'g'ri (bevosita) xarajatlar kabi mahsulot birligani tayyorlash va sotishdan tashkil topgan foydani ham hisoblash tavsiya etiladi.

Bunday foyda yigindisi bilvosita va ustama xarajatlarni, ya'ni aniql bir mahsulotga bevosita boglik bulmagan xarajatlarni koplash uchun xizmat kiladi. Nisbiy ustama xarajatlarni aniqlash uchun hisoblashning oddiy usuli — bu turli xil foiz ustamaları yordamida ishchi kuchiga qilingan bevosita nisbiy xarajatlar va materiallarga yilingan bevosita nisbiy xarajatlarning moddalari buyicha ustama xarajatlarning taksimlanishi. Ishlab chiqarishdagi xarajatlarni hisobga olishdagi ustamalar turli davlatlarda turlichadir. Davom etuvchi loyiha uchun ustamalar utgan yilgi ma'lumotlarga asoslanadi.

Ishlab chiqarish va marketing xarajatlari bevosita va bilvosita xarajatlarga bulinishi lozim. To'g'ri xarajatlar bevosita mahsulot birligiga taallukli bo'lib, ishlab chiqarish xodimlari va ishlab chiqarish materiallariga qilinadigan xarajatlar kurinishida aks ettiriladi.

Egri xarajatlarni (ishlab chiqarish va boshkaruv xarajatlari, shu jumladan, boshkaruvchilar va xodimlarni nazorat kiluvchilarning ish xaki, aloka vositalari xarajatlari va boshkalar) mahsulotning aniql birligiga bevosita olib borish mumkin emasligi sababli ularni, avvalo, xarajatlar markazi buyicha taksimlashga, sungra xarajatlar hisobini bajaruvchi bulinmalar tomonidan aniqllangan ustama yordamida ishlab chiqarishning ustama bahosiga kiritishga to'g'ri keladi.

Bevosita va bilvosita xarajatlar orasidagi chegaralanishlar xarajatlar moddalari va xarajatlar markazi urtasidagi alokani ko'rsatish uchun belgalanadi. Bu paytda ishlab chiqarish xajmi va xarajatlar moddalari urtasidagi aloka o'zgaruvchanlik (yoki o'zgarmaslik) kabi tavsiflanadi.

YUNIDO kullanmasida kutilayotgan nisbiy sotish bahosidan o'zgaruvchan nisbiy xarajatlarni chiqarib tashlash va sungra kolgan foydani ishlab chiqarilgan mahsulot birligi miqdoriga kupaytirish usuli kullaniladi.

Yillik foyda ushbu davr mobaynida yuzaga keluvchi barcha xarajatlarni, shuningdek investorlar tomonidan takdim etilgan etarlicha ortikchalikni (ortikcha chikimni) koplash uchun etarli bo'lishi lozim.

Investitsiya loyihalarida marketing xarajatlarini hisobga olishning aloxida ahamiyatli tomoni mavjud. Binobarin, xar kanday investitsiya loyihasini amalga oshirishda marketing tadbikotlari asosiy urinni egallaydi. Bunda unga qilingan xarajatlar tarkibi va miqdorini tahlil etish xarajatlarning to'g'ri tashkil etilganligini va utkazilgan tadbikotlarning samaradorligini aniqlashga imkon beradi. Zero,

ijobiy natijalarni aniqlash uchun keragicha qilingan xar kanday marketing xarajatlari kelgusida qo'shimcha xarajatlarning amalga oshirilishining oldini olish bilan birga qo'shimcha foyda keltirishi bilan ham uz samarasini ko'rsatadi.

Marketing xarajatlari uz ichiga marketing faoliyatidagi barcha xarajat turlarini kamrab oladi hamda bevosita va bilvosita xarajatlarga bulinishi mumkin. Bevosita marketing xarajatlari xar bir mahsulot uchun yoki mahsulotlar guruxi uchun olinishi mumkin. Masalan, saklash va kadokdash, savdo xarajatlari, sotish xarajatlari va xokazo. Bilvosita marketing xarajatlari esa marketing bulimining ustama xarajatlarini (bozor tadjikotlari, reklama va xokazo) aks ettiradi. Bu xarajatlarni tahlil etish xarajatlarni hisoblashning turli xil guruxlari buyicha, masalan, xududlar buyicha, iste'molchilarning muayyan kategoriyalari buyicha (ulgurji, chakana sotuvchilar, xukumat tashkilotlari va xokazo), mahsulotlar va mahsulot guruxlari buyicha taksimlanishini kuzda tutadi.

Marketing va sotish xarajatlari o'zgaruvchan xarajatlar bulganda ham ular muayyan davr xarajatlari kategoriyasiga taallukli buladilar va ular urin tutgan hisobot davri operatsiyalari uchun shunday hisobga olinadi.

Mazkur matn buyicha umumiy xulosalar:

1. Asosiy kapitalga xarajatlar investitsiya xarajatlarining asosiy kismini tashkil etganligi bois ushbu xarajatlar tahlilini chukur olib borish talab etiladi. Tahlil uz ichiga uskunani sotib olish va uni tashish, urnatish, sinovdan utkazish va boshka xarajatlarni kamrab oladi.

2. Korxona joriy aktivlarini baholash uning faoliyati maromiyligini aniqlashga va uni ta'minlash hamda joriy aktivlarni samarali boshkarish buyicha lozim bulgan qarorlarni qabul qilishga imkon beradi. Sof aylanma kapitalning joriy aktivlar tarkibida salmokli urin tutishi ishlab chiqarishning uzluksiz maromiyligini ta'minlash imkonini beradi. Sof aylanma kapitalga bulgan extiyojni aniqlab, uni ta'minlab turish korxonada joriy aktivlarni boshkarish maqsadga muvofiq yuritilayotganligidan guvoxlik beradi.

Uzini uzi tekshirnsh va takrorlash uchun savollar

1. Asosiy kapitalga investitsiya xarajatlari uz tarkibiga kanday xarajatlarni kamrab oladi?
2. Kurilish xarajatlari samaradorligani baholash kanday amalga oshiriladi?
3. Joriy aktivlarni tashkil etishning minimum miqdori kanday aniqlanadi?
4. Sof aylanma kapitalga talab kanday aniqlanadi?
5. Doimiy aylanma kapital deganda nimani tushunasiz?
6. Debitorlik karzi summasi kanday aniqlanadi?
7. Tovar-moddiy zaxiralar tarkibiga nimalar kiradi?
8. Ishlab chiqarish faoliyati mavsumiylik xususiyatiga ega kor-xonalarda aylanma kagshtalga talab kanday aniqlanadi?
9. Doimiy kapital tarkibi nimalardan iboratligini aytib bering.
10. Tulik investitsiya xarajatlari moddalarini sanab bering
11. Loyiha ishlab chiqarishini tashkil etish uchun talab etiladigan xarajatlar miqdori kanday aniqlanadi?
12. Turli xil assortimentdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga muljallangan korxonalarda xarajatlar kanday aniqlanadi?

13. O'zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlarining optimal varian-tini ishlab chikish kanday amalga oshiriladi?
14. Amortizatsiya ajratmasi summasining ishlab chiqarish xarajatlari va soliq tulovlariga ta'sir ko'rsatish darajalarini kanday takkoslash mumkin?
15. Marketing xarajatlarining tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering.
16. Sotish xarajatlari foydaga kanday ta'sir ko'rsatadi?
17. Reklama xarajatlarining foydalilik darajasini kanday izoxlash mumkin?

Tayanch iboralar:

Loyiha tsikli; Investitsiya imkoniyatlari; Loyihani ishlab chikish boskichlari; Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash; Mexnat resurslari; Dividend;

Tavsiya etiladigan adabietlar ruyxati:

- 1 .A.Juraev,D.Xujamkulov,B.Mamatov.Investitsiya loyihalari tahlili ./Akad.SHarifxodjaev M.SH.taxriri ostida./SHark,T.:2003, 256 b.
- 2.Biznes plan investitsionnogo proekta.Sovremennaya praktika i dokumentatsiya.Pod red.V.Popova.M.: Finanso' i statistika, 1997
- 3.L.Suxova.;N.CHernova .Praktikum po razrabotke biznes plana i finansovomu analizu predpriyatiya.Ucheb.posobie..M.:Finanso' i statistika,2001
- 4.Biznes plan. PRO Forma (na angliyskom yazo'ke). Material uchebnogo seminara,2001
- 5.Biznes-plan investitsionnogo proekta: Otechestvenno'y i zarubejno'y opo't.Sovremennaya.praktika.i.dokumentatsiya.Uchebn.posobie.Pod.red.Popova V.M.,M.:2003.
- 6.Goremo'kin V.A.Nesterova N.V.Entsiklopediya biznes-planov :Metodika razrabotki.75-realno'x obraztsov biznes-planov. M.:Os-89",2003
- 7.Biznes-plan .Metodicheskie materialo' .Pod red.N.A.Kolesnikovoy ,A.D.Mironova.M.: Finanso' i statistika,2004
- 8.Alan Vest . Biznes-plan. Ucheb.prakt.pos. Per.s angl.M.:Prospekt,2004
- 9.Barrou.K.Barrou.P,Braun.Biznes-planirovanie:Planovoe rukovodstvo M.: FAIR-PRESS,2003

13-mavzu. Moliyaviy tahlilning asosiy jihatlarini va investitsion qarorlar qabul qilish mezonlari.

Reja

1. Investitsiya loyihalarini moliyaviy tahlil etishning maqsadi va uning asosiy jixatlari.
2. Investitsion qarorlar qabul qilish mezonlari, loyihaning hayotiyliigi va gorizont rejalashtirish.

1. Investitsiya loyihalarini moliyaviy tahlil etishning maqsadi va uning asosiy jixatlari.

Investitsiya loyihalarini moliyaviy tahlil etish ularning samaradorligini ochib berishda markaziy urinni egallaydi. Moliyaviy tahlil loyihadan keladigan samara uning xar bir ishtirokchilarining uz maqsadlaridan kelib chikib, loyihani amalga oshirishdagi erishilishi lozim bulgan natijalarni kulga kiritish imkoniyatlarini ochib beradi.

Bozor isloxotlarigacha bulgan davrda, ya'ni markazlashtirilgan rejalashtirish tizimi amal kilgan paytda kapital kuyilmalarning samaradorligini baholash akademik T.S. Xachaturov ilmiy boshchiligida ishlab chikilgan uslub asosida amalga oshirilar edi. Buning asosida kapital kuyilmalarning iqtisodiy samaradorligani aniqlash tamoyillari samaradorlikning tarmok me'yor koeffitsienti yordamida takkoslama iqtisodiy samaradorlikni tashki hisoblash yuli bilan absolyut va nisbiy kurinishlardagi ularning koplanishini hisoblash usullari yotar edi.

Investitsiyani variatlarini tanlashda ham ushbu uslublarning uziga xos urni bor edi, lekin ular kattik dogmatik andozalar tizimi bilan chegaralangan edi. SHuning uchun ushbu uslublarda zarur bulgan ko'rsatmalar yuk edi, ya'ni bular: bozor iqtisodiyoti uchun muhim bulgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi noaniqlik va risklar, inflyatsiya sharoitidagi real va nominal qiymatlarni baholash va shu kabilardir. SHuningdek kapital kuyilmalarning samaradorligini aniqlashda, baholashda iqtisodiy, ijtimoiy va ayniqsa, marketing jixatlari hamda loyiha ishtirokchilarining manfaatlari etarlicha hisobga olinmas edi, pul okimi tahlili, balans tahlili, amortizatsiya hisobi va boshkalarga bulgan e'tibor uning uchun xos emas edi.

Yuqoridagi holatlarni hisobga olmaslik ma'muriy boshkarish davriga mos keladi, chunki unda davlat mulki xukmron hisoblanar va bu borada undan boshka manfaatdorlar yuk edi. Bundan tashkari, xar bir loyiha davlat tomonidan belgilangan dasturlar orkali moliyalashtirilar, loyihaning samaradorligi, kreditning qaytarilishi unchalik ahamiyatga ega emas edi. SHuningdek xususiy tadbirkorlikning mavjud bulmaganligi insonlarni mustakil bir ish qilishlariga va faoliyat olib borishlariga yul bermas edi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, investitsiya loyihasi, eng avvalo, ma'lum bir maqsadni kuzlagan xolda kupchilikning (loyiha ishtirokchilari va axolining) manfaatlarni e'tiborga olish bilan amalga oshirilishi lozim. Xozirgi iqtisodiy vaziyat, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishidagi vazifalar, investitsiya loyihasini amalga oshirishda bir necha manfaatlarning uzaro tuknash kelishi jaxon iqtisodiyotidagi eng etuk tajribalarni Uzbekiston iqtisodiyotining uziga xos xususiyatlarini hisobga olgan xolda joriy etish barcha soxalardagi kabi investitsiya loyihalari tahlilida ham uslubiy o'zgarishlarga erishishni takozo etdi va uni muhim vazifa sifatida kuydi.

Ushbu vazifani echishda mualliflar V. V. Berens, P.M. Xavraneklar ishlab chikan- "Rukovodstvo po otsenke effektivnosti investitsiy" kitobida investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda "YUNIDO" uslubiyoti keng tadjik etilgan bo'lib, bu uslubiyot loyihalarni tahlil etishda ahamiyatli urin tutadi. Ushbu uslubda u yoki bu loyihani moliyalashtirishda qarorlar qabul qilish, shuningdek investitsiya oldi tadjikotlari uchun muljallangan kapital kuyilmalarning samaradorligini baholashning jaxon tajribasi mutafassal yozilgan. Bularning

barchasi bozor tahlilining jixatlariga, shuningdek texnik-iqtisodiy asoslashdaga savollarga, ya'ni xom ashyo bazasini baholash, kurilish maydonini tanlash, loyihalashtirish va texnologiyalarni tanlash, investitsiya loyihalarini investorlarning uz mablag'lari evaziga, shuningdek tashki moliyalash manbalari evaziga moliyalashtirishni ta'minlash, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash (bular daromadlilikning ichki me'yori, sof diskontlashtirilgan daromad va x, k.) jarayonlariga tegishlidir.

Investitsiyalarni baholash uchun sharoitlar mavjud bulganda, loyihani tayyorlash moliyaviy va iqtisodiy tahlillar talablariga muvofiq xolda utkazilishi kerak.

Agar moliyaviy tahlil buyicha mutaxassis texnik-iqtisodiy asoslashni ishlab chikishning boshlangich boskichlarida ushbu jarayonga kuyilgan bulsagina, tegishli mutaxassis orkali moliyaviy tahlil loyiha ishlab chiqilishining boshidan boshlab kuzatib borishi mumkin buladi.

Investitsiyalash moliyaviy va iqtisodiy nukgai nazardan kelgusida investitsiyalarning umumiy boshlagich qiymatini oshiruvchi sof foydani xosil qilish va olish maqsadida barcha turdagi moliyaviy, iqtisodiy resurslarning uzok muddatga kuyilishi sifatida aniqlanishi mumkin.

Ushbu kuyilmaning asosiy jixati — bu moliyaviy resurslarni (ya'ni investorning uz va karz mablag'larini) investitsiyalar tomonidan ishlab chiqarish aktivlariga kuyilgan asosiy va sof aylanma kapitalga aylantirish.

Kelgusidagi sof foydaga kizikish loyihaga mablag' soluvchi xar bir ishtirokchi tomon uchun umumiy bulsada, kutilayotgan foyda yoki daromad xar xil baholanishi va fark qilishi mumkin.

YUNIDO uslubi buyicha moliyaviy tahlilning muhim jixatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- investitsiya qarorlarining asosiy mezonlari;
- kuyilmalarni baholash va loyiha kaytimi;
- loyihaning hayotiylik davri va uni gorizont rejalashtirish;
- risk, noaniqlilik va boshkalar.

Moliyaviy tahlilning maqsadlari va andozasi "investitsiyalash" suzining mazmuni bilan ma'lum bir ahamiyat darajasida aniqlanadi.

Investitsiyalash moliyaviy, iqtisodiy resurslarni kelgusida foyda olish yoki uni yaratish va ijtimoiy samaraga erishish maqsadida uzok muddatga iqtisodiy resurslarni kuyishdir.

Ushbu kuyilmaning asosiy jixati investorning uz mablag'larini investitsiyalash asosida ishlab chiqarish aktivlariga, shuningdek ushbu resurslarni ishlatish bilan yangi likvidlikni xosil qilishga o'zgartirishda namoyon buladi.

Yuqoridagilarni hisobga olish bilan "investitsiyalash" tushunchasi uziga xos aniqlilik kasb etadi, moliyaviy tahlil va loyihani sunggi baholash esa loyiha buyicha talab qilinadigan kuyilmalarni, kutilayotgan natijani, shuningdek kelgusi sof foydani tahlil etish va baholashni (qiymatini) kuzda tutadi.

Ushbu maqsad uchun kulllaniladigan usullar quyidagilardir:

- loyihaning bashorat qilinish xususiyatlari xakkoniyligining tahlili;

— investitsiyaning amalga oshuvchanligiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi jiddiy o'zgarishlarni aniqlash bilan loyihalashtirilayotgan xarajat va daromadlarning tarkibi va ahamiyatligini tahlil etish;

- investitsiyalardan keladigan daromad, ularning foydaliligi, samaradorligi orkali aks ettirilgan xar yillik xosil qilingan va jamgarilgan sof moliyaviy foydani aniqlash va baholash;

— vakt omilining kapital qiymati, baholar va noaniqlik sharoitida (aniql loyiha bilan boglik bulgan risklar) qabul qilinadigan qarorlar munosabatini hisobga olish.

SHunday kilib, moliyaviy tahlilning maqsadi va andozasi shundan iboratki, u investitsiyalash va moliyalashtirishdagi barcha savollarning echimi bilan boglik omillarni, shuningdek loyihadagi barcha moliyaviy okibatlarni tahlil kiladi va aniqllaydi.

Moliyaviy tahlilning asosiy jixatlari quyidagichadir: Birinchidan, sanoat investitsiya loyihalarining moliyaviy tahlili — bu saloxiyatli investorlar va loyiha yaratuvchilariga loyihadagi moliyaviy okibatlarni ko'rsatish uchun yoki asosiysi texnik xarajatlarni yoki loyiha takliflarini tugallash uchun loyihani ishlab chikishning oxirgi boskichlarida amalga oshiriladigan ajratiluvchi faoliyat emas.

Moliyaviy tahlil texnologiya va ishlab chiqarish kuvvati, loyihalashtirilayotgan korxonaning joylashgan joyi, resurslar, loyiha andozasi, marketing strategiyalarining moxiyati jixatidan aniqlanuvchi loyiha strategiyalarini ishlab chikish va turli xil mukobillarini kuzda tutishi lozim.

Ikkinchidan, moliyaviy tahlilni utkazish jarayonida qaror qabul kiluvchi shaxs investitsiyalarni baholash uchun turli xil mezonlarni kullashini ham hisobga olishi zarur. Bu analitikni shunday mezonlarni aniqlashga majbur kiladi va u investorlar talab kiladigan axborotlarni tayyorlash uchun unga muvofiq keluvchi usullarni tanlaydi. Masalan, investorlar past rentabellikda tezashtirilgan amortizatsiyani afzal kurishi mumkin yoki, xatto, kichik daromadlar sharoitida bosh rakobatchiga nisbatan bozordagi uz ulushini kengaytirishni xoxlashi mumkin, bunda uning strategiyami mavjud firmaning yuqori rentabelliligani ta'minlashga xizmat kilsa ajab emas.

Bu erda nafaqat katnashuvchi tomonlarning, balki jamiyatning ham kizikishini hisobga olish kerak. Jamiyatning kizikishi shundaki, bunda ular investitsiya jarayonida cheklangan resurslarning samarali ishlatilishi va mamlakatning rivojlanishiga inti-ladilar.

Kizikishlarni nazorat qilish uchun turli xil ma'muriy va fiksai tadbirlar kullaniladi. Bu tadbirlar ham ragbatlantiruvchi, ham chegaralovchi bo'lib, loyihani baholash va moliyaviy tahlil jarayonlariga kiritilishi va aniqlanishi lozim.

2. Investitsion qarorlar qabul qilish mezonlari, loyihaning hayotiyliigi va gorizont rejalashtirish

Kapital kuyishda foyda investitsiya qarorlarining bosh mezon bulsada, u sanoat investitsiyalarining bir-dan-bir yuli hisoblanmaydi, chunki moliyaviy resurslarni turli xil kimmatli kogoziarga ham joylash (solish) mumkin.

Birok sanoat loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslashlaridagi maqsadlar yulidagi investitsiyalash, nafaqat resurslarning uzok muddatga kuyilishi foyda

olishga yunaltilganligi sifatida, balki likvidlilikning ishlab chiqarish aktivlarida o'zgartirilishi sifatida ham aniqlanadi.

Sanoat investitsiyalari buyicha qabul qilinadigan xar kandy qarorlar investitsiya loyihalarining umumiy amalga oshishi bilan boglik bulgan quyidagi mezonlarga asoslanadi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy muxitga taallukli loyihaning asosiy (korporativ) maqsadi bilan rivojlantirish maqsadlari urtasida xozirgi va keyingi davr mobaynida kandydir bo'lishi mumkin bulgan karama-karshilik mavjudmi?
2. Loyihaning maqsadiga erishish uchun taklif qilingan loyiha va marketing strategiyalari kanchalik muhimligi, nima uchun taklif qilingan strategiya tanlandi, mukobil strategiyalar ham e'tiborga olinganmi?
3. Loyihaning tarkibi, ya'ni loyiha andozasi marketing kontseptsiyasi, shuningdek korxona tanlagan joylashish joyi kanchalik loyiha strategiyasiga va talab qilingan resurslarning mavjudligiga mos keladi?
4. Loyiha iqtisodiy resurslarni samarali ishlata oladimi, loyiha uchun talab qilinadigan asosiy resurslarni ishlatishning eng yaxshi variantlari bormi?
5. Loyihalashtirilayotgan barcha investitsion ishlab chiqarish va marketing xarajatlari ishonchlilik darajasidami va muvofiq keladigan chegaraga egami?
6. Loyiha hayotiyligining xar kandy davrida tulanadigan moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun milliy va xorijiy valyuta bilan etarlicha ta'minlangan — barcha investitsiya xarajatlari kapitalning mavjudligi bilan aniqlanuvchi moliyaviy chegaralarda yotadimi?
7. Jamgarilgan xar yillik va diskontlashtirilgan foyda gorizont rejalashtirishga loyiha tarkibi va ma'lumotlarni baholashdagi xatolarga, inflyatsiyaga, narxlarning nisbiy o'zgarishiga, shuningdek ishga alokador muxitning o'zgarishiga (rakobatchilar, iste'molchilar, bozor, mol etkazib beruvchilar va jamoat siyosatiga) kanchalik sezgir, real pul kirim-chikimlari va tegishli sof foyda tarkibi investorlar va moliyachilarning kuzlagan maqsadlari minimal talablariga mos keladimi?
8. Risklar mavjud sharoitda ularni nazorat qilish yoki boshkarish uchun kandy strategiya amal kiladi?
9. Risklarning moliyaviy natijalari kandy, ya'ni ular uzi bilan birga investitsion, marketing, ishlab chiqarish va moliyaviy xarajatlarga qo'shimcha xarajat-lar olib keladimi yoki yukmi, yo bulmasa, kutilayotgan ishlab chiqarish, sotish xajmini, sotish narxlarini pasaytiradimi?

SHunday kilib, investitsion qarorlar qabul qilishning asosiy mezonlari nimalardan iborat ekanligini kurib chikdik.

Investitsiya faoliyati sub'ektlari investitsiyalash xakida qarorlar qabul kilayotganda loyihalarining riskliligini, manbalarning joriy qiymatini, mukobil imkoniyatlarga kura loyihaning jozibadorligini e'tiborga olishi lozim. U bunday qarorga riskning makbul darajasida kutilayotgan daromadlilikning tahlili asosida keladi. SHu narsa mudxishki, investitsiyalash xakida qaror qabul qilinar ekan, asosiy e'tibor risklarni va kelgusi investitsiya daromadlilikini hisobga ola bilishga karatilishi zarur.

Investitsiyalash to'g'risida qaror qabul qilish uchun urganilayotgan ma'lumotlar majmuasi quyidagilardan tashkil topgan bo'lishi lozim:

- loyiha maqsadlari, uning muljali, iqtisodiy muxit
- marketing ma'lumotlari (sotish, rakobat muxiti, sotish dasturi va narx siyosati);
- moddiy xarajatlar;
- mexnat, ob-xavo, ijtimoiy va boshka omillarni hisobga olgan xolda korxonaning joylashuv joyi;
- kurilish ishlari to'g'risida ma'lumot;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshkarish;
- kadrlar masalasi;
- loyihani tashkil qilish jadvali;
- loyihani amalga oshirish davri buyicha moliyalashtirish xajmi;
- loyiha samaradorligini baholash.

Moliyaviy tahlil xarajatlar va daromadlar, aktivlar va passivlar buyicha tegishli tijorat ma'lumotlarni (shuningdek tegishli moliyaviy resurslar, xizmatlar va tovarlar okimi xakidagi ma'lumotlarni) tizimli tasavvur etish va qayta ishlashga asoslanadi. Xujalik faoliyati tahlili tizimi xar doim korxonaning moliyaviy holatini, ya'ni balans hisobotlaridagi aktiv va passivlari, xarajatlar, majburiyatlar (hisobot davridagi) va sof daromad buyicha hisobotda ko'rsatilgan daromadlarni aks ettiradi. Bundan tashkari, bu hisob tizimi ishlab chiqarish va marketing xarajatlarini aniqlash uchun ham muhimdir, ya'ni sof daromad buyicha hisobot tuzishda, shuningdek samarali moliyaviy rejalashtirish, mahsulotga bulgan narx kalkulyatsiyasi va xarajatlarni nazorat qilish uchun zarur.

Loyiha buyicha iste'mol etiladigan resurslar va ishlab chiqarilgan mahsulotlar fizik shaklga ega va bunda narxlar ularning qiymatlarini ko'rsatishda ishlatiladi.

Umuman olganda, texnik-iqtisodiy asoslashadigan maqsadlar uchun narxlar barcha gorizont rejalashtirishdagi ishlab chiqariladigan mahsulot va iste'mol etiladigan resurslarning real iqtisodiy qiymatini ko'rsatib berishi lozim. Narxlar (baholar) turli xil yo'llar bilan aniqlanishi mumkin, bu quyidagilarga boglik xolda yuz beradi:

bozor (aniql) yoki xufyona (noaniql) baholar bilan — absolyut yoki nisbiy baholar bilan;

joriy va doimiy baholar bilan. Bu narxlar nimani anglatadi va ular moliyaviy tahlilda kanday ishlatiladi?

Bozor baholari yoki aniql narxlar — bu talab va taklif yoki davlat tomonidan aniqlanishidan kat'i nazar bozorda yuzaga chikkan narxlar, boshkacha suz bilan aytganda, bu shunday narxlarki, bunda korxona ishlatiladigan resurslarni sotib oladi va mahsulotni sotadi.

Moliyaviy tahlilda bozor narxlari ishlatiladi. Lekin xarajat va daromadlarni iqtisodiy tahlil etish boskichida bozor narxlari ishlab chiqarilgan mahsulot va ishlatiladigan resurslarning real iqtisodiy qiymatini aks etgira oladimi? Agar shunday bulmasa, ya'ni bozor narxlari buzib ko'rsatilgan bulsa, bunday xolda iqtisodiy tahlil etish uchun xufyona (noaniql) narxlar ishlatiladi. Absolyut narxlar — bir mahsulot qiymatini absolyut pul miktsorida ko'rsatib beradi, bu vakgda nisbiy narxlar uning qiymati orkali boshka mahsulotning qiymatini ko'rsatib beradi.

Masalan, bir tonna kumirning absolyut narxi 100 ming sum deylik, neftning ekvivalent miqdori 300 ming sum. Bunda kumirning nisbiy narxi neftga qayta hisoblanganda 0,33 koeffitsientni xosil kiladi, bu degani neftning nisbiy narxi kumir narxidan 3 marta yuqoridir. Absolyut narx darajasi ishlab chiqaruvchanlikning o'zgarishi yoki inflyatsiya natijasida loyihaning amal qilish muddati davomida o'zgarishi mumkin. Bu o'zgarish nisbiy narxning o'zgarishiga olib kelmasligi ham mumkin. Boshkacha suz bilan bilan aytganda, nisbiy narxlar ayrim xollarda absolyut narxlar o'zgarganda ham o'zgarishsiz kolishi mumkin. Moliyaviy tahlil uchun esa absolyut narxlar ham, nisbiy narxlar ham juda muhimdir.

Joriy va doimiy narxlar inflyatsiya natijasida vakt mobaynida o'zgaradi, bu esa iqtisodiyotdagi narx darajasining umumiy o'sishi deb ham tushuniladi. Agar inflyatsiya resurslar qiymatiga bir kancha ahamiyatli ta'sir etsa va narxlar mahsulotga ta'sir ko'rsatsa, bunday ta'sirni texnik-iqtisodiy asoslashda kuzda tutilgan moliyaviy tahlilda kurib chikish lozim bula-di. Agar absolyut narxlar keltirilayotgan resurslarga va mahsulotga nisbatan barqarorligicha kolsa, bunda doimiy narxlarda

investitsiyalardan keladigan daromad va foydani etarlicha aniql hisoblash mumkin buladi. Agarda nisbiy narxlar o'zgarib tursa va mahsulot narx-lariga nisbatan ishlab chiqarishga kiritilayotgan resurslar bahosi oshsa yoki aksincha bulsa, u xolda ularning sof real pul okimiga va foydaga tegishli ta'sirlari moliyaviy tahlilga kiritilishi mumkin.

Inflyatsiya loyihani amalga oshirish fazasida, ayniqsa, yillik yirik miqdordagi inflyatsiya darajasini jilovlash maqsadida qo'shimcha aktsiyadorlik yoki karz mablag'lari evaziga moliyalashtirish talab etilishi mumkin bulgan sabablarda, xatto nisbiy baholar o'zgarmas bo'lib kolganda ham moliyaviy rejalashtirishda hisobga olinishi lozim. Giperinflyatsiya yuz berganda esa asosiy va aylanma kapitalni xar yili qayta baholash lozim buladi.

Aylanma kapitalni loyihalashtirishda maxalliy va import materiallarga, kommunal xizmatlarga, mexnat resurslariga va x.k.larga nisbatan turli xil risk darajalarini kullash lozim. Sotish bashorati, istikboli, sotish xajmining etarlicha loyihalashtirilmaganligiga kelsak, bunga narxlarning o'zgarishini oldindan to'g'ri kura olmaslik sabab buladi.

Qaror qabul kiluvchi shaxs uchun loyihani gorizont rejalashtirishni uzining loyiha bilan boglik xujalik faoliyati soxasini boshkarish va nazorat qilish buyicha qarorlar qabul qilish yoki uzining investitsiya yoki moliyaviy faoliyatini yulga kuyishga nisbatan vakt oraligi sifatida aniqlash mumkin.

Qaror qabul kiluvchi shaxs tomonidan aniqlanadigan gorizont rejalashtirish loyiha xdyotiyligini ham hisobga olishi lozim. Iqtisodiy xaet, ya'ni loyiha sof foydani yaratadigan davr, asosan, korxonaning asosiy texnik va texnologik xaet tsikliga, ushbu sanoat tarmoga va mahsulotning xaet tsikliga, shuningdek korxonaning uz faoliyatida ishga alokador muxitning o'zgarishiga moslashuvchanligiga boglikdir.

Loyihaning iqtisodiy hayotiy davrini aniqlashda turli xil omillarni baholashga to'g'ri keladi, bular kuydagilardir:

- talabning davomiyligi;
- xom ashyoni saklash va etkazib berishning davomiyligi;
- texnik yuksalish darajalari;
- bino va uskunalardan foydalanishning davomiyligi;
- mukobil investitsiyalash imkoniyatlari;
- boshkaruvdagi chegaralanishlar.

SHu narsa ravshanki, loyihaning iqtisodiy hayoti xech kachon uning texnik yoki yuridik hayotidan kup bulmaydi, u bundan kam bo'lishi lozim yoki unga teng bo'lishi kerak.

Loyihani rejalashtirishda faqat iqtisodiy hayoti ahamiyatli hisoblanadi. Investitsiya loyihalarni baholash jarayonida gorizont rejalashtirish bilan loyiha hayotiyligi urtasidagi alokadorlik, albatta, hisobga olinishi lozim.

Xulosa tarzida shuni kayd etish joizki, investitsion qarorlar qabul qilishda investitsiya loyihalarini baholash, tahlil qilish, tanlash va amalga oshirishning ilmiy asoslangan uslubiyotidan foydalanish muhim sanaladi. SHuningdek investitsiyalar xususida qarorlar qabul qilinishida ularni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash jarayonlarini shunday tashkil qilish kerakki, bunda ularning qiymatini minimallashtarish va joylashtiriladigan kapitalning foydaliligini oshirishga qodir manbalardan foydalanish yo'llarini baholash kerak buladi. Investitsion qarorlarning qabul qilinishi investitsiya kapitalining tuzilishi, uning muayyan vaqt davomida taksimlanishi hamda pulning joriy qiymatini hisoblashga imkon beruvchi diskontlash koefitsientlarini kullashni talab etadi.

Xulosa:

1. Moliyaviy tahlilning investitsiya loyihalarini samaradorligini aniqlashning muhim vositasi sifatida amal qilishi jixatidan uni Sobik ittifok davrida kapital kuyilmalar samaradorligini aniqlashdagi chegaralangan vazifalarga ega tahlildan farklash lozim. Bugungi tahlil investitsiyalarning samaradorligini aniqlashda loyihaning qo'shimcha foyda xosil qilish imkoniyatini, uni amalga oshirishdagi risklar va noa-nikliklar inflyatsiya ta'siri, iqtisodiy, ijtimoiy va boshka shart-sharoitlar, soliq, foiz va amortizatsiya siyosati ta'siri, marketing izlanishlari va loyiha ishtirokchilari manfaatini hisobga olish kabi jixatlari bilan uz afzalligini namoyon etadi. Ayniqsa, xozirgi zamonaviy baholash uslubiyotlari (masalan, YUNIDO uslubiyoti) loyihalarni ham moliyaviy, ham iqtisodiy baholashning qo'shimcha imkoniyatlarini ochib berish bilan baholash uslubiyotini takomillashtirishning naqadar muhimligini ko'rsatib bermoqdalar.

2. Investitsiya loyihasini moliyaviy tahlil etishning asosiy maqsadi loyihani investitsiyalashning maqsadga muvofiqligini aniqlashga imkon beruvchi savollarning echimiga ega bo'lish uchun barcha moliyaviy holatlarni baholashdan iboratdir.

3. Investitsion qarorlar qabul qilish loyihani amalga oshirishning asosini tashkil etadi va u bir kancha mezonlarga asoslanadi. Investitsiyalash to'g'risidagi qaror loyihaning maqsadga muvofiqligini tavsiflovchi tahliliy ma'lumotlarga asoslanib qabul qilinadi.

4. Investitsion qarorlar qabul qilishda asosiy ma'lumotlar bo'lib moliyaviy tahlil natijalar hisoblanadi. Moliyaviy tahlilning asosiy e'tibori qiymatga

asoslangan iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholashga asoslanganligi va ularga narxlarning jiddiy ta'sir ko'rsatishi bois loyiha buyicha narxlarni turli baholashning ahamiyati juda muhim hisoblanadi.

5. Loyihani aniql hisob-kitoblar asosida to'g'ri gorizont rejalashtirish uning hayotiyligi davrini aniqlashga imkon beradi. Bundan tashkari, loyihaning hayotiyligini aniqlashda yana bir qator omillar ta'sirini to'g'ri hisobga olish ham lozim. Loyihaning hayotiylik davri kanchalik uzok bulsa, undan olinadigan samara ham shunchalik yuqori bo'lishi mumkin.

Nazorat savollar

1. Investitsiya loyihasini moliyaviy tahlil etishniig zarurligi nimada va uning asosiy maqsadini tushuntirib bering.
2. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uslubiyotidagi kandy o'zgarishlarni bilasiz shuning sababi nimalardan iborat?
3. YUNIDO uslubiyoti buyicha investitsiya loyihasini moliyaviy taxpil etishning muhim jixatlarini sanab bering.
4. Moliyaviy tahlilni utkazishning asosiy jixatlarini tushun-tirib bering.
5. Loyihani moliyaviy baholash orkali kandy ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin?
6. Loyihani amalga oshirishda investitsion qarorlar kandy urin tutadi?
7. Investitsion qarorlarni qabul qilish nimalarga asoslanib amalga oshiriladi?
8. Investitsion qarorlar qabul qilish uchun kandy ma'lumotlarga ega bo'lish talab etiladi?
9. Narxlar turlarini aytib bering va ularning investitsion qarorlar qabul qilishga ta'sirini tushuntiring.
10. Loyihaning hayotiylik davri deganda nimani tushunasiz?

Tayanch iboralar:

Moliyaviy tahlil; Moliyalashtirish manbalari; Investitsiey qarorlar; Sof foyda; Loyihani hayotiylik tsikli; Absolyut narxlar; Giperinflyatsiya;

Adabiyotlar ruyxati:

- 1.L.Suxova.,N.CHernova .Praktikum po razrabotke biznes plana i finansovomu analizu predpriyatiya.Ucheb.posobie..M.:Finanso' i statistika,2001
- 2.Biznes-plan 'investitsionnogo proekta YUtechestvenno'y i zarubejno'y opo't.Sovremennaya praktika dokumentatsiya. Uchebn.posobie.Pod.red.Popova V.M.,M.:2003.
3. Goremo'kin V.A.Nesterova N.V.Entsiklopediya biznes-planov :Metodika razrabotki.75-realno'x obraztsov biznes-planov. M.:Os-2003
- 4.Biznes-plan .Metodicheskie materialo' .Pod red.N.A.Kolesnikovoy ,A.D.Mironova.M: Finanso' i statistika,2004

14-Mavzu. Biznes-loyiha, biznes-reja prezentatsiyasi.

Reja

- 1. Tayyorgarlik ishlarini turkumi. Xujjatlarni tasnifi.**
- 2. Prezentatsiya o'tkazishni protseduralari tasnifi.**
- 3. Prezentatsiya natijalari va keyingi bajariladigan ishlar turkumi.**

1. Tayyorgarlik ishlarini turkumi. Xujjatlarni tasnifi.

Prezentatsiya o'zi nimalardan tashkil topadi? Gap shundaki xo'jalik sub'ektlarni investitsion loyihasi yoki biznes-rejasi tayyor bo'lganidan keyin uni investor yoki kredit beruvchi bank mutaxasislari oldida takdimot sifatida prezentatsiyasini o'tkazish lozim. Prezentatsiya kuni belgilanganda unga korxona raxbari va mutaxasislari tayyorgarlik ko'rib faol katnashishlari kerak.

Prezentatsiya jarayonida korxona raxbarini o'zi o'z biznes-rejasini takdimotini o'tkazishi, so'zga chikib savollarga javob berishi kerak. Prezentatsiyada 20 minut vakt mobaynida raxbar tinglovchilarni diqqatini asosiy masalalarga karatishi lozim

Aksariyat prezentatsiyalarda asosiy masalalar o'z ichiga 7 asosiy yo'nalishni kamrab oladi:

- 1. Kompaniya(korxona) va uning mahsuloti;
- 2. Bozor, korxona mijozlari va rakiblari xarakteristikasi;
- 3. Korxona belgilagan marketing strategiyasini tasvirlash;
- 4. Birlamchi moliyaviy masalalarni tasvirlash;
- 5. Biznes-rejani amalga oshiruvchi komanda(xodimlarni) tasvirlash;
- 6. Kerakli ssuda(kredit) mablag'larini maqsadlarini asoslash birgalikda amalga oshiriladigan loyihalar bo'yicha katnashchilarni ulushini belgilab olish.
- 7. Investitsiyalar shartlari, to'lov muddatlari va amalga oshirilishi.
- Prezentatsiyani asosiy maqsadi potentsial investorlar bilan aloqa o'rnatish va mulokotda bo'lish, ularni ishonchini kozonish.
- Korxona biznes-rejasi bilan birgalikda ko'shimcha yana quyidagi xujjatlar talab qilinadi:
- Texnik-iqtisodiy asoslash(TIA);
- Korxona ustavi, ta'sis chilar shartnomasi;
- SHartnomalarni nusxalari;
- Korxona yillik hisobotlari;
- Boshka tegishli xujjatlar;

2. Prezentatsiya o'tkazishni protseduralari tasnifi.

Yuqorida ko'rsatilganlarni hisobga olgan xolda shuni aytib ko'yish lozimki prezentatsiyaga korxona rahbarlari va xodimlari puxta tayyorgarlik ko'rishlari lozim. Oldindan biznes-rejani nusxalarini ko'paytirib mas'ul xodimlarga tanishish uchun berish mumkin.

Prezentatsiya o'tkazishda chizmalar, grafiklar tayyorlash va ulardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Prezentatsiya samarali o'tishi uchun oldindan stsensariy tayyorlash va mutaxassislarni jalb etish kerak.

Biznes-reja prezentatsiyasi eng avvalo moliyalash uchun, investorlarni ishon tirish uchun kerak. Xar tomonlama puxta tayyorlangan biznes-reja investorni kizikishini uygotadi va sizni biznesingizni ishonchliligini kobiliyatingiz esa loyiha bajarilishini ta'minlashga qodirligiga investorlar ishonch xosil qilishi kerak.

Sizni prezentatsiyangiz nima uchun sizga ko'shimcha fondlar va moliyaviy mablag'lar keraklagini aniql ko'rsatib berishi lozim.

Prezentatsiyada tinglovchilar dikatini o'z mahsulotingizni bozori va xodimlaringiz guruxi kobiliyati yuqoriligiga karatish lozim.

3. Prezentatsiya natijalari va keyingi bajariladigan ishlar turkumi.

Asosiy prezentatsiya o'tib bo'lgandan keyin investor-aktsionerlar bilan ko'plab uchrashuvlar va muxokimalarga tayer bo'lish kerak.

Investorlar bilan yakindan tanishib, ular uchrashuvlar belgilasa, korxona biznes-rejasi yoki biznes-loyihani qaytatan ayrim bo'limlarini tuzatish yoki o'zgartirishlar kiritish kerak bo'lsa –barchasini tezda bajarish lozim va uchrashuvlarga katnashish kerak. Kerak bo'lsa investor-aktsionerlarni hamda bank xodimlarini korxonaga chakirib tanishuvlar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Test savollari.

1. Xududiy joylashishi bo'yicha investitsiyalar qanday bo'linadi?

- A) Davlatlararo.
- B) Mintaqalararo.
- V) Ichki va tashqi.
- G) Ichki.
- D) Tashqi.

2. Investitsiyalar mulkiy shaklidan kelib chiqib qanday bo'linadi?

- A) Mahalliy.
- B) Xususiy, davlat, qo'shma va xorijiy.
- V) Davlat.
- G) Viloyatni imkoniyatidan.

D) qo'shma.

3. Investitsiyalar tavakkalik darajasi bo'yicha qanday ajratiladi?

A) O'rta va kichik.

B) O'rta va qisqa.

V) Uzoq va o'rta.

G) YUqori va past.

D) Oylik va yillik.

4. Investitsion faoliyatda kreditlash printsiplari.

A) Olish.

B) qaytarish.

V) Kechiktirish.

G) Foizni qaytarish

D) qaytarmay foyda ko'rish.

5. Kredit formalari.

A) Bank krediti.

B) Xo'jalik krediti.

V) Uzoq va qisqa muddatli.

G) Aholi krediti.

D) Korxonalar krediti.

6. Investitsion faoliyatni kreditlashda kredit turlari.

A) Uzoq muddatli.

B) qisqa muddatli.

V) O'rta muddatli.

G) Bank krediti davlat va xalqaro.

D) Boshqa qarzlar.

7. Investitsiyalar qatnashish xarakteriga ko'ra qanday farqlanadi?

A) To'g'ri.

B) Egri.

V) To'g'ri va egri.

G) Daromadli.

D) Bevosita va portfelli.

8. Investitsiyalash davriga qarab nechtaga bo'linadi?

A) 6 oydan 2 yilgacha.

B) 2 yildan 5 yilgacha.

V) 4 yildan 20 yilgacha.

G) 1 yilgacha

D) 1 yil va 1 dan ko'pga

9. Investitsiyani lug'aviy ma'nosi.

- A) Kapital yig'ish.
- B) Kiyintirmoq, qo'ymok.
- V) Mablag'' yig'ish.
- G) Kapital qo'yilmalarni sarflash.
- D) Boyish.

10. Investitsiya sub'ektlari.

- A) Ishchilar.
- B) Xo'jalik yurutuvchilar.
- V) Investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, huquqiy shaxslar va davlatlar.
- G) Buyurtmachilar.
- D) Pudratchilar.

11. Investitsiya jarayoni ishtirokchilari.

- A) Investor.
- B) Kreditor.
- V) Korxona egasi.
- G) CHet el korxonasi.
- D) Davlat, kompaniyalar va xususiy shaxslar.

12. Investitsiyalash.

- A) Pulni qiymatini ko'paytirish va ijobiy daromad olish.
- B) Pulni sarflash va qaytarib olish.
- V) Teng daromad olish.
- G) Xarajatni qisqartirish.
- D) Mablag''larni tejash.

13. Kreditni ob'ektlari.

- A) Korxonalar.
- B) Tashkilotlar.
- V) TSexlar.
- G) Asosiy vositalarni sotib olish.
- D) Madaniy va maishiy ob'ektlar.

14. Kredit formalari.

- A) Bank krediti.
- B) Xo'jalik krediti.
- V) Uzoq va qisqa muddatli.
- G) Aholi krediti.
- D) Korxonalar krediti.

15. Bankda kredit nazoratini kim amalga oshiradi?

- A) Boshqaruvchi.

- B) Bosh buxgalter.
- V) Kassir.
- G) Militsiya xodimi.
- D) Kredit inspektori.

16. Investitsiya institutlari.

- A) Investitsiya o'qituvchilari.
- B) qimmatli qog'ozlar bilan bozorda faoliyat yurituvchi professional ishtirokchilar.
- V) Iqtisodiyot Universiteti kafedralari.
- G) Hokimiyat.
- D) Lizing kompaniyalari.

17. Investitsiya maslahatchilari.

- A) Sug'urta kompaniyalari.
- B) Lizing kompaniyalari.
- V) Korxonalar.
- G) Investitsiya institutlari.
- D) Maslahat faoliyati bilan shug'ulanuvchi investitsiya institutlari.

18. Investitsiya kompaniyalari.

- A) qimmatli qog'oz egalari.
- B) Mablag'' egalari.
- V) Bank.
- G) qimmatli qog'ozlar chiqarish, olish, sotish ishlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar.
- D) CHet el kompaniyalari.

19. Moliyaviy bozor tarkibiga qaysilari kiradi.

- A) Pul bozori.
- B) qimmatli qog'ozlar bozori.
- V) Kredit bozori.
- G) Kapital bozori.
- D) Barchasi kiradi.

20. Investitsiya muhiti deganda nimani tushunasiz?

- A) Mintaqadagi ob-havo.
- B) Valyutani erkin ayirboshlanishi.
- V) Xorij investorlarini kirib kelishi.
- G) Investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammolar va masalalarni yig'indisi.
- D) Davlatlarni joylashishi.

21. Investitsiya muhiti nechta omilga bo'linadi?

- A) Siyosiy, Iqtisodiy va ijtimoiy.

- B) Xorijiy.
- V) Mahalliy.
- G) Davlat.
- D) Korxona.

22. Investitsiya muhitidagi BERI indeksi nechta baholash mezonlariga bo'linadi?

- A) 10 ta.
- B) 12 ta.
- V) 15 ta
- G) 7 ta.
- D) 18 ta.

23. Portfelli investitsiyalar.

- A) Pul ko'rinishda
- B) Kapital ko'rinishda.
- V) Kapitalni daromad olish uchun aktsiya, obligatsiyalarni sotib olish.
- G) Bank kreditlari.
- D) Lizing operatsiyalari.

24. Bevosita portfelli investitsiyalar nechtaga bo'linadi?

- A) Transkontinental kapital qo'yilmalar va transmilliy qo'yilmalar.
- B) Pul
- V) Moliyaviy investitsiyalar.
- G) Real investitsiyalar.
- D) Maqsadli kreditlar.

25. Lizing jarayoni ishtirokchilari kimlar bo'ladi?

- A) Korxonalar.
- B) Tashkilotlar.
- V) Ishlab chiqaruvchi.
- G) Lizing beruvchi.
- D) Ijarachi.

26. Investitsion faoliyatda kreditlash printsiplari.

- A) Olish.
- B) qaytarish.
- V) Kechiktirish.
- G) Foizni qaytarish
- D) qaytarmay foyda ko'rish.

27. Investitsiyalash davriga qarab nechtaga bo'linadi?

- A) 6 oydan 2 yilgacha.
- B) 2 yildan 5 yilgacha.
- V) 4 yildan 20 yilgacha.
- G) 1 yilgacha
- D) 1 yil va 1 dan ko'pga

28. Investitsiyalash.

- A) Pulni qiymatini ko'paytirish va ijobiy daromad olish.
- B) Pulni sarflash va qaytarib olish.
- V) Teng daromad olish.
- G) Xarajatni qisqartirish.
- D) Mablag'larni tejash.

29. Investitsiya institutlari.

- A) Investitsiya o'qituvchilari.
- B) qimmatli qog'ozlar bilan bozorda faoliyat yurituvchi professional ishtirokchilar.
- V) Iqtisodiyot Universiteti kafedralari.
- G) Hokimiyat.
- D) Lizing kompaniyalari.

30. Investitsiya muhiti deganda nimani tushunasiz?

- A) Mintaqadagi ob-havo.
- B) Valyutani erkin ayirboshlanishi.
- V) Xorij investorlarini kirib kelishi.
- G) Investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammolar va masalalarni yig'indisi.
- D) Davlatlarni joylashishi.

IZOXLI LU/AT.

Investitsiya bu barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishidir.

Real investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) – pul mablag'larini korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat.

Moddiy investitsiyalar bu asosiy kapitalning elementlarini sotib olish bilan bog'liq bo'lib, ko'pchilik hollarda investitsion loyihalar doirasida amalga oshiriladi.

SHaxsiy investitsiyalar bu tadbirkorlar, xususiy firmalar, kontsernlar va aktsioner tashkilotlar tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlarga sarflanadigan mulkdorlik va intellektual boyliklarni anglatadi.

Investitsiya sub'ektlari – investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatdir.

Investorlar o'z mablag'i yoki jalb qilingan mablag' yordamida kapital qo'yilmalarni amalga oshiradi. Yuridik va jismoniy shaxslar, yoki ularning birlashmasi, davlat organlari va chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar investor bo'lishlari mumkin.

Buyurtmachilar - investorlar tomonidan investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun vakil etilgan yuridik va jismoniy shaxslar.

Pudratchilar - yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, ular buyurtmachilar tuzgan shartnomalar asosida ishlarni bajaradilar.

Kapital qo'yilma ob'ektlaridan foydalanuvchilar - bular yuridik va jismoniy shaxslar, hamda davlat organlari, mahalliy hokimiyat, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar bo'lib, ushbu ob'ektlar ular uchun yaratiladi.

Investitsiya jarayoni – pul taklif qiluvchilar (vaqtincha bo'sh mablag'larga ega bo'lganlar) ni pul talab qilayotganlar (ularga ehtiyoj sezayotganlar) bilan uchrashtirish mexanizmidir.

Moliyaviy institutlar – masalan, banklar va ssuda omonat assotsiatsiyalari – oddatda omonatlarni qabul qiladilar va keyin pulni kreditga beradilar yoki boshqa pul bilan mablag'larni investitsiyalaydilar.

Moliyaviy bozorlar – moliyaviy resurslarni taklif qiluvchilarni va ularga ehtiyoj sezayotlar oddatda fond birjalariga o'xshash vositachilar yordamida bitim tuzish uchun birlashtirish mexanizmidir.

Investitsiya jarayoni ishtirokchilari. Investitsiya jarayonining bosh ishtirokchilari – davlat, kompaniyalar va xususiy shaxslar bo'lib, ularni har biri investitsiya jarayonida talab tomonida, yoki hamda taklif tomonida turib ishtirok etishi mumkin.

Kompaniyalar. Amalda ko'pgina yirik kompaniyalar naqd pullarini boshqarishni faol va murakkab strategiyasini amalga oshiradilar va qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarni asosiy xaridorlari hisoblanadilar.

Xususiy shaxslar. Xususiy shaxslar investitsiya jarayoniga turli usular bilan: masalan, omonat hisoblarga pul joylashtirish, obligatsiya va aktsiyalar sotib olish, sug'urta polislari olish bilan pul etkazib berishlari mumkin.

Investorlar tipi. Ikki tipdagi investorlar bor: ular institutsional va yakka investorlar.

Institutsional investorlar - mutaxassislar bo'lib, ularga begonalarning pulini boshqargani uchun haq to'laydilar.

Yakka investorlar o'z moliyaviy manfaatlari uchun shaxsiy mablag'larini tasarruf etadilar. Yakka investor ko'pincha pensiyaga

Investitsiyalash. Maxsus tanlangan moliyaviy qurollarga pulni qiymatini ko'paytirish yoki ijobiy daromad olish maqsadida joylashtirish jarayonini investitsiyalash deb ataladi.

Investitsiyalashni ijodiy ahamiyati. bu xususiy shaxslar pullarni etkazib beruvchilar bo'lib hisoblanar ekan, davlat va kompaniyalar ularni sof xaridorlari hisoblanadilar, investitsiyalash jarayoni juda salmoqli natijalarga ega bo'ldi.

Investitsiya mukofoti. Bu investitsiyalash jarayoni bir tekis ketishi uchun pul etkazib beruvchilar mukofot olishi lozim, pul xaridorlari esa ushbu mukofotni ta'minlashlari lozim. Mukofot miqyosi va shakli qimmatli qog'ozlar bilan bitishuvlarni xilma-xilligiga bog'liq.

Investitsiyalashda xarajatlar ketma-ketligi. Amalda investitsiyalashga xilma-xil yondashuvlardan foydalaniladi. Ulardan biri aniq maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan xarajatlarni chuqur rejalashtirishdan iborat.

Investitsiyalash maqsadlarini belgilash. Investor dastlabki shartlarni bajarish va moliyaviy vazifalarni aniq belgilangan zahoti, u investitsiyalashni maqsadlarni daromadlilikni hohlagan darajasi bilan bog'liq vaqtini miqyoslarni, shakllarni va tavakallikni aniq darajasini belgilashi lozim..

Moliyaviy qurollarni baholash. Moliyaviy qurolni tanlashda oldin, uni qo'yish maqsadni nuqtai nazaridan baholash zarur. Baholash jarayoni natijasi muayyan qurolni aniq daromadlilik tavakkallilik va bahosi miqyoslari bo'lishi lozim.

Diversifikatsiya portfelini shakllantirish. Investitsiya portfeli – bu bir yoki bir qancha maqsadlarga erishishni mo'ljallab tanlanadigan moliyaviy qurollar yig'indisidir.

Portfelni boshqarish. bu faqatgina moliyaviy qurollarni maqbul tsig'indisini yaratish emas, balki uning orqasidan u yoki bu qurollarni haqiqiy dinamikasiga muvofiq portfel tarkibini o'zgartirish hamdir.

Investitsiya institutlari – bu qimmatli qog'ozlar bilan o'z faoliyatini asosiy faoliyat sifatida amalga oshiruvchi qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilaridir.

Investitsiya maslahatchisi – bu maslahat faoliyati bilan shug'ullanuvchi investitsiya institutidir.

Investitsiya kompaniyasi – bu qimmatli qog'ozlarni chiqarish, qimmatli qog'ozlarga mablag'lar sarflash, qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'zi hisobidan olish–sotish ishlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.¹⁷

Anderreytingning turlari. “qat’iy majburiyatlar asosidagi” anderryayting. Bunday sharoitda anderryayter aktsiyalarning butun nashrini yoki uning bir qismini qat’iy narxlarda joylashtirish bo’yicha qat’iy majburiyatlarga ega bo’ladi.

¹⁷ Biz investitsiya kompaniyasi, deb ataydigan muassasa amerika amaliyotida investitsiya banki, deb nomlanadi.

Investitsiya fondlari – bu jisimiy va yuridik shaxslar mablagʻlarini toʻplovchi hamda foyda olish, aktsiyadorlar xatarini kamaytirish maqsadida ushbu mablagʻlarni fond nomidan qimmatli qogʻozlarga, bank hisob raqamlariga va omonatlarga joylashtiruvchi tashkilotdir.¹⁸

Xususiylashtirish investitsiya fondlari. Xususiylashtirish investitsiya fond(XIF)lari investitsiya fondlarining bir turi hisoblanadi. Ular aholining keng qatlamini xususiylashtirish jarayoniga jalb etish maqsadida tashkil etiladi.

Talab deganda korxona va uy xoʻjaliklarini turli baho darajasida-foiz stavkasiga qaramay jami mablagʻ miqdorini qarzga olishga rozi boʻlgan holatni nazarda tutadi.

Taklif foiz stavkalarining har qanday darajasida investitsiyalarni qancha miqdorda mablagʻ bera olishga tayyor ekanligini koʻrsatadi.

Investitsiya talabi. Korxonalar tomonidan investitsiyaga boʻlgan talab yagona emas, ammo zayom mablagʻlariga boʻlgan talab pirovard talabning asosiy omili boʻlib hisoblanadi.

Bozorlar va usullar. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotidagi moliyaviy bozorning ustivor yoʻli iqtisodiy agentlarning jamgʻarmalarini yigʻishi va ushbu mablagʻlarni yangidan kapital yaratish uchun foydalanishdir.

Qimmatli qogʻozlar. qimmatli qogʻozlar moliyaviy bozorda savdo predmeti boʻlib hisoblanadi. qimmatli qogʻozlar bu meʼyoriy huquqiy talablarga muvofiq rasmiylashtirilgan, hujjat boʻlib, uning egasiga (yoki sohibiga) muayyan mulkiy huquqlarni taʼminlaydi va shu bilan birga qiymatga ega boʻladi.

Zayom olish usullari. Zayom olish usullari oldi-berdi munosabatlarini rasmiylashtiradi va qimmatli qogʻoz emmitentini uni egasiga (kreditlarga) belgilangan pul summasini qoʻllashni ifoda qiladi.

Veksellar. Veksel meʼyoriy talablarga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlarni ifoda qiladi, unga muvofiq bir tomon boshqasiga muayyan pul summasini toʻlash majburiyatini oladi.

Obligatsiyalar. Obligatsiyalar zayom oluvchilarni (emmitentini)va kreditlarni (investorni) munosabatlarini rasmiylashtiruvchi qimmatli qogʻoz boʻlib, emmitentini belgilab pul summasini kelishilgan vaqtda toʻlash shartini ifoda qiladi.

¹⁸ Biz investitsiya fondi, deb ataydigan muassasa amerika amaliyotida investitsiya kompaniyasi, deb nomlanadi.

Jamg'arma sertifikatlari. Jamg'arma sertifikati-bu bank tomonidan chiqariladigan va uni egasiga oldindan shartlashilgan vaqtda belgilangan summani olish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozdir.

Mulkiy huquqlar. Agarda firmani barpo qilish uchun ko'pchilik mulkdorlarni mablag'lari foydalaniladigan bo'lsa unday korxonani korporatsiya deb ataladi.

Oddiy aktsiyalar. Oddiy aktsiyalar korporatsiyaning mulkini bir qismiga egalik qilishi va firmani foydasini bir qismini olish huquqini berish bilan birga korporatsiyani boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

Devidend deb ataluvchi daromad aksionerlarga ularning qo'lidagi aktsiyalar soniga muvofiq to'lanadi.

CHatishgan usullar. qimmatli qog'ozlarni bir qancha turlari mavjud bo'lib, ular zayom va egalik huquqlari usullarining xususiyatlarini birlashtiradi. Ular imtiyozli aktsiyalar va konvertrlanadigan (almashadigan) obligatsiyalar.

Imtiyozli aktsiyalar. Imtiyozli aktsiyalar, oddiy aktsiyalar singari firmani, korxonaning kapitalini bir qismiga egalik qilish huquqini beradi, ammo uning egasi boshqaruvda ishtirok etish huquqini bermaydi.

Almashadigan (konvertrlanadigan) aktsiyalar. Almashadigan obligatsiyalar-uni egalarga ushbu korporatsiyaviy aktsiyalarini olish huquqini ta'minlovchi korporativ obligatsiyalarni alohida turidir.

qimmatli qog'ozlarni keltirib chiqaruvchilar. qimmatli qog'ozlarni keltirib chiqaruvchilar sifatida asos deb aytiladigan ba'zi real yoki moliyaviy aktivlar bo'yicha tuziladigan kelishuvlar, huquqlar va majburiyatlar qabul qilingan.

Foizlar – odatda bajarish muddati uzaytirilgan oldi-sotdi bitishuvlaridir.

Forvard bitimlari. Forvard bitimlari-kelgusi bitimda belgilangan oldindan gaplashilgan narx bo'yicha ma'lum miqdordagi ba'zi asosiy aktivlarni sotish, boshqa tomon esa sotib olish majburiyatiga muvofiq tuzilgan kelishuvlaridir.

Sug'urta kompaniyalari. Sug'urta kompaniyalari faoliyati mazmunini qisqacha tavakkal bilan savdo qilish deb tushuntirish mumkin.

Pensiya fondlari. Pensiya fondlarini investitsiya fondlarining maxsus turlari sifatida qarash mumkin.

Moliyaviy bozorlar. Hozirgi zamon tushunchasida moliyaviy bozorlar deganda moliyaviy aktivlarni savdosi tushunilib, unda savdoni aniq qoidalari, bozor

ishtirokchilarini mahorati va rivojlangan bozor infratartibi, kamchiqim va bitishuvlarni amalga oshirishni mustahkamligi mavjud bo'ladi.

Birlamchi va ikkilamchi bozor. Birlamchi bozor qimmatli qog'ozlarni emmitenti (ya'ni, investorlarga erkin sotish uchun qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi xususiy yoki davlat muassasi (tashkiloti) tomonidan birlamchi joylashtirish bo'yicha operatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Anderrayterlar vazifasini rivojlangan bozorlarda odatda, yirik investitsiya kompaniyalari, broker firmalari, hamda ko'pgina mamlakatlarda tijorat banklari ham bajaradilar.

Soliqqa tortish. Me'yoriy tartibga solish vazifalaridan tashqari moliyaviy bozorni amal qilishiga davlatni ta'sir qilish omili bo'lib soliqqa tortish hisoblanadi.

Investitsiya muhiti ob'ekt kategoriyasi bo'lib, har bir alohida olingan vaqt doirasida investorlar uchun haqiqatda mavjud bo'lgan shart-sharoitlar majmuasini aks ettiradi.

Banklar va moliya. Mamlakatda jahon savdosi va investitsiya sohasida foydalaniladigan barcha moliyaviy instrumentlar mavjudligi ushbu sohadagi xizmatlar sifatini anglatadi.

Bevosita investitsiyalar – bu kapitalni to'g'ridan-to'g'ri eksporti bo'lib, investitsiya kirituvchiga shu korxona ustidan nazorat qilish huquqini beradi.

Portfel investitsiyalar (portfolio investments) - shunday investitsiyalarki, bunda kapitalni daromad olish maqsadida korxonalarning aktsiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun sarflanadi.

Aksioner qimmatbaho qog'ozlari (equity securities) - bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, hujjat egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan mulkiy xuquqqa egaligini tasdiqlaydi;

Zayom qimmatbaho qog'ozlar (debt securities) - bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, zayom egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan munosabatini tasdiqlaydi.

Obligatsiya (bond) (oddiy veksel, qarz majburiyati) pulli dastak bo'lib, uning sohibiga kafolatlangan va qat'iy belgilangan pul daromadi yoki shartnoma asosida belgilangan o'zgaruvchan pul daromadini olish huquqini beradi;

Pul bozori dastaklari - pulli dastak bo'lib, uning sohibiga ma'lum bir davr ichida kafolatlangan va qat'iy belgilangan pul daromadi olish huquqini beradi.

Moliyaviy derivatlar (financial derivatives) – bozor narxiga ega bo'lgan pulli dastak bo'lib, uning sohibiga birlamchi qimmatbaho qog'ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi. Bularga opsiyonlar, fyucherslar, varrantlar, svoplar kiradi.

Nota (qarz majburiyati) (note) - qisqa muddatli (3-6 oy) pulli dastak bo'lib, bank bilan kelishuv asosida qarz oluvchining o'z nomiga chiqariladi, bozorda joylashtirilishi kafolatlanadi va sotilmagan notalar sotib olinadi, rezerv kreditlar bilan ta'minlanadi. Keng tarqalgan notalar – Evronotalardir.

Option (option)- shartnoma (qimmatbaho qog'oz) bo'lib, xaridorga ma'lum bir qimmatbaho qog'oz yoki tovarni belgilangan muddatdan so'ng yoki ma'lum bir davr ichida qat'iy belgilangan narxlarda sotib olish yoki sotish huquqini beradi.

Varrant (warrant) – opsiyonning bir turi bo'lib, egasiga belgilangan muddat ichida emitentdan imtiyozli sharoitda ma'lum bir miqdordagi aktsiyalarni sotib olish imkonini beradi.

Fyuchers (futures) –qimmatbaho qog'ozlarni, valyuta yoki tovarlarni belgilangan narx va kelajakdagi belgilangan muddatda sotish yoki sotib olish borasidagi bajarilishi majbur bo'lgan qisqa muddatli standart shartnomalardir.

Forward ko'rsi (forward rate)- asosiy qarz summasining ma'lum bir o'zgarish qismiga nisbatan belgilangan vaqtda to'lanadigan foiz stavkasining hajmi to'g'risida kelishuv bo'lib, u o'sha kundagi foiz stavkasidan past yoki yuqori bo'lishi mumkin.

Svop (swap) – savdo qoidalariga amal qilgan holda bitta qarzni to'lash bo'yicha ma'lum bir muddat o'tgandan so'ng shartlarni o'zgartirish bo'yicha bitim.

Operativ lizing. Lizingning bu turida ijaraga berilayotgan texnika uskunalarining ijara muddati ularning xizmat qilish muddatiga qaraganda qisqa bo'ladi.

Moliyaviy lizing. Bu lizing asosida o'zaro tomonlar imzolangan shartnomaga binoan, shartnoma muddati tugagandan so'ng ijarachi lizingga olingan uskunalarini qoldiq qiymati bo'yicha sotib olishi mumkin.

Renting. Mulkni bir kundan to bir yilgacha bo'lgan qisqa muddatga ijaraga berishni nazarda tutadi.

Xayring. Bunda mulk 1 yildan 3 yilgacha muddatga ijaraga beriladi.

Levedj-lizing. Bunda ijaraga berilayotgan uskuna va jihozlar narxining katta miqdori uchinchi tomondan, ya'ni investordan qarzga olinadi.

"Paketdagi" lizing. Mavjud ishlab chiqarish inshootlari va binolar kreditga berilib, zarur bo'lgan mashina va uskunalar esa ijarachiga ijara shartnomasi asosida beriladi.

Bevosita lizing. Bunda lizing kompaniyasi mijoz uchun uning buyurtmasi asosida mashina va uskunalarini ularni ishlab chiqarayotgan korxonalardan sotib oladi.

Sof lizing. Bunda ijaraga berilayotgan mulk va ularni ishlatishga sarflanadigan barcha qo'shimcha xarajatlar ijarachi zimmasiga yuklatiladi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston 1992 yil.
2. "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda qonuni -"Soliqlar va bojxona xabarlar" gazetasi.-1999 yil -№4.
3. "CHet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda qonuni.-O'zbekistonning yangi qonunlari.-1998 yil №19. 136-149-betlar.
4. "CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda qonuni.-O'zbekistonning yangi qonunlari.-1998 yil №19. 152-159- betlar.
5. "Xususiy korxona to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda qonuni.-"Soliqlar va bojxona xabarlar" gazetasi.-2004 yil 10 fevral. №6.
6. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 aprelda qonuni.-"Xalq so'zi" gazetasi, 2002 yil 28 may.
7. "Kredit uyushmalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 4 aprelda qonuni.-"Xalq so'zi" gazetasi, 2002 yil 4 may №95.
8. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 mayda qonuni.-O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2000. №5-6.
9. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2002 yil 9 yanvar, №6
- 10."Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2005 yil 15 aprel.
- 11."To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2005 yil 11 aprel.
- 12."Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2005 yil 14 iyun.
- 13."Mikrofimlar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyun.
- 14."Tadbirkorlik sub'ektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2005 yil 24 iyun.
15. "Xorijiy investitsiyali korxonalarni tashkil etish va faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 31.05.96 y.UP-1467 sonli
16. "Investitsiya loyihalarini amalga oshirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 19.01.98 y.

17. "Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirishni mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 09.02.98 y.
18. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" Toshkent-1995 y.
19. Karimov I.A. "qishlok xo'jaligi taraqqiyoti-to'kin hayot manbai" Toshkent-1998 y.
20. Karimov I.A. "Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz". T. 9.-T.: O'zbekiston. 2001 yil.
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2002 yilda mamlakatni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2003 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2003 yil 18 fevral, № 20 b.2.
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2003 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlar va 2004 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2004 yil 10 fevral, № 28 son b.2.
23. SHarp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s angl.- M.: INFRA- M, 1997. – 1024 s.
24. Abramov S.I. Investirovanie. M., 2000 g.
25. Blank I.A. Investitsionno'y menedjment. M., 2001 g.
26. Gosudarstvennoe regulirovanie ro'nochnoy ekonomiki: Uchebnik dlya vuzov / Pod obh. red. Kushlina V. I., Volgina N. A., redkol.: Vladimirova A. A. i dr. -, ZAO "Izdatelstvo "Ekonomika"", 2001. – 735 s.
27. Mertens V. Investitsii. Kiev, 2002 g.
28. Investitsionno'e protsessy v usloviyax globalizatsii.- M.: TEIS, 2002g.
29. Semyonov A.L. Investitsionniy analiz i otsenka effektivnosti proektov. CH.1. Uchebno-metodicheskoe posobie.- M.: Ekonomicheskii fakultet MGU, TEIS, 2002 g.
30. Jumaev N, Burxonov U. "Moliyaning dolzarb muammolari", Toshkent, "YAngi asr avlodi", 2003.
31. Vaxobov A, Burxonov U, Jumaev N. "CHet mamlakatlar moliyasi" Toshkent, "YAngi asr avlodi", 2003 y.
32. /ozibekov D./. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: Mehnat, 2003 y.
33. Valdaytsev S.V., Vorobev P.P. idr. Pod. Red. V.V. Kovalyova, V.V. Ivanova, V.A. Lyalina. Investitsii: Uchebnek.-M.: TK Venbi, Izd-vo Prospekt, 2003 g.
34. Endovskiy D. L. idr. Praktikum po investitsionnomu analizu. Uchebnoe posobie.-M.: FiS. 2003 g.
35. Kovalyov V.V. Metodo' otsenki investitsionno'x proektov M.: Finantso' i statistika, 2003 g.
36. Marenkov N.L. Osnovo' upravleniya investitsiyami: Uchebnik. -M.: Editorial URSS 2003 g.
37. CHerkasov V.E. Mejdunarodno'e investitsii: Ucheb. Posob. -2-e izd. Pererab. i dop.-M.: Delo, 2003 g.

38. Breyli R., Mayers. S. Printsipo' korporativno'x finansov, M.: Olimp-Biznes, 2004 g.
39. Don Patinkin. Dengi, protsent i tseno'. -M.: Ekonomika, 2004 g.
40. Efimova M.R. Finansovo-ekonomicheskie rascheto'. Posobie dlya menedjerov: Ucheb. Pos. -M.: INFRA- M, 2004 g.
41. Kovalev V.V. Uchet, analiz i byudjetirovanie lizingovix operatsii. Teoriya i praktika, -M.: FiS, 2004 g.
42. Malaxova N.G. Dengi, kredit, banki: Konspekt lektsiy. -M.: Prior, 2004 g.
43. Marenkov N.L. TSenno'e bumagi dlya studentov vuzov. Seriya Hpargalki Rostov n-D.: Feniks 2004 g.
44. Milyakov N.V. Finanso': uchebnek. 2-e izd.- M.: INFRA- M. 2004 g.
45. Napetova I. A. Analiz finonsovo xozyaystvennoy deyatelnosti: Ucheb. Metod. Posob. - M.: Forum i Infra-M, 2004 g.
46. Pugachev F.N. Valyutno'e rascheto' vo vneshney torgovle Rossiyskoy Federatsii: Uchebnoe posobie.- M.: IKTS Mart, Rostov n-D. Izd. TSentr Mart. 2004 g.
47. Vlinskiy P.L. ., Levshets V.N., Smolyak S.A. Otsenka effektivnosti investitsionno'x proektov: Teoriya i praktika: Ucheb. Posob.-3-e izd. Ispr. i dop. -M.: Delo 2004 g.
48. Evsanko O.S. hpargalka po investitsii. Ucheb. Posobie. -M.: TK. Velbi, 2004 g.
49. Kotayubov V.YU. Investitsionno'y potentsial xozyaystvennoy deyatelnosti: Makro ekonomicheskiy i finansovo-kreditno'y aspekto'. Ucheb pos. -M.: MGIMO-Universitet. 2004 g.
50. TSarev V.V. otsenka ekonomecheskoy effektivnosti investitsiy.- SPb.: petr, 2004 g.
51. Siddiqov A. Sanoat ishlab chiqarishiga yo'naltirilgan investitsiya mablag''lari samaradorligi. "Bozor, pul va kredit" jurnali , 2004 №7-8 sonlar.
52. Lizing munosobatlari nazariyasi va amaliyoti. I.f.d., professor D./ozibekov umumiy tahriri ostida .-T.: Fan va texnologiya, 2004 y.
53. Titov V.I. Analiz i diagnostika finansovo-xozyaystvennoy deyatelnost predpriyatiya: uchebnik. M.: Dashkov i K, 2005 g.
54. Kojuxar V.M. Praktikum otsenka investitsiy: Ucheb posobie. -M.: Izd. Torgovaya koorparatsiya. Dashka. 2005 g.
55. "Soliq va bojxona xabarleri" moliyaviy-iqtisodiy gazeta. O'zbekiston byudjet siyosatining ustuvorliklari. 2003 y. 28 avgust.
56. "Soliq va bojxona xabarleri" moliyaviy-iqtisodiy gazeta. O'zbekiston Respublikasining 2004 yilgi davlat byudjet to'g'risida. 2003 y. 11 dekabr.
57. "Soliq va bojxona xabarleri" moliyaviy-iqtisodiy gazeta. Ikkinchi chaqirik O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisning un ikkinchi sessiyasi to'g'risida axborot. 2003 y. 19 dekabr.
58. "Xalq so'zi". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning ETTB Boshqaruvchilar Kengashi yillik yig'ilishining tantanali ochilish marosimidagi nutqi. 2003 y. 5 may.
59. "Delovoy partner Uzbekistana" Investitsionno'y forum Uzbekistana 2003 g 6 may.

60. "Delovoy partner Uzbekistana" Pryamo'e inostranno'e investitsii v stranax vostochnoy evropo'. 2003 g 8 may.
61. "Investitsionny potentsial Uzbekistana" X. X. Imomov 3-y Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii g. Samara 20-21 noyabrya 2003 goda.
62. Soliq va bojxona xabarlar" moliyaviy-iqtisodiy gazeta. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning o'n ikkinchi sessiyasi to'g'risida axborot. 2003 y. 19 dekabr.
63. "Delovoy partner Uzbekistana" Investitsionno'y forum Uzbekistana 2003 g 6 may.
64. Sobolevskaya S.YU. Tamojennaya poshlina.-M.: Berator, 2003.-160 s.
65. "Delovoy partner Uzbekistana" Pryamo'e inostranno'e investitsii v stranax vostochnoy evropo'. 2003 g 8 may.

Qo'shimcha adabiyotlar.

1. Vlinskie P.L. , Levshets V.N., Smolyak S.A. Otsenka effektivnosti investitsiono'x proektov: Teoriya i praktika: Ucheb. Posob.-3-e izd. Ispr. i dop. - M.: Delo 2004 g.
2. Evsanko O.S. hpargalka po investitsii. Ucheb. Posobie. -M.: TK. Velbi, 2004 g.
3. Kotayubov V.YU. Investitsionno'y potentsial xozyaystvennoy deyatelnosti: Makro ekonomicheskii i finansovo-kreditno'y aspekto'. Ucheb pos. -M.: MGIMO-Universitet. 2004 g.
4. TSarev V.V. otsenka ekonomecheskoy effektivnosti investitsiy.- SPb.: petr, 2004 g.
5. Siddiqov A. Sanoat ishlab chiqarishiga yo'naltirilgan investitsiya mablag''lari samaradorligi. "Bozor, pul va kredit" jurnali , 2004 №7-8 sonlar.
6. Lizing munosobotlari nazariyasi va amaliyoti. I.f.d., professor D./ozibekov umumiy tahriri ostida .-T.: Fan va texnologiya, 2004 y.
7. Titov V.I. Analiz i diagnostika finansovo-xozyaystvennoy deyatelnost predpriyatiya: uchebnik. M.: Dashkov i K, 2005 g.
8. Kojuxar V.M. Praktikum otsenka investitsiy: Ucheb posobie. -M.: Izd. Torgovaya koorparatsiya. Dashka. 2005 g.
9. [Areferat.ru :: Investitsiya - \(leksi\)](http://areferat.ru/go/ref.php?id) <http://areferat.ru/go/ref.php?id>
10. [Investitsiya](http://www.nalogi.studentu.ru/index.phtml?uid) <http://www.nalogi.studentu.ru/index.phtml?uid>
11. [Investitsiya](http://cultinfo.ru/fulltext/1/001/008/002/555.htm). <http://cultinfo.ru/fulltext/1/001/008/002/555.htm>
12. [Investitsiya](http://fem.grsu.by/Kafedry/KD/academic_process) http://fem.grsu.by/Kafedry/KD/academic_process
13. Investitsionnie klimit <http://www.buh.ru/documents.jsp?ParentID>
14. Investirovanie http://skbkontur.ru/buhinfo/txt/kn_t1c.html
15. Investitsionnie klimit <http://lexaudit.ru/stat57.html>
16. Investitsionnie klimit. <http://www.ckat.ru/normdoc/pbu13/pbu13g2.htm>
17. Investirovaniya... <http://db.socionet.nw.ru/RuPEc/xml/rus/book-gp0675...>

18. Investirovaniya...<http://zakon.kuban.ru/doc/107n.shtml>
19. Investirovaniya nekommercheskix organizatsiyax -- Elektronno'e versii –Nashi izdaniya - Izdatelskiy d. http://financepress.ru/ourproducts_ev_bubno.htm
20. Investitsiya. Pr. pos. I. Tokarev. 2003. 504
http://www.bizbook.ru/detail.html?book_id
21. <http://books.iznutri.ru/books/m.php/74231.html>
22. www.uz – pervo'y sayt Uzbekistana - resurso' Uzbekistana
23. www.gov.uz – ofitsialno'y pravitelstvenno'y sayt Respubliki Uzbekistan
24. www.stat.uz/index.htm – sayt Gosudarstvennogo komiteta RU po statistike
25. www.mf.uz sayt Ministerstvo finansov Respubliki Uzbekistan.